

336(07)

M 40

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY  
VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

R.R. XUSAINOV, A.Q. ISXAQOV  
D.T. URMANOVA, X.Z. DJURAYEV

## MOLIYA VA SOLIQLAR II QISM (SOLIQLAR)

*O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tomonidan  
oliy o'quv yurtlarining 5230100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha),  
5230200-Menejment (sohalar bo'yicha), 5230400-Marketing  
(tarmoqlar bo'yicha) ta'lif yo'nalishlari uchun  
o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

Y/K 7195

TDIU

kutubxonasi

МУ

TOSHKENT  
«VORIS-NASHRIYOT»  
2014

UO'K: 336(075)

KBK 65.261ya7

X56

Taqrizchilar:

*Sultonxodjayev O.A.* – TTKI, moliya  
va iqtisodiyot ishlari bo'yicha prorektor, i.f.n.

*Alimxodjayev S.R.* – TDTU, «iqtisodiyot va marketing»  
kafedra professori, i.f.d.

Ushbu o'quv qo'llanma bakalavriatning 5230100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha), 5230200-Menejment (sohalar bo'yicha), 5230400-Marketing (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishlari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda soliqlarning iqtisodiy mohiyati, soliqlarning turlari, ularning obyekti va subyekti, hisoblash va budjetga o'tkazish tartibi, soliq turlari bo'yicha belgilangan imtiyozlar, soliqlarni to'lash muddatlari, shuningdek soliq tizimining makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri va shu kabi masalalar o'z aksini topgan.

O'quv qo'llanma oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiy va noiqtisodiy ta'lim yo'nalishlaridagi bakalavr talabalar, magistrlar, aspirantlar, o'rta maktab va kasb-hunar kollejlaridagi o'quvchilar hamda mutaxassislar soliqlar va soliqqa tortishga doir bilimlarini, malakalarini oshirishlari uchun mo'ljallangan.

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining jahon iqtisodiy hamjamiyatiga integratsiyalashuvi mamlakatda soliqlar va soliqqa tortish bilan bog‘liq munosabatlarni jahon amaliyotida qabul qilingan uslubiy tamoyillar bilan birligini ta’minlash, milliy ko‘rsatkichlarni ilg‘or rivojlangan mamlakatlarning tajribalari va ko‘rsatkichlari bilan qiyoslay olishni talab etadi.

Hukumatimiz tomonidan qabul qilingan respublikamizda barcha sohalarni iqtisodiy va moliyaviy jihatdan rivojlanishiga ko‘maklashuvchi dasturlar doirasida soliq yukini kamaytirish, soliqqa tortish tizimini yanada soddalashtirish kabi amalga oshirilayotgan choralar iqtisodiyot tarmoqlarini xo‘jalik yuritish tizimiga ta’sir o‘tkazishning qudratli omiliga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2013-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2014-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasida soliqqa tortish tizimidagi olib borilayotgan soliq siyosati xususida quyidagilarni bayon etdi: «Soliq yukini yanada kamaytirish, jumladan, yuridik shaxslar uchun foyda solig‘i stavkasini 9 foizdan 8 foizga, jismoniy shaxslar uchun eng kam soliq hajmini 8 foizdan 7,5 foizga tushirish iqtisodiyotimiz rivojida albatta muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday soliq yengilliklari 130 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ni tejash va uni korxonalar ixтиyorida qoldirib, ularning o‘z aylanma mablag‘larini ko‘paytirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash,

shuningdek, aholi daromadlarini 90 milliard so‘mdan ko‘proq oshirish imkonini beradi.»<sup>1</sup>

Ushbu ma’ruzadan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlarini barqaror rivojlantirish va aholini farovonligini yanada oshirishga doir ishlar keng ko‘lamda olib borilmoqda.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish davlatning soliq siyosatiga chambarchas bog‘liqligi aholini soliq sohasiga doir bilimga ega bo‘lishni taqozo etadi. Chunki soliqlar muayyan maqsadlarni ko‘zlashdan tashqari jamiyatning ijtimoiy farovonligini yaxshilashga ta’sir o‘tkazish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, ular vositasida aholining daromadlari darajasi boshqarib turiladi, kam ta’minlangan va yordamga muhtoj tabaqalar himoyalangan holda juda ko‘p daromad oluvchi tabaqalar daromadlarining salmoqli qismi budgetga jalb etib boriladi.

Jimladan, respublikamizda ta’lim tizimini yangicha tamoyillar asosida olib borishga doir qabul qilingan «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun hamda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»dagi belgilangan vazivalarni ijrosini samarali ta’minalashda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi va oliy o‘quv yurtlarida noiqtisodiy ta’lim yo‘nalishlarida ham soliqlar bo‘yicha maxsus fan sifatida ta’lim berilishi katta ahamiyatga egadir. O‘z navbatи bilan fanga doir ushbu o‘quv qo‘llanmada soliq sohasidagi chora-tadbirlar, soliqlarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati, soliqlarning turlari, ular bo‘yicha belgilangan imtiyozlar, ularni hisoblash, budgetga o‘tkazish tartibi va to‘lash muddatlari kabi masalalar yoritilgan.

O‘quv qo‘llanmadan oliy ta’lim muassasalarining iqtisodiy va noiqtisodiy ta’lim yo‘nalishlaridagi bakalavr talabalar, magistrilar, o‘rta maktab va kasb-hunar kollejlaridagi o‘quvchilar hamda barcha sohadagi mutaxassislar soliqlar va soliqqa tortishga doir bilimlarini, malakalarini oshirishda foydalanishlari tavsiya etiladi.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. 2014-yil yuqori o‘sish sur’atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘ladi. //manba: <http://www.lex.uz/news/144>).

## **I BOB. SOLIQLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA AHAMIYATI**

2, 2.

### **1.1. SOLIQ TUSHUNCHASI. SOLIQLARNING IQTISODIY MOHIYATI**

Soliqlar deganda Soliq kodeksida belgilangan, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg‘araz xususiyatga ega bo‘lgan, budgetga yo‘naltiriladigan majburiy pul to‘lovleri tushuniladi.<sup>1</sup>

Demak, soliqlar majburiy to‘lovni ifoda etuvchi pul munosabatlarini bildiradi. Bu munosabatlar soliq to‘lovchilar, ya’ni yuridik va jismoniy shaxslar bilan soliqni o‘z mulkiga aylantiruvchi davlat o‘rtasida namoyon bo‘ladi. Davlat soliq munosabatida mamlakatda yaratilgan ijtimoiy mahsulot qiymatini taqsimlash yo‘li bilan majburan davlat budgetiga mablag‘ to‘plash jarayoniga amal qiladi.

Soliqlar o‘ziga xos belgilarga ega bo‘lib, bu belgilar soliqlarning majburiyligi, davlat xazinasiga tushishi, qat‘iyligi va doimiyligi, aniq soliq to‘lovchi uchun ekvivalent sizligidan iboratdir.

Soliq va yig‘imlar majburiy bo‘lib, bunda davlat soliq to‘lovchining bir qism ‘daromadlari majburiy badal sifatida budgetga olib qo‘yiladi. Bu majburiylik Oliy Majlis tomonidan tasdiqlangan bolib, u Soliq Kodeksining qoidalari asosida amalga oshiriladi. Soliqlar davlat budgetiga tushadi va ular qat‘iy belgilangan bo‘lib, doimiy harakatda bo‘ladi.

Davlatga to‘langan soliq summasi to‘lovchining o‘ziga to‘liq qaytmaydi, ya’ni u ekvivalent sizlik pul to‘lovidir. Masalan,

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Rasmiy nashr – O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi. – T.: «Adolat», 2014. 2-bob, 12-modda, 8-bet.

soliq to‘lovchi joriy yili davlatning sog‘liqni saqlash va maorif xizmatlaridan foydalanmagan bo‘lishi mumkin. Lekin bozor iqtisodiyoti sharoitida hamma soliq to‘lovchilarning to‘lagan soliq va yig‘imlari davlatning ularga ko‘rsatgan xilma-xil xizmatlari, ya’ni mudofaa, xavfsizlikni ta’minlash, tartib-intizom o‘rnatish va boshqa ijtimoiy zaruriy xizmatlar orqali qaytadi. Soliq to‘lovchilar nuqtai nazaridan olganda, bozor iqtisodiyoti sharoitida hamma soliqlar davlatning ko‘rsatgan ijtimoiy xizmatlari uchun to‘lanadigan haqdir. Soliqlar budgetga kelib tushadigan, majburiy xarakterga ega bo‘lgan pul to‘lovi munosabatlaridir.

Soliqlar iqtisodiy kategoriya bo‘lganligi uchun bozor iqtisodiyoti munosabatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Bozor iqtisodiyoti erkin iqtisodiyotdir, ya’ni har bir jismoniy shaxs mahsulot(xizmat) ga erkin baho belgilashi, mahsulot yetkazib beruvchini o‘zi topish va sotish huquqiga ega. Shuning uchun davlat ularning bir qism daromadlarini taqsimlab budgetga oddiy ajratma sifatida ololmaydi. Soliq sifatida olish uchun Oliy Majlisning qarori zarur, ya’ni qonun bilan olingan to‘lov budgetga o‘tadi.

Soliqlar bu budgetga tushadigan pul (iqtisodiy) va qonun bilan belgilangan majburiy munosabatlardir. Bu munosabatlar soliq to‘lovchilar (huquqiy va jismoniy shaxs) bilan davlat o‘rtasidagi munosabatlarni ifoda etadi. Soliq to‘g‘risidagi qonunlar Oliy majlis tomonidan tasdiqlangan demokratik munosabatlardir. Soliqlar milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida uning bir qismini davlat ixtiyoriga olish shaklidir. Soliq davlatning markazlashgan pul fondi(davlat budgeti)ni tashkil etishning asosiy vositasi hisoblanadi.

Soliq mohiyatini yoritishda soliqchi va soliq to‘lovchilar o‘rtasidagi obyektiv pul munosabatlari harakatini o‘rganish bilan amalga oshiriladi. Soliqlar hamma pul munosabatlarini emas, balki soliq obyektlari – daromad, qiymatni taqsimlash, qayta taqsimlashdagi pul munosabatlarini bildiradi. Soliq o‘z mohiyatidan kelib chiqib uzoq yillarga mo‘ljallangan majburiylik munosabatlarini ifodalaydi.

Soliqlar pul munosabatlarini ifoda etib, bu munosabatlar bir tomonda davlat va ikkinchi tomonda soliq to‘lovchilar ya’ni, korxona, birlashma, tashkilotlar va aholi turadi. Bu munosabatlar davlat tomonidan tashkil qilinadi. Chunki soliqlar budgetga daromad bo‘lib tushadi, soliq to‘lovchilar uchun xarajat bo‘ladi.

Har qanday ishbilarmon ilgaridan qanday soliqlar to‘lashini bilishi kerak. Bizning respublikamizga xorijiy investorlarga soliq bo‘yicha imtiyozlar yaratilganligi uchun ular respublikamizdagi barcha sohalarga investitsiyalarini jalg etmoqdalar.

Soliqlar obyektiv taqsimlash munosabatlari orqali ijtimioy ishlab chiqarishning hamma jabhalarida qatnashadi va ishlab chiqarish munosabatlariga aylanadi. Shunday ekan, ular iqtisodiy bazisni ifodalaydi. Shuning uchun soliqlar orqali ishlab chiqarishni qiziqtirish, tovar ishlab chiqarish va iste’molni ko‘paytirish yoki ba’zi holatlarda kerak bo‘lsa, cheklash maqsadida foydalanish mumkin.

Respublikamizda hamma soliqlar markazlashgan pul fondiga (budgetga) tushadi. Undan davlat asosan ijtimioy himoya va boshqa ijtimoiy zaruriy maqsadlarda foydalanadi.

Shunday qilib, soliqlar davlat sarf-xarajatlarining asosiy mabai bo‘lib, u iqtisodiyotni tartibga solishning asosiy vositasidir.

Soliqlar eng avvalo, davlatning ijtimoiy zaruriy vazifalarni moliyaviy mablag‘lar bilan ta’minlashning zarurligidan shakllandi. Shuningdek, soliqlar davlat oldida turgan umumiyl vazifalarni bajarishga xizmat qiladi. Bu vazifalar quyidagilardan iboratdir:

- aholining kam ta’minlangan tabaqalarini (talabalar, nafaqa-xo‘rlar, nogironlar va boshqalar) ijtimoiy himoya qilish;
- mamlakat mudofaasini ta’minlash;
- mamlakat fuqarolarining tinch mehnat qilish va erkin yashash muhofazasini ta’minlash;
- mamlakat ichida uzluksiz ijtimoiy, madaniy tadbirlar (maorif, sog‘liqni saqlash, madaniyat, ijtimoiy ta’minot va boshqalar) ni amalga oshirish;

- xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqalarni o‘rnatish;
- bozor infrastrukturasiyi yaratish, boshqa tadbirlar va ishlarni amalga oshirish.

Bu vazifalarni amalga oshirish nihoyatda ko‘p moliyaviy resurslarni talab qiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bu resurslar soliqlar va yig‘imlardan tashkil topadi.

Soliqlar davlat budjeti xarajatlarini moliyalashtirishda mustahkamlikni, uzviylikni ta’minlaydi. Ular asosan har oyda va choraqlarda uzluksiz tushib turganligi sababli budget xarajatlarini ham moliyalashtirishning uzluksiz, hal qiluvchi manbaiga aylangandir. Soliqlarsiz budgetni rejali moliyalashtirishning iloji yo‘qdir. Shuning uchun ularning ahamiyati budget daromadlarini shakllantirishda beqiyosdir.

Demak, soliqlarning zarurligi bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat tomonidan iqtisodiyotni boshqarish uchun zarurdir. Shunigdek, soliqlardan davlat o‘z funksiyalarini to‘liq bajarish uchun, ya’ni ta’lim-tarbiya, milliy iqtisodiyotni yuksaltirish, aholi xavfsizligini ta’minlash va ularni ijtimioy himoya qilishda moliyaviy manba sifatida foydalanadi.

2,1

## 1.2. SOLIQLARNING FUNKSIYALARI

Soliqlarning asosiy mohiyatini ularning funksiyalari, ya’ni soliqlarning jamiyat va davlatning rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy yo‘naltiruvchi kuch ekanligini ochib beradi. Soliqlar bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir davlatda to‘g‘ridan to‘g‘ri budget munosabatlariga va shu bilan birqalikda imtiyoz, jarima tizimilari orqali esa tovar (xizmat) ishlab chiqaruvchilarga ta’sir etuvchi asosiy kuch sifatida ishlataladi.

Soliqlar orqali davlat o‘zining bir necha muammolarini hal qiladi, jumladan:

- jamiyatning mavjud ehtiyojlari va uni qondirish uchun zarur bo‘lgan resurslar o‘rtasidagi tenglikka erishiladi;

- tabiat boyliklaridan unumli foydalanish uchun jarimalar va boshqa turdag'i chegaralar qo'yish yo'li bilan tabiatga zararli bo'lgan ishlab chiqarishlarning tarqalmasligiga erishiladi;
- iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa ko'pgina turdag'i jamiyatning muammolari hal qilinadi.

Soliqlar fiskal, ijtimoiy (qayta taqsimlash), izga solib turuvchi, nazorat qiluvchi va jamlovchi funksiyalarni bajaradi: (1-chizma)

Tarixiy jihatdan soliqlarning birinchi bo'lib **fiskal funksiya-si** ko'rildi, chunki soliqlar yordamida davlat budgetiga mablag' tushishi ta'minlanadi.

**Soliqlarning ijtimoiy (qayta taqsimlash)** har xil daromadga ega bo'lgan aholini soliqqa tortish natijasida hosil bo'lgan jamiyat daromadlarini har xil toifadagi aholi o'rtasida qayta taqsimlashni o'z ichiga oladi.

Soliqlarning keyingi **izga solib turuvchi funksiysi** esa davlatning iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish davrida kelib chiqadi. U maqsadli ravishda hukumatning dasturlari asosida xalq xo'jaligining rivojlanishiga ta'sir etadi. Bunda davlat soliqlarning shakli, soliq

### Soliqlarning funksiyalari

|                                             |                                         |                                          |                                                                      |                                                                      |
|---------------------------------------------|-----------------------------------------|------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------|
| 1. Fiskal budjetni mablag' bilan to'ldiradi | 2. Ijtimoiy daromadni qayta taqsimlaydi | 3. Iqtisodiy munosabat larni izga soladi | 4. Nazorat qiluvchi soliq tizimida o'zgarishlar kiritishni aniqlaydi | 5. Nazorat qiluvchi soliq tizimida o'zgarishlar kiritishni aniqlaydi |
|---------------------------------------------|-----------------------------------------|------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------|

1-chizma. Soliqlarning funksiyalari

stavkalarining o‘zgarishi, undirish usullari, imtiyozlar va che-girmalardan foydalanib, tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini ajratib oladi. Soliq soliqlarni izga solib turuvchi funksiyasi yordamida davlat ishlab chiqarishga, uning natijasida hosil bo‘ladigan mahsulotga ta’sir etadi, bundan tashqari, faoliyat turlari va ishlab chiqarishning jamiyat uchun foydali bo‘lganlarini rag‘batlantiradi. Ko‘pgina davlatlar uchun bular quyidagi sohalarni, ya’ni xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, eksportga yo‘naltirilgan va import o‘rnini bosa oladigan tovarlar ishlab chiqarish, ilmiy-texnika rivojlanishini rag‘batlantirish, transport va boshqalarni rivojlantirishdan iboratdir.

Izga solib turuvchi funksiyaning asosiy ma’nosи bu iste’mol uchun yo‘naltirilgan resurslarni soliqqa tortib, ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun yo‘naltiriladigan resurslarni soliqdan ozod qilishdir.

Navbatdagi funksiya – **nazorat qilish funksiyasi** bo‘lib, u budjetga undirilayotgan soliq to‘lovlarini o‘z vaqtida va to‘liq tushishini nazorat qilish bilan birga, ularni moliyaviy resurslarga bo‘lgan talablar bilan taqqoslaydi. Soliq funksiyasi orqali soliq siyosatini budjet siyosatiga moslab olib borish zaruriyati aniqlanadi.

Bu funksiya davlatlar xo‘jaliklarining rivojlanishi natijasida milliy iqtisodiyotning o‘zaro munosabati va dunyo xo‘jalik hayotida har tomonlama integratsiya jarayonlarining kuchayishida namoyon bo‘ldi. *Soliqlar o‘zaro xo‘jalik va siyosiy manfaatlari bilan bog‘liq bo‘lgan davlat uchun yagona iqtisodiy maydonini tashkil etishda asosiy vosita sifatida xizmat qilmoqda.* ✓

Yuqorida keltirilgan soliq funksiyalari bir-biri bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, ular bir-biridan alohida holda mavjud bo‘lmaydi, ba’zi hollarda esa bir-biriga qarama-qarshi ham chiqadi. Masalan, fiskal funksiya ijtimoiy funksiyaga qarama-qarshi chiqadi, chunki ijtimoiy funksiya soliqlarning budjetga tushumini

kamaytiradi. Soliqlarning izga solib turuvchi funksiyasi yordamida davlat ma'lum bir faoliyat turidagi tadbirkorlarga yaxshi faoliyat yuritishlari uchun shart-sharoit yaratib beradi.

### 1.3. SOLIQ ELEMENTLARI

Soliq tizimi yetarli darajada murakkab bo'lib, u soliq turlari, soliq to'lovchilar, soliqni undirishni tashkil etish usullari va soliq imtiyozlaridan iborat. Ammo, soliq turlari turlicha bo'lishiga qaramasdan ularni bog'lab turuvchi elementlar mavjud. Soliq elementlariga quyidagilar kiradi: soliqqa tortish subyekti, soliq obyekti, soliq bazasini hisobga olish usuli, soliq stavkasi, soliqni hisoblash tartibi va to'lash muddatlari, undirish usullari, hisobot topshirish davri, soliq bo'yicha imtiyozlar va h.k.

Soliq va boshqa majburiy to'lovlar soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida soliq to'lovchilar, shuningdek ushbu soliq yoki boshqa majburiy to'lovlni hisoblab chiqarish va to'lash uchun zarur elementlar belgilab qo'yilgan taqdirdagina belgilangan deb hisoblanadi.

**Soliqlar va boshqa majburiy to'lovarning elementlari** – soliq solish obyekti, soliq solinadigan baza, soliqlar stavkasi, hisoblab chiqarish tartibi, soliq davri, soliq hisobotini taqdim etish tartibi va to'lash tartibi hisoblanadi.

Soliq kodeksida soliq yoki boshqa majburiy to'lov belgilanayotganda soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida soliq imtiyozlari va ushbu imtiyozlarning soliq to'lovchi tomonidan qo'llanilishi uchun asoslar nazarda tutilishi mumkin.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovarning elementlari har bir soliq yoki boshqa majburiy to'lovlarga tatbiqan belgilanadi.

Soliq kodeksining 25-moddasiga ko'ra, **soliq solish obyekti** – bu soliq yoki boshqa majburiy to'lovni hisoblash va to'lash bo'yicha majburiyatni keltirib chiqaruvchi mol-mulk, harakat, harakat natijasidir.

Soliq kodeksining 26-moddasiga ko‘ra, **soliq solinadigan baza** – bu soliq stavkasini tatbiq etib soliq hisoblaydigan soliq solish obyektining ko‘rsatkich qiymati, miqdori, fizik va boshqa tavsiflari.

Soliq kodeksining 27-moddasiga ko‘ra, **soliq stavkasi** – bu soliq solinadigan bazaga nisbatan hisoblanadigan soliq me’yori bo‘lib, bu meyor foizlarda yoki mutlaq summadagi miqdorda belgilanadi. Shuningdek, soliq stavkalari Soliq kodeksida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lmasa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi.

Soliq kodeksining 28-moddasiga ko‘ra, **soliq va boshqa majburiy to‘lovni hisoblab chiqarish tartibi** soliq davri uchun soliq solinadigan bazadan, stavkadan, shuningdek imtiyozlar mavjud bo‘lsa, shu imtiyozlardan kelib chiqqan holda, soliq va boshqa majburiy to‘lov summalarini hisoblash qoidalarini belgilaydi.

Soliq to‘lovchi tomonidan soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblab chiqarish mustaqil ravishda amalga oshiriladi yoki soliq va boshqa majburiy to‘lovni hisoblab chiqarish majburiyati davalat soliq xizmati organi yoki soliq agenti zimmasiga yuklatilishi mumkin.

Soliq kodeksining 29-moddasiga ko‘ra, **soliq davri** soliq solinadigan baza aniqlanadigan hamda soliq yoki boshqa majburiy to‘lov summasi hisoblab chiqariladigan davrdir.

Soliq kodeksining 30-moddasiga ko‘ra, **soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlari bo‘yicha imtiyozlar** – Soliq kodeksida, boshqa qonunlarda va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida nazarda tutilgan, boshqa soliq to‘lovchilarga nisbatan ayrim toifadagi soliq to‘lovchilarga beriladigan afzalliklar, shu jumladan soliq va (yoki) boshqa majburiy to‘lov to‘lamaslik yoxud ularni kamroq miqdorda to‘lash imkoniyatlariiga aytildi.

O‘zbekiston Respublikasining 30-dekabr 2009-yildagi O‘RQ-241-sonli Qonuni tahririga ko‘ra, mol-mulk solig‘i, yer solig‘i,

yagona yer solig‘i hamda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i bo‘yicha imtiyozlarni berish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshirilishi mumkin.<sup>1</sup>

Soliq to‘lovchilar soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlardan tegishli huquqiy asoslar vujudga kelgan vaqtdan e’tiboran ular amal qiladigan butun davr mobaynida foydalanadilar.

Soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar bo‘shagan mablag‘larni muayyan maqsadlarga yo‘naltirish sharti bilan berilishi mumkin. Bunday mablag‘lardan belgilanmagan maqsadda foydalanilgan taqdirda, belgilanmagan maqsadda foydalanilgan summa o‘rnatilgan tartibda penya hisoblangan holda budjetga undirib olinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, uning Qoraqpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi bosh boshqarmalari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining muassasalari Soliq kodeksida nazarda tutilgan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan ozod qilinadi, yagona ijtimoiy to‘lov bundan mustasno.

#### 1.4. SOLIQ IMTIYOZLARINING TURLARI

Imtiyoz deganda soliq to‘lovchilarning ayrim toifalariga boshqa soliq to‘lovchilar bilan qiyoslaganda soliqlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan afzalliklar berilishi, shu jumladan soliq (yig‘im) to‘lamaslik yoxud kam hajmda to‘lash imkoniyati tushuniladi.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Rasmiy nashr – O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi. – T.: «Adolat», 2014. 3-bob, 30-modda, 26-bet.

Soliqlar bo'yicha imtiyozlar avvaldan iqtisodiyotning ustuvor yo'nalisharini qo'llab-quvvatlash maqsadida qo'llanilgan. Misol uchun, XIV asr Amir Temur davrida imtiyozlar yangi yer uchastkalarini o'zlashtirish maqsadida qo'llanilgan. Amir Temur tomonidan quyidagi tizim ishlab chiqilgan: yangi sug'orilmaydigan yerkarta ekin ekib, u yerkarta ekishga moslashtirgan dehqonga birinchi yili olgan daromadini soliqlardan to'liq ozod qilingan, ikkinchi yili o'zi to'lay oladigan qismini to'lagan, uchinchi yildan boshlab esa umumiyligi belgilangan tartibda soliq to'lay boshlagan. Imtiyozlarni belgilash bilan hukumat respublika ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishi nuqtai nazaridan lozim bo'lgan ishlab chiqarish va ustuvor yo'nalishdagi tarmoqlarni belgilab beradi. Ammo, bir tarmoq ichida individual korxona yoki tashkilotga imtiyoz berish esa bozor munosabatlari va soliq siyosatiga qarama-qarshidir. Imtiyoz berishning bunday usuli soliq to'lashning majburiyligi tushunchasiga teskari bo'lib, soliq tizimining yemirilishiga olib keladi.

Soliq imtiyozlari imtiyozning **subyektga** (konkret soliq to'lovchiga imtiyoz berish) va **obyektga** (soliq solish bazasidan konkret obyekt chiqarilib tashlanishi) berilishiga qarab ikkiga bo'linadi:

- 1) Soliq subyektlarini soliq solishdan ozod qilish;
- 2) soliq solinmaydigan soliq obyektlari.

Soliq imtiyozlari buxgalteriya hisobida ko'rsatilishiga qarab uch toifaga bo'linadi:

- 1) doimiy imtiyozlar;
- 2) vaqtinchalik imtiyozlar;
- 3) maqsadli imtiyozlar (ular doimiy ravishda yoki vaqtinchalik ravishda berilishi mumkin).

Hozirgi kunda soliqqa tortish obyekti bo'yicha, imtiyozlarni uch xil guruhga bo'lish mumkin: chiqarib tashlash, soliq krediti va chegirma. (2-chizma)

| SOLIQ IMTIYOZLARI    |                                                              |             |
|----------------------|--------------------------------------------------------------|-------------|
| 1. Chiqarib tashlash | 2. Soliq krediti                                             | 3. Chegirma |
|                      | 2.1. Soliq stavkalarini pasaytirish                          |             |
|                      | 2.2. Soliq summasini qisqartirish                            |             |
|                      | 2.3. Soliq to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash |             |
|                      | 2.4. Avval to‘langan soliqni qaytarish                       |             |
|                      | 2.5. Avval to‘langan soliqni hisobga olish                   |             |
|                      | 2.6. Investitsiya soliq krediti                              |             |

## 2-chizma. Soliq imtiyozlari

Soliq imtiyozi sifatidagi **chiqarib tashlash** u yoki boshqa soliqning ayrim soliqqa tortish obyektlari (predmetlari)ni soliqqa tortishdan holi qilishga yo‘naltirilgan. Masalan, urush nogironlari va qatnashchilarining uy-joy, bino va inshootlariga jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig‘idan ozod etilgan.

Soliq krediti budgetga to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasini yoki soliq stavkasini kamaytirishga yo‘naltirilgan (odatda *oklad summasi* yoki *soliq okladi deb atashadi*). Soliq krediti doimiy yoki vaqtinchalik berishga asoslangan bo‘ladi.

Soliq kreditlari berilish shakliga qarab quyidagi turlarga bo‘linadi:

- 1) *soliq stavkasini pasaytirish;*
- 2) *budgetga to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasi (oklad summasi)ni qisqartirish;*
- 3) *soliq to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash;*

4) *avval to'langan soliqlarni yoki ma'lum qismini qaytarish.*

O'zbekistonda bunday imtiyoz odatda qo'llanilmaydi;

5) *avval to'langan soliqlarni hisobga olish;*

6) *investitsiyaviy soliq krediti.*

Chet davlatlarida *investitsiyaviy soliq krediti* xususiy biznesni davlat tomonidan moliyalashtirish bo'lib, u eskirib qolgan asbob-uskunalarini almashtirish va yangi texnologiyani olib kirishni rag'batlantirish maqsadida beriladigan soliq chegirmalari ko'rinishida beriladi. Asbob-uskunaning narxiga foiz ko'rinishida hisoblangan soliq soliqqa tortiladigan daromaddan emas, balki to'g'ridan to'g'ri soliqning o'zidan ayirib tashlanadi, bu esa o'z vaqtida yangi sotib olinadigan ishlab chiqarish asbob-uskunalarining narxini chegirma qiymatiga kamaytirishga olib keladi.

**Chegirma** – bu soliq bazasini kamaytirishga qaratilgan imtiyoz. Masalan, agarda yuridik shaxslandan olinadigan foyda solig'i bo'yicha soliqqa tortish bazasi davlat va jamiat tomonidan rag'batlantiruvchi ekologiya, sog'lomlashtirish va boshqa xayriya jamg'armalariga, madaniyat tashkilotlariga, xalq ta'limiga, jismoniy tarbiya, sport va boshqalarga yo'naltirilgan summaga qisqartiriladi.

## **2, 2 1.5. SOLIQ STAVKALARINING TURLARI**

Soliq stavkasi belgilangan o'Ichov miqdoriga ko'ra qat'iy yoki foiz ko'rinishida bo'ladi. Masalan, qo'shimcha qiymat solig'inining soliq stavkasi – soliq solish oboroti va import oborotining – 20% qismini tashkil etadi (bu foiz stavkasi). Qat'iy soliq stavkasiga yer solig'inining stavkasi misol bo'la oladi. Bunda soliq solish birligiga (yer uchastkasining maydoni) qat'iy soliq summasi to'g'ri keladi.

Soliq stavkasi soliqqa tortish usuliga ko'ra quyidagi turga ajratiladi:

- *teng* – hamma soliq to‘lovchilarga teng soliq summasi belgilanadi;
- *proporsional* – hamma soliq to‘lovchilar uchun teng soliq stavkasi qo‘llaniladi (QQS, aksiz, daromad (foyda) solig‘i);
- *progressiv* – soliq bazasining ortishi bilan soliq stavkasi ham ortadi (jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig‘i);
- *regressiv* – soliq bazasining ortishi bilan soliq stavkasi kamayadi (eksporterlarning daromadlaridan undiriladigan soliq eksportning umumiylig sotilgan mahsulotga nisbatan ortishi daromad solig‘i stavkasini kamayishiga olib keladi).

## 1.6. SOLIQ YUKI

**Soliq yuki** – to‘lovchining hamma soliqlar va yig‘imlar yig‘indisini budgetga to‘lashidir. Soliq yuki foydaga yoki jami daromadga nisbatan olinadi. Mamlakat miqyosida hamma to‘langan soliq va yig‘imlarning yalpi ichki mahsulotdagi salmog‘i ham soliq yukini ifodalaydi.

Agar soliq to‘lovchi soliqlarni to‘g‘ri to‘lagan bo‘lsa, unga soliq yuki mos keladi. Lekin ba’zi korxonalarda egri soliqlar bo‘lib, uning huquqiy to‘lovchilari korxona hisoblansada, soliq yuki iste’molchi, ya’ni aholi zimmasiga tushadi. Oxirgi iste’mol qiluvchilar aholi hisoblanadi. Bu yerda egri soliqlar hisobiga aholining real daromadlarining bir oz bo‘lsada pasayish hollari uchraydi.

## 1.7. SOLIQ MEXANIZMI

Soliq mexanizmini soliqni hisoblab chiqarish, soliqni to‘lash va soliq hisob-kitobining hisobotini taqdim etish tartibi hamda muddatlari tashkil etadi. Ushbu soliq mexanizmi har bir soliq, yig‘m yoki to‘ovlar bo‘yicha Soliq kodeksida belgilab beriladi. Soliq kodeksiga shuningdek, undagi soliq mexanizmiga o‘zgartirishlar

Senat tomonidan ma'qullanib Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinadi.

Soliq mexanizmidagi soliqni to'lashning uch xil usuli amalda qo'llaniladi:

– *deklaratsiya asosida soliq to'lash* (daromad olingandan so'ng soliq to'lash), ya'ni soliq to'lovchiga belgilangan muddatlarda soliq organiga o'zining soliq majburiyatlari bo'yicha rasmiy ravishda ariza berishi lozim. Bunday holatlarda soliqni to'lash majburiyati soliq to'lovchining o'ziga yuklatiladi;

– *soliq undirishning daromadni to'lov manbaida undirish usuli* (daromad olgunga qadar soliq undirish), ya'ni to'lov manbaida soliq avtomatik ravishda ushlanadi va budgetga o'tkazib beriladi. Soliqni ushslash va budgetga o'tkazish bo'yicha javobgarlik to'lov manbaiga yuklatiladi (masalan, dividend va foizlar to'lanayotgan vaqtida);

– *soliq undirishning kadastr usuli* – soliq summasi mulkdan olinishi mumkin bo'lган о'rtacha daromadni tashqi belgilaridan kelib chiqib aniqlanadi. Bunda qat'iy hisoblangan soliq summasi belgilanadi (masalan, mol-mulk solig'i).

## **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Soliq tushunchasining ta'rifini aytib bering.
2. Soliqlarning iqtisodiy mohiyatini tushuntirib bering.
3. Soliqqa tortish subyekti va obyektini tushuntirib bering.
4. Soliqqa tortish obyektiga qarab soliqlar qanday guruhlanadi?
5. Soliq stavkalari qanday turlarga bo'linadi?
6. Soliq imtiyozlarining qanday turlari mavjud?
7. Soliq krediti deganda nimani tishinasiz?
8. Chegirmani tushuntirib bering.
9. Soliqlarning qanday funksiyalari mavjud?
10. Soliq yuki nima?

## Mustaqil o‘zlashtirish uchun chizmali materiallar

**Soliqlar** – bu yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan mablag‘larning bir qismini davlat ixtiyoriga majburiy va qaytarilmaydigan tarzda o‘tkazuvchi to‘lovlardir.

### Soliq to‘lashning asosiy usullari

deklaratsiya  
asosida soliq  
to‘lash

soliq undirishning  
daromadni to‘lov  
manbaida undirish usuli

soliq  
undirishning  
kadastr usuli

Doimiy  
imtiyozlar  
(maqsadsiz)

**SOLIQ IMTIYOZLARI  
BUXGALTERIYA  
HISOBIDA  
KO‘RSATILISHIGA  
QARAB  
TOIFALANISHI**

Maqsadli imtiyozlar  
(imtiyozlar doimiy  
ravishda hamda  
vaqtinchalik ravishda  
berilishi mumkin)

Vaqtinchalik  
imtiyozlar  
(maqsadsiz)

## **II BOB. SOLIQ TIZIMI VA SOLIQ SIYOSATI**

### **2.1. SOLIQ TIZIMI**

**Soliq tizimini** davlat tomonidan o‘rnatilgan barcha soliqlar, yig‘imlar va boshqa budgetga undiriladigan majburiy to‘lovlar majmuasi, ularning shakli va tuzilish metodlari tashkil etadi.

**Soliqlar tizimi** deb bir xil mohiyatga ega va o‘zaro munosabatda bog‘liq bo‘lgan markazlashgan pul fondini va davlatning boshqa fondlarini majburiy tashkil etuvchi soliq va yig‘imlar turlarining yig‘indisiga aytildi. Bu ta’rif soliq va yig‘imlar yagona mohiyatga, ya’ni «majburiy xarakterga ega bo‘lgan munosabat»ligini va ularning bir-biri bilan bog‘liqligini hamda davlat budgetiga tushishligini anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 23-moddasiga binoan soliqlar tizimi quyidagi tarkibga ega bo‘ladi.

**Soliqlarga quyidagilar kiradi:**

- 1) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i;
- 2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;
- 3) qo‘shilgan qiymat solig‘i;
- 4) aksiz solig‘i;
- 5) yer qa’ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to‘lovlar;
- 6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- 7) mol-mulk solig‘i;
- 8) yer solig‘i;
- 9) obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i;

10) transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq.

**Boshqa majburiy to‘lovlariga quyidagilar kiradi:**

- 1) ijtimoiy jamg‘armalarga majburiy to‘lovlar:
  - yagona ijtimoiy to‘lov;
  - fuqarolarning budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari;
  - budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga majburiy ajratmalar;
- 2) Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy to‘lovlar:
  - Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalar;
  - Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘imlar;
- 3) davlat boji;
- 4) bojxona to‘lovleri;
- 5) ayrim turdagи tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagи xizmatlarni ko‘rsatish huquqi uchun yig‘im.

Soliq kodeksida belgilangan hollarda va tartibda soliq solishning soddalashtirilgan tartibida to‘lanadigan quyidagi soliqlar qo‘llanilishi mumkin:

- yagona soliq to‘lovi;
- yagona yer solig‘i;
- tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat’iy belgilangan soliq.

Soliq va yig‘imlar bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, ular huquqiy va jismoniy shaxslarning pul daromadlaridan olinadi. Soliq va yig‘imlarning jami yig‘indisining summasiga soliq og‘irligi deb ataladi.

Soliq kodeksida belgilangan soliqlar, yig‘imlar va to‘lovlarini huquqiy jihatdan to‘lash majburiyati yuklatilgan yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortish subyektlari yoki soliq to‘lovchilari deb aytildi.

O‘z mulkiga, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatları yu-

zasidan mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da’vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi, undan tashqari ular mustaqil balans yoki smetaga ega bo‘lishlari kerak.

**Jismoniy shaxslar** deganda, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, chet davlatlarning fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tushuniladi.

## 2.2. SOLIQ SIYOSATI

**Soliq siyosati** – bu iqtisodiy siyosatning ajralmas bir bo‘lagi bo‘lib, davlatning muayyan davrda aniq maqsadlarga qaratilgan soliq sohasidagi faoliyatidir. U tarkiban soliqlarni joriy etish, soliqqa oid huquqiy baza yaratish, joriy etilgan soliqlar va soliqsiz to‘lovlarini amaliyotda ishlash mexanizmini shakllantirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan davlatning tegishli va kolatli organlari tomonidan kompleks tarzda olib boriladigan chora-tadbirlar yig‘indisidir. Mamlakat soliq tizimi xususiyatlari, yo‘nalishlari, qanday soliqlarning joriy etilishi, ular o‘rtasidagi nisbatni ta’minlash kabi masalalarini soliq siyosati belgilab beradi.

Soliq siyosatining huquqiy asoslari sifatida «O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risida»gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Soliq kodeksi, «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi qonuni, hukumatning boshqa soliqqa oid qonun, qarorlari, Prezident farmonlari va boshqa me’yoriy hujjatlari xizmat qilib kelmoqda. «O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risida»gi qonunga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi o‘zining mustaqil soliq siyosatini olib boradi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida fuqarolarning burchlariga soliqlarni to‘lash majburiyati ham kiritilgan bo‘lib, unda «Fuqaro-

lar qonun bilan belgilangan soliqlar va yig‘imlarni to‘lashga majburdirlar» deb yozilgan.<sup>1</sup> Shuningdek, respublikamiz hududida yagona soliq tizimi amal qilishi va uni belgilash vakolati haqidagi jumlalar keltirilgan: «O‘zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qiladi. Soliqlarni joriy qilishga faqat Oliy Majlis haqlidir»<sup>2</sup>.

**Soliq konsepsiyasi** – bu soliqlar yo‘nalishlarini aniq ilmiy asoslangan holda amalga oshirish g‘oyalarining yaxlitligidir.

Soliq siyosati barqarorligini ta‘minlashda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan tadbirlar xususiyati va muddatini e’tiborga olib soliq siyosati: soliq siyosati strategiyasi va soliq siyosati taktikasiga bo‘linadi.

**Soliq siyosati strategiyasida** muayyan uzoqroq muddatga mo‘ljallangan soliqqa oid iqtisodiy munosabatlarning asosiy yo‘nalishlari va chora-tadbirlari ifodalananadi. Bu esa o‘z navbatida ilmiy asoslangan soliq konsepsiyasi bilan bevosita bog‘liqdir. Masalan, respublikamizda jamiyat taraqqiyotining asosiy strategiyasi etib erkin, ochiq bozor iqtisodiyotiga, erkin fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy, demokratik jamiyat qurish belgilangan. Soliq borasidagi ustuvor strategik vazifa esa davlat budjeti va xo‘jalik yurituvchi subyektlarni soliqqa oid iqtisodiy munosabatlarida muayyan uyg‘unlikni ta‘minlovchi soliq tizimini shakllantirish va shunga mos ravishda takomillashtirib borishdan iboratdir. Boshqacha qilib aytganda, **soliq siyosati strategiyasi** – soliq siyosatining uzoq muddatli yo‘nalishi bo‘lib, ijtimoiy va iqtisodiy strategiya belgilab bergen ulkan masshtabli vazifalarni kelajakda bajarilishini ta‘minlash ko‘zda tutilgan moliyaviy tadbirlar yig‘indisidir.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: «O‘zbekiston», 1992. 51-modda.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: «O‘zbekiston», 1992. 123-modda.

**Soliq siyosati taktikasi esa belgilangan soliq siyosati strategiyasi ijrosini ta'minlovchi, tez-tez o'zgarib turuvchi harakatlarni bildiradi, ya'ni qisqa muddatli va kichik masshtabli moliyaviy chora-tadbirlarni hal qilishga qaratilgan yo'nalishlar majmuisidir.**

Soliq siyosati tarkibiy jihatdan quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- mamlakat miqyosida amal qiluvchi soliqlar va soliqsiz to'lovlarni qonuniy joriy etish;
- amal qilayotgan soliqlarning samarali ishlashini ta'minlovchi mexanizmni shakllantirish va takomillashtirish, soliqqa oid qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni takomillashtirib borish;
- soliq siyosatini amalga oshiruvchi tegishli vakolatli organlarni tashkil etish va ularning ushbu sohadagi vazifalarini belgilash;
- soliqqa tortish tizimini shakllantirishga qaratilgan chuqr ilmiy tadqiqotni amalga oshirish va ularni joriy etishni tashkil etish.

Qonun chiqaruvchi organ (Oliy Majlis) Konstitutsiyaning 78-moddasi 8-bandiga «O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi to'g'risida»gi qonunning 4-moddasiga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilaydi. Davlat soliq qo'mitasining vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha qonunchilikni qo'llash, amaliyotini umumlashtirish asosida soliq qonunchiligini takomillashtirishga doir takliflarni ishlab chiqish va hukumatning ishtiroki bilan ularni Oliy Majlis bilan o'zaro munosabatlarini qurilishiga yaqqol misol bo'la oladi. Ma'lumki, Vazirlar Mahkamasi Davlat Soliq qo'mitasiga nisbatan vakolatlari bo'yicha rahbar organ hisoblanib, soliq qonunchiligini qo'llash amaliyotini doimiy ravishda umumlashtirish, davlat hokimiyati va boshqaruvining yuqori organlarini mazkur sohaning xususiyatli jarayonlari haqida muntazam xabardor qilib borishi lozim.

Davlat Soliq qo'mitasining boshqa hokimiyat organlari, tashkilotlar bilan turli yo'nalishlarda amalga oshiriladigan o'zaro hamkorligini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Ushbu o'zaro hamkorlik o'zining yuridik tabiatiga ko'ra huquqiy bo'lgani holda, munosabatlar predmetining o'ziga xosligi bilan tavsiflanadi. Mahalliy hokimiyat organlari va davlat soliq organlarining o'zaro hamkorligi yuridik kuchga ega bo'lgan qator me'yoriy hujjatlarga tayangan holga tartibga solinadi.

Bugungi kunda respublikamiz soliq siyosatining muhim yo'nalishlari sifatida yuridik va jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishni takomillashtirish, bilvosita soliqqa tortish samaradorligini ta'minlash, resurs soliqlariga ko'proq e'tibor qaratish, soliq tiziminining soddaligiga erishish, davlat xarajatlarini optimallashtirish kabilarni qayd etish mumkin.

Respublikamizda soliq tizimini takomillashtirish jarayonida xo'jalik yurituvchi subyektlarga **nisbatan soliq yukini izchil kamaytirishga** alohida e'tibor qaratish lozimligi ko'p bora ta'kidlanmoqda. Bunda birinchi navbatda ularning daromadlardan undiriladigan bevosita soliqlarning salmog'ini kamaytirish lozimligi alohida ahamiyatga ega. Buning natijasida korxonalar ixtiyorida qoladigan mablag'lar ulushining ko'payishi evaziga uning aylanma mablag'lari miqdorini ko'paytirib borish va optimal darajasini saqlash, ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish, uning samaradorligini oshirish maqsadida ko'proq investitsiya kiritish, xodimlar mehnatini yanada rag'batlantirish imkonini beradi.

Jismoniy shaxslar daromadlarining soliqqa tortilishini takomillashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan soliq stavkalarini kamaytirib borish vazifasi turibdi.

## **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Soliqlar tizimi tarkibini tushuntirib bering.
2. Soliq subyekti va obyektini tushuntirib bering.
3. Soliq davri deganda nima tushuniladi?

4. Soliq siyosati haqida tushuncha bering.
5. Soliq siyosatidagi respublikamizning qonuniy hujjatlarini sanab o'ting.
6. Soliq siyosatining taktikasi haqida gapirib bering.
7. Soliq siyosatining konsepsiysi to'g'risida ma'lumot bering.
8. Soliq siyosati strategiyasi nima?
9. Soliq siyosati xususiyatlari va yo'nalishlarini tushuntirib bering.
10. O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?

### **Mustaqil o'zlashtirish uchun chizmali materiallar**

**Soliqlar tizimi** – bir xil mohiyatga ega va o'zaro munosabatda bog'liq bo'ladigan markazlashgan pul fondini va davlatning boshqa fondlarini majburiy tashkil etadigan soliq va yig'imlar turlarining yig'indisiga aytildi.

Soliqqa tortish subyekti (soliq to'lovchi) – qonunga ko'ra soliqlar, yig'imlar va to'lovlarni huquqiy jihatdan to'lash majburiyati yuklatilgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet davlatlar fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo'limgan shaxslar jismoniy shaxslar deb e'tirof etiladi.

(O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 16-moddasi)

**Soliq solish obyekti** – soliq to'lovchida soliq yoki boshqa majburiy to'ov hisoblab chiqarilishi va (yoki) to'lanishi yuzasidan majburiyat keltirib chiqaruvchi mol-mulk, harakat, harakat natijasidir.

(O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 25-moddasi)

**Soliq konsepsiysi** – bu soliqlarning yo'nalishlarini aniq ilmiy asoslangan holda amalga oshirish g'oyalarining yaxlitligidir.

**Soliq siyosati strategiyasida muayyan uzoqroq muddatga mo‘ljallangan soliqqa oid iqtisodiy munosabatlarning asosiy yo‘nalishlari va chora-tadbirlari ifodalanadi. Bu esa o‘z navbatida ilmiy asoslangan soliq konsepsiysi bilan bevosita bog‘liqdir.**

**Soliq siyosati taktikasi esa belgilangan soliq siyosati strategiyasi ijrosini ta‘minlovchi, tez-tez o‘zgarib turuvchi harakatlarni bildiradi.**

**Davlat soliq tizimi** – davlat tomonidan o‘rnatilgan barcha soliqlar, yig‘imlar va boshqa budgetga undiriladigan majburiy to‘lovlar majmuasi, ularning shakli va tuzilish metodlaridan iborat.

### **III BOB. YURIDIK SHAXSLAR TO'LAYDIGAN SOLIQLAR VA YIG'IMLAR**

#### **3.1. YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN FOYDA SOLIG'I**

##### **3.1.1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'inining iqtisodiy mohiyati va soliqqa tortish obyekti**

O'zbekiston Respublikasi davlat budgeti daromadlari 1991-yilda qadar asosan davlat korxonalari foydasidan ajratiladigan ajratmalar hisobidan shakllangan. Ushbu foydadan ajratma davlat tomonidan belgilangan majburiy to'lov bo'lib, u korxonalar balans foydasining 90 foiziqacha bo'lgan qismini budgetga o'tkazilgan. Qolgan mablag'lar esa korxona tomonidan emas, balki yuqori tashkilot topshirig'iga ko'ra tegishli fondlarga taqsimlangan.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor munosabatlariiga o'tishi tufayli mamlakatimiz xo'jalik faoliyatida chuqur ijobiy o'zgarishlar ro'y bera boshladi. Natijada mulkchilikning turli shakllarining vujudga kelishi va bozor infratuzulmasi rivojlanishi bilan majburiy ajratmalarning avvalgi tizimi korxonalarining xo'jalik yuritish samadorligini ta'minlay olmay qoldi hamda ular bevosita va bilvosita investitsiya dasturlariga to'sqinlik qila boshladi. Chunki, foydadan ajratma o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra faqat davlat korxonalari foydasidan ajratilishi lozim edi.

Bozor munosabatlari rivojlanishi bilan iqtisodiyotni soliqlar yordamida tartibga solish xususan, foydadan ajratmalar o'rniga daromad solig'ini joriy etish zarurati paydo bo'ldi va 1992-yildan boshlab barcha turdag'i xo'jalik yurituvchi subyektlar daromad solig'ini to'lashga o'tdilar.

O‘zbekiston Respublikasi rubl mintaqasida qolib turgan vaqtida daromad solig‘ini olishga o‘tish pul qadrsizlanishi tufayli ish haqi o‘sishini cheklash uchun davlat tomonidan majburiy chora bo‘ldi. Bunday sharoitda ishlab chiqaruvchilarning moliyaviy ahvoli yomonlasha boshladi. Natijada mahsulotga talab pasayib, sotishdan olingan tushum hajmi kamaygani holda, ular o‘z ishlab chiqarishlari yo‘nalishini o‘zgartirishga, foyda olmasalar ham juda katta miqdorda ishchilarga ish haqi to‘lashga majbur bo‘ldilar. Bunday holatda amaliyotda korxonalar hisobot davrida foyda bilan faoliyatlarini yakunlamasada daromad solig‘ini ish haqi fondidan belgilangan stavkada to‘lashga majbur edilar.

1995-yil yanvar oyidan boshlab soliqlarning rag‘batlantiruvchi rolini kuchaytirish maqsadida mamlakatimizda korxonalarning foydasidan olinadigan soliq joriy etildi. 2008-yil 1-yanvardan kuchga kirgan Soliq kodeksining 23-moddasiga ko‘ra yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i umumdavlat soliqlari tarkibiga kirib, u davlat budgeti daromadlarini shakllantirishda asosiy manbalardan biri hisoblandi.

~~F~~O‘zbekiston Respublikasida yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i bo‘yicha soliqqa tortish tizimidagi o‘zgarishlarni 1991-yildan boshlab shu kunga qadar nazar tashlaydigan bo‘lsak, quyidagilarni kuzatish mumkin bo‘ladi:

- umumiyl tartibda barcha soliq to‘lovchilar uchun daromadlarni hisobga olish usuli joriy qilindi;
- soliq stavkasi 38 foizdan to 8 foizgacha tushirildi;
- soliq to‘lovchilar mustaqil ravishda buxgalteriya hisobi yuritish va soliqqa tortish usullarini qo‘llash huquqiga ega bo‘ldilar;
- chet ellik yuridik shaxslarni soliqqa tortish tartibi aniqlandi, bunda ularni rezidentlik va doimiy muassasa xususiyatlariga qarab bo‘lib chiqildi;
- «Soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami», «lizing», «shubhali qarzlar» va shunga o‘xhash ko‘pgina tushunchalar kiritildi.

Yuridik shaxslarning daromadlaridan olinadigan foyda solig‘i O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va boshqa me’yoriy hujjatlar asosida olib boriladi.

### **3.1.2. Foyda solig‘i to‘lovchilar**

Soliq kodeksining 126-moddasiga ko‘ra **foyda solig‘i to‘lovchi yuridik shaxslar** quyidagilardir:

- O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari;
- O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan yoki hosil bo‘lish manbai O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan daromadlarni oladigan O‘zbekiston Respublikasi nerezidentlari.

Quyidagilar yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i to‘lovchilar bo‘lmaydi:

- notijorat tashkilotlar. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotganda notijorat tashkilotlar o‘zi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olingan foydadan soliq to‘lovchi bo‘ladi;
- agar Soliq kodeksning XX bo‘limida boshqacha soliqlar nazarda tutilgan bo‘lmasa, ushbu kodeksga muvofiq soliq solishing soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.

### **3.1.3. Soliq solish obyekti, soliq solinadigan baza, jami daromad tarkibi**

Soliq kodeksining 127-moddasiga ko‘ra **yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining obyekti** quyidagilardir:

O‘zbekiston Respublikasi rezidentlarining, shuningdek O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi nerezidentlarining foydasi;

O‘zbekiston Respublikasi rezidentlarining va O‘zbekiston Respublikasi nerezidentlarining ushbu bo‘limga muvofiq chegirmalar qilinmagan holda to‘lov manbaida soliq solinadigan daromadlari.

**Soliq kodeksining 128-moddasiga ko‘ra yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining bazasi quyidagicha belgilangan:**

Soliq solinadigan baza jami daromad bilan Soliq kodeksining V bo‘limi, ya’ni «Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i» bo‘limida nazarda tutilgan chegirib tashlanadigan xarajatlar o‘rtasidagi farq sifatida, mazkur kodeks 158-moddasining ikkinchi qismida, boshqa qonunlarda va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida nazarda tutilgan imtiyozlar hamda ushbu kodeksning 159-moddasiga muvofiq soliq solinadigan foydaning kamaytirilishi summalarini inobatga olingan holda hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqib belgilanadi.

O‘tgan soliq davrlariga tegishli, joriy soliq davriga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan zararlar mavjud bo‘lsa, soliq solinadigan baza Soliq kodeksining 161-moddasiga muvofiq taqsimlab o‘tkaziladigan zarlar summasiga kamaytiriladi.

**Soliq kodeksining 129-moddasiga ko‘ra jami daromadga quyidagilar kiradi:**

- tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar;
- boshqa daromadlar.

Soliq to‘lovchining qiymati chet el valutasida ifodalangan daromadlari milliy valutada olingan daromadlar bilan jamlangan holda, buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda hisobga olinadi.

**Quyidagilar soliq to‘lovchining daromadi sifatida qaralmaydi:**

1) ustav fondiga (ustav kapitaliga) olingan hissalar, shu jumladan aksiyalarni (ulushlarni) joylashtirish bahosining ularning nominal qiymatidan (dastlabki miqdoridan) ortiq summasi, birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish uchun oddiy shirkat shartnomasi bo‘yicha birlashtiriladigan mablag‘lar;

2) muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqilayotganda (chiqarilayotganda), yoki muassis (ishtirokchi) ulushining miqdori

kamaytirilganda, shuningdek tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki uning muassislari (ishtirokchilari) o'rtasida taqsimlanayotganda ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa doirasida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

3) oddiy shirkat shartnomasi sherigining (ishtirokchisining) shartnomasi sheriklari (ishtirokchilari) umumiyligi mulkidagi ulushi qaytarib berilgan yoki bunday mol-mulk bo'lingan taqdirda, hissasi miqdorida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

4) realizatsiya qilinayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun boshqa shaxslardan dastlabki haq (bo'nak) tarzida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

5) qonun hujjatlariga muvofiq majburiyatlarni ta'minlash tariqasida garov yoki zakalat tarzida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar) ularga bo'lган mulk huquqi boshqa shaxsga o'tadigan paytga qadar;

6) budjetdan berilgan subsidiyalar;

7) agar mablag'larni (mol-mulk yoki mulkiy huquqlarni) boshqa shaxsga o'tkazish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida yuz berayotgan bo'lsa, tekin olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar), ishlar va xizmatlar;

8) olingan grantlar va insonparvarlik yordami;

10) notijorat tashkilotlar tomonidan ustav faoliyatining ta'minoti va uni amalga oshirish uchun olingan, belgilangan maqsadga ko'ra va (yoki) tekin kelib tushgan mablag'lar;

11) sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta toponi (sug'urta summasi) tariqasida olingan mablag'lar;

12) vositachiga yoki boshqa ishonchli vakilga vositachilik, topshiriq shartnomasi yoki vositachilik xizmatlarini ko'rsatish yuzasidan boshqa shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni bajarish munosabati bilan, shuningdek komitent yoxud boshqa topshiriq beruvchi uchun vositachi yoki boshqa ishonchli vakil tomonidan

qilingan xarajatlarni qoplash hisobiga kelib tushgan mol-mulk (haq to‘lovi bundan mustasno);

13) ijaraga beruvchi (lizing beruvchi) ijara (lizing) to‘lovining qismi tariqasida olgan moliyaviy ijara (lizing) obyekti qiymatining qoplamasи;

14) telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining tekin olingan texnik vositalari, shuningdek mazkur vositalardan foydalanishga hamda ularga xizmat ko‘rsatishga doir xizmatlardan olingan daromadlar;

15) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyekti muassislaridan (ishtirokchilaridan) uning majburiyatlarini bajarish uchun olingan mablag‘lar. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to‘xtatilgan va faoliyat qayta boshlangan taqdirda, ushbu mablag‘lar jami daromad tarkibiga kiritiladi hamda soliqqa tortiladi;

16) investor va davlat mulkini boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi o‘rtasida tuzilgan shartnomaga binoan investitsiya majburiyatları sifatida kiritilayotgan mol-mulk.

O‘zbekiston Respublikasidagi to‘lov manbaida soliq solinadigan dividendlar va foizlar jami daromaddan chegirib tashlanadi.

Soliq kodeksining 130-moddasiga ko‘ra tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan olinadigan daromad – tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan, shu jumladan yordamchi xizmatlar tomonidan realizatsiya qilishdan qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘i chegirib tashlangan holda olingan tushumdir.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan olinadigan tushum yuklab jo‘natilgan tovarlar (bajarilgan ishlar, ko‘rsatilgan xizmatlar) qiymatidan kelib chiqqan holda tovarlarni jo‘natish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish hollarini tasdiqlovchi hujjatlar asosida belgilanadi.

Vositachilik faoliyatidan daromadlar oladigan yuridik shaxslar uchun tushum deyilganda ko‘rsatilgan xizmatlar uchun olinishi lozim bo‘lgan haq summasi tushuniladi.

Nashriyot va tahririylar uchun gazeta va jurnallarni realizatsiya qilishdan olingan tushum ularda reklamani joylashtirishdan olingan daromadlar kiritilgan holda aniqlanadi.

Mol-mulkni ijaraga berishdan foizlar, roylati, daromadlar olish imkonini beruvchi mol-mulkni va mulkiy huquqlarni boshqa shaxslarga foydalanishga berish, shuningdek talab qilish huquqidan boshqa shaxsning foydasiga voz kechishdan olingan daromadlar, agar ushbu xizmatlardan olingan jami daromadlar summasi tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlarning umumiyligi summasidan ustunlik qilsa, xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar deb e'tirof etiladi.

Kredit, sug'urta tashkilotlari, qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari uchun Soliq kodeksining 148, 150 va 152-moddalarida ko'rsatilgan daromadlar xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar deb e'tirof etiladi. Quyida Soliq kodeksining ushbu moddalari keltiriladi:

**Soliq kodeksining 148-moddasiga ko'ra kredit tashkilotlarning xizmatlarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlariga quyidagilar kiradi:**

1) kredit tashkilotining o'z nomidan va o'z hisobidan pul mablag'larini joylashtirishdan, kreditlar hamda zayomlar berishdan olinadigan foizlar, boshqa foizli daromadlar. O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida berilgan kreditlar va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlariga muvofiq foizlarni to'lash bo'yicha imtiyozli davr berilgan kreditlar bo'yicha foizli daromadlar kredit shartnomasiga ko'ra olish muddati etib kelmagunicha soliq solinadigan daromad sifatida qaralmaydi;

2) mijozlarning, shu jumladan vakil banklarning hisobvaraqlarini ochganlik va yuritganlik hamda ularning topshirig'iga binoan hisob-kitoblarni amalga oshirganlik uchun olingan haq, shu jumladan jo'natma, inkasso, akkreditiv va boshqa operatsiyalar, bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun mo'ljallangan

~~to'lov kartalarini hamda boshqa maxsus vositalarni rasmiyolashtirganlik~~ va xizmat ko'rsatganlik uchun, hisobvaraqlar bo'yicha ~~ko'chirmalarni hamda boshqa hujjatlarni taqdim etganlik~~ uchun ~~va summalarini qidirganlik~~ uchun vositachilik haqi hamda boshqa pul mukofotlari;

3) pul mablag'larini inkassatsiya qilishdan, veksellardan, ~~to'lov~~ va hisob-kitob hujjatlaridan hamda mijozlarga kassa xizmati ko'rsatishdan olinadigan daromadlar;

4) naqd pulli va naqd pulsiz shaklda amalga oshiriladigan valuta operatsiyalarini o'tkazishdan, shu jumladan chet el valutani sotib olish yoki sotish, jumladan mijozning hisobidan va uning topshirig'i bo'yicha operatsiyalarda vositachilik va boshqa mukofotlar, valuta boyliklari bilan operatsiya qilishdan olinadigan daromadlar;

5) uchinchi shaxslar uchun pul shaklida ijro etilishini nazarda muvchi bank kafolatlari, majburiyatlari, avallari va kafilliklari berishga doir operatsiyalardan olinadigan pul shaklidagi mukofot;

7) hujjatlarni va qimmatliklarni saqlash uchun maxsus jihozlangan xonalar va seyflarni ijara berishdan olinadigan daromadlar,

8) pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar, boshqa boyliklar va bank hujjatlarini yetkazib bergenlik, tashiganlik uchun haq;

9) qimmatbaho metallar hamda qimmatbaho toshlarni tashiganlik va saqlab turganlik uchun haq;

10) forfeyting va faktoring operatsiyalarini amalga oshirishdan olinadigan daromadlar;

12) kredit tashkilotlari tomonidan o'z professional faoliyati-dan olinadigan boshqa daromadlar.

Balansning valuta qismi qayta baholanishidan olingan daromadlar, shuningdek chet el valutasi kursining o'zgarishi munosabati bilan yuzaga kelgan ijobiy farq ushbu kodeksning 132-moddasiga muvofiq boshqa daromadlar sifatida qaraladi;

O'stirmaslik maqomini olgan kredit bo'yicha hisoblangan foizlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan tartibga muvofiq daromadlar hisobvaraqlaridan chiqarib tashlanadi.

Soliq kodeksining 150-moddasiga ko'ra **sug'urta tashkilotlarining xizmatlarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlariga** quyidagilar kiradi:

1) sug'urta qilish, birqalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlari (badallari). Bunda birqalikda sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlari (badallari) sug'urtalovchining (birqalikda sug'urta qiluvchining) daromadlari tarkibiga faqat uning birqalikda sug'urta qilish shartnomasida belgilangan sug'urta mukofotidagi ulushi miqdorida qo'shiladi;

2) avvalgi hisobot davrlarida shakllantirilgan sug'urtaviy texnik zaxiralarni kamaytirishning (qaytarishning) qayta sug'urta qiluvchilarning sug'urta zaxiralaridagi ulushi o'zgarishi hisobga olingan holdagi summalar;

3) sug'urta qilish, birqalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha pul mukofoti, shuningdek qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha tantemalar (foydadan olinadigan haq);

4) qayta sug'urta qilishga o'tkazilgan tavakkalchilik bo'yicha sug'urta to'lovlari ulushining o'rmini qayta sug'urta qiluvchilar tomonidan qoplash summalar;

5) qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha mukofotlar deposiga hisoblangan foizlar summalar;

6) sug'urta qildiruvchining (naf oluvchining) yetkazilgan zarar uchun javobgar shaxslarga nisbatan talab qilish huquqini realizatsiya qilishdan olinadigan, qonun hujjalariiga muvofiq sug'urtalovchiga o'tgan daromadlari;

8) sug'urta agenti, broker, vositachi xizmatlarini ko'rsatganlik uchun mukofot;

9) sug‘urta bozorining professional ishtirokchilariga xizmatlar ko‘rsatganlik uchun sug‘urtalovchi tomonidan olingan pul mukofoti;

10) sug‘urta xizmatlari ko‘rsatishdan va qo‘shimcha sug‘urta faoliyatidan olingan boshqa daromadlar.

Soliq kodeksining 152-moddasiga ko‘ra **qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchilarining xizmatlarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlariga** quyidagilar kiradi:

1) qimmatli qog‘ozlarni realizatsiya qilishdan olinadigan, quyidagicha aniqlanadigan daromadlar:

– qimmatli qog‘ozlar, bundan qarz qimmatli qog‘ozlari (obligatsiyalar, depozit sertifikatlari) mustasno, va ishtirok etish ulushi bo‘yicha – realizatsiya qilish qiymati va olish qiymati (hissa) o‘rtasidagi ijobiy farq sifatida;

– qarz qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha – realizatsiya qilish qiymati bilan realizatsiya qilish sanasidagi diskont amortizatsiyasi va (yoki) mukofot inobatga olingan holda olish qiymati o‘rtasidagi ijobiy farq sifatida;

2) qimmatli qog‘ozlar bozorida vositachilik va boshqa xizmatlar ko‘rsatishdan olinadigan daromadlar;

3) mijozlarning mablag‘laridan foydalanishdan yuzaga keladigan daromadning bir qismi;

4) depozitar xizmatlar, shu jumladan qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risida axborot taqdim etish, depo hisobvarag‘ini yuritish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatishdan olinadigan daromadlar;

5) qimmatli qog‘ozlar egalari reyestrini yuritish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatishdan olinadigan daromadlar;

6) qimmatli qog‘ozlar bilan birjada va birjadan tashqarida savdolarni tashkil etish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatishdan olinadigan daromadlar;

7) hisob-kitob-kliring faoliyati bo‘yicha daromadlar;

8) qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan investitsiya aktivlarini boshqarish bo‘yicha daromadlar;

9) qimmatli qog'ozlar bozorida maslahat xizmatlari ko'rsatishdan olinadigan daromadlar;

10) professional faoliyatdan olingan boshqa daromadlar.

Uzoq muddatli kontraktlarni bajarishdan olinadigan daromadlar ularning haqiqatda bosqichma-bosqich bajarilishiga taalluqli qismida hisobot davri mobaynida hisobga olinadi.

Uzoq muddatli kontraktning hisobot davri oxirida haqiqatda bajarilganligi kontraktni bajarishga kirishilganidan e'tiboran qilingan xarajatlarning kontraktni bajarish uchun ketadigan xarajatlarning umumiyligini solishtirma salmog'ini hisob-kitob qilish asosida belgilanadi.

Hisobot davri oxiridagi daromad kontrakt bo'yicha qilingan xarajatlarning hisoblangan solishtirma salmog'i va jami daromad summasining (kontrakt bahosining) hosilasi sifatida aniqlanadi. Mazkur kontrakt bo'yicha ilgari hisobga olingan daromadlar joriy hisobot davrida tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan olingan daromadni aniqlashda chegirib tashlanadi.

Qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy ishlar (xizmatlar) bo'yicha, shuningdek obyektlarni foydalanishga tayyor qilib qurish chog'ida shartnomaviy baholardan kelib chiqib haq to'lash uchun hisob-kitob hujjatlari taqdim etilgan, buyurtmachilar tomonidan bajarilgan (ko'rsatilgan) va tasdiqlangan ishlar (xizmatlar) ning qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymati daromadga qo'shiladi.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar) tannarxidan yoki tovarlar olingan bahosidan past baholarda (tovarni olish bilan bog'liq xarajatlarni hisobga olgan holda) realizatsiya qilinganda, shuningdek tovarlar (ishlar, xizmatlar) bepul topshirilganda soliq solish maqsadlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan olingan tushum tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning tannarxi yoki tovarlar olingan baho asosida (tovarni olish bilan bog'liq xarajatlarni hisobga olgan holda) aniqlanadi.

Soliq kodeksining 131-moddasiga ko‘ra tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadga quydagi hollarda tuzatish kiritiladi:

- 1) tovarlar to‘liq yoki qisman qaytarilganda;
- 2) bitim shartlari o‘zgarganda;
- 3) baholar o‘zgarganda, sotib oluvchi siylovdan (skidkadan) foydalanganda;
- 4) bajarilgan ishlar, ko‘rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadga ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan tuzatishni kiritish bir yillik muddat ichida, kafolat muddati belgilangan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo‘yicha esa, kafolat muddati doirasida amalga oshiriladi.

Ushbu moddaga muvofiq tovarlarni (ishlarni, xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadga tuzatish kiritish ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan hollar yuz berganligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Bunda tovar (ish, xizmat)ni yetkazib beruvchi tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadga tuzatish kiritishni ushbu kodeksning 222-moddasida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiradi.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadga ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan hollarda tuzatish kiritish ko‘rsatilgan hollar yuz bergan soliq davrida amalga oshiriladi.

Soliq kodeksining 132-moddasiga ko‘ra **boshqa daromadlarga** tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan operatsiyalardan olinadigan daromadlar kiradi, ular quyidagilardan iborat:

- 1) soliq to‘lovchining asosiy vositalari va boshqa mol-mulki chiqib ketishidan olinadigan daromadlar;
- 2) mol-mulkni operativ ijaraga berishdan olinadigan daromadlar;

- 3) asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni moliyaviy ijaraga berishdan olinadigan daromadlar;
- 4) tekin olingan mol-mulk, mulkiy huquqlar, shuningdek ishlar va xizmatlar;
- 5) inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha tovar-moddiy zaxiralar hamda boshqa mol-mulk qiymati tariqasidagi daromadlar;
- 6) hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi daromadlar;
- 7) majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olinadigan daromadlar;
- 8) talablardan o'zganining foydasiga voz kechish shartnomasi bo'yicha olingan daromadlar;
- 9) jami daromaddan ilgari chegirib tashlangan xarajatlar yoki zararlarning o'rmini qoplash tarzida olingan daromadlar;
- 10) xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklardan olinadigan daromadlar;
- 11) birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishdan olinadigan daromadlar;
- 12) undirib olingan yoki qarzdor tomonidan tan olingan jarimalar va penya, shuningdek qonuniy kuchga kirgan sud hujjati asosida qarzdor tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan jarimalar va penya;
- 13) ushbu kodeksning 140-moddasiga muvofiq kursdagi ijobiyligi farq.

Soliq kodeksining 140-moddasiga ko'ra valuta hisobvaraqlari bo'yicha, shuningdek chet el valutasidagi operatsiyalar bo'yicha kursdagi ijobiyligi farq buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjaligiga muvofiq quyidagi hollarda daromadlar tarkibiga kiritiladi:

– chet el valutasiga bo'lgan mulk huquqi boshqa shaxsga o'tayotgan sanada shu chet el valutasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kursdan yuqori bahoda sotilganda;

- chet el valutasiga bo‘lgan mulk huquqi boshqa shaxsga o‘tayotgan sanada shu chet el valutasi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kursdan past bahoda sotib olinganda;
- chet el valutasi kursidagi o‘zgarish munosabati bilan balansning valutaga oid moddalari tegishli hisobot davri uchun qayta baholanganda.

Baholari chet el valutasida belgilangan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun o‘zaro hisob-kitoblarni milliy valutada amalga oshiradigan soliq to‘lovchilar uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilingan yoki olingan sanadan ushbu tovarlar (ishlar, xizmatlar)ga haq to‘langan sanagacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kursdagi o‘zgarish munosabati bilan yuzaga keluvchi ijobiy farq tovarlar (ishlar, xizmatlar) ga haq to‘langan sanadagi jami daromad tarkibiga buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq kiritiladi.

- 14) dividendlar va foizlar;
- 15) roylati;
- 16) tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bevosita bog‘liq bo‘limgan operatsiyalardan olinadigan boshqa daromadlar.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadigan boshqa daromadlar qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi chegirilgan holda aniqlanadi.

Notijorat tashkilotlari uchun ushbu moddada nazarda tutilgan boshqa daromadlarga soliq solinmaydi, bundan birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishdan olinadigan daromadlar (11-band), dividendlar, foizlar (14-band) va roylati (15-band) kabi daromadlar bundan mustasno.

### **3.1.4. Jami daromaddan chegirmalar**

Soliq solinadigan daromadni (foydani) aniqlashda Soliq kodeksining 141-moddasiga ko‘ra jami daromaddan quyidagi **xarajatlar chegirib tashlanadi**:

- 1) moddiy xarajatlar;
- 2) mehnatga haq to‘lash xarajatlari;
- 3) amortizatsiya xarajatlari;
- 4) boshqa xarajatlar;
- 5) Soliq kodeksning 146-moddasiga muvofiq kelgusida soliq solinadigan foydadan chegirib tashlanadigan hisobot davridagi xarajatlar.

Soliq kodeksining 142-moddasiga ko‘ra **moddiy xarajatlarga** quyidagilar kiradi:

- 1) xomashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va yarimtayyor mahsulotlar;
- 2) ishlab chiqarilgan va (yoki) realizatsiya qilinadigan tovarlarni o‘rash va boshqacha tayyorlash uchun, shu jumladan sotuv oldidan tayyorlash uchun, boshqa ishlab chiqarish va xo‘jalik ehtiyojlari uchun materiallar, uskunalar hamda boshqa mol-mulkni ta’mirlash uchun materiallar va ehtiyot qismlar;
- 3) inventar, xo‘jalik anjomlari, amortizatsiya qilinadigan molmulk bo‘lmagan boshqa mol-mulk;
- 4) soliq to‘lovchining texnologik, transport, boshqa ishlab chiqarish va xo‘jalik ehtiyojlari uchun sarflanadigan barcha turdagি yoqilg‘i, energiya, shu jumladan soliq to‘lovchining o‘zi tomonidan ishlab chiqarish hamda xo‘jalik ehtiyojlari uchun barcha turdagи energiyani hosil qilish, binolarni isitish, shuningdek energiyani bir shakldan o‘zga shaklga o‘tkazish va uzatish xarajatlari;
- 5) yerlarni rekultivatsiya qilish va tabiatni muhofaza qilishning boshqa tadbirlari uchun xarajatlar;
- 6) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlangan me’yorlar doirasida suv xo‘jaligi tizimlaridan soliq to‘lovchilar tomonidan iste’mol qilinadigan suv uchun to‘lov;
- 7) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatli organ yoki soliq to‘lovchi tomonidan tasdiqlangan me’yorlar doirasida ishlab chiqarish va (yoki) tashish chog‘idagi texnologik yo‘qotishlar;

8) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatli organ yoki soliq to'lovchi tomonidan tasdiqlangan tabiiy kamayish me'yorlari doirasida tovar-moddiy zaxiralarni saqlash hamda tashish chog'idagi yo'qotishlar va buzilishlar.

Moddiy xarajatlarga kiritiladigan tovar-moddiy zaxiralarning qiymati buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

Agar yetkazib beruvchidan qabul qilingan qaytariladigan tara qiymati olingan tovar-moddiy zaxiralar narxiga qo'shilgan bo'lsa, qaytariladigan tara qiymati ularning ehtimol tutilgan foydalanishi yoki ularni realizatsiya qilish narxi bo'yicha ularni sotib olish uchun qilingan xarajatlarning umumiy summasidan chiqarib tashlanadi. Mahsulot yetkazib beruvchidan tovar-moddiy zaxiralar bilan qabul qilingan hamda qaytarilmaydigan tara va o'rov idishlari qiymati ularni sotib olish xarajatlari summasiga kiritiladi. Tarani qaytariladigan yoki qaytarilmaydigan tara jumlasiga kiritish tovar-moddiy zaxiralarini sotib olish shartnomasi (kontrakti) shartlari bilan belgilanadi.

Moddiy xarajatlar summasi qaytariladigan chiqindilar qiymatiga kamaytiriladi. Qaytariladigan chiqindilar deganda xomashyo (materiallar), yarimtayyor mahsulotlar, issiqlik beruvchi va boshqa turdag'i moddiy resurslarning tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'lgan, boshlang'ich resurslarning iste'molboplik xususiyatlarini (kimyoviy yoki fizik xossalarini) qisman yo'qotgan va shu tufayli xarajatlar oshib ketgan (mahsulot chiqishi kamayib ketgan) holda foydalaniladigan yoki belgilangan maqsadi bo'yicha foydalanilmaydigan qoldiqlari tushuniladi.

Tovar-moddiy zaxiralarning texnologiya jarayoniga muvofiq boshqa bo'linmalarga boshqa turdag'i tovarlar (ishlar, xizmatlar) ni ishlab chiqarish uchun to'laqonli xomashyo (materiallar) sifatida o'tkaziladigan qoldiqlari, shuningdek texnologiya jarayonini amalga oshirish natijasida olinadigan qo'shimcha (yo'l-yo'lakay olingan) mahsulot qaytariladigan chiqindilar jumlasiga kirmaydi.

Qaytariladigan chiqindilar quyidagi tartibda baholanadi:

- agar bu chiqindilardan asosiy yoki yordamchi ishlab chiqarish uchun foydalanish mumkin bo‘lsa-yu, lekin bunda xarajatlar oshib ketsa (tayyor mahsulot chiqishi kamayib ketsa), ehtimol tutilgan foydalanish narxida;
- agar bu chiqindilar chetga realizatsiya qilinsa, realizatsiya qilish narxida.

Soliq kodeksining 143-moddasiga ko‘ra **mehnatga haq to‘lash xarajatlariga** quyidagilar kiradi:

- 1) haqiqatda bajarilgan ish uchun mehnatga haq to‘lashning qabul qilingan shakllari va tizimlariga muvofiq ishbay narxlar, tarif stavkalari va mansab maoshlaridan kelib chiqqan holda hisoblangan ish haqi;
- 2) ilmiy daraja va faxriy unvon uchun ustamalar;
- 3) predmeti ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish bo‘lgan fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalarga muvofiq jismoniy shaxslarga to‘lanadigan to‘lovlar, bundan yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan tuzilgan shartnomalar mustasno;
- 4) yuridik shaxsning boshqaruv organi (kuzatuv kengashi yoki boshqa shunga o‘xhash organi) a’zolariga yuridik shaxsning o‘zi tomonidan amalga oshiriladigan to‘lovlar;
- 5) rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar:
  - a) *yillik ish yakunlari bo‘yicha mukofot;*
  - b) *yuridik shaxsning mukofotlash to‘g‘risidagi lokal hujjalarda nazarda tutilgan to‘lovlar;*
  - c) *kasb mahorati, murabbiylit uchun tarif stavkalariga va mansab maoshlariga ustamalar;*
  - d) *ko‘p yil ishlaganlik uchun pul mukofoti va to‘lovlar;*
  - e) *ratsionalizatorlik takliflari uchun to‘lovlar;*
  - f) *mehnat natijalari bilan bog‘liq bo‘lmagan bir yo‘la beriladigan mukofotlar;*
  - g) *ta‘tilga qo‘sishimcha haqlar.*
- 6) kompensatsiya to‘lovleri (kompensatsiya):

- a) qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan tabiiy-iqlim sharoitlari noqulay bo‘lgan joylardagi ishlar bilan bog‘liq qo‘srimcha to‘lovlar (ish staji uchun ustamalar, baland tog‘li, cho‘l va suvsiz hududlarda ishlaganlik uchun belgilangan koefitsiyentlar bo‘yicha to‘lovlar);
- b) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan kasblar va ishlar ro‘yxati bo‘yicha og‘ir, zararli, o‘ta zararli mehnat sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, shu jumladan shunday sharoitlardagi uzlucksiz ish staji uchun ish haqiga ustamalar;
- c) texnologik jarayon jadvalida nazarda tutilgan tungi vaqtida, ish vaqtidan tashqari dam olish kunlarida va bayram (ishlanmaydigan) kunlarida ishlaganlik uchun tarif stavkalari hamda maoshlarga ustamalar va qo‘srimcha to‘lovlar;
- d) ko‘p smenali rejimda ishlaganlik, shuningdek bir necha kasbda, lavozimda ishlaganlik, xizmat ko‘rsatish doirasi kengayganligi, bajariladigan ishlar hajmi ortganligi, o‘zining asosiy ishi bilan bir qatorda ishda vaqtincha bo‘lmagan xodimlarning vazifalarini bajarganlik uchun ustamalar;
- e) doimiy ishi yo‘lda kechadigan yoki ko‘chib yurish va harakatlanish xususiyatiga ega bo‘lgan xodimlarning jo‘nab ketish paytidan qaytib kelish paytigacha yo‘ldagi har bir sutka uchun to‘lanadigan ish haqiga ustamalar;
- f) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ishlar vaxta usulida bajarilganda xodimlarning ish haqiga ustamalar;
- g) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ishlar vaxta usulida bajarilganda xodimlarning ish haqiga ustamalar;
- h) yuridik shaxs joylashgan yerdan (yig‘ilish punktidan) ishlash joyigacha va orqaga qaytish uchun vaxtada ishlash jadvalida nazarda tutilgan, ishlar vaxta usulida bajarilgan taqdirda yo‘lga ketadigan kunlar, shuningdek xodimlar meteorologik sharoitlar sababli va (yoki) transport tashkilotlarining aybi bilan yo‘lda ushlanib qolgan kunlar uchun tarif stavkasi, maosh miqdorida to‘lanadigan summalar;
- i) ishlar vaxta usulida tashkil qilinganda, ish vaqtি umumlashtirilgan holda hisobga olinayotganda va qonun hujjatlarida

*nazarda tutilgan boshqa hollarda xodimlarga ish vaqtining belgilangan davomiyligidan ortiq ishlaganligi munosabati bilan beriladigan dam olish kunlari (otgullar) uchun to'lovlar;*

*j) yer osti ishlarida doimiy band bo'lgan xodimlarga ularning stvoldan ishslash joyiga borish va u yerdan qaytish uchun shaxtada (konda) harakatlanishining me'yoriy vaqti uchun to'lanadigan qo'shimcha haqlar;*

*k) dala ta'minoti;*

*7) ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash:*

*a) qonun hujjatlariga muvofiq:*

*– yillik asosiy (uzaytirilgan asosiy) ta'tilga haq to'lash, shuningdek undan foydalanilmaganda, shu jumladan xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinganda pullik kompensatsiya to'lash;*

*– noqulay va o'ziga xos mehnat sharoitlarida, shuningdek og'ir va noqulay tabiiy-iqlim sharoitlarida ishlaganligi uchun ayrim tarmoqlarning xodimlariga beriladigan qo'shimcha ta'tilga haq to'lash;*

*– o'qish bilan bog'liq ta'tilga va ijodiy ta'tillarga haq to'lash;*

*– o'n ikki yoshga to'lмаган иккى үндан ортиг боласи юки o'n olti yoshga to'lмаган ногирон боласи бор айолларга берилган qo'shimcha ta'tilga haq to'lash;*

*b) asosiy ish haqi qisman saqlanib qolgan holda majburiy ta'tilda bo'lgan xodimlarga to'lovlar;*

*d) donor xodimlarga ko'rikdan o'tish, qon topshirish va qon topshirilgan har bir kundan keyin beriladigan dam olish kunlari uchun haq to'lash;*

*e) O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga muvofiq davlat yoki jamoat vazifalarini bajarganlik uchun mehnatga haq to'lash;*

*f) qishloq xo'jaligi ishlariga va boshqa ishlarga jalb qilinadigan xodimlarning asosiy ish joyi bo'yicha saqlab qolinadigan ish haqi;*

- g) avvalgi ish joyi bo'yicha mansab maoshi miqdorlari muayyab muddat davomida saqlab qolingan holda boshqa yuridik shaxslaridan ishga joylashtirilgan, shuningdek vazifani vaqtincha turganda xodimlarga maoshdagi farqni to'lash;
- h) yuridik shaxslarning xodimlariga kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida ishdan ajralgan holda o'qishi asosiy ish joyi bo'yicha to'lanadigan ish haqi;
- i) xodimning aybisiz bekor turib qolingan vaqt uchun haq to'lash;
- j) sog'lig'ining holatiga ko'ra yengilroq yoki noqulay ishchiqarish omillarining ta'siridan xoli bo'lgan kamroq haq to'lanadigan ishga o'tkazilganda saqlanadigan avvalgi o'rtacha ish haqini qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda to'lash, shuningdek vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafayolariga ish haqining haqiqiy miqdorigacha qo'shimcha haq to'lash;
- k) majburiy progul vaqtini yoki kam haq to'lanadigan ishni bajarish qaroriga ko'ra haq to'lash;
- l) o'n sakkiz yoshga to'lmasan shaxslarning imtiyozli soatlariga, onalarga bolani ovqatlantirishi uchun ishda beriladigan mafuslarga, shuningdek tibbiy ko'rikdan o'tish bilan bog'liq vaqt uchun haq to'lash;
- m) yuridik shaxslarning asosiy ishidan ozod qilingan va ozod qilinagan holda xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va shaxslarning malakasini oshirish uchun, o'quvchilar va talabalarning shaxslab chiqarish amaliyotiga rahbarlik qilish uchun jalg qilinadigan malakali xodimlari mehnatiga haq to'lash;
- n) oliy o'quv yurtini tamomlaganidan keyin yosh mutaxassislarga ta'til vaqtini uchun yuridik shaxs hisobidan to'lanadigan nafaqalar;
- 8) nogironlarga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan qo'shimcha to'lovlar.

**Amortizatsiya xarajatlari:** Soliq kodeksining 144-moddasiga ko‘ra buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq soliq to‘lovchi tomonidan hisobga olinadigan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar ushbu moddaning qo‘llanilishi maqsadida **amortizasiya qilinadigan mol-mulk** deb e’tirof etiladi.

Quyidagilar amortizatsiya qilinmaydi:

- 1) yer uchastkalari va tabiatdan foydalanishga doir boshqa obyektlar (suv, yer osti boyliklari va boshqa tabiiy resurslar);
- 2) mahsuldor chorva mollari;
- 3) kutubxona fondi;
- 4) muzey qimmatliklari (muzey ashyolari);
- 5) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda konservatsiyalashga o‘tkazilgan asosiy vositalar;
- 6) arxitektura yodgorliklari;
- 7) umumiyl foydalanishdagi avtomobil yo‘llari, yo‘laklar, sayilgohlar, xiyobonlar, mahalliy davlat hokimiyyati organlari tasarrufidagi bo‘lgan obodonlashtirish inshootlari;
- 8) qiymati ilgari to‘liq chegirilgan mol-mulk;
- 9) asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar tarkibiga o‘tkazilmagan kapital qo‘yilmalar.

Soliq solish maqsadida amortizatsiya qilinishi kerak bo‘lgan mol-mulk amortizatsiyaning eng yuqori normalari bilan quyidagi guruhlarga taqsimlanadi:<sup>1</sup>

I guruh. Binolar, imoratlar va inshootlar – 5% (amortizatsiyaning yillik eng yuqori normasi).

II guruh. Uzatish qurilmalari – 8% (amortizatsiyaning yillik eng yuqori normasi).

III guruh. Kuch-quvvat beradigan mashinalar va uskunalar – 8% (amortizatsiyaning yillik eng yuqori normasi).

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Rasmiy nashr – O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi. – T.: «Adolat», 2014. 21-bob, 144-modda. 132–133-betlar.

IV guruh. Faoliyat turlari boyicha ish mashinalari va uskunalar (harakatlanuvchi transportdan tashqari) – 15% (amortizatsiyaning yillik eng yuqori normasi).

V guruh. Harakatlanuvchan transport:

– temir yo‘lning harakatdagi tarkibi, dengiz va daryo kemalari, baliqlichilik sanoati kemalari, havo transporti – 8% (amortizatsiyaning yillik eng yuqori normasi).

– avtomobil transportining harakatdagi tarkibi, ishlab chiqarish transporti, yengil avtomobillar, sanoat traktorlari – 20% (amortizatsiyaning yillik eng yuqori normasi).

– kommunal transport, maxsus vaxta vagonlari, boshqa transport vositalari – 10% (amortizatsiyaning yillik eng yuqori normasi).

– boshqa transport vositalari – 20% (amortizatsiyaning yillik eng yuqori normasi).

VI guruh. Kompyuter, periferiya qurilmalari, ma’lumotlarni qayta ishlash uskunalari – 20% (amortizatsiyaning yillik eng yuqori normasi).

VII guruh. Boshqa guruhlarga kiritilmagan asosiy vositalar:

– ko‘p yillik dov-daraxtlar – 10% (amortizatsiyaning yillik eng yuqori normasi);

– boshqalar – 15% (amortizatsiyaning yillik eng yuqori normasi).

Soliq kodeksining 145-moddasiga ko‘ra **boshqa xarajatlarga quyidagilar kiradi:**

1) soliq to‘lovchining faoliyatini amalga oshirish uchun o‘zga yuridik yoki jismoniy shaxslar bajargan ishlar va xizmatlar qiy-mati, bularga quyidagilar kiradi:

– mahsulot ishlab chiqarish (tayyorlash) bo‘yicha ayrim operatsiyalarni bajarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish, xomashyo (materiallar)ga ishlov berish, belgilangan texnologik jarayonlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish, asosiy vositalarga texnik xizmat ko‘rsatish va boshqa shu kabi ishlar;

- chet yuridik va jismoniy shaxslarning transport xizmatlari;
- ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etish uchun yoki soliq to‘lovchining faoliyati bilan bog‘liq boshqa vazifalarni bajarish uchun chet yuridik shaxslar tomonidan xodimlar (texnik personal) ni taqdim etishga doir xizmatlar uchun xarajatlari;

2) asosiy vositalar va boshqa mol-mulkni ish holatida saqlash xarajatlari (texnik ko‘rik va qarov, o‘rtacha, joriy hamda butkul ta’mirlash xarajatlari). Asosiy vositalarni kapital ta’mirlashni amalga oshirish xarajatlarining bir maromda kiritib borilishini ta’minlash uchun soliq to‘lovchi asosiy vositalarning kelgusi ta’mirlanishi uchun belgilangan tartibda zaxiralar tashkil etishga haqli;

3) ijara to‘lovleri, shuningdek ijaraga olingan asosiy vositalarni saqlab turish bilan bog‘liq xarajatlar;

4) konservatsiyaga qo‘yilgan ishlab chiqarish quvvatlari va obyektlarini saqlash xarajatlari (boshqa manbalar hisobiga qoplanadigan xarajatlardan tashqari);

5) vakolatli tashkilotlar tomonidan muayyan huquqlar yoki litsenziyalar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni berishni nazarda tutuvchi hujjatlarni bergenlik uchun yig‘imlar, bojlar va boshqa to‘lovlarni to‘lash bo‘yicha xarajatlar, shuningdek tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni ekspertizadan o‘tkazish hamda mahsulotni sertifikatlashtirish bilan bog‘liq xarajatlar;

6) mahsulotni sotish bozorlarini o‘rganish xarajatlari;

7) inventar, xo‘jalik anjomlari va maxsus ish kiyimlarini yuvish, tuzatish hamda dezinfeksiya qilish xarajatlari summasi yoki ularga to‘langan haq;

8) qat’iy hisobotdagi blanklarni, kvitansiyalar va boshqa hujjatlarni tayyorlash xarajatlari summasi yoki ularni olish uchun to‘langan haq;

9) tushumni inkassatsiya qilish xarajatlari;

10) reklama uchun xarajatlar;

11) qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'ini kiritgan holda mabsulot (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilish tushumi hajming bir foizi doirasida vakillik xarajatlari. Vakillik xarajatlariiga soliq to'lovchining o'zaro hamkorlik o'matish yoki uni saqlab tuish, shuningdek soliq to'lovchining boshqaruv va nazorat organlariga majlislariga kelgan ishtirokchilarni qabul qilish hamda ularga xizmat ko'rsatish maqsadlarida qiladigan xarajatlari kiradi. Bu xarajatlар mazkur shaxslarning rasmiy qabulini o'tkazish, transport minoti, ovqatlanishi va turar joyi, soliq to'lovchining shtatida magan tarjimonlar xizmatiga haq to'lash xarajatlaridir;

12) kafolatli xizmat muddati belgilangan buyumlarni kafolatli mirlash va ularga kafolatli xizmat ko'rsatish xarajatlari;

13) telekommunikatsiyalar va pochta xizmatlari uchun to'lanadigan haq;

14) xizmat safarlari uchun xarajatlar:

a) tasdiqlovchi hujjatlar asosida xizmat safarlari joyiga borish qaytib kelish uchun haqiqatda qilingan xarajatlari, shu jumladan joyni band qilib qo'yish haqi. Yo'l hujjatlari bo'lмаган taqdirda, xarajatlар temir yo'l transportidagi (yoki agar temir yo'l aloqasi bo'lmasa, shahlararo avtobusdagi) yo'l haqi qiymati miqdorida, hukmaviyaviy qiyamatining 30 foizidan ko'p bo'lмаган miqdor chegirib tashlanadi;

b) O'zbekiston Respublikasi doirasida tasdiqlovchi hujjatlar asosida joyni ijaraga olish uchun haqiqatda qilingan xarajatlari, shu jumladan joyni band qilib qo'yish xarajatlari. Yashaganlikni tasdiqlovchi hujjatlar bo'lmasa, mazkur xarajatlari qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida chegirib tashlanadi. O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqilganda joyni ijaraga olish uchun qilingan xarajatlari qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida chegiriladi;

d) xizmat safarida bo'lingan vaqt uchun qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida to'lanadigan kundalik xarajatlari uchun haq (sutkalik pullar);

e) qonun hujjatlarida belgilangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan boshqa xarajatlar;

15) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan amalga oshiriladigan kompensatsiya to‘lovleri;

16) soliq to‘lovchining faoliyatida talab etiladigan boshqa shaharlik, chet elliq mutaxassislarni ishga taklif qilish bilan bog‘liq xarajatlar;

17) auditorlik tekshiruvlari bo‘yicha xarajatlar;

18) maslahat, axborot xizmatlariga, shuningdek buxgalteriya hisobini yuritish va tiklash bo‘yicha xizmatlarga haq to‘lash;

19) bank va depozitariy xizmatlariga haq to‘lash;

20) soliq to‘lovchining faoliyatida zarur bo‘lgan kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, shuningdek xodimlarning malakasini oshirish xarajatlari;

21) qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan hamda soliq to‘lovchining xarajatlariga kiritiladigan budgetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lanadigan soliqlar, boshqa majburiy to‘lovlari;

22) assotsiatsiyalarga, jamg‘armalarga va boshqa tashkilotlarga, shu jumladan xalqaro tashkilotlarga to‘lanadigan badallar, agar bunday badallarni to‘lash soliq to‘lovchi faoliyatining amalga oshirilishi uchun majburiy shart bo‘lsa yoki O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga binoan amalga oshirilsa;

23) mehnat sharoitlarini muhofaza qilish va ta’minlash, texnika xavfsizligi, yong‘inga qarshi va soqchilik muhofazasini hamda texnik foydalanish qoidalariда nazarda tutilgan boshqa maxsus talablarni ta’minlash xarajatlari;

24) litsenziya bitimlariga ko‘ra huquq egasi bilan shartnomaga bo‘yicha elektron-hisoblash mashinalari va ma’lumotlar bazalari dasturlaridan foydalanish huquqini olish bilan bog‘liq xarajatlar. Mazkur xarajatlarga elektron-hisoblash mashinalari va ma’lumotlar bazalari uchun dasturlarni yangilashga doir xarajatlar ham kiradi;

25) intellektual faoliyat natijalariga bo‘lgan huquqlardan va xususiy alomatlarni aks ettiruvchi vositalardan (xususan, ixtirolarga, sanoat namunalariga va intellektual mulkning boshqa turlariga bo‘lgan patentlardan yuzaga keladigan huquqlardan) foydalanganlik uchun to‘lovlar;

26) buxgalteriya hisobotini e’lon qilish, shuningdek boshqa axborotni, agar qonun hujjatlarida ularni e’lon qilishni (oshkor qilishni) amalga oshirish majburiyati soliq to‘lovchining zimmasiga yuklangan bo‘lsa, e’lon qilish va boshqacha tarzda oshkor qilish xarajatlari;

27) xodimning mehnatda mayib bo‘lishi yoki uning sog‘lig‘iga boshqacha tarzda shikast yetkazilishi yoxud xodim oila a’zosining vafoti munosabati bilan beriladigan yoki xodimning vafoti munosabati bilan oila a’zolariga beriladigan moddiy yordam;

28) qonun hujjatlariga muvofiq bolani ikki yoshga to‘lguniga qadar parvarishlash bo‘yicha har oylik nafaqani to‘lash xarajatlari;

29) qonun hujjatlariga muvofiq qayta tashkil etilishi, xodimlar (shtatlar) sonining qisqarishi munosabati bilan ozod etiladigan xodimlarga to‘lovlar;

30) tibbiy yordam punktini saqlab turish xarajatlari, xodimlarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazganlik va profilaktika tadbirlari uchun tibbiyat muassasalariga to‘lanadigan haq;

31) sog‘liqni saqlash obyektlari, qariyalar va nogironlar uylari, sog‘lomlashtirish oromgohlari, madaniyat hamda sport obyektlari, ta’lim obyektlari, shuningdek, uy-joy fondi obyektlari ta’minotiga doir xarajatlar (shu jumladan, amortizatsiya ajratmalari va barcha turdag‘i ta’mirlash ishlarini o‘tkazish xarajatlari);

32) ixtiyoriy sug‘urta uchun mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘ini qo‘sghan holda tushgan tushum hajmining 2 foizi doirasidagi ajratmalar;

33) O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo‘lgan yuridik shaxslarga mol-

mulkni sug‘urta qilish va hayotni uzoq muddatli sug‘urta qilish bo‘yicha to‘lanadigan sug‘urta mukofotlari summalari;

34) sug‘urtaning majburiy turlariga ajratmalar;

35) atrof-muhitni ifoslantirganlik va chiqindilarni joylashtirganlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida kompensatsiya to‘lovleri;

36) faoliyat bilan bog‘liq ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalari uchun xarajatlar, bundan asosiy vositalarni sotib olish, ularni o‘rnatish hamda kapital tusdagi boshqa xarajatlar mustasno. Loyiha-smeta hujjatlari, bajarilgan ishlari dalolatnomasi va tegishli ilmiy tadqiqot, loyihalash, izlanish hamda tajriba-konstrukturlik ishlari o‘tkazilganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar bunday xarajatlarni chegirmalar jumlasiga kiritish uchun asos bo‘ladi;

37) ishlab chiqarish tusidagi ixtirochilik, ratsionalizatorlik, tajriba-eksperimental ishlarini o‘tkazish, ixtirochilik va ratsionalizatorlik takliflari bo‘yicha modellar va namunalarni tayyorlash hamda ularni sinash, ixtirochilik va ratsionalizatorlik bo‘yicha ko‘rgazmalar va ko‘riklar, tanlovlardan tashkil etish, ixtirochilik va ratsionalizatorlik bo‘yicha boshqa tadbirlar, mualliflik haqini to‘lash, yangi texnologiyalar yaratish hamda qo‘llanilayotgan texnologiyalarni takomillashtirish, yangi turdagini xomashyo va materiallarni yaratish, ishlab chiqarishni qayta jihozlash xarajatlari;

38) soliq to‘lovchi tomonidan geologik tadqiqotlar va tabiiy resurslarni qazib olish bo‘yicha tayyorgarlik ishlari uchun amalga oshirilgan, jami daromaddan keyingi yillar mobaynida bir maromda yiliga 15 foizdan oshmagan miqdorda chegirib tashlanadigan xarajatlar;

39) qazib oluvchi tarmoqlarda xarajatlarni qoplashning belgilangan muddati mobaynida teng ravishda ishlab chiqarish tannarxiga yoki qazib olingan mahsulotning hajmiga va miqdoriga mutanosib ravishda hisobdan chiqariladigan tayyorgarlik ishlariiga doir xarajatlar;

40) zararlar va yo‘qotishlar:

a) bekor qilingan ishlab chiqarish buyurtmalari bo‘yicha;

b) tara bilan bog‘liq operatsiyalar bo‘yicha;

d) umidsiz qarzdorlikni hisobdan chiqarishdan ko‘rilgan zararlar, bundan shubhali qarzlar bo‘yicha tashkil etilgan zaxira hisobiga hisobdan chiqarish mustasno;

e) hisobot yilida aniqlangan o‘tgan yillardagi operatsiyalar bo‘yicha xarajatlar va zararlar;

f) tabiiy ofatlar (ishlab chiqarish zaxiralari, tayyor mahsulotlar va boshqa moddiy boyliklarning nobud bo‘lishi hamda buzilishi, ishlab chiqarishning to‘xtashi oqibatidagi yo‘qotishlar va boshqalar) tufayli ko‘rilgan o‘rni qoplanmaydigan yo‘qotishlar va zararlar, shu jumladan tabiiy ofatlar oqibatlarini oldini olish yoki ularni bartaraf etish bilan bog‘liq xarajatlar;

g) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida molmulkni bepul topshirishdan ko‘rilgan zararlar, shuningdek telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini bepul topshirishdan hamda ulardan bepul foydalanish va ularga xizmat ko‘rsatishdan ko‘rilgan zararlar;

h) uch yildan ortiq foydalanilgan asosiy vositalarni realizatsiya qilishdan ko‘rilgan zararlar;

i) asosiy vositalarni har yili amalga oshiriladigan qayta baholash natijasida vujudga keladigan ilgarigi qo‘sishma baholashdan (bahoning arzonlashtirilgan summasidan) olinadigan o‘sishdan ortadigan bahoni arzonlashtirish summasi;

j) yaroqsiz mahsulotdan ko‘rilgan yo‘qotishlar;

k) ichki ishlab chiqarish sabablariga ko‘ra bekor turib qolishlardan ko‘rilgan yo‘qotishlar;

l) tashqi sabablarga ko‘ra (yuridik shaxsning aybisiz) bekor turib qolishlardan ko‘rilgan, aybdorlar tomonidan kompensatsiya qilinmaydigan yo‘qotishlar;

m) qarz summasi bilan mazkur qarzni yuzaga keltirgan realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) tannarxi o'rtasidagi farqdan oshmaydigan summa doirasidagi qarzni talab qilish huquqidан о'зганинг foydasiga voz kechishdan ko'rilgan zararlar;

41) kreditlar (zayomlar) bo'yicha foizlar, bundan investitsiya davrida kapital qo'yilmalar tarkibiga kiruvchi investitsiyalar uchun olingan kreditlar va zayomlar bo'yicha foizlar mustasno;

42) kredit shartnomasida nazarda tutilgan stavkalar doirasida muddati o'tgan va uzaytirilgan kreditlar (zayomlar) bo'yicha foizlar, bundan investitsiya davrida kapital qo'yilmalar tarkibiga kiruvchi investitsiyalar uchun olingan kreditlar va zayomlar bo'yicha foizlar mustasno;

43) valuta hisobvaraqlari, shuningdek chet el valutasidagi operatsiyalar bo'yicha kursdagi salbiy farq, bu farq buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi hollarda jami daromaddan chegirib tashlanadi:

– chet el valutasi mulk huquqining Soliq chet el valutasiga o'tishi sanasidagi holatga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kursdan past narxda sotilganda;

– chet el valutasi ushbu chet el valutasiga bo'lган mulk huquqining o'tish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kursdan yuqori narxda sotib olinganda;

– chet el valutasi kursining o'zgarishi munosabati bilan tegishli hisobot davri uchun balansning valuta moddalari qayta baholanganda.

Baholari chet el valutasida belgilangan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun o'zaro hisob-kitoblarni milliy valutada amalga oshiradigan soliq to'lovchilar uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilingan yoki olingan sanadan ushbu tovarlar (ishlar, xizmatlar)ga haq to'langan sanagacha bo'lган davrda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilagan kursdagi o'zgarish munosabati bilan yuzaga keluvchi salbiy farq buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq tovarlar

fahlar, xizmatlar) uchun haq to‘langan sanadagi jami daromaddan cheginib tashlanadi;

44) o‘zining qimmatli qog‘ozlarini chiqarish va tarqatish bilan bog‘liq xarajatlar;

45) moliyaviy ijara, shu jumladan lizing bo‘yicha ijaraga beruvchining (lizing beruvchining) foizli daromadi bo‘lgan mablag‘larni kashga doir xarajatlar;

46) soliq to‘lovchi tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar va boshqa qarz qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha foizlar tarzidagi xarajatlar;

47) favqulodda zararlar. Favqulodda zararlar – soliq to‘lovchilarning odatdagi faoliyati doirasidan chetga chiquvchi voqealar yoki operatsiyalar natijasida vujudga keladigan va ro‘y berishi kutilmagan odatdan tashqari xarajatlarning moddalaridir. U yoki bu modda favqulodda zararlar moddasi sifatida aks ettirilishi uchun u quyidagi mezonlarga javob berishi kerak:

- yuridik shaxsning odatdagi xo‘jalik faoliyati uchun xos bo‘lmasligi;

- bir necha yil mobaynida takrorlanmasligi;

48) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyektining muassislari (ishtirokchilari) tomonidan uning majburiyatlarini bajarish uchun yo‘naltiriladigan mablag‘lar. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to‘xtatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda Soliq mablag‘lar chegirib tashlanadigan xarajatlar sifatida qaralmaydi.

49) vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalarini, bolani ikki yoshga to‘lguniga qadar parvarishlash nafaqalarini, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan boshqa nafaqalarni to‘lash xarajatlari.

50) xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan ishdan bo‘shatish nafaqasi va boshqa to‘lovlari;

51) mehnat sharoitlari noqulay bo‘lgan ishlarda band bo‘lgan xodimlarni mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarda belgilangan tartibda sut, davolash-profilaktika oziq-ovqati, gazlangan sho‘r suv, shaxsiy himoya va gigiyena vositalari bilan ta’minlash xarajatlari;

52) xodimlarni ish joyiga olib kelish va qaytarib olib ketish xarajatlari;

53) xodimga xizmat vazifalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan maxsus kiyim-bosh, maxsus poyabzal, formalı kiyim-bosh berish xarajatlari yoki ularni pasaytirilgan baholarda sotish munosabati bilan qilingan xarajatlar, shuningdek qonun hujjatlarda nazarda tutilgan hollarda ayrim toifadagi xodimlarni o‘z xizmat vazifalarini bajarishi chog‘ida oziq-ovqat bilan ta’minlash xarajatlari;

54) xodim boshqa joyga ishga o‘tkazilganda yoxud ko‘chib borganda ko‘chish, mol-mulkini ko‘chirib borish, joy ijarasi (yo‘l xarajatlari uchun beriladigan pul) xarajatlari;

55) mehnatda mayib bo‘lganlik, kasb kasalligi yoki sog‘liqqa boshqacha shikast yetganligi bilan bog‘liq zararning o‘rnini qoplash bo‘yicha quyidagi miqdordagi to‘lovlar:

– jabrlanuvchi mehnatda mayib bo‘lguniga qadar olgan o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan foiz hisobidagi, uning kasbga oid mehnat qobiliyatini yo‘qotganlik darajasiga muvofiq belgilanadigan har oylik to‘lovlar (voyaga yetmagan shaxs mehnatda mayib bo‘lgan taqdirda, zararning o‘rnini uning ish haqi (daromadi) miqdoridan kelib chiqqan holda, lekin eng kam ish haqining besh baravaridan kam bo‘lmagan miqdorda qoplanadi);

– maxsus tibbiy parvarishga muhtoj jabrlanuvchilarga qo‘sishimcha xarajatlar uchun oyiga eng kam ish haqining ikki baravari miqdoridagi to‘lovlar;

– jabrlanuvchining maishiy parvarishi uchun qo‘sishimcha xarajatlar tariqasida har oyda eng kam ish haqining ellik foizi miqdoridagi to‘lovlar;

– xodimning sog‘lig‘iga shikast yetganligi munosabati bilan ish beruvchi tomonidan bir yo‘la to‘lanadigan nafaqa tariqasida jabrlanuvchining yillik o‘rtacha ish haqi miqdoridagi to‘lovlar;

56) boquvchisi vafot etganligi munosabati bilan quyidagi miqdordagi to‘lovlar:

– marhum o‘rtacha oylik ish haqining vafot etgan boquvchining qaramog‘ida bo‘lgan va uning vafoti munosabati bilan zararni undirishga haqli bo‘lgan mehnatga qobiliyatsiz shaxslarga to‘g‘ri keladigan ulushi miqdoridagi to‘lovlar;

– boquvchisi vafot etganligi munosabati bilan zararni undirishga haqli bo‘lgan shaxslarga bir yo‘la to‘lanadigan nafaqa tariqasida marhumning o‘rtacha yillik ish haqining olti baravari miqdoridagi to‘lovlar.

### **3.1.5. Foyda solig‘i stavkalari**

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i stavkalari 2014-yil uchun quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval).

**I-jadval**

#### **Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i**

#### **STAVKALARI<sup>1</sup>**

| No | To‘lovchilar                                                     | Soliq stavkalari,<br>soliq solinadigan<br>bazaga nisbatan<br>% da |
|----|------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------|
| 1  | Yuridik shaxslar (2–3 bandlarda nazarda tutilganchidan tashqari) | 8                                                                 |
| 2  | Tijorat banklari                                                 | 15                                                                |

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 25-dekabrdagi PQ-2099-sonli qarorining 7-ilovasi.

|   |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 |                                                                                  |
|---|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------|
| 3 | Auksionlar o'tkazishdan, gastrol-konsert faoliyati bilan shug'ullanishga litsenziyasi bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarni (shu jumladan, norezidentlarni) jalb etish yo'li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oluvchi yuridik shaxslar                                                                                                                                              | 35                                                                               |
| 4 | O'zi ishlab chiqargan tovarlar, ishlar, xizmatlar eksportining (ishlarni bajarish, xizmatlarni ko'rsatish joyidan qat'iy nazar) erkin almashtiriladigan valutadagi ulushi quyidagi miqdorlarni tashkil etadigan eksportchi korxonalar uchun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 10-oktabrdagi PF-1871-son Farmoni bilan tasdiqlangan ro'yxatda keltirilgan xomashyo mahsulotlari bundan mustasno: |                                                                                  |
|   | sotishning umumiyligi hajmida 15 foizdan 30 foizgacha sotishning umumiyligi hajmida 30 foiz va undan yuqori                                                                                                                                                                                                                                                                                                     | belgilangan stavka 30%ga pasaytiriladi<br>belgilangan stavka 50%ga pasaytiriladi |
| 5 | I-bandda ko'rsatilgan xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari uchun, plastik kartalar qo'llab haq to'langani ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bo'yicha                                                                                                                                                                                                                                                                 | belgilangan stavka 5%ga pasaytiriladi                                            |

Soliq kodeksining 160-moddasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi norezidentining to'lov manbaida soliq solinadigan daromadlariga quyidagi stavkalar bo'yicha soliq solinadi<sup>1</sup>:

- 1) dividendlar va foizlarga – 10%;
- 2) sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha sug'rta mukofotlariga – 10%;

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi. – T.: «Adolat», 2014. 27-bob, 160-modda. 174-bet.

3) xalqaro aloqa uchun telekommunikatsiyalar, xalqaro tashishlarga – 6%;

4) ustav kapitalidagi aksiyalaridan, ulushlar (paylar)dan, ko‘chmas mulkni realizatsiya qilishdan, tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi hududida realizatsiya qilishdan va roylidan olingan daromadlarga – 20%.

### **3.1.6. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i bo‘yicha imtiyozlar**

**Soliq kodeksining 158-moddasiga ko‘ra yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini to‘lashdan quyidagi yuridik shaxslar ozod qilinadi:**

1) davolash muassasalari huzuridagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalari;

2) jazoni ijro etish muassasalari;

3) ichki ishlar organlari huzuridagi qo‘riqlash bo‘linmalari.

**Yuridik shaxslarning quyidagi foydasi yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini to‘lashdan ozod qilinadi:**

1) protez-ortopediya buyumlari, nogironlar uchun inventarlar ishlab chiqarishdan, shuningdek nogironlarga ortopedik protezlash xizmati ko‘rsatishdan, nogironlar uchun mo‘ljallangan protez-ortopediya buyumlari va inventarlarni ta‘mirlash hamda ularga xizmat ko‘rsatishdan olingan foydasi;

2) shahar yo‘lovchilar transportida (taksidan, shu jumladan yo‘nalishli taksidan tashqari) yo‘lovchilarni tashish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatishdan olingan foydasi;

3) tarix va madaniyat yodgorliklarini ta‘mirlash hamda qayta tiklash ishlarini amalga oshirishdan olingan foydasi;

4) Xalq banki tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag‘lardan foydalanishdan olingan foydasi.

Ishlovchilari umumiyligi sonining 3 foizidan ko‘proq‘ini nogironlar tashkil etgan yuridik shaxslar uchun yuridik shaxslardan olina-

digan foyda solig‘i summasi Soliq qismida belgilangan normadan ortiq ishga joylashtirilgan nogironlarning har bir foiziga yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining summasi bir foiz kamaytiriladigan hisob-kitob asosida kamaytiriladi.<sup>1</sup>

**Soliq kodeksining 158-moddasiga ko‘ra yuridik shaxslarning soliq solinadigan foydasi quyidagi summaga kamaytiriladi:**

1) ekologiya, sog‘lomlashtirish va xayriya jamg‘armalari, madaniyat, xalq ta’limi, sog‘lijni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport muassasalariga, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga beriladigan badal-lar summasiga, biroq soliq solinadigan foydaning 2 foizidan ko‘p bo‘limgan miqdorda;

2) ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga, yangi texnologik jihoz xarid qilishga, ishlab chiqarishni yangi qurilish shaklida kengaytirishga, ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun foydalaniladigan binolar va inshootlarni rekonstruksiya qilishga, shuningdek ushbu maqsadlar uchun olingan kreditlarni uzishga, lizing obyekti qiymatining o‘rnini qoplashga yo‘naltiriladigan mablag‘lar summasiga, tegishli soliq davrida hisoblangan amortizatsiyani chegirib tashlagan holda, biroq soliq solinadigan foydaning 30 foizidan ko‘p bo‘limgan miqdorda. Soliq solinadigan foydani kamaytirish yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan xarajatlar qilingan soliq davridan e’tiboran, texnologik jihoz bo‘yicha esa u foydalanishga topshirilgan paytdan e’tiboran besh yil ichida amalga oshiriladi. Yangi texnologik jihoz xarid qilingan (import qilingan) paytdan e’tiboran uch yil ichida realizatsiya qilingan yoki tekinga berilgan taqdirda, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini to‘lash bo‘yicha majburiyatlar tiklangan holda, mazkur imtiyozning amal qilishi imtiyoz qo‘llanilgan butun davr uchun bekor qilinadi. Ushbu imtiyoz

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Rasmiy nashr – O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi. – T.: «Adolat», 2014. 27-bob, 158-modda. 172-bet.

tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi soliq to‘lovchilar tomonidan qo‘llaniladi;

4) yosh oilalar toifasiga kiruvchi xodimlarga ipoteka kreditlari badallari to‘lashga va (yoki) mulk sifatida uy-joy olishga tekin yo‘naltiriladigan mablag‘lar summasiga, biroq soliq solinadigan bazaning 10 foizidan oshmagan miqdorda;

5) diniy va jamoat birlashmalarining (kasaba uyushmalar, siyosiy partiyalar va harakatlardan tashqari), xayriya jamg‘armalarining mulkida bo‘lgan korxonalar foydasidan shu birlashmalar va jamg‘armalarining ustavda belgilangan faoliyatini amalga oshirish uchun yo‘naltiriladigan ajratmalari summasiga;

6) qo‘sishimcha foyda solig‘ini to‘lovchilar uchun sof qo‘sishimcha foyda summasiga.

### **3.1.7. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini hisoblash, hisobot topshirish va to‘lash muddatlari**

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini hisoblab chiqarish hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining hisob-kitobi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi.

O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqa-li amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari doimiy muassasa joylashgan joydagi davlat soliq xizmati organiga O‘zbekiston Respublikasidagi faoliyatining xususiyati haqidagi hisobotni (erkin shaklda), shuningdek yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining hisob-kitobini chet el investitsiyalari ishtiroki-dagi korxonalar uchun yillik moliyaviy hisobotni topshirish uchun belgilangan muddatlarda taqdim etadi. Bunda yuridik shaxslardan

olinadigan foyda solig‘ining hisob-kitobida budgetga to‘lanadigan sof foydadan olinadigan soliq summasi alohida satrda ko‘rsatiladi. Faoliyat kalendar yil tugashidan avval tugatilgan taqdirda, bu hujjatlar faoliyat tugatilganidan keyin bir oydan kechiktirmasdan taqdim etilishi shart.

Hisobot davri mobaynida soliq to‘lovchilar yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini joriy to‘lovlarni kiritish orgali to‘laydilar.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i bo‘yicha joriy to‘lovarning summasini aniqlash uchun soliq to‘lovchilar joriy hisobot davri birinchi oyining 10-kunigacha davlat soliq xizmati organiga joriy hisobot davri uchun taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydadan va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining belgilangan stavkasidan kelib chiqib hisoblangan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining summasi haqida ma’lumotnomada taqdim etadilar.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i bo‘yicha joriy to‘lovlar har oyning 10-kunidan kechiktirmay yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining summasi yil boshida taxminiy hisoblangan va ushbu hisob asosida ib taqdim etilgan ma’lumotnomada keltirilgan foyda solig‘i summasining uchdan bir qismi miqdorida to‘lanadi.

Hisobot davrida taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foyda **eng kam ish haqining ikki yuz baravaridan kam miqdorni tashkil etadigan soliq to‘lovchilar joriy to‘lovlarni to‘lamaydi.**

Taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i summasi hisobot davri uchun budgetga to‘lanishi lozim bo‘lgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i summasiga nisbatan 10 foizdan ko‘proq kamaytirilgan taqdirda, davlat soliq xizmati organi joriy to‘lovlarni yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining haqiqiy summasidan kelib chiqib penya hisoblagan holda qayta hisoblashga haqli.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini to‘lash hisob-kitoblarni topshirish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi norezidentining doimiy muassasasi yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini, shuningdek sof foydadan olinadigan soliqning joriy to‘lovlarni to‘lamasdan yilda bir marta, hisob-kitobni taqdim etish muddatidan keyin bir oy ichida to‘laydi.

### **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Foyda solig‘ini O‘zbekistonda joriy etilish tarixi qanday?
2. Yuridik shaxslar foyda solig‘ini to‘lovchilari kimlar?
3. O‘zbekiston Respublikasining rezident va norezidentlari kimlar va ular qanday tartibda soliqqa tortiladi?
4. Soliq obyekti va soliqqa tortish bazasi qanday aniqlanadi?
5. Jami daromad tarkibi nimalardan iborat?
6. Jami daromaddan chegirmalar tarkibi nimalardan iborat?
7. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i stavkalari qaysi mezonlar asosida tabaqlashtirilgan?
8. Mahsulotini eksport qiluvchi korxonalar uchun qanday stavklar belgilangan?
9. Qanday yuridik shaxslar foyda solig‘idan to‘liq ozod etiladi?
10. Yuridik shaxslarning qanday foydasi yuridik shaxslar foyda solig‘ini to‘lashdan ozod etiladi?
11. Yuridik shaxslarning qanday xarajatlari soliqqa tortiladigan daromaddan kamaytiriladi?
12. Foyda solig‘ini hisoblash, hisobot topshirish va to‘lash muddatlari qanday belgilangan?

## Mustaqil o'zlashtirish uchun chizmali materiallar

**1991-yildan shu kunga qadar O'zbekiston Respublikasida yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha soliqqa tortish tizimining rivojlanishi quyidagicha:**

- umumiy tartibda barcha soliq to'lovchilar uchun daromadlarni hisobga olish usuli joriy qilindi;
- soliq stavkasi 38 foizdan 8 foizga tushirildi;
- soliq to'lovchilar mustaqil ravishda buxgalteriya hisobini yuritish va soliqqa tortish usullarini qo'llash huquqiga ega bo'ldilar;
- chet ellik yuridik shaxslarni soliqqa tortish tartibi aniqlandi, bunda ularni rezidentlik va doimiy muassasa xususiyatlariga qarab bo'lib chiqildi;
- 1995-yil yanvar oyidan boshlab soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirish maqsadida mamlakatimizda korxonalarining foydasidan olinadigan soliq joriy etildi.
- 2008-yil 1-yanvardan kuchga kirgan Soliq kodeksining 23-moddasiga ko'ra yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i umum davlat soliqlari tarkibiga kirib, u davlat budgeti daromadlarini shakllantirishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi.

### Foyda solig'i to'lovchilari

1. O'zbekiston Respublikasining rezidentlari

2. O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan yoki hosil bo'lish manbai O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan daromadlarni oladigan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari

## **Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini to‘lamaydigan yuridik shaxslar**

1. Notijorat tashkilotlari

2. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar

### **Soliq solish obyekti**

O‘zbekiston Respublikasi rezidentlarining va O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi O‘zR norezidentlarining foydasi

O‘zbekiston Respublikasi rezidentlarining va norezidentlarining Soliq kodeksiga muvofiq chegirmalar qilinmagan holda to‘lov mabaida soliq solinadigan daromadlari

### **Jami daromad tarkibi**

tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar

boshqa daromadlar

## Soliq solinadigan baza

Jami daromad chegirib tashlanadigan xarajatlar o‘rtasidagi farq sifatida, soliq solinadigan foydaning kamaytirilishi hisobga olingan holda hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqib belgilanadi.

O‘tgan soliq davrlariga tegishli, joriy soliq davriga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan zararlar mavjud bo‘lsa, soliq solinadigan baza o‘tkaziladigan zararlar summasiga kamaytiriladi.

## Chegirmalar (xarajatlar)

moddiy xarajatlar

mehnatga haq to‘lash  
xarajatlari

amortizatsiya xarajatlari

boshqa xarajatlar

Soliq kodeksning 146-moddasiga muvofiq kelgusida soliq solinadigan foydadan chegirib tashlanadigan hisobot davridagi xarajatlar

## **3.2. SAVDO VA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARINI SOLIQQA TORTISH**

### **3.2.1. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun umumiy tartib**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Yuridik va jismoniy shaxslarni ro‘yxatdan o‘tkazishni hamda ular tomonidan savdo faoliyati amalga oshirilishini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2002-yil 26-noyabrdagi qaroriga muvofiq 2002-yil 1-dekabrdan tartib o‘rnatilgan bo‘lib, unga asosan *ulgurji savdo bilan yuridik shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tkazilgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar* ulgurji savdoni amalga oshirish huquqini beruvchi ruxsat guvohnomasi olgan taqdirdagina shug‘ullanishlari mumkin.

Ruxsat guvohnomasi yuridik shaxslarga faqat ulgurji savdoni amalga oshirish uchun moddiy-texnik bazasi (tovarlarning saqlanishi, turkumlanishi, navlarga ajratilishi va butlanishini ta‘minlovchi o‘z omborxonalarini va asbob-anjomlari) mavjud bo‘lganida va ro‘yxatdan o‘tish vaqtida eng kam oylik ish haqining kamida 4600 baravari, shundan pul mablag‘lari – eng kam oylik ish haqining kamida 1530 baravari miqdoridagi ustav jamg‘armasini shakllantirganlarga berilishi mumkin.

Ruxsat guvohnomasi ulgurji savdo bilan shug‘ullanuvchi subyekt tomonidan berilgan arizada ko‘rsatilgan muddatdan to uch yil muddatgacha bo‘lgan davr mobayniga beriladi.

Xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan ulgurji savdoni amalga oshirish qoidalari buzilganligi aniqlangan taqdirda ruxsat guvohnomasi davlat soliq xizmati organi taqdimnomasiga ko‘ra uni bergen tuman (shahar) hokimligi tomonidan qaytarib olinishi mumkin.

Ulgurji savdoni amalga oshirish uchun berilgan ruxsat guvohnomasining amal qilishi oy mobaynida savdo aylanmasi mavjud bo‘lmaganda davlat soliq xizmati organi taqdimnomasiga

ko‘ra, xizmat ko‘rsatuvchi bank axboroti asosida to‘xtatib turilishi mumkin. Ruxsatnomani bergen tuman (shahar) hokimligi korxonaning tovarlar sotib olish va sotish yuzasidan shartnomalar, shuningdek tovarlarni sotib olish uchun pul mablag‘lari manbai mavjud bo‘lgan taqdirda ruxsat guvohnomasining amal qilishini tiklashi mumkin.

Chakana savdo bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar ulgurji savdo qilsalar, u holda shartnomaga ro‘yxatdan o‘tgan joydagi davlat soliq xizmati organining turg‘un savdo shoxobchasi mavjudligi va nazorat-kassa mashinasi ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotnoma ilova qilinishi shart.

Tovarlarni kichik turkumlarda turg‘un savdo shoxobchalari orqali chakana savdo bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarga sotilgan taqdirda shartnomaga sotib oluvchi ro‘yxatdan o‘tkazilgan joydagi davlat soliq xizmati organining turg‘un savdo shoxobchasi mavjudligi va nazorat-kassa mashinasi ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotnomasi ilova qilinishi shart.

Yuridik shaxs sifatida ro‘ixatdan o‘tkazilgan xo‘jalik yurituchi subyektlar chakana savdo bilan faqat turg‘un chakana savdo shoxobchasi joylashgan joydagi tuman (shahar) hokimliklarida chakana savdoni amalga oshirishga *ruxsat guvohnomasi* olgan taqdirda shug‘ullanishi mumkin.

*Ruxsat guvohnomasi* yuridik shaxslarga faqat tovarlarning saqlanishi, turkumlanishi, navlarga ajratilishi va chakana sotish uchun qadoqlanishini ta‘minlovchi savdo asbob-anjomlari, shuningdek nazorat-kassa mashinalari bilan jihozlangan o‘zining yoki boshqa yuridik shaxslardan ijaraga olingan chakana savdo obyektlari mavjud bo‘lganda berilishi mumkin. Bunda ruxsat guvohnomasi har bir turg‘un chakana savdo shoxobchasiga arizada ko‘rsatilgan, biroq ikki yildan ortiq bo‘limgan muddatga beriladi.

Toshkent shahri, viloyatlar markazlari va viloyatga bo‘ysunuvchi shaharlarning turg‘un savdo shoxobchalarida chakana

savdo bilan shug‘ullanuvchilarga **ruxsat** guvohnomasi berilishda savdo zali maydoni 150 kvadrat metrdan oshiq bo‘lsa, u holda ular to‘lovlarni plastik kartochkalar bilan qabul qilish terminallari bilan jihozlangan bo‘lishi shart (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.09.2004-yildagi 445-sonli qarori).

Chakana savdoni amalga oshirish qoidalari xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan buzilganligi aniqlangan taqdirda ruxsat guvohnomasi uni bergen tuman (shahar) hokimligi tomonidan davlat soliq xizmati organlari taqdimnomasiga ko‘ra qaytarib olinishi mumkin.

Ruxsat guvohnomasining amal qilishi hafta mobaynida savdo aylanmasi mavjud bo‘lmagan yoki naqd pul tushumini inkassatsiya qilish qoidalari buzilgan taqdirda davlat soliq xizmati organi taqdimnomasiga ko‘ra, xizmat ko‘rsatuvchi bank axboroti asosida to‘xtatib turilishi mumkin. Ruxsatnomani bergen tuman (shahar) hokimligi ruxsat guvohnomasining amal qilishi, tovarlarni sotib olish va sotish yuzasidan shartnomalar, shuningdek tovarlarni sotib olishga pul mablag‘lari manbalari mavjud bo‘lgan taqdirda tiklashi mumkin.

Ta’mirlash ishlari o‘tkazilishi munosabati bilan, shuningdek boshqa shunga o‘xshash hollarda faoliyat vaqtinchalik to‘xtatib turilgan taqdirda, yuridik shaxs ruxsat guvohnomasi bergen tegishli organni va davlat soliq xizmati organini yozma ravishda xabardor qilishi kerak.

Tovarlarni *chakana sotuvchi* yuridik shaxslar tomonidan *faqat turg‘un savdo shoxobchalari orgali, nazorat-kassa mashinalarini majburiy qo‘llangan holda amalga oshirilishi mumkin*. Chakana savdoni ko‘chma ravishda (do‘konchalarda) amalga oshirishga yo‘l qo‘yilmaydi, salqin ichimliklar va muzqaymoqlar sotish bundan mustasno.

Ammo, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.09.2004-yildagi 445-sonli Qaroriga muvofiq chakana savdo korxonalariga yuridik shaxslarning korporativ plastik kartochka-

lari bo‘yicha tovarlarni oylik tovar aylanishi hajmida sotuvlar ulushi cheklanmagan holda sotishga ruxsat berildi.

Iste’mol tovarlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar o‘zlarini ishlab chiqargan tovarlarni o‘z do‘konlari orqali faqat belgilangan namunadagi nazorat-kassa apparatlaridan foydalangan holda chakana sotishlari mumkin.

Yuridik shaxslar tomonidan ulgurji savdoni amalga oshirish tartibi buzilsa, yuqorida nomi keltirilgan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 125-sonli qaroriga muvofiq xo‘jalik yurituvchi subyektlarning shu faoliyatdan topgan barcha daromad (foyda)lari, xuddi shuncha miqdorda jarima undiriladi va mansabdor shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi. Ushbu javobgarlik choralar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 5-avgust «Pul mablag‘larining bankdan tashqarida muomalasini qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 280-sonli Qarorida keltirilgan.

Bundan tashqari, savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalarini tomonidan yalpi daromad solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi Nizomning (Adliya Vazirligida 2003-yil 21-iyulda 1260-son bilan ro‘yxatga olingan) 2-band 7-so‘z boshida o‘rnatalgan tartibni keltirish mumkin. Bunga asosan agar, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridagi korxonalar (ya’ni savdo faoliyatidagi sohada bo‘lmalar) asosiy faoliyat turidan tashqari chakana yoki ulgurji savdo bilan shug‘ullansalar, ular bunday faoliyat turlari bo‘yicha alohida hisobot yuritishlari, soliq va yig‘imlarni to‘lashlari shart, bundan tashqari belgilangan tartibda savdo faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega bo‘lishlari uchun ruxsat guvohnomasiga va savdo qoidalariga rioya qilishlari lozim.

Agarda yuridik shaxslar asosiy faoliyatlaridan tashqari o‘zlarini ishlab chiqargan mahsulotlarini yuridik shaxsning balansida turgan firma do‘konlari orqali sotishni amalga oshirsalar, u holda bunday yuridik shaxslar barcha soliq, yig‘im va majburiy to‘lovlarini to‘lashlari lozim.

Shunday qilib, hozirgi kunda qonun hujjatlarining yuqorida keltilgan tartiblaridan kelib chiqib, asosiy faoliyat turi bo‘lmasan, masalan loyihalash, loyiha-izlanish, izlanish ishlari bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar ulgurji savdoni amalga oshirish huquqini beruvchi ruxsat guvohnomasini olishlari uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 407-sonli qarorida keltirilgan va ushbu savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslarga o‘rnatalgan quyida keltirilgan talablariga javob berishi lozim:

- 1) eng kam oylik ish haqining kamida 4600 baravari, shundan pul mablag‘lari – eng kam oylik ish haqining kamida 1530 baravari miqdoridagi ustav jamg‘armasiga ega bo‘lishlari lozim;
- 2) tovarlarning saqlanishini, turkumlanishini, navlarga ajratilishini ta’minlovchi moddiy-texnik bazasi (o‘z omborxonalarini va asbob-anjomlari) mavjud bo‘lishi;
- 3) yuridik shaxslar soliq to‘lovchi sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazijan joydagi tuman (shahar) hokimligiga quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari zarur;
  - ariza;
  - yuridik shaxsning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma nusxasi;
  - ustavning «ulgurji savdo» faoliyat turi ko‘rsatilgan, notarial tasdiqlangan nusxasi;
  - yuridik shaxsda tegishli moddiy-texnik bazaning mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlar nusxalari;
  - arizada ko‘rsatilgan muddat mobaynida ulgurji savdoni amalga oshirish huquqi uchun mahalliy yig‘im to‘langanligini tasdiqlovchi bank hujjatining nusxasi;
  - ustav jamg‘armasining 407-sonli qarorida talab qilingan pul mablag‘lari to‘langanligini tasdiqlovchi bank hujjatining nusxasi.

Ruxsat guvohnomasisiz ulgurji savdo faoliyatini yuritish taqilanganadi, ruxsatnomasiz faoliyat yuritish esa huquqbazarlik deb qaraladi va subyektga nisbatan belgilangan tartibda javobgarlik choralarini ko‘riladi.

Ma'lumki, savdo va umumiylar ovqatlanish korxonalarini 2007-yil 1-yanvarga qadar budgetga to'lab kelgan yalpi daromadidan yalpi daromad solig'i, mol-mulk solig'i, tovarlar aylanmasidan Pensiya jamg'armasiga, Respublika yo'l jamg'armasiga hamda Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasiga majburiy to'lovlar to'lash o'mniga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 18-dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 2007-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjetining parametrlari to'g'risida»gi PQ-532-sonli qaroriga muvofiq 2007-yil 1-yanvardan boshlab yagona soliq to'lovini to'lashga o'tkazildi.

2006-yil yakuni bo'yicha asosiy (profil) faoliyat turi savdo faoliyati (umumiylar ovqatlanish sohasidagi faoliyat) hisoblangan yuridik shaxslar belgilangan tartibda hisobot yili boshidan boshlab yagona soliq to'lovlarini to'lashlari shart qilib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2007-yil 28-martda 1668-son bilan ro'yxatga olingan «Yagona soliq to'lovini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risida»gi Nizomga muvofiq savdo va umumiylar ovqatlanish korxonalarini uchun soliqqa tortishning quyidagi tartibi belgilangan. Jumladan, Nizomda savdo faoliyati (umumiylar ovqatlanish sohasidan faoliyat) hisoblangan yuridik shaxslar uchun 2007-yildan boshlab yagona soliq to'lovini to'lash tartibi belgilangan.

Shu bilan birga savdo va umumiylar ovqatlanish korxonalarini uchun:

- bojxona to'lovlar (bojxona bojlari va yig'imlari), aksiz solig'i va tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni import qilishda qo'shilgan qiymat solig'i;
- davlat bojlari;
- ayrim turdagisi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagisi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda yuridik shaxslarni ro'yxatdan o'tkazganlik uchun yig'im va atrof tabiiy muhitni iflos-

lantirganlik va chiqindilarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga joylashtirganlik uchun kompensatsiya to‘lovlarini to‘lash tartibi saqlab qolingan.

Agar yuridik shaxslar hisobot yili yakuni bo‘yicha savdo (umumi ovqatlanish) korxonasiga mansub bo‘lmasa, kelgusi yil boshidan boshlab umumbelgilangan tartibda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘lashga o‘tishlari shart, soliq solish tartibini tanlash huquqi saqlab qolinadigan mikrofirmalar va kichik korxonalar bundan mustasno.

Yagona soliq to‘lovi to‘lashga o‘tish savdo (umumi ovqatlanish) korxonalari umumbelgilangan tartibda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘lashga o‘tgan birinchi hisobot choragi uchun foyda solig‘i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlan- tirish solig‘i va yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha joriy to‘lovlarni to‘lamaydilar.

Ishchilar sonidan qat’iy nazar ulgurji, chakana savdo va umumi ovqatlanish korxonalari (shu jumladan kichik korxonalar va mikrofirmalar) yagona soliq to‘lovini to‘lovchilari hisoblanadi.

Yagona soliq to‘lovi to‘lovchisini aniqlashda asosiy mezon bo‘lib, yuridik shaxsni davlat ro‘yxatidan o‘tkazganlik to‘g‘risidagi guvohnomada ko‘rsatilgan korxona faoliyatining kodi hisoblanadi.

Bunda korxonaning ixtisoslashishi XXTUT asosiy kodga to‘g‘ri kelishi kerak. Agar korxonaning faoliyati XXTUT kodiga to‘g‘ri kelmasa, o‘z faoliyati kodini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda statistika organlarida qayta ro‘yxatdan o‘tkazishga va ushbu toifadagi korxonalar (faoliyati turlari) uchun belgilangan tegishli soliqlarni to‘lashga majbur.

Yagona soliq to‘lovida realizatsiya (tovaroborot) umumiylilik hajmida tushum ulushi aksariyat qismini tashkil etgan faoliyat turi, asosiy (profil) faoliyati turi hisoblanadi.

### **3.2.2. Soliq to‘lovchilar**

**Yagona soliq to‘lovi to‘lovchilari xodimlarning sonidan qat’i nazar savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalari hisoblanadi.<sup>1</sup>**

Soliq solish maqsadida savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalari jumlasiga savdo faoliyati, umumiyligi ovqatlanish sohasidagi faoliyat o‘tgan hisobot yili yakunlari bo‘yicha asosiy faoliyat turi bo‘lgan yuridik shaxslar kiradi.

**Quyidagilarga savdo faoliyati sifatida qaralmaydi:**

- o‘zi ishlab chiqargan mahsulot bo‘lgan tovarlarni realizatsiya qilish, shu jumladan ularni mustaqil yuridik shaxs bo‘lmagan firma do‘konlari orqali realizatsiya qilish;
- vositachi, ishonchli vakil tomonidan vositachilik, topshiriq shartnomasi bo‘yicha tovarlarni realizatsiya qilish, shu jumladan davlat daromadiga o‘tkaziladigan mol-mulkni realizatsiya qilish;
- tayyorlov va ta’minot-sotish faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar tomonidan tovarlarni realizatsiya qilish.

Umumiyligi ovqatlanish sohasidagi faoliyat deganda kulinariya, shuningdek boshqa oziq-ovqat mahsulotini tayyorlash, realizatsiya qilish va ularni iste’mol qilishni tashkil etish bo‘yicha faoliyat tushuniladi.

### **3.2.3. Soliq solish obyekti va soliq solinadigan baza**

Yalpi tushum soliq solish obyektiidir.

Soliq solish maqsadida yalpi tushum tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

- 1) tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) qo‘shilgan qiymat solig‘ini chegirgan holda (qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lashga o‘tgan soliq to‘lovchilar uchun) realizatsiya qilishdan tushgan tushum;
- 2) boshqa daromadlar.

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Rasmiy nashr – O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi. –T.: «Adolat», 2014. 56-bob, 350-modda. 377-bet.

Savdo va umumiylar ovqatlanish korxonalar uchun tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushum deganda **tovar oboroti** tushuniladi.

Quyidagilarga soliq solish obyekti sifatida qaralmaydi:

- 1) ustav fondiga (ustav kapitaliga) olingan hissalar, shu jumladan aksiyalarni (ulushlarni) joylashtirish bahosining ularning nominal qiymatidan (dastlabki miqdoridan) ortiq summasi, oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish uchun birlashtiriladigan mablag'lar;
- 2) muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqilayotganda (chiqarilayotganda), shuningdek tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki uning muassisları (ishtirokchilari) o'rtasida taqsimlanayotganda ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissalar doirasida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);
- 3) shartnomada muassisları (ishtirokchilari) umumiylar mulkidagi hissasi qaytarib berilgan yoki bunday mol-mulk bo'lingan taqdirda, oddiy shirkat shartnomasi sherigi (ishtirokchisi) tomonidan hissasi miqdorida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);
- 4) realizatsiya qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun oldindan haq to'lash (bo'nak) tariqasida boshqa shaxslardan olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);
- 5) mulk huquqi ularga o'tgan paytga qadar majburiyatlarni qonun hujjatlariga muvofiq ta'minlash sifatida garov yoki zaklad tarzida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);
- 6) budgetdan berilgan subsidiyalar;
- 7) agar mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar)ni o'tkazish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida amalga oshirilsa, tekin olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar), ishlar va xizmatlar;
- 8) olingan grantlar va insonparvarlik yordami;
- 9) sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta toponi (sug'urta summasi) tariqasida olingan mablag'lar;

10) vositachiga yoki boshqa ishonchli vakilga vositachilik, topshiriq shartnomasi yoki vositachilik xizmatlarini ko'rsatishga oid boshqa shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish munosabati bilan, shuningdek komitent yoxud boshqa topshiriq beruvchi uchun vositachi yoki boshqa ishonchli vakil tomonidan qilingan xarajatlarni qoplash hisobiga kelib tushgan mol-mulk (haq to'lovi bundan mustasno);

11) obyekt qiymatining ijaraga beruvchi (lizing beruvchi) tomonidan olingan ijara (lizing) to'lovining bir qismi tarzida qoplanishi;

12) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyektining muassislardan (ishtirokchilaridan) ularning majburiyatlarini bajarish uchun olingan mablag'lar. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartibtaomili tugatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda ushbu mablag'lar soliq solish obyektiga kiritiladi va ularga soliq solinishi lozim;

13) investor bilan davlat mulkini boshqarish bo'yicha vokalqli davlat organi o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq investitsiya majburiyatlari sifatida kiritilayotgan mol-mulk.

Balansning valuta moddalarini qayta baholash chog'ida kursdag'i ijobiy va salbiy farqlar o'rtasidagi saldo soliq solish obyekti hisoblanadi. Salbiy kurs farqi summasi ijobiy kurs farqi summasidan ortiq bo'lган taqdirda oshib ketgan summa yagona soliq to'lovini hisoblab chiqarishda soliq solinadigan bazani kamaytirmaydi.

### Soliq solinadigan baza:

Soliq kodeksining 356-moddasiga ko'ra quyidagilar chegirib tashlangan holda hisoblab chiqarilgan yalpi tushum **soliq solinadigan bazadir**:

- 1) davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar;
- 2) to'lov manbaida soliq solinadigan dividendlar va foizlar tariqasida olingan daromadlar;
- 3) dividendlar tariqasida olingan va qaysi yuridik shaxsdan olingan bo'lsa, o'sha yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yo'naltirilgan daromadlar. Muassislar (ishtirokchilar)

tarkibidan chiqilayotganda (chiqib ketganda) yoxud tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki imtiyoz qo'llanilganidan so'ng bir yil ichida uning ishtirokchilari o'rtasida taqsimlanganda ilgari soliq solinadigan bazadan chegirilgan daromadlarga to'lov manbaida umumiylashtirishda soliq solinadi;

4) hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi daromadlar. Mazkur daromadlarga ular qaysi davrda paydo bo'lga bo'lsa, o'sha davrdagi qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlari bo'yicha o'tkazilgan hisob-kitoblar inobatga olingan holda soliq solinishi kerak;

5) ko'p oborotli qaytariladigan taraning qiymati, agar uning qiymati tovarlar (ishlar va xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan olin-gan tushumning tarkibiga ilgari kiritilgan bo'lsa;

6) mahsulot yetkazib beruvchilarning siylovi (skidka) tariqasi-da va asosiy vositalarni tugatishda ularning ilgari qayta baholash-lardagi qiymatining kamayishi summasidan ortgan qismi hisobiga olingan boshqa daromadlar.

**Soliq solinadigan baza yuqorida ko'rsatilganlarda nazarda tutilgan chegirmalardan tashqari quyidagilar uchun kamayti-riladi:**

1) avtomobilgarga yoqilg'i quyish shoxobchalar uchun:

transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq to'lovchilar – yuridik shaxslar uchun – transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq summasiga;

benzin, dizel yoqilg'isi va gazning avtomobilgarga yoqilg'i quyish shoxobchalarining belgilangan eng yuqori ustamadan oshadigan chakana narxi bilan olish narxi o'rtasidagi mahalliy budgetga o'tkazilishi lozim bo'lga farq summasiga;

2) lotereya o'yinlarini tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasida yuridik shaxslar uchun – yutuq (mukofot) fondining summasiga, biroq tarqatilgan chiptalarga chiqqan yu-tuqlarning (mukofotlarning) umumiylashtirishda ortiq bo'lmagan miqdoriga;

3) brokerlik tashkilotlari uchun – bitim summasidan birjaga o‘tkaziladigan vositachilik yig‘imi summasiga;

4) vositachilik, topshiriq shartnomasi bo‘yicha vositachilik xizmatlari ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar uchun – realizatsiya qilin-gan tovar ulushida tovarlarni import qilishda to‘langan bojxona to‘lovlar summasiga.

**Soliq solinadigan baza quyidagilarga yo‘naltirilgan mablag‘lar summasiga kamaytiriladi:**

– yangi texnologik asbob-uskunalar olishga, lekin soliq solinadigan bazaning ko‘pi bilan 25 foiziga. Soliq solinadigan bazani kamaytirish texnologik asbob-uskunalarni foydalanishga joriy etilgan soliq davridan boshlab besh yil mobaynida amalga oshiriladi;

– yosh oilalar jumlasidan bo‘lgan xodimlarga ipoteka kreditlari bo‘yicha badallar to‘lashga va (yoki) mulk qilib uy-joy olishga tekin yo‘naltirilgan mablag‘lar summasiga, lekin soliq solinadigan bazaning ko‘pi bilan 10 foiziga.

### **3.2.4. Soliq stavkasi**

Savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalari uchun 2014-yil soliq stavkalari quyidagi jadval ma’lumotlarida keltirilgan. (2-jadval)

**2-jadval**

#### **Savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to‘lovi stavkalari<sup>1</sup>**

| No | To‘lovchilar                       | Soliq stavkalari,<br>soliq solinadigan bazaga<br>nisbatan%da |
|----|------------------------------------|--------------------------------------------------------------|
| 1  | Umumiyligi ovqatlanish korxonalari | 10                                                           |
|    | Ulardan:                           |                                                              |

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 25-dekabrdagi PQ-2099-sonli qarorining 9.2-ilovasi.

|   |                                                                                                                                                                   |                                        |
|---|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------|
|   | Umumiy ta’lim maktablari, maktab-internatlar, o’rta-maxsus, kasb-hunar va oliy o‘quv yurtlariga xizmat ko‘rsatuvchi ixtisoslashgan umumiy ovqatlanish korxonalari | 8                                      |
| 2 | Chakana savdo korxonalari (5-bandda ko‘rsatilganlardan tashqari), quyidagi joylarda joylashgan:<br>aholi soni 100 ming va undan ko‘p kishidan iborat shaharlarda  | 4                                      |
|   | boshqa aholi punktlarida                                                                                                                                          | 2                                      |
|   | borish qiyin bo‘lgan va tog‘li tumanlarda                                                                                                                         | 1                                      |
| 3 | Ulgurji savdo korxonalari (5-bandda ko‘rsatilgan-lardan tashqari)                                                                                                 | 5                                      |
| 4 | Chakana va ulgurji tovar oboroti bo‘yicha «Sharobsavdo» ixtisoslashgan hududiy bazalari                                                                           | 5                                      |
| 5 | Ulgurji va chakana dorixona tashkilotlari, quyidagi joylarda joylashgan:<br>aholi soni 100 ming va undan ko‘p kishidan iborat shaharlarda                         | 3                                      |
|   | boshqa aholi punktlarida                                                                                                                                          | 2                                      |
|   | borish qiyin bo‘lgan va tog‘li tumanlarda                                                                                                                         | 1                                      |
| 6 | 1–5-bandlarda ko‘rsatilgan korxonalar uchun plastik kartalar qo‘llanib haq to‘langan holda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi bo‘yicha                                  | belgilangan stavka 5% ga pasaytiriladi |

### 3.2.5. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan yagona soliq to‘lovini qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari

O‘tgan yil yakunlari bo‘yicha asosiy (soha) faoliyat turi savdo faoliyati va umumiy ovqatlanish sohasidagi faoliyat bo‘lgan yuridik shaxslar Soliq kodeksida belgilangan tartibda hisobot yili boshidan boshlab yagona soliq to‘lovini to‘lashi kerak.<sup>1</sup> Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari sifatida ro‘yxatdan o‘tkazilgan

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi. Rasmiy nashr. – T.: «Adolat», 2010. 352-modda. 381-bet. 1-qism.

yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar yagona soliq to‘lovini davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan sanadan e’tiboran joriy yil tugaguniga qadar, 1-oktabrdan keyin ro‘yxatdan o‘tkazilgan yuridik shaxslar esa keyingi yil tugaguniga qadar to‘laydi.<sup>1</sup>

Agar ushbu moddaning 1-qismida ko‘rsatilgan yagona soliq to‘lovi to‘lovchilarda joriy soliq davrining ketma-ket keluvci ikki choragi davomoda savdo faoliyati va umumiy ovqatlanish sohasidagi faoliyat asosiy faoliyat turi bo‘lmasa, ular Soliq kodeksining 348-moddasidagi 4-qismida nazarda tutilgan tartibga mufoviq umumbelgilangan soliqlarni to‘lashga o‘tishga haqli.

Agar yuridik shaxslar hisobot yili yakunlari bo‘yicha Soliq kodeksining 350-moddasidagi 4-qismida belgilangan shartlarga javob bermasalar, ular kelgusi yil boshidan e’tiboran umumbelgilangan soliqlar to‘lashga o‘tishi kerak, bundan soliq solish tartibini tanlash huquqi saqlab qolinadigan mikrofirmalar va kichik korxonalar mustasno.

Soliq kodeksining ushbu moddasidagi 4-qismida, ya’ni yuqoridagi keltirilgan qismida ko‘rsatilgan yuridik shaxslar, bundan mikrofirmalar va kichik korxonalar mustasno, yagona soliq to‘lovi yuzasidan Soliq kodeksining 351-moddasida belgilangan tartibda qayta hisob-kitobni amalga oshiradi.

Hisobot yili tugaganidan keyin Soliq kodeksining 350-moddasidagi 4-qismida belgilangan shartlarga javob bermay qolgan mikrofirmalar va kichik korxonalar 1-fevraldan kechiktirmay soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga soliq solish tartibi tanlaganligi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan shaklda yozma bildirish taqdim etishi shart. Soliq to‘lovchi tomonidan yozma bildirishning belgilangan muddatda taqdim etilmaganligi uning umumbelgilangan soliqlarni to‘lashga berilgan roziligi deb hisoblanadi.

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi. Rasmiy nashr. – T.: «Adolat», 2010. 352-modda. 381-bet. 2-qism.

### **3.2.6. Yagona soliq to‘lovini hisoblab chiqarish, uning hisob-kitoblarini taqdim etish va uni to‘lash tartibi**

Yagona soliq to‘lovi soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilar uchun yagona soliq to‘lovi summasi budgetga to‘lanishi lozim bo‘lgan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasiga, lekin yagona soliq to‘lovi summasining 50 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorga kamaytiriladi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini ixtiyoriy ravishda to‘lashga kalendar yil boshidan e’tiboran o‘tmagan to‘lovchilar yagona soliq to‘lovi summasini qo‘shilgan qiymat solig‘i hisoblab chiqarilgan hisobot davriga to‘g‘ri keladigan summaga kamaytiradi.

Yagona soliq to‘lovining hisob-kitobi soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Yagona soliq to‘lovi quyidagicha to‘lanadi:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan – hisob-kitobi taqdim etish muddatidan kechiktirmay;
- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan korxonalar tomonidan – har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay amalga oshiriladi.

### **NAZORAT SAVOLLARI**

1. 2007-yil 1-yanvarga qadar savdo va umumiyl ovqatlanish korxonalari qanday soliq rejimida ishlagan?
2. Savdo va umumiyl ovqatlanish korxonalarini yagona soliq to‘lovini to‘lovchilar tarkibiga o‘tishning ahamiyati va zarurligi nimada?

3. Savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to‘lovidan tashqari yana qanday to‘lovlar, yig‘imlar saqlab qolingan?
4. Savdo faoliyati deganda nimani tushunasiz?
5. Umumiyligi ovqatlanish faoliyati deganda nimani tushunasiz?
6. Yagona soliq to‘lovini to‘lovchi savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalarining soliqqa tortish obyekti va bazasi qanday aniqlanadi?
7. Yagona soliq to‘lovini hisoblashda yalpi tushum tarkibi qanday aniqlanadi?
8. Yalpi tushum tarkibidan nimalar chegiriladi?
9. Savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to‘lovi stavkalari 2009-yilda qanday belgilangan va soliq stavkalari qaysi mezonlar asosida tabaqlashtirilgan?
10. Savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalarining yagona soliq to‘lovi bo‘yicha hisobot topshirish tartibi qanday va qaysi muddatlarda to‘lanadi?

### **Mustaqil o‘zlashtirish uchun chizmali materiallar**

*Ulgurji savdo bilan yuridik shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tkazilgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar ulgurji savdoni amalga oshirish huquqini beruvchi ruxsat guvohnomasi olgan taqdirdagina shug‘ullanishlari mumkin.*

Yuridik shaxslar asosiy faoliyatlaridan tashqari o‘zlari ishlab chiqargan mahsulotlarini yuridik shaxsning balansida turgan firma do‘konlari orqali sotishni amalga oshirsalar, u holda bunday yuridik shaxslar barcha soliq, yig‘im va majburiy to‘lovlarini to‘lashlari lozim.

Savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 18-dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi ning 2007-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat budgetining parametrlari to‘g‘risida»gi PQ-532-sonli qaroriga muvofiq 2007-yil 1-yanvardan boshlab yagona soliq to‘lovini to‘lashga o‘tkazildi.

**Ruxsat guvohnomasi** yuridik shaxslarga faqat ulgurji savdoni amalga oshirish uchun moddiy-texnik bazasi (tovarlarning saqlanishini, turkumlanishini, navlarga ajratilishini va butlanishini ta'minlovchi o'z omborxonalarini va asbob-anjomlari) mavjud bo'lganida va ro'yxatdan o'tish vaqtida eng kam oylik ish haqining kamida 4600 baravari, shundan pul mablag'lari – eng kam oylik ish haqining kamida 1530 baravari miqdoridagi ustav jamg'armasi mavjud bo'lganda berilishi mumkin.

Xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan ulgurji savdoni amalga oshirish qoidalari buzilganligi aniqlangan taqdirda **ruxsat guvohnomasi** davlat soliq xizmati organi taqdimnomasiga ko'ra uni bergen tuman (shahar) hokimligi tomonidan **qaytarib olinishi** mumkin.

Ulgurji savdoni amalga oshirish uchun berilgan **ruxsat guvohnomasing** amal qilishi oy mobaynida savdo aylanmasi mavjud bo'lmaganda davlat soliq xizmati organi taqdimnomasiga ko'ra, xizmat ko'rsatuvchi bank axboroti asosida **to'xtatib turilishi** mumkin.

**Ruxsatnomani** bergen tuman (shahar) hokimligi korxonaning tovarlar sotib olish va sotish yuzasidan shartnomalar, shuningdek tovarlarni sotib olish uchun pul mablag'lari manbai mavjud bo'lgan taqdirda ruxsat guvohnomasining amal qilishini tiklashi mumkin.

### **Yagona soliq to'lovini to'lovchilari va soliq solish obyekti**

xodimlarning sonidan qat'i  
nazar savdo va umumiyl  
ovqatlanish korxonalarini

yalpi tushum soliq solish  
obyektidir

### **3.3. QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘I**

#### **3.3.1. Qo‘shilgan qiymat solig‘ining iqtisodiy mohiyati, soliq tizimida va davlat budgeti daromadlarida tutgan o‘rnini<sup>1</sup>**

Barcha bilvosita soliqlar kabi QQS ham asosan soliqlarning fiskal funksiyasini bajaradi, uning joriy qilishdan asosiy maqsad davlat budgetini mablag‘ bilan to‘ldirish bilan bog‘liq. QQS soliq tushumlarini narx-navoning o‘sishi bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘lab turganligi uchun u budget mablag‘larini inflatsiya bo‘lishidan saqlab qoluvchi vositalardan biri hisoblanadi.

Bunday holatda soliqqa solish obyekti bo‘lib tovarning yoki xizmatning sotish narxi xizmat qiladi. QQS soliq solish tizimida har bir ishlab chiqaruvchi (sotib oluvchi) o‘zining xaridori (byurtmachisi)dan qonunda ko‘zda tutilgan soliq summasini undiradi va avval xomashyo sotib olishda soliqning to‘langan qismi mavjud bo‘lsa, uni chegirib tashlab, qolgan qismini budgetga to‘laydi.

QQS real soliqlar turkumiga kiradi. Soliq soliqni to‘lash oldisotdi jarayonidan kelib chiqadi va soliqqa tortish subyektining moliyaviy holatini hisobga olmaydi.

O‘zbekistonda qo‘shilgan qiymat solig‘ining qo‘llanishini asosiy sababi soliq solish bo‘yicha dunyo hamjamiyatining bu boradagi tajribasi bo‘ldi. Rivojlangan davlatlarning tajribasida bilvosita soliqlar rivojlanib borib, yagona qo‘llaniladigan soliqqa, ya’ni davlatlarda soliq bir tekisda taqsimlanadigan qo‘shilgan qiymat solig‘iga aylanishini ko‘rsatdi, shu bilan bir vaqtning o‘zida, biron bir tovarlar guruhini sotilishiga xalaqit qilmaydi va xalq xo‘jaligidagi moliya taqsimlanishini o‘zgartirmaydi.

---

<sup>1</sup> Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi nashriyot uyi, 2005.

QQS birinchi bor 1954-yil Fransiyada M. Lore taklifiga muvofiq joriy qilingan va qisqa muddat ichida ko‘pgina davlatlarda qo‘llanila boshlandi. QQS O‘zbekistonda qo‘llanilish davriga kelib 43 ta davlatda, shu jumladan barcha Yevropa Ittifoqi davlatlarida qo‘llanilgan.

1992-yildan boshlab QQS mustaqil O‘zbekiston soliq tizimida ajralmas qismiga aylandi. Qo‘shilgan qiymat solig‘ining summasi ko‘rsatilgan hisobvaraq-fakturasining mavjudligi esa oldi-sotdining asosiy va prinsipial vaqtini belgilab, firmaning soliq majburiyati haqida ma’lumotni beradi. Shuning uchun ham hisobvaraq-fakturaning to‘ldirilishi bo‘yicha qat’iy qoidalarga bo‘ysunish talab etiladi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i boshqa soliqlarga nisbatan juda ko‘p afzalliklarga ega. Ular quyidagilardan iborat:

- QQS mahsulotning sotuv narxiga qo‘shilmay uning ustiga qo‘yilib, xaridor tomonidan to‘lab beriladi, bu o‘z vaqtida ishlab chiqarishning xarajatlariga va rentabelligiga ta’sir etmaydi;
- soliq undirish tizimining soddaligi soliq organi uchun hamda soliq to‘lovchilar uchun ham qulaylik yaratadi. QQSni hisoblash jarayoni o‘z-o‘zini tekshirish jarayoni desa ham bo‘ladi, chunki keyingi sotib oluvchi avvalgi ta’motchini hisobvaraq-fakturasida to‘langan soliq summasini belgilashda to‘g‘ri qo‘yilishini tekshirib boradi;
- qo‘shilgan qiymat solig‘i tarmoq va korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlaridan, kapital jamg‘armasidan, ishlab chiqarish turidan, katta-kichiklidan qat’i nazar bir xilda soliqqa tortish darajasi qo‘llaniladi;
- ko‘pgina davlatlarda korxonaning o‘zi ishlab chiqargan mahsulotini chetga eksport qiluvchi firma-eksportyorlarga ularni qo‘llab-quvvatlash maqsadida eksport qilingan mahsulot sotuv narxiga kirgan qo‘shilgan qiymat solig‘ini bir qismini davlat tomonidan qaytarib beriladi. QQSning hisoblash tizimi esa eksport qilinayotgan mahsulotni firma tomonidan ishlab chiqarish uchun

ketgan real xarajatlarini hisoblab chiqrish imkoniyatini beradi. Mahsulotlar import qilinayotganda QQS proteksiya siyosatini yuritish uchun qo'llaniladi. Demak, QQSni tashqi iqtisodiy munosabatlarni tartibga solib turish uchun foydalanish mumkin.

Qo'shilgan qiymat solig'ining hujjatlarda alohida ko'rsatilib yozilishligi uni to'lashdan qochish holatlarni qiyinlashtiradi.

QQS bozor iqtisodiyotini soliqlar yordamida tartibga solishda daromad (foyda) solig'i stavkasining pasaytirilishi natijasida budjetning daromad qismidagi yo'qotishlarni qoplash uchun taktik vosita sifatida ishlatiladi.

### **Qo'shilgan qiymat solig'ining kamchiliklari:**

QQS bazasiga faqat qo'shilgan qiymatgina emas, balki unga umuman dahli bo'limgan elementlar ham kiradi. Masalan, O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq aksiz tovarlarini respublika hududiga import qilinganida QQS bo'yicha soliqqa tortish bazasiga to'langan aksiz solig'i va bojaxona boji ham kiradi. Shunday qilib, soliqqa tortish holati ikki marotaba emas, balki uch marotaba ko'rinish turibdi.

– QQSning yuqori stavkalarining qo'llanilishi aholining sotib olish qobiliyatini kamaytiradi va ishlab chiqaruvchi uchun esa tovar sotish bozorini qisqartiradi. QQSning yuqori qiymatda belgalanishi esa tovar ishlab chiqaruvchi tomonidan minimal foyda rejalashtirgan taqdirda ham, sotib oluvchilarining imkoniyatlari chegaralangan bo'lganligi uchun tovarlarni tez va o'z vaqtida sotish imkoniyatini bermaydi. QQSning tartibga solib turuvchi imkoniyatlari rivojlangan bozor iqtisodiyoti va bozor uchun xos bo'lgan raqobatning mavjudligida namoyon bo'ladi.

#### **3.3.2. Soliq to'lovchilar**

Soliq kodeksining 197-moddasiga ko'ra qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari quyidagilardir:

- 1) soliq solinadigan oborotlarga ega bo'lgan yuridik shaxslar;

2) Soliq kodeksiga muvofiq zimmasiga O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan amalga oshirilayotgan soliq solinadigan oborotlar uchun qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lash bo‘yicha majburiyat yuklatiladigan yuridik shaxslar;

3) tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar, o‘z ehtiyojlari uchun bojsiz olib kirish normalari doirasida tovarlar olib kiruvchi jismoniy shaxslar bundan mustasno;

4) oddiy shirkat soliq solinadigan oborotlarni amalga oshirayotganda zimmasiga uning ishlarini yuritish yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) – yuridik shaxs.

Quyidagilar qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilar hisoblanmaydi:

- notijorat tashkilotlar, bundan tadbirdorlik faoliyati doirasida tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilish oborotlari;
- agar Soliq kodeksining XX bo‘limida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, Soliq kodeksiga muvofiq soliq solishning soddallashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar;
- yagona soliq to‘lovini to‘lovchilar bo‘lgan yuridik shaxslar soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yilning navbatdagi choragi boshlanguniga qadar bir oydan kechiktirmasdan, yangi tashkil etilayotgan yagona soliq to‘lovini to‘lovchilar bo‘lgan yuridik shaxslar esa faoliyat boshlanguniga qadar taqdim etiladigan yozma bildirishga asosan ixtiyoriy asosda qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lashi mumkin.

### **3.3.3. Soliq solish obyekti va soliq solinadigan baza**

Soliq kodeksining 198-moddasiga ko‘ra soliq solish obyekti – soliq solinadigan oborot va soliq solinadigan import.

**Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilish oboroti.**

Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilish oboroti quyidagilardir:

1) mol-mulkka bo‘lgan mulk huquqini o‘tkazish, ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish, shu jumladan:

- tovarni va boshqa mol-mulkni jo‘natish (sotish);
- ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo‘shilgan hissa;
- mol-mulkni bepul berish (ishlarni bepul bajarish, xizmatlarni bepul ko‘rsatish), shu jumladan yuridik shaxs xodimlariga ularning mazkur yuridik shaxs faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan shaxsiy ehtiyojlari uchun mol-mulkni bepul berish (ishlarni bepul bajarish, xizmatlarni bepul ko‘rsatish);
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) almashtirish uchun mol-mulkni berish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish);
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda xodimga ish haqi hisobiga yoki muassisga (ishtirokchiga) dividendlar to‘lash hisobiga mol-mulk berish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish);
- garov bilan ta‘minlangan majburiyatlar bajarilmagan taqdirda, garovga qo‘yuvchi tomonidan garov narsasini berish;
- zayom shartnomalari asosida tovar-moddiy zaxiralarni berish;

2) bitta yuridik shaxsning bir tarkibiy bo‘linmasi tomonidan boshqa tarkibiy bo‘linmasiga, agar tarkibiy bo‘linmalar Soliq kodeksiga muvofiq mustaqil soliq to‘lovchilar bo‘lsa, mol-mulkni berish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish;

3) mol-mulkni moliya ijarasiga (shu jumladan lizingga) berish;

4) to‘lovni bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan tovarni jo‘natish;

5) mol-mulkni operativ ijaraga berish;

6) intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqni o‘tkazish yoki ulardan foydalanish huquqini berish.

7) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini hisoblab chiqarishda Soliq kodeksining 147-moddasiga muvofiq xarajatlari chegirilmaydigan soliq to‘lovchining o‘z ehtiyojlari uchun o‘zi ishlab chiqargan tovarlarni berish, o‘z kuchi bilan ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish.

Quyidagilar tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilish oboroti bo‘lmaydi:

- 1) soliq to‘lovchining xarajatlari sifatida qaraladigan, uning o‘z ehtiyojlari uchun tovarlarni berish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish, bundan Soliq kodeksining 199-moddasidagi 1-qismi 7-bandida nazarda tutilgan xarajatlar mustasno;
- 2) bitta yuridik shaxsning bir tarkibiy bo‘linmasi tomonidan boshqa tarkibiy bo‘linmasiga ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun, agar tarkibiy bo‘linmalar Soliq kodeksiga muvofiq mustaqil soliq to‘lovchilar bo‘lmasa, mol-mulk berilishi, ishlar bajarilishi, xizmatlar ko‘rsatilishi;
- 3) soliq to‘lovchining o‘z ehtiyojlari uchun o‘z kuchi bilan qurilish, montaj, qurilish-montaj ishlarini bajarishi;
- 4) qaytariladigan tarani jo‘natish. Qaytariladigan tara mahsulot solib jo‘natilgan, qiymati ushbu mahsulot qiymatiga kiritilmaydigan hamda shu mahsulotni yetkazib berish uchun tuzilgan shartnomada (kontraktda) belgilangan shartlarda va muddatlarda mahsulot yetkazib beruvchiga qaytarilishi lozim bo‘lgan taradir. Agar tara belgilangan muddatda qaytarilmasa, bunday tarani berish soliq solinadigan oborotga kiritiladi;
- 5) yuridik shaxsning ishtirokchisi (muassisasi) muassisalar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqqanda (chiqb ketganda), shu jumladan tugatilganlik (bankrotlik) yoki qayta tashkil etilganlik munosabati bilan chiqqanda (chiqb ketganda) unga dastlabki hissa doirasida mol-mulkni berish, shuningdek oddiy shirkat shartnomasi bo‘yicha sherikka (ishtirokchiga) uning mazkur shartnomasi bo‘yicha sheriklari (ishtirokchilari) umumiylik mulkida bo‘lgan ulushi qaytarilayotganda yoki bunday mol-mulk taqsimlanganda mol-mulkni berish;
- 6) tugallanmagan qurilishning asosiy vositalari, nomoddiy aktivlari va obyektlarini bepul asosda berish;
- 7) banklar va sug‘rta tashkilotlari tomonidan mol-mulkni o‘z filiallariga berish;

8) oddiy shirkat shartnomasi bo‘yicha sherik (ishtirokchi)ning ulushi sifatida tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni, boshqa mol-mulk va mulkiy huquqlarni berish;

9) tovarlarni va boshqa mol-mulkni qayta ishslash asosida berish;

10) ishonchli boshqaruv shartnomasi asosida mol-mulkni mulkdordan ishonchli boshqaruvchiga berish;

11) ishonchli boshqaruv shartnomasi tugatilgan taqdirda, mol-mulkni mulkdorga berish;

12) obyekt qiymatini ijaraga beruvchi (lizingga beruvchi) ola-digan ijara (lizing) to‘loving bir qismi tarzida qoplash;

13) tovarlardan foydalanishning kafolatli muddati davrida ularni ta’mirlash va ularga texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha qo‘shimcha haq olmasdan ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish.

Soliq kodeksining 201-moddasiga ko‘ra soliq solinadigan import – bu O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarlar soliq solinadigan importdir. Jumladan, Soliq kodeksining 211-moddasiga muvofiq qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilingan tovarlar bundan mustasno.

Soliq kodeksining 204-moddasiga ko‘ra soliq solinadigan **baza** realizatsiya qilinayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning qiymati asosida, unga qo‘shilgan qiymat solig‘ini kiritmagan holda belgilanadi.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar) tannarxidan yoki tovarlar olingan narxdan (tovarni olish bilan bog‘liq xarajatlar hisobga olingan holda) past narxlarda realizatsiya qilingan taqdirda, soliq to‘lovchiga o‘z ehtiyojlari uchun Soliq kodeksining 199-moddasi birinchi qismining 7-bandiga muvofiq tovarlar berilganda (ishlar bajarilganda, xizmatlar ko‘rsatilganda), shuningdek tovarlar (ishlar, xizmatlar) bepul berilganda soliq solish maqsadlari uchun soliq solinadigan baza tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning tannarxidan yoki tovarlar olingan narxdan (tovarni olish bilan bog‘liq xarajatlar hisobga olingan holda) kelib chiqib belgilanadi.

Tovarlar qayta ishlashga berilgan xomashyo va materiallardan tayyorlangan taqdirda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'ini kiritmagan holda ularni qayta ishlash xizmatlarining qiymati asosida, aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha esa, ularni qayta ishlash xizmatlari qiymati asosida, Soliq kodeksining 232-moddasiga muvofiq hisoblab chiqarilgan aksiz solig'ini hisobga olgan holda belgilanadi.

Qurilish, qurilish-montaj va ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy ishlar, xizmatlar bo'yicha, shuningdek obyektlarni foydalanishga tayyor holda qurishda shartnomaviy narxlardan kelib chiqqan holda hisob-kitob hujjatlari haq to'lash uchun taqdim etilgan, bajarilgan va buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan ishlarning, xizmatlarning qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymati soliq solinadigan bazadir. Agar shartnomaga binoan bu ishlarni materiallar bilan ta'minlash majburiyati buyurtmachining zimmasida bo'lsa, ushbu materiallarga bo'lgan mulk huquqi buyurtmachining o'zida saqlanib qolgan taqdirda, bajarilgan hamda tasdiqlangan ishlarning buyurtmachi materiallarining qiymati kiritilmagan holdagi qiymati soliq solinadigan bazadir.

Import qilingan tovarlar realizatsiya qilinganda, soliq solinadigan baza realizatsiya qilinayotgan tovarlarning qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Bunda soliq solinadigan baza mazkur tovar import qilinganda qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish uchun qabul qilingan qiymatdan past bo'lishi mumkin emas.

Aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan bazaga aksiz solig'inining summasi kiritiladi.

Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar realizatsiya qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham o'z ichiga oladi hamda ularning realizatsiya qilish narxi bilan qoldiq qiymati o'rtasidagi ijobiy farq sifatida belgilanadi.

Mol-mulk moliyaviy ijara, shu jumladan lizingga berilganda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini

o‘z ichiga oladigan, chiqib ketayotgan aktiv qiymati bilan uning balans (qoldiq) qiymati o‘rtasidagi ijobiy farq sifatida belgilanadi.

Qurilishi tugallanmagan obyekti realizatsiya qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini ham o‘z ichiga oladigan, qurilishi tugallanmagan obyektini realizatsiya qilish narxi bilan balans qiymati o‘rtasidagi ijobiy farq sifatida belgilanadi.

Kredit tashkiloti tomonidan garov bilan ta’minlangan majburiyatni qoplash hisobiga olingan mol-mulk realizatsiya qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza qoshilgan qiymat solig‘i summasini o‘z ichiga oladigan, realizatsiya qilish narxi bilan qarzni qoplash hisobiga mazkur garov mol-mulki olingan qarz summasi ortasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Baholari (tariflari) davlat tomonidan tartibga solinishi nazarada tutilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilinganda, soliq solinadigan baza belgilangan baholardan (tariflardan) kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Realizatsiya qilishda soliq solinmaydigan oborotlar hisoblanuvchi chiptalar, abonnementlar, yollanmalar va xizmatlar olishga huquq beruvchi boshqa hujjatlar mazkur xizmatlarni ko‘rsatmaydigan yuridik shaxslar tomonidan o‘z xodimlari va ularning oila a’zolari uchun realizatsiya qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini o‘z ichiga oladigan, realizatsiya qilish bahosi va ularni olish bahosi o‘rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha hisobga olish nazarda tutilmagan mol-mulk realizatsiya qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza uning realizatsiya qilish qiymati bilan balans qiymati o‘rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Transport ekspeditsiyasi shartnomasi bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatilgan taqdirda, ekspeditoring soliq solinadigan bazasi qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini ham o‘z ichiga oladigan,

ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq tariqasida olinishi lozim bo'lgan summadan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Vositachilik shartnomasi, topshiriq yoki vositachilik xizmatlari ko'rsatish bo'yicha boshqa shartnoma asosida o'zga shaxsning manfaatlarini ko'zlab xizmatlar ko'rsatilgan taqdirda, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham o'z ichiga oladigan, ko'rsatilgan xizmat uchun haq (foiz) tariqasida olinishi lozim bo'lgan summadan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Vositachilik, topshiriq shartnomasiga binoan komitent yoki topshiriq beruvchi O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lgan taqdirda, soliq solinadigan baza realizatsiya qilinayotgan tovarlarning qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Bunda soliq solinadigan baza mazkur tovar import qilinganida qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish uchun qabul qilingan qiymatdan past bo'lishi mumkin emas.

Garovga qo'yuvchi garov mol-mulkini garov bilan ta'minlangan majburiyatni bajarish hisobiga topshirgan taqdirda, garovga qo'yuvchining soliq solinadigan oboroti miqdori garovga oluvchi tomonidan realizatsiya qilingan mol-mulk qiymatidan kelib chiqqan, biroq qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda mazkur garovga qo'yilgan mol-mulkka olingan zayom mablag'lari summasidan kam bo'lmagan miqdorda belgilanadi. Garovga topshirilgan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va qurilishi tugallanmagan obyektlar bo'yicha garovga qo'yuvchining soliq solinadigan bazasi qo'shilgan qiymat solig'ini ham o'z ichiga oladigan, ularning realizatsiya qilish narxi bilan balans (qoldiq) qiymati o'rtaсидаги ижобија farqdan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Qaytariladigan tara soliq solinadigan oborotga kiritilgan taqdirda, tara belgilangan muddatda qaytarilmasa, soliq solinadigan baza mazkur taraning qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham o'z ichiga oladigan garov qiymati asosida belgilanadi.

Soliq kodeksining 206-moddasiga ko‘ra tovarlarni import qilishda soliq solinadigan bazaga tovarlarning bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadigan bojxona qiymati, shuningdek O‘zbekiston Respublikasiga tovarlarni import qilishda to‘lanishi lozim bo‘lgan aksiz solig‘ining, bojxona bojlarining summalari kiradi.

### **3.3.4. Soliq imtiyozlari**

Qo‘shilgan qiymat solig‘idan agar Soliq kodeksining 212-moddasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa quyidagi realizatsiya qilish oborotlari ozod etiladi:

- 1) yuridik va jismoniy shaxslarga muayyan huquqlar berilganda davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan ko‘rsatiladigan, davlat boji, patent boji, yig‘im yoki boshqa to‘lovlar undiriladigan xizmatlar;
- 2) mакtabgacha ta‘lim muassasalarida bolalarni tarbiyalashga doir xizmatlar;
- 3) bemorlar va keksalarni parvarish qilishga doir xizmatlar;
- 4) dafn etish byurolari va qabristonlarning marosim xizmatlari, diniy ashyolarni realizatsiya qilish, diniy tashkilotlar hamda birlashmalarning udumlar va marosimlar o‘tkazishga doir xizmatlari;
- 5) protez-ortopediya buyumlari, nogironlar uchun mo‘ljallangan inventarlar, shu jumladan ularni ishlab chiqaruvchilar tomonidan realizatsiya qilinayotgan buyumlar va inventarlar, shuningdek nogironlarga ko‘rsatilayotgan ortopedik protezlash xizmatlari, protez-ortopediya buyumlari va nogironlar uchun mo‘ljallangan inventarlarni ta‘mirlash hamda ulardan foydalanishga doir ishlar bo‘yicha xizmatlar;
- 6) davolash muassasalari huzuridagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalarining mazkur muassasalar tomonidan realizatsiya qilinadigan mahsulotlari;

- 7) pochta markalari (kolleksiya qilinadiganlaridan tashqari), markali otkritkalar, konvertlar;
- 8) aloqa tashkilotlarining pensiya va nafaqalar to‘lash bo‘yicha xizmatlari;
- 9) budjet mablag‘lari hisobidan bajariladigan ilmiy tadqiqot va innovatsiya ishlari. Soliq imtiyozni olish uchun tegishli moliya organining budjetdan mablag‘lar ajratish to‘g‘risidagi xulosasi asosdir;
- 10) shahar yo‘lovchilar transportining xizmatlari (taksidan, shu jumladan yo‘nalishli taksidan tashqari), shuningdek temir yo‘l va umumiyl foydalanishdagi avtomobil transportida (taksidan, shu jumladan yo‘nalishli taksidan tashqari) shahar atrofidagi yo‘nalishlarda yo‘lovchilar tashish xizmatlari. Shahar yo‘lovchilar transportining xizmatlari jumlasiga yo‘lovchilar tashish bo‘yicha avtomobil va elektr transporti bilan shahar doirasida muayyan yo‘nalishlar bo‘yicha qatnov jadvaliga binoan ko‘rsatiladigan xizmatlar kiradi. Ushbu bandning qoidalari yuridik va jismoniy shaxslarning buyurtmalariga ko‘ra shahar yo‘lovchilar tashish transportida xodimlarni ishdan va (yoki) ishga tashish bo‘yicha xizmatlarga, tadbirlar o‘tkazish uchun tashish bo‘yicha xizmatlarga, shu jumladan shahar tashqarisiga tashishga ham tatbiq etiladi;
- 11) oliy, o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar o‘quv yurtlarida, shuningdek kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlarda ta’lim berishning haq evaziga o‘qitishga doir qismi bo‘yicha xizmatlar;
- 13) tibbiy (veterinariya) xizmatlari, dori vositalari va tibbiyat (veterinariya) uchun mo‘ljallangan buyumlar, shu jumladan ularni ishlab chiqaruvchilar tomonidan realizatsiya qilinayotgan shunday vositalar va buyumlar.
- 14) chet el havo kemalariga xizmat ko‘rsatish yuzasidan bevosita O‘zbekiston Respublikasi aeroportlarida va O‘zbekiston Respublikasining havo bo‘shlig‘ida amalga oshiriladigan xizmatlar, shu jumladan aeronavigatsiya xizmati;

15) sanatoriy-kurort, sog‘lomlashtirish, turistik-ekskursiya xizmatlari va bolalar dam olish oromgohlarining xizmatlari, shuningdek jismoniy tarbiya va sport muassasalarining tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan xizmatlari. Soliq bandni qo‘llash maqsadida:

– sanatoriy-kurort va sog‘lomlashtirish xizmatlariga sanatoriylar, shifoxonalar, profilaktoriylar, kurortlar, pansionatlar, dam olish uylari va zonalari, bolalar dam olish oromgohlari va boshqa dam olish tashkilotlari tomonidan ularning asosiy ustav faoliyati doirasida ko‘rsatiladigan xizmatlar kiradi;

– turistik-ekskursiya xizmatlari jumlasiga safar tarkibida nazaarda tutilgan turistik xizmatlar ko‘rsatish uchun yo‘llanmaning (vaucherning) qiymatiga kiritilgan barcha turistik-ekskursiya xizmatlari kiradi. Barcha turistik-ekskursiya xizmatlari turistik xizmatlar ko‘rsatish shartnomasida belgilangan transportda xizmat ko‘rsatishdan, yashab turishga, ovqatlanishga doir xizmatlardan, ekskursiya xizmati, madaniy, sport dasturlarini tashkil etish xizmatlari va boshqa xizmatlardan iborat bo‘ladi;

– jismoniy tarbiya va sport muassasalarining xizmatlari jumlasiga sport inshootlarida sport musobaqalari, bayramlari, sport-tomosha tadbirlari, sport inshootlarida o‘tkaziladigan kalendar va match uchrashuvlari, sport turlari bo‘yicha o‘quv guruhlari hamda komandalarida, sog‘lomlashtirish, umumjismoniy tayyorgarlik, sog‘lomlashtirish yo‘nalishidagi, chiniqish, suzish, sog‘lomlashtirish maqsadidagi yugurish va yurish, atletika, ritmika va davolash gimnastikasi maktablari hamda klublarida jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari o‘tkazish bo‘yicha, sport inshootlariga qatnovchilarga biletlarning qiymatida nazaarda tutilgan sport-texnika asbob-uskunalari, trenajyorlar, inventarlar va sport ust-boshlarini berib turish bo‘yicha xizmatlar hamda boshqa xizmatlar kiradi;

17) gidrometeorologiya va aerologiya ishlari;

18) geologiya va topografiya ishlari;

19) bosma mahsulotlar, shuningdek bosma mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni realizatsiya qilish bilan bog'liq tahriri, matbaa va noshirlik ishlari (xizmatlari). Ushbu bandni qo'llash maqsadida:

– bosma mahsulotlar jumlasiga kitoblar, gazetalar, jurnallar, ma'lumotnomalar, risolalar, albomlar, plakatlar, bukletlar, otkritkalar, daftarlар, rasm va chizmachilik albomlari, blankalar hamda boshqa bosma mahsulotlar kiradi;

– tahriri, matbaa va noshirlik ishlari (xizmatlari) jumlasiga maket tayyorlash, kompyuter grafikasi, sahifalash, original marketlar tayyorlash, muqovalash, adadlarni tayyorlash, reklama murojaatlarini qabul qilib olish, rasmiylashtirish va nashrlarda joylashtirish, rang berish, yuridik va jismoniy shaxslarni axborot bilan ta'minlash, axborot toplash hamda uni qayta ishslash, matnlarni tarjima qilish ishlari, magnit va qog'oz nusxalarda pochta aloqasi hamda Internet orqali realizatsiya qilish, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa turdagи tahriri, matbaa va noshirlik ishlari kiradi. Alovida va uzil-kesil ishlari (xizmatlar) tarzida amalga oshiriladigan, matbaa mahsuloti ishlab chiqarish hamda uni realizatsiya qilish bilan bog'liq bo'lмаган tahriri, matbaa va noshirlik ishlariga (xizmatlariga) qo'shilgan qiymat solig'i solinadi;

20) O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining, uning tarkibiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlarning hamda O'zbekiston Milliy axborot agentligining asosiy faoliyatiga doir mahsulot va xizmatlar;

23) O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo'yicha xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan qarzlar (kreditlar) yuridik shaxslar oladigan, shuningdek grantlar hisobiga olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar);

24) uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash yuzasidan aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar. Uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash yuzasidan ko'rsatiladigan xizmatlar jumlasiga lift xo'jaliklari,

umumiyl foydalanishdagi antennalarni o‘rnatish hamda ularni tasarruf etish bo‘yicha xo‘jaliklar, yer resurslari va davlat kadastro, uyjoy fondidan foydalanish, uni saqlash va ta’mirlash boshqarmalari hamda bo‘limlarining bevosita aholi tomonidan haq to‘lanadigan xizmatlari, shu jumladan ushbu xizmatlarga xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari orqali haq to‘lash kiradi;

26) vakolatli davlat organining ixtisoslashgan ekspertiza bo‘linmalari o‘tkazadigan ekologik ekspertiza xizmatlari;

27) davlat tilini va davlat tilida ish yuritishni o‘rgatish xizmatlari;

28) o‘zi yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsuloti;

29) ichki ishlar organlari huzuridagi qo‘riqlov bo‘linmalari xizmatlari;

31) budjet mablag‘lari hisobidan bajariladigan yer-kadastr, yer tuzish, tuproq va geobotanika ishlari;

32) davlat rezervining tovar-moddiy zaxiralari, ular yangilanayotganda;

33) telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnika vositalari, shuningdek mazkur vositalardan foydalanishga va ularga xizmat ko‘rsatishga doir xizmatlar;

34) investor va davlat mulkini boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi o‘rtasida tuzilgan shartnomaga binoan investitsiya majburiyatlar sifatida topshirilayotgan mol-mulk;

35) davlat mulkini ijaraga berish bo‘yicha xizmatlar;

36) ommaviy axborot vositalarini va kitob mahsulotlarini yetkazib berish xizmatlari.

**Qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilinadigan moliyaviy xizmatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:<sup>1</sup>**

1) kreditlar, zayomlar bo‘yicha foizlarni hisoblab chiqarish va undirish, kreditlar, zayomlar berish, kafilliklar (kafolatlar), shu jumladan bank kafolatlari berish;

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Rasmiy nashr – O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi. – T.: «Adolat», 2014. 209-modda. 243-bet.

- 2) depozitlar qabul qilish, yuridik va jismoniy shaxslarning bank hisobvaraqlarini, shu jumladan vakil banklarda hisobvaraqlarini ochish va yuritish;
- 3) to‘lovlar, o‘tkazmalar, qarz majburiyatlari, cheklar va to‘lov vositalari bilan bog‘liq operatsiyalar, inkasso bo‘yicha operatsiyalar;
- 4) milliy valuta va chet el valutasi bilan bog‘liq operatsiyalar, numizmatika maqsadlarida foydalaniladiganlari bundan mustasno;
- 5) yuridik va jismoniy shaxslarning qimmatli qog‘ozlar depo-hisobvaraqlarini, shu jumladan vakil depozitariylarini ochish hamda yuritish;
- 6) qimmatli qog‘ozlar (aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar) bilan bog‘liq operatsiyalar. Qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq operatsiyalar jumlasiga qimmatli qog‘ozlarni saqlash, qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan huquqni hisobga olish, qimmatli qog‘ozlarni o‘tkazish hamda qimmatli qog‘ozlar reyestrini yuritish bo‘yicha operatsiyalar, qimmatli qog‘ozlar savdosini tashkil etish bo‘yicha operatsiyalar kiradi, ularni tayyorlash bo‘yicha xizmatlar bundan mustasno;
- 7) qimmatli qog‘ozlarni, yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarni (paylarni) realizatsiya qilish;
- 8) kliring operatsiyalari;
- 9) akkreditivlar ochish va ularga xizmat ko‘rsatish;
- 10) pul mablag‘larini konvertatsiya qilish bo‘yicha operatsiyalar;
- 11) chet el valutasi bilan ayrboshlash operatsiyalarini tashkil etish;
- 12) kassa operatsiyalari (banknot va tangalami qabul qilib olish, berish, qayta hisoblab chiqish, maydalab berish, almashtirish, saralash va saqlash);
- 13) moliyaviy ijara (lizing) shartnomasining ijaraga beruvchining (lizingga beruvchining) foiz tariqasidagi daromadiga tegishli qismi bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish;

- 14) forfeyting va faktorining operatsiyalari;
- 15) lombard operatsiyalari (garovga qo‘yilgan mol-mulkka qisqa muddatli kreditlar berish);
- 16) jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larining oboroti;
- 17) mijozlarning hisb raqamlariga banklar tomonidan elektron masofali xizmat ko‘tsatish bo‘yicha xizmatlar.

**Soliqdan ozod qilinadigan sug‘urta xizmatlari.<sup>1</sup>** Sug‘urta qilish, birgalikda sug‘urta qilish va qayta sug‘urta qilish xizmatlari bo‘yicha sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari tomonidan amalga oshiriladigan sug‘urta qilish bo‘yicha xizmatlar bu xizmatlar natijasida:

- 1) sug‘urta bozorining professional ishtirokchisi quyidagilarni olsa, qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilinadi:
  - a) sug‘urta qilish, birgalikda sug‘urta qilish va qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha sug‘urta mukofotlari;
  - b) qayta sug‘urta qilishga topshirilgan shartnomalar bo‘yicha vositachilik haqi va tantemlar;
  - d) sug‘urta agenti, sug‘urta va qayta sug‘urta brokeri hamda sug‘urta bozorining boshqa professional ishtirokchilarining xizmatlari uchun vositachilik haqi;
  - e) qayta sug‘urta qilishga topshirilgan shartnomalar bo‘yicha sug‘urta to‘lovleri ulushining qayta sug‘urtalovchilar tomonidan to‘lanadigan to‘lovini;
  - f) sug‘urta qilish, birgalikda sug‘urta qilish va qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha uchinchi shaxslardan subrogatsiya (regress) tartibida talab qilish bo‘yicha daromadlar;
  - g) sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari (aktuariylar, ajasterlar, syurveyerlar, assistans xizmatlari va shu singarilar) ko‘rsatgan xizmatlardan olinadigan daromadlar;

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Rasmiy nashr – O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi. – T.: «Adolat», 2014. 210-modda. 245-bet.

- h) qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha depo mukofotlariga hisoblangan hamda qayta sug‘urta qildiruvchi tomonidan qayta sug‘urtalovchiga o‘tkazilgan foizlar;
  - i) hayotini sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha sug‘urta qildiruvchilar taqdim etgan zayomlardan olinadigan daromadlar;
  - j) sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) investitsiya faoliyatidan olinadigan daromadlar, shu jumladan sug‘urta rezervlari va sug‘urta fondlari mablag‘larini investitsiyalashdan olinadigan daromadlar;
  - k) sug‘urta qilish, bиргаликда sug‘urta qilish va qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha franchizlarni qoplashdan olinadigan daromadlar;
  - l) qonun hujjatlariga muvofiq sug‘urtalovchiga o‘tgan, sug‘urta qildiruvchining (naf oluvchining) yetkazilgan zarar uchun javobgar shaxslardan talab qilish huquqini realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar;
  - m) qayta sug‘urta qilish shartnomalari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, ular bo‘yicha sug‘urta mukofotlarining qaytarib berilgan qismi summalar;
  - n) bevosita sug‘urta faoliyatini amalga oshirishdan olinadigan boshqa daromadlar;
- 2) sug‘urta qildiruvchi (naf oluvchi) quyidagilarni olsa, qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilinadi:
- a) sug‘urta to‘lovi (sug‘urta tovoni);
  - b) preventiv tadbirlar o‘tkazish uchun beriladigan mablag‘lar;
  - d) sug‘urta qilish shartnomasi zararsiz amal qilishi uchun sug‘urtalovchi to‘laydigan mablag‘lar;
  - e) sug‘urta qilish shartnomasiga muvofiq boshqa mablag‘lar.
- Quyidagi tovarlarni import qilish qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilinadi:<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Rasmiy nashr – O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi. – T.: «Adolat», 2014. 211-modda. 246-bet.

- 1) jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni bojsiz olib kirishning bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida tasdiqlangan normalari doirasida olib kirilayotgan tovarlar;
- 2) chet el diplomatik vakolatxonalarini va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalar rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek Soliq vakolatxonarning diplomatik va ma’muriy-texnik xodimlari, shu jumladan ularning o‘zlari bilan birga yashayotgan oila a’zolari shaxsiy foydalanishi uchun mo‘ljallangan tovarlar;
- 3) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda insonparvarlik yordami tariqasida olib kirilayotgan tovarlar;
- 4) davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan xayriya yordami maqsadida, shu jumladan texnik ko‘mak ko‘rsatish maqsadida olib kirilayotgan tovarlar;
- 5) O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo‘yicha xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan qarzlar (kreditlar) mablag‘lari, shuningdek grantlar hisobiga yuridik shaxslar tomonidan olib kirilayotgan tovarlar;
- 6) dori vositalari va tibbiyot (veterinariya) uchun mo‘ljallangan buyumlar, shuningdek dori vositalari va tibbiyot (veterinariya) uchun mo‘ljallangan buyumlar ishlab chiqarish uchun qonun hujjatlarida belgilanadigan ro‘yxat bo‘yicha olib kirilayotgan xomashyo;
- 7) O‘zbekiston Respublikasi hududiga qonun hujjatlariiga muvofiq tasdiqlanadigan ro‘yxat bo‘yicha olib kirilayotgan texnologik asbob-uskunalar, shuningdek butlovchi buyumlar va ehtiyyot qismlar, agar ularni yetkazib berish texnologik asbob-uskunalarni yetkazib berish kontrakti shartlarida nazarda tutilgan bo‘lsa. Import qilingan texnologik asbob-uskunalar olib kirilgan paytdan e’tiboran uch yil mobaynida eksportga realizatsiya qilingan yoki tekin berilgan taqdirda, mazkur imtiyozning amal qilishi qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lash bo‘yicha majburiyatlar tiklangan holda bekor qilinadi;

8) investor bilan davlat mulkini boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi o‘rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq investitsiya majburiyatlari sifatida olib kiriladigan mol-mulk;

9) vakolatli davlat organining yozma shakldagi tasdig‘i mavjud bo‘lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari va tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo‘yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalari;

10) bolalar poyabzali ishlab chiqarishga ixtisoslashgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar o‘z ishlab chiqarishida foydalanish uchun olib kirayotgan xomashyo, materiallar va yarim mahsulot;

11) qonun hujjalarda belgilanadigan ro‘yxat bo‘yicha yog‘och-taxta materiallari va yog‘och.

### **3.3.5. QQS soliq stavkasi va soliqni hisoblash mexanizmi<sup>1</sup>**

2014-yil uchun qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi 20 foiz miqdorida belgilangan.<sup>2</sup>

Soliq kodeksining 38-bobiga muvofiq qo‘shilgan qiymat solig‘iga nol darajali stavka ham belgilangan bo‘lib, ushbu stavka quyidagi oborotlarga qo‘llaniladi:<sup>3</sup>

1) tovarlarni chet el valutasida realizatsiya qilingan tovar oborotiga qo‘llaniladi. Biroq qimmatbaho metallarni chet el valutasida realizatsiya qilingan tovar oborotiga nol darajali stavka bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i solinmaydi. Tovarlar eksporti – bu bojaxona to‘g‘risidagi qonun hujjalariiga mufoviq O‘zbekiston Respublikasining bojaxona hududidan tovarlarni olib chiqichga

<sup>1</sup> Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi nashriyot uyi, 2005.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 25-dekabrdagi PQ-2099-soni qarori. (manba: [www.soliq.uz](http://www.soliq.uz))

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi. Rasmiy nashr. – T.: «Adolat», 2014. 38-bob. 248–252-betlar.

aytiladi. Agar Soliq kodeksining 213-moddasiga mufovij tovarlarni eksport qilinganligi tasdiqlanmagan taqdirda, mazkur tovarlarni realizatsiya qilish oborotiga belgilangan stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi;

2) chet el tarafi o'zarolik prinsipiga amal qilgan taqdirda, chet el diplomatik vakolatxonalar hamda ularga tenglashtirilgan vakolatxonarning rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek bu vakolatxonalar diplomatik va ma'muriy-texnik xodimlarining, shu jumladan ular bilan birga yashayotgan oila a'zolarining, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasalar hamda O'zbekiston Respublikasida doimiy yashayotgan bo'lmasalar, shaxsiy foydalanishi uchun realizatsiya qilinayotgan tovar (ish, xizmat)larga nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi;

3) O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining Diplomatik servis xizmati tomonidan keyinchalik chet el diplomatik vakolatxonalar va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarga realizatsiya qilish uchun olinayotgan tovar (ish, xizmat)larga nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

Tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishda nol darajali stavka qo'llanilishi tatbiq etiladigan O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan chet el diplomatik vakolatxonalarining va diplomatik vakolatxonalariga tenglashtirilgan xalqaro tashkilotlarning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan tasdiqlanadi;

4) bojxona to'g'risidagi qonun hujjalariга muvofiq, «bojxona hududida qayta ishlash» bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo'yicha bajarilgan ishlarga (ko'rsatilgan xizmatlariga), agar qayta ishlash mahsulotlari O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tashqariga olib chiqiladigan bo'lsa nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

5) xalqaro yo'nalishda tashishlar bo'yicha, ya'ni tranzit yuklarni O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab tashish va yo'lovchilar, bagajlar, yuklar va pochtani xalqaro yo'nalishda tashish bo'yicha

ko‘rsatiladigan xizmatlarni realizatsiya qilish oborotiga nol darajali stavka bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadi;

6) suv ta’mnoti, kanalizatsiya, sanitariya tozalash, issiqlik ta’mnoti, gaz ta’mnoti bo‘yicha aholiga ko‘rsatiladigan xizmatlarga, shu jumladan xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari aholi nomidan oladigan ana shunday xizmatlarga nol darajali stavka bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi belgilangan stavkalar asosida quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$S_{qqs} = S_{ay} \times N : 100$$

bunda:  $S_{qqs}$  – iste’molchilardan undiriladigan soliq summasi;  $S_{ay}$  – soliqqa tortiladigan aylanma,  $N$  – qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar) qo‘shilgan qiymat solig‘ini o‘z ichiga olgan narxlar va tariflar bo‘yicha sotilganida – soliq quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$S_{qqs} = T_q \times N : (N + 100)$$

bunda:  $T_q$  – qo‘shilgan qiymat solig‘i bilan hisobga olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) qiymati.

O‘zbekiston Respublikasi hududiga ishlar, xizmatlarni import qiluvchi yuridik shaxslar ana shu import qilinadigan ishlar, xizmatlarga qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilari hisoblanadi.

**Import qilinadigan ishlar (xizmatlar)** bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i quyidagi formula bo‘yicha hisoblab chiqariladi:

$$S_{qqs} = S \times N : 100$$

bu yerda:  $S_{qqs}$  – qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi;  $S$  – dalolatnoma, ma’lumotaoma yoki boshqa hujjatlarga ko‘ra tasdiqlanadigan, import qilinadigan ishlar, xizmatlar qiymati;  $N$  – qo‘shilgan qiymat solig‘ining foizlardagi stavkasi.

### 3.3.6. Hisob-faktura<sup>1</sup>

Hisobvaraq-faktura qat’iy hisobot hujjati bo‘lib, unda quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatiladi:

- 1) hisobvaraq-fakturaning tartib raqami va yozib berilgan sanasi;
- 2) hisobvaraq-faktura ilova qilinadigan tovar jo‘natish hujjalining yoki shartnomaning raqami va sanasi;
- 3) soliq to‘lovchining va tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotib oluvchining nomi, joylashgan yeri (pochta manzili) hamda identifikasiya raqami;
- 4) realizatsiya qilingan tovarlar, bajarilgan ishlar, ko‘rsatilgan xizmatlarning nomi va o‘lchov birliklari (ularni ko‘rsatishning imkoniyati bo‘lsa);
- 5) o‘lchov birligidan (ularni ko‘rsatishning imkoniyati bo‘lsa) kelib chiqqan holda realizatsiya qilingan tovarlar, bajarilgan ishlar, ko‘rsatilgan xizmatlarning hisobvaraq-faktura bo‘yicha soni (hajmi);
- 6) shartnoma (kontrakt) bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisobga olmagan holda, qo‘shilgan qiymat solig‘ini o‘z ichiga oladigan davlat tomonidan tartibga solinadigan narxlar (tariflar) qo‘llanilgan taqdirda esa, soliq summasini hisobga olgan holda o‘lchov birligiga to‘g‘ri keladigan narx (tarif);
- 7) realizatsiya qilinayotgan tovarlar, bajarilayotgan ishlar, ko‘rsatilayotgan xizmatlar jami sonining (hajmining) qo‘shilgan qiymat solig‘isiz qiymati;
- 8) aksiz to‘lanadigan tovarlar bo‘yicha aksiz solig‘ining stavkasi va summasi;
- 9) tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning sotib oluvchisiga taqdim etilayotgan qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi va summasi;

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Rasmiy nashr – O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi. – T.: «Adolat», 2014. 222-modda. 257-bet.

10) realizatsiya qilingan tovarlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar jami sonining (hajmining) aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'i va qo'shilgan qiymat solig'i hisobga olin-gan qiymati.

Qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan oborotni va qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan oborotni amalga oshirayotgan yuridik shaxslar, shuningdek qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'limgan yuridik shaxslar tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni oluvchi shaxsga hisobvaraq-faktura taqdim etishlari shart, quyidagi hollar bundan mustasno:

1) yo'lovchilar tashishni yo'l chiptalari bilan rasmiylashtirish;

2) tovarlar (ishlar, xizmatlar) aholiga naqd pulda realizatsiya qilingan hollarda sotib oluvchiga fiskal xotirali nazorat-kassa mashinasi cheki, terminal cheki, kvitansiya berish;

3) tovarlarning eksport-import tarzida yetkazib berilishini rasmiylashtirish;

4) qabul qilib olish-topshirish dalolatnomasi rasmiylashtiriladigan moliyaviy ijara (shu jumladan lizing) shartnomasi bo'yicha mol-mulkni topshirish, Soliq kodeksining 204-moddasidagi sak-kizinchi qismiga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash majburiyatları yuzaga keladigan hollar bundan mustasno. Bunda tegishli hujjatlar (moliyaviy ijara shartnomasining tarkibiy qismi bo'lgan ijara (lizing) to'lovleri jadvali; hisobvaraq; ijaraga (lizingga) oluvchiga ijara (lizing) to'lovlarini to'lash uchun yuborilgan yozma bildirish va shu kabilar) bilan rasmiylashtirilgan har bir ijara (lizing) to'loviga ham hisobvaraq-faktura yozilmaydi;

5) bank operatsiyalarini mijozning shaxsiy hisobvarag'idan ko'chirma berish orqali rasmiylashtirish;

6) sug'urta xizmatlarini topshiriq shartnomasi va (yoki) sug'urta polisi orqali rasmiylashtirish;

7) Soliq kodeksining 222-moddasidagi birinchi qismida ko'rsatilgan ma'lumotlar mavjud bo'lgan taqdirda, ishlarni (xiz-

matlarni) haqiqatda mazkur ishlar bajarilganligini (xizmatlar ko'rsatilganligini) tasdiqlovchi hujjatlar bilan rasmiylashtirish.

Ushbu moddaning ikkinchi qismida ko'rsatilgan hujjatlar hisobvaraq-faktura o'rmini bosadigan hujjatlardir. Bunda qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib berilgan taqdirda, ushbu hujjatlarda qo'shilgan qiymat solig'i summasi albatta ajratib ko'rsatilishi kerak.

Kelgusida tovarlarni yetkazib berish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish uchun oldindan to'langan haq (bo'nak) yozilgan hisobvaraq hisobvaraq-faktura bo'lmaydi.

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lмаган, shuningdek qo'shilgan qiymat solig'i to'lashdan ozod qilingan oborotni amalga oshirayotgan yuridik shaxslar hisobvaraq-fakturada qo'shilgan qiymat solig'i summasini ko'rsatmaydilar hamda «qo'shilgan qiymat solig'isiz» degan shtamp bosadi (yozib qo'yadi).

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi uchun hisobvaraq-faktura qo'shilgan qiymat solig'ini ushbu kodeksning 218-moddasiga muvofiq hisobga olish uchun asos bo'ladi.

Agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, hisobvaraq-faktura tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilish oboroti amalga oshirilgan sanada yoziladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan elektr energiyasi, suv, gaz, aloqa xizmatlari, kommunal xizmatlar, temir yo'lda tashishlar, transport-ekspeditorlik xizmati, bank operatsiyalari, shuningdek tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni uzlucksiz yetkazib berishni amalga oshirayotgan soliq to'lovchilar oyning oxirgi kunida bir marta hisobvaraq-faktura yozadi.

Hisobvaraq-fakturada tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning qiymati va qo'shilgan qiymat solig'i summasi milliy valutada ko'rsatiladi.

Tuzilgan shartnomalarning shartlariga binoan tovarlariga, ishlari va xizmatlariga narxlar (tariflar) chet el valutasida belgilanadigan yuridik shaxslar hisobvaraq-fakturalarni chet el valuta-

sida yozib, ayni bir vaqtda uni hisobvaraq-faktura yozib berilgan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha qayta hisoblagan holda milliy valutada ifodalaydi.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni yetkazib beruvchi soliq solinadigan bazaga uni ko'paytirishga (kamaytirishga) qaratilgan tuzatish kiritgan taqdirda, mazkur tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni oluvchi tomonidan tasdiqlanadigan qo'shimcha hisobvaraq-faktura tuziladi.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni yetkazib beruvchi qo'shimcha hisobvaraq-fakturada quyidagi ma'lumotlarni ko'rsatishi kerak:

1) qo'shimcha hisobvaraq-fakturaning raqami va tuzilgan sanasi;

2) hisobvaraq-fakturani to'ldirishda zarur bo'lgan, ushbu mod-daning birinchi qismida nazarda tutilgan rekvizitlar;

3) tuzatish kiritilayotgan hisobvaraq-fakturaning raqami va sanasi;

4) qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olmagan holda soliq solinadigan bazaga tuzatish kiritish miqdori (salbiy yoki ijobiy);

5) qo'shilgan qiymat solig'i summasiga tuzatish kiritish miqdori (salbiy yoki ijobiy).

Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar o'zlari olgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha hisobvaraq-fakturalarning, shuningdek realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha taqdim etilgan hisobvaraq-fakturalarning reyestrini yuritishi shart. Bunda olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha hisobvaraq-fakturalar reyestriga faqat qo'shilgan qiymat solig'i ajratib ko'rsatilgan hisobvaraq-fakturalar kiritiladi.

Hisobvaraq-fakturaning shakli, uni to'ldirish tartibi, shuningdek kelib tushgan va taqdim etilgan hisobvaraq-fakturalar reyestrini yuritish tartibi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

### **3.3.7. Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi**

**Soliqni hisoblab chiqarish tartibi.** Soliq kodeksining 224-moddasiga muvofiq soliq solinadigan oborotlar bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i soliq solinadigan baza va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Budgetga to‘lanishi lozim bo‘lgan qo‘shilgan qiymat solig‘i soliq solinadigan oborot bo‘yicha hisoblab chiqarilgan soliq summasi bilan Soliq kodeksining 218-moddasiga muvofiq hisobga olinadigan soliq summasi o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Tovarlarni import qilish bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘ining summasi soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

**Soliq hisob-kitoblarini taqdim etish tartibi.** Soliq kodeksining 225-moddasiga muvofiq qo‘shilgan qiymat solig‘ining hisob-kitobi soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari boyicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Soliq to‘lovchilar, bundan kredit va sug‘urta tashkilotlari mustasno, qo‘shilgan qiymat solig‘ining hisob-kitobi bilan bir vaqtda soliq davri mobaynida olingan va realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo‘yicha hisobvaraqt-fakturalar reyestrini taqdim etadi. Hisobvaraqt-fakturalar reyestrining shakli O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilanadi.

**Soliq to‘lash tartibi.** Soliq kodeksining 226-moddasiga muvofiq qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lash quyidagicha amalga oshiriladi:

– qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchisi bo‘lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan – qo‘shilgan qiymat

solig‘ining hisob-kitobini taqdim etish uchun belgilangan kundan kechiktirmay, ya’ni ortib boruvchi yakun bilan yilning har chora-gida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari boyicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda;

– mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to‘lovchilar tomonidan – har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari boyicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay.

Import qilinadigan tovarlar bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lash bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan mudatlarda amalga oshiriladi.

### ***NAZORAT SAVOLLARI***

1. Qo‘shilgan qiymat solig‘ining davlat budgeti daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati qanday?
2. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchilari kimlar?
3. Qo‘shilgan qiymat solig‘i obyekti qanday aniqlanadi va soliqqa tortiladigan oborot deganda nimani tushunasiz?
4. Qo‘shilgan qiymat solig‘iga soliq solinadigan baza deganda nimani tushunasiz?
5. Qo‘shilgan qiymat solig‘iga imtiyozlar nimalardan iborat?
6. Qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkalari va ularni qo‘llash tartibi qanday?
7. Nollik stavka qaysi tovarlar (ish va xizmatlar)ga nisbatan qo‘llaniladi?
8. Hisobvaraq-fakturalar qanday to‘ldiriladi va unda qo‘shilgan qiymat solig‘i qaysi punktlarda ko‘rsatiladi?
9. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lash va hisobotni taqdim etish tartibi qanday?
10. Qo‘shilgan qiymat solig‘i qaysi formula orqali aniqlanadi?

# Mustaqil o‘zlashtirish uchun chizmali materiallar

**Qo‘shilgan qiymat solig‘i – O‘zbekiston soliq tizimida  
1992-yildan boshlab joriy etilgan.**

## **QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIQ AFZALLIKLARI:**

- ✓ QQS mahsulotning sotuv narxiga qo‘shilmay uning ustiga qo‘yilib, xaridor tomonidan to‘lanadi, bu esa ishlab chiqarishning xarajatlariga va rentabelligiga ta‘sir etmaydi;
- ✓ soliq undirish tizimining soddaligi soliq organi uchun hamda soliq to‘lovchilar uchun ham qulaylik yaratadi.
- ✓ QQS tarmoq va korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlaridan, kapital jamg‘armasidan, ishlab chiqarish turidan qat’i nazar bir xilda soliqqa tortish darajasi qo‘llaniladi;
- ✓ qo‘shilgan qiymat solig‘ining hujjatlarda alohida ko‘rsatilib yozilishligi uni to‘lashda qiyinlashtiradi;
- ✓ QQS bozor iqtisodiyotini soliqlar yordamida tartibga solishda daromad (foyda) solig‘i stavkasini pasaytirilishi natijasida budjetning daromad qismidagi yo‘qotishlarni qoplash uchun taktik vosita sifatida ishlatiladi.

**Soliq solish obyekti** – soliq solinadigan oborot,  
soliq solinadigan import

### **SOLIQ TO‘LOVCHILAR**

- 1) soliq solinadigan oborotlarga ega bo‘lgan yuridik shaxslar, agar Soliq moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa;
- 2) Soliq kodeksiga muvofiq zimmasiga O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan amalga oshirilayotgan soliq solinadigan oborotlar uchun qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lash bo‘yicha majburiyat yuklatiladigan yuridik shaxslar;

- 3) tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar, o‘z ehtiyojlari uchun bojsiz olib kirish normalari doirasida tovarlar olib kiruvchi jismoniy shaxslar bundan mustasno;
- 4) oddiy shirkat soliq solinadigan oborotlarni amalga oshirayotganda zimmasiga uning ishlarini yuritish yuklatilgan (ishonchli shaxs) oddiy shirkat shartnomasining sherigi (ishtirokchisi).

### **3.4. AKSIZ SOLIG‘I**

#### **3.4.1. Aksiz solig‘ining soliq tizimida va davlat budgeti daromadlaridagi o‘rni**

Soliq psixologiyasi nuqtai nazardan barcha soliqlar iste’mol predmeti hisoblanadi, aksizlar ham shular jumlasiga kiradi va bir qator afzalliklarga ega. Tovarning narxida o‘tirganligi uchun ular ko‘zga ko‘rinmaydi, soliqning katta-kichikligini bilmagan sotib oluvchi uning narxida soliq o‘tirganligini bilmay turib tovarni sotib oladi. Bu odatda bilvosita soliq bo‘lib, uni yaxshisi ko‘rinmas deb atash maqsadga muvofiqdir.

Aksizlar – tovarlar uchun qo‘yiladigan bilvosita soliqlarning bir turi bo‘lib, qo‘shilgan qiymat solig‘idan farqli ma’lum bir chegaralangan tur va guruhdagi mahsulotlarning narxiga yoki ko‘rsatilayotgan xizmatlarning tarifiga qo‘shiladi. «Aksiz» so‘zi fransuz tilidan kelib chiqqan bo‘lib, «chopib tashlash» ma’nosini bildiradi. Aksizlar tovar narxiga qo‘shiladi va hukumatga uning qiymatidan bir qismini olishga yoki kesib olishga imkon beradi. Ustiga qo‘yilgan qo‘shimcha narx mahsulot ishlab chiqarishning unumdorligini yoki biron-bir alohida xususiyatlarini bildirmaydi, balki aksiz tovarlarini ishlab chiqarish va realizatsiya qilishning alohida sharoitlaridan kelib chiqib belgilanadi.

O‘zbekistonda aksiz solig‘i 1992-yilda qo‘shilgan qiymat solig‘i bilan birlashtirilganda oborot solig‘i va sotuvdan olinadigan soliqlar o‘rniga joriy qilingan. Uning qo‘shilgan qiymat solig‘idan farqli tomoni shundaki, u ayrim tovarlar va mahsulotlarni chegaralab olgan va u bajarilgan ish, ko‘rsatilgan xizmatlarga nisbatan qo‘llanilmaydi.

Aksiz solig‘i individual xarakterga ega bo‘lib, faqat aksiz osti tovarlarga nisbatan qo‘llaniladi.

Aksiz solig‘i qo‘shilgan qiymat solig‘iga tortiladigan bazada va narxda hisobga olinadigan yuklab jo‘natilgan tovarlar qiymatining bir qismini egri soliq sifatida budgetga undirish shakli hisoblanadi. Aksiz solig‘i Davlat budgeti daromadlarini shakllantirishda salmoqli o‘rin egallaydi.

### **Aksizlarning asosiy ajratib turadigan xususiyatlari quydalar:**

– aksizlar ko‘pgina holatlarda biron bir tovarni ishlab chiqarish uchun ketgan xarajatga nisbatan unga bo‘lgan tabuning yuqoriligi va doimiyligi natijasida, sotilish narxi ancha yuqori bo‘lganda paydo bo‘ladi, masalan, aroq, tamaki, kofe (O‘zbekiston sharoitida paxta kiradi). Hukumat aksizlar yordamida tovar qiymatida o‘tirgan o‘ziga xos ishlab chiqarish va realizatsiya sharoitlari bo‘lgan, ammo tovarning unumliligini va iste’mol xususiyatlarini aks ettirmaydigan qismlarini undirib ola di. Agarda hukumat soliq xususiyatlarini aksiz solig‘i yordamida undirmasa, u holda aksiz tovarlar ishlab chiqaruvchilar o‘zlaribunga yarasha xizmat ko‘rsatmagan holda yuqori daromadga ega bo‘ladilar;

– aksizlar jamiyat tomonidan iste’mol qilish keraksiz deb topilgan tovarlarga – spirtli ichimliklar, tamaki mahsulotlari va benzinga qo‘yiladi. Shunday qilib, aksizlar iste’molni me’yorga solib turuvchi bir vosita sifatida xizmat qiladi. Ular yordamida hukumat bir tomondan inson salomatligiga, jamiyat

va atrof-muhitga zarar keltiradigan tovarlarni (tamaki, vino, aroq mahsulotlari va h.k.) sotilishini ushlab tursa, ikkinchi tomon dan, soliq tovarlarni sotish natijasida jamiyatda yetkaziladigan zararlarni moliyaviy qoplash uchun mablag‘ undiradi. Hukumatning bunday tutgan yo‘li esa adolatli deb hisoblana di, chunki alkogol ichuvchilar, tamaki mahsulotlarini iste’mol qiluvchilar, avtomobil yordamida atrof-muhitni zaharovchilar qanchalik ko‘p iste’mol qilsalar, shunchalik ko‘p soliq to‘laydilar, bu esa davlat budgetini mablag‘ bilan ta’minlashiga olib keladi;

- barcha bilvosita soliqlar kabi aksiz ham soliq-fiskal funksiyasini to‘liq bajaradi, ya’ni budgetni mablag‘ bilan ta’minlaydi;
- aksizlar tabiiy monopolistlarning narx belgilashlaridagi jarayonda ham foydalaniladi (joriy qonunchiligidan aksiz tovarlar qatoriga neft ham kiritiladi).

### **3.4.2. Soliq to‘lovchilar tarkibi**

Aksiz solig‘i to‘lovchi yuridik va jismoniy shaxslar quyidagilardir:

- O‘zbekiston Respublikasi hududida aksiz solig‘i solinadigan tovarlar (aksiz to‘lanadigan tovarlar)ni ishlab chiqaruvchilar;
- O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz to‘lanadigan tovarlarni import qiluvchilar;
- oddiy shirkat aksiz to‘lanadigan tovar ishlab chiqargan taqdirda, oddiy shirkat shartnomasining oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan sherigi (ishtirokchisi).

Aksiz to‘lanadigan tovarlarning ayrim turlari bo‘yicha aksiz to‘lanadigan tovarlar ishlab chiqaruvchi bo‘lmagan shaxs O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga binoan aksiz solig‘ini to‘lovchi etib belgilanishi mumkin.

### **3.4.3. Soliq solish obyekti va soliq solinadigan baza<sup>1</sup>**

**Quyidagi operatsiyalar aksiz solig'i solinadigan obyektdir:**

1) aksiz to'lanadigan tovarlarni realizatsiya qilish, shu jumladan:

- tovarni sotish (jo'natish);
- garov bilan ta'minlangan majburiyat bajarilmagan taqdirda, garovga qo'yilgan aksiz to'lanadigan tovarlarni garovga qo'yuvchi tomonidan topshirish;
- aksiz to'lanadigan tovarlarni bepul topshirish;
- aksiz to'lanadigan tovarlarni ish beruvchi tomonidan ish haqi hisobiga yollangan xodimga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda topshirish yoki hisoblangan dividendlar hisobiga yuridik shaxsning muassisiga (ishtirokchisiga) topshirish;
- aksiz to'lanadigan tovarlarni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) ayirboshlash uchun topshirish;

2) aksiz to'lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa yoki pay badali tariqasida yoxud oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha sherikning (ishtirokchining) hissasi sifatida topshirish;

3) aksiz to'lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ishtirokchisiiga (muassisiga) u yuridik shaxs tarkibidan chiqqan (chiqib ketgan) taqdirda yoki yuridik shaxs qayta tashkil etilganligi, tugatilganligi (bankrotligi) munosabati bilan topshirish, shuningdek oddiy shirkat shartnomasi doirasida ishlab chiqarilgan aksiz to'lanadigan tovarlarni mazkur shartnomaga sherigiga (ishtirokchisiga) uning shartnomaga ishtirokchilari umumiyligi mol-mulkdan ulushi ajratib berilgan yoki bunday mol-mulk taqsimlangan taqdirda topshirish;

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi. Rasmiy nashr. – T.: «Adolat», 2014. 230-modda, 232-modda. 266–269-betlar.

4) aksiz to‘lanadigan tovarlarni ulush qo‘shish asosida qayta ishlashga topshirish, shuningdek ulush qo‘shish asosida xomashyo va materiallarni, shu jumladan aksiz to‘lanadigan xomashyo va materiallarni qayta ishslash mahsuli bo‘lgan aksiz to‘lanadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi tomonidan qayta ishslashga berilgan xomashyo va materiallarning mulkdoriga topshirish;

5) ishlab chiqarilgan va (yoki) qazib olingan aksiz to‘lanadigan tovarlarni o‘z ehtiyojlari uchun topshirish;

6) aksiz to‘lanadigan tovarlarni O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga import qilish.

**Aksizlanadigan tovarlar uchun soliq solish obyekti bo‘lib:**

– *qat’iy soliq stavkalari belgilangan mahsulotlar bo‘yicha* – sotilgan mahsulotlar hajmiga nisbatan naturadagi ifodasi. Bu guruhga alkogol ichimliklari, tamaki mahsulotlari, o‘simlik yog‘i kiradi;

– *boshqa aksizlanadigan mahsulotlar bo‘yicha* – kelishilgan narxlarda (o‘z ichiga aksiz solig‘i summasini olgan), qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisobga olmagan holda yuklab jo‘natilgan tovarning qiymati hisoblanadi.

Tekinga beriladigan aksizlanadigan tovar ham soliq solish obyekti hisoblanadi. Bunda soliqqa tortish obyektiga quyidagilar kiradi:

– alkogolli mahsulotlar, etil spirti, pivo, vino, materiallar bo‘yicha – ularga nisbatan qatiy soliq stavkalari belgilangan sotilgan alkogolli mahsulotlar hajmining naturadagi ifodasi;

– boshqa aksizlanadigan mahsulotlar bo‘yicha – soliq to‘lovchida tovarni topshirish paytida shakllangan, lekin soliq aksizlanadigan tovarni ishlab chiqarishda haqiqatda amalga oshirilgan xarajatlardan kam bo‘lmagan hisob-kitob (ulgurji) narxlari darajasidan kelib chiqqan holda hisoblangan qiymat soliq solish obyekti bo‘lib hisoblanadi.

## **Quyidagilarga aksiz solig‘i solinmaydi:**

1) aksiz to‘lanadigan tovarlarni ularning ishlab chiqaruvchilari tomonidan eksportga realizatsiya qilishga, bundan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan aksiz to‘lanadigan tovarlarning ayrim turlari mustasno;

2) keyinchalik O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqib ketilishi sharti bilan «bojxona hududida qayta ish-lash» bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlardan ishlab chiqarilgan qayta ishlash mahsuli bo‘lgan aksiz to‘lanadigan tovarlarni topshirishga;

3) O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga:

– O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda insonparvarlik yordami sifatida;

– davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan xayriya yordami maqsadida, shu jumladan texnik ko‘mak ko‘rsatish maqsadida;

– O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo‘yicha xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan zayomlar (kreditlar) mablag‘lari hisobiga, shuningdek grantlar hisobiga yuridik shaxslar tomonidan olib kirilayotgan, aksiz to‘lanadigan tovarlarni import qilishga;

4) aksiz to‘lanadigan tovarlarni O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz solig‘i solinmaydigan tovarlarni olib kirish normalari doirasida jismoniy shaxslar tomonidan import qilishga. O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz solig‘i solinmaydigan tovarlarni jismoniy shaxslar tomonidan olib kirish normalarining eng yuqori chegarasi qonun hujjalarda belgilanadi;

5) vakolatli davlat organining yozma tasdig‘i mavjud bo‘lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari va tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo‘yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari ti-zimi texnik vositalarini import qilishga.

**Soliq solinadigan baza.** Aksiz solig‘ining stavkalari mutlaq summada (qat‘iy) belgilangan aksiz to‘lanadigan tovarlar bo‘yicha soliq solinadigan baza aksiz to‘lanadigan tovarlarning naturada ifodalangan hajmi asosida aniqlanadi.

Ish haqi hisobiga, hisoblab chiqarilgan dividendlar hisobiga, bepul yoki boshqa tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) ayirboshlash uchun beriladigan aksiz to‘lanadigan tovarlar bo‘yicha, shuningdek tovarlar tannarxidan past narxlarda realizatsiya qilingan taqdirda soliq to‘lovchi tovarlarni topshirish paytida uning haqiqiy tannarxidan kam bo‘lmagan darajada belgilaydigan narx asosida hisoblangan qiymat soliq solinadigan bazadir.

Qayta ishslashga berilgan xomashyo va materiallardan ishlab chiqarilgan aksiz to‘lanadigan tovarlar bo‘yicha soliq solinadigan baza aksiz to‘lanadigan tovarlarni ishlab chiqarishga doir ishlar qiymatini hamda qayta ishslashga berilgan xomashyo va materiallar qiymatini o‘z ichiga oladi.

Aksiz solig‘ining stavkalari foizlarda (advalor) belgilangan import qilinayotgan aksiz to‘lanadigan tovarlar bo‘yicha soliq solinadigan baza bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjalariiga muvofiq aniqlanadigan bojxona qiymati asosida belgilanadi.

#### **3.4.4. Aksiz soliq stavkalari**

Aksiz solig‘iga O‘zbekiston Respublikasi hududida chiqariladigan va O‘zbekiston Respublikasi hududiga import qilingan tovarlar tortiladi. Aksiz solig‘i stavkalari quyidagicha belgilanadi:

- **advalor stavka** – tovarning qiymatiga nisbatan foizlarda belgilanadi;
- **qat‘iy stavka** – tovarning naturada ifodalangan o‘lchov birligiga mutlaq summa belgilanadi.

Aksiz solig‘i stavkalari va aksiz to‘lanadigan tovarlar ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadi. 2014-yil uchun aksiz to‘lanadigan tovarlar ro‘yxati va soliq stavkalari quyidagi jadvalda keltirilgan. (3-jadval)

**O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan, aksiz solig‘i  
solinadigan tovarlarga nisbatan aksiz solig‘i stavkalari<sup>1</sup>**

| Tovarlar nomi                                                                                                                                                                | Soliq stavkasi |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------|
| 1. Etil spirti (1 dal uchun)                                                                                                                                                 | 3 637          |
| 2. Vino (1 dal tayyor mahsulot uchun) <sup>1</sup><br>tabiiy ravishda achitilgan natural vinolar (etil spirti<br>qo‘silmagan holda)                                          | 5 492          |
| boshqa vinolar                                                                                                                                                               | 6 587          |
| 3. Konyak, aroq va boshqa alkogolli mahsulotlar<br>(1 dal tayyor mahsulot uchun)                                                                                             | 32 700*        |
| 4. Pivo (1 dal tayyor mahsulot uchun) <sup>1</sup>                                                                                                                           | 3 570          |
| 5. O‘simlik (paxta) yog‘i (1 tonna uchun): <sup>1</sup><br>– oziq-ovqat yog‘i (salomas ishlab chiqarish<br>uchun ishlatiladigan yog‘ va «O‘zbekiston»<br>yog‘idan tashqari); | 875 665        |
| – texnik moy (kislota miqdori 0,3 mg KOH/g<br>dan yuqori, oziq-ovqat mahsulotlari tarkibiga<br>qo‘sishga yaroqsiz bo‘lgan)                                                   | 481 689        |
| 6. Sigaretalar (1 ming dona uchun): <sup>1</sup>                                                                                                                             |                |

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 25-dekabrdagi PQ-2099-sonli qarorining 12.1-ilovasi.

|                                                                                                                                                                                                                         |                       |        |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------|--------|
| - filtrli                                                                                                                                                                                                               |                       | 17 451 |
| - filtrsiz, papiroslar                                                                                                                                                                                                  |                       | 8 423  |
| 7. Zargarlik buyumlari                                                                                                                                                                                                  | 25                    |        |
| 8. «Jeneral Motoros O'zbekiston» YoAJ ishlab chiqargan avtomobillar <sup>2</sup>                                                                                                                                        | 29                    |        |
| 9. Kumushdan ishlangan oshxona anjomlari                                                                                                                                                                                | 11                    |        |
| 10. Qimmatbaho metallar <sup>2</sup>                                                                                                                                                                                    |                       |        |
| 11. Neft mahsulotlari: <sup>1</sup>                                                                                                                                                                                     |                       |        |
| Ai-80 benzini                                                                                                                                                                                                           | 321 430<br>so'm/tonna |        |
| Ai-91, Ai-92, Ai-93 benzini                                                                                                                                                                                             | 353 430<br>so'm/tonna |        |
| Ai-95 benzini                                                                                                                                                                                                           | 408 890<br>so'm/tonna |        |
| dizel yoqilg'isi                                                                                                                                                                                                        | 273 400<br>so'm/tonna |        |
| EKO dizel yoqilg'isi                                                                                                                                                                                                    | 284 250<br>so'm/tonna |        |
| aviakerosin                                                                                                                                                                                                             | 50 580 so'm/<br>tonna |        |
| dizel yoki karbyurator (injektor) dvigatellari uchun motor moyi                                                                                                                                                         | 207 000<br>so'm/tonna |        |
| 12. Tabiiy gaz (aholiga sotiladigan tabiiy gaz hajmlaridan tashqari), shu jumladan eksport <sup>2</sup>                                                                                                                 | 25                    |        |
| 13. Ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan sotiladigan suyultirilgan gaz («Uztransgaz» AK mintaqalararo unitar korxonalari tomonidan aholiga sotiladigan gaz hajmi bundan mustasno), shu jumladan eksport <sup>2</sup> | 26                    |        |
| 14. Paxta tolasi <sup>3</sup>                                                                                                                                                                                           |                       |        |

\*) Hajmiy ulushda etil spirti 40 foizdan ko'p bo'lgan konyak, aroq va boshqa alkogolli mahsulotlarga aksiz solig'i stavkasi 1 dal tayyor mahsulot uchun 43 105 so'm miqdorda belgilanadi.

## Izohlar:

- 1) Qat’iy miqdorda belgilangan aksiz solig‘i stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan narxlarning dinamikasi hamda mahsulotning sotilish hajmidan kelib chiqqan holda yil mobaynida qayta ko‘rib chiqilishi mumkin;
- 2) «Jeneral Motoros O‘zbekistan» YoAJ avtomobillari, tabiiy va suyultirilgan gaz, qimmatbaho metallar, shuningdek chakana savdo tarmog‘ida sotiladigan tilladan ishlangan zargarlik buyumlariga aksiz solig‘ini to‘lovchilar va uni to‘lash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi bilan kelishilgan holda belgilanadi;
- 3) paxta tolasining ichki narxlari (realizatsiya bo‘yicha xarajatlarni hisobga olgan holda) va uni realizatsiya qilishning haqiqiy narxi o‘rtasidagi ijobiy farq paxta tozalash korxonalarining maxsus hisob raqamida jamlanadi va 50 foizgacha bo‘lgan miqdorda – paxtachilik fermer xo‘jaliklariga, keyincha lik ularning kreditorlik qarzini so‘ndirish uchun budgetga va budgetdan tashqari jamg‘armalarga yo‘naltirilgan holda, qolgan qismi – «O‘zpaxtasanoat» uyushmasi korxonalarining budget va budgetdan tashqari jamg‘armalar oldidagi qarzini so‘ndirishga yo‘naltiriladi.

### 3.4.5. Aksiz solig‘ini hisoblash

Berilgan xomashyosidan ishlab chiqarilgan mahsulot uchun aksiz solig‘ini hisoblash mahsulotlarni realizatsiya qilgandagi aksiz solig‘i oboroti quyidagicha aniqlanadi:

- qat’iy soliq stavkalari belgilangan mahsulotlarga – tayyor mahsulotning tabiiy hajmidan kelib chiqqan holda;
- boshqa mahsulotlar bo‘yicha – tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun ketgan ishlarning va berilgan xomashyoning qiyamatlaridan kelib chiqib belgilanadi. (

Aksiz solig‘ining summasi quyidagi formulaga asosan hisoblanadi.

1. Aksiz solig‘ining qatiy soliq stavkalari belgilangan holatlarda, jumladan:

– tayyor mahsulot birligiga aksiz solig‘ining qat’iy stavkalari belgilangan mahsulot bo‘yicha (Etil spirti, aroq, konyak, vino, shampanskiy vinosi, pivo, hamda tamaki mahsulotlari va o‘simlik moyi)

$$AS = F \times A$$

bunda:  $F$  – tegishli o‘lchov birliklarida sotilgan mahsulotning tabiiy hajmi;  $A$  – aksiz solig‘ining qat’iy stavkasi, o‘lchov birligiga so‘mlarda.

2. Boshqa foiz (advalor) ko‘rinishidagi stavkalar belgilangan aksizlanadigan mahsulotlar bo‘yicha aksiz solig‘i summasi quyidagi formulaga asosan aniqlanadi:

$$AS = (O \times A) : 100,$$

bunda:  $O$  – o‘z ichiga aksiz solig‘ini oladigan narx, QQSsiz;  $A$  – aksiz solig‘i stavkasi, foizlarda.

Aksiz solig‘i summasining hisob-kitobi uchun aksizni o‘z ichiga oladigan narx quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$AS = O + (S \times 100) : 100 - A$$

bu yerda:  $O$  – QQSsiz aksiz solig‘ini o‘z ichiga oladigan narx;  $S$  – korxonaning hisob-kitob (ulgurji) narxi (me’yoriy xarajatlar va foyda me’yori);  $A$  – aksiz solig‘i stavkasi.

Stavkalari foizlarda belgilangan aksizlanadigan mahsulot bo‘yicha aksiz solig‘ining hisob-kitobiga shartli misol quyidagi jadvalda keltirilgan.

**Stavkalari foizlarda belgilangan aksizlanadigan mahsulot bo'yicha  
aksiz solig'inining hisob-kitobi**

|   |                                                                                    |      |      |
|---|------------------------------------------------------------------------------------|------|------|
| 1 | Mahsulot birligining tannarxi                                                      | so'm | 1500 |
| 2 | Zaruriy foyda                                                                      | so'm | 100  |
| 3 | Mahsulotning hisob-kitob (ulgurji) narxi (1-satr + +2-satr)                        | so'm | 1600 |
| 4 | Aksiz solig'i stavkasi                                                             | %    | 20   |
| 5 | Aksiz solig'i bilan mahsulotning narxi (QQSSiz)<br>(3-satr × 100) : (100 – 4-satr) | so'm | 2000 |
| 6 | Aksiz solig'inining summasi (5-satr – 3-satr)                                      | so'm | 400  |

### 3.4.6. Hisob-kitobni taqdim etish va soliq to'lash tartibi

Soliq kodeksining 239-moddasiga mufoviq aksiz solig'inining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yilning har choragida, soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

**Soliq to'lash tartibi.** Aksiz solig'i summasi budgetga quyidagi muddatlarda to'lanadi:

- joriy oyning 13-kunidan kechiktirmay – joriy oyning birinchi o'n kunligi uchun;
- joriy oyning 23-kunidan kechiktirmay – joriy oyning ikkinchi o'n kunligi uchun;
- kelgusi oyning 3-kunidan kechiktirmay – hisobot oyining qolgan kunlari uchun.

Import qilinadigan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'i tovarlarning bojxona rasmiylashtiruviga qadar yoki bojxona rasmiylashtiruvi vaqtida import qiluvchi tomonidan to'lanadi.

Aksiz markalari bilan tamg'alanishi lozim bo'lgan import qilinadigan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'i aksiz markalari olinguniga qadar to'lanadi.

## **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Aksiz solig‘i qachon joriy etildi va aksizlarni asosiy ajratib turadigan xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Aksiz solig‘i to‘lovchilari kimlar?
3. Aksiz solig‘ining summasi qaysi formulaga asosan hisoblanadi?
4. Aksiz solig‘i obyekti va bazasi qanday aniqlanadi?
5. Aksiz solig‘ini to‘lashdan kimlar ozod etilgan?
6. Aksiz solig‘i stavkalari va aksizosti tovarlari ro‘yxati kim tomonidan belgilanadi?
7. Aksiz solig‘ini hisobga olish tartibi qanday?
8. Aksiz solig‘i hisobini taqdim etish va soliqni to‘lash muddatlar qanday?

### **Mustaqil o‘zlashtirish uchun chizmali materiallar**

**AKSIZ SOLIG‘I – O‘zbekistonda 1992-yilda oborot solig‘i va sotuvdan olinadigan soliqlar o‘rniga joriy qilingan.**

#### **Aksiz solig‘i to‘lovchi yuridik va jismoniy shaxslar:**

- ✓ O‘zbekiston Respublikasi hududida aksiz solig‘i solinadigan tovarlar (aksiz to‘lanadigan tovarlar)ni ishlab chiqaruvchilar;
- ✓ O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz to‘lanadigan tovarlarni import qiluvchilar;
- ✓ oddiy shirkat aksiz to‘lanadigan tovar ishlab chiqargan taqdirda, oddiy shirkat shartnomasining oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan sherigi (ishtirokchisi).
- ✓ aksiz to‘lanadigan tovarlarning ayrim turlari bo‘yicha aksiz to‘lanadigan tovarlar ishlab chiqaruvchi bo‘lmagan shaxs O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan aksiz solig‘ini to‘lovchi etib belgilanishi mumkin.

**Aksiz solig‘ining stavkalari –**  
mutlaq summada (qat‘iy) belgilangan aksiz to‘lanadigan tovarlar  
bo‘yicha soliq solinadigan baza aksiz to‘lanadigan tovarlarning  
naturada ifodalangan hajmi asosida aniqlanadi.

**Aksiz solig‘ining qat’i soliq stavka belgilangan holatlarda**  
**quyidagi formulaga asosan aniqlanadi:**

$$AS = F \times A$$

*F* – tegishli o‘lchov birliklarida sotilgan mahsulotning tabiiy hajmi;

*A* – aksiz solig‘i stavkasi.

**Aksiz solig‘ining foiz (advalor) ko‘rinishidagi stavkalari quyidagi**  
**formulaga asosan aniqlanadi:**

$$AS = (O \times A) : 100,$$

*O* – o‘z ichiga aksiz solig‘ini oladigan narx, QQSsiz;

*A* – aksiz solig‘i stavkasi, foizlarda.

### **Soliq to‘lash tartibi**

**Aksiz solig‘i summasi budgetga quyidagi muddatlarda to‘lanadi:**

- joriy oyning 13-kunidan kechiktirmay – joriy oyning birinchi o‘n kunligi uchun;
- joriy oyning 23-kunidan kechiktirmay – joriy oyning birinchi o‘n kunligi uchun;
- kelgusi oyning 3-kunidan kechiktirmay – hisobot oyning qolgan kunlari uchun.

## **3.5. YURIDIK SHAXSLARNING MOL-MULKIGA SOLINADIGAN SOLIQ**

### **3.5.1. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to‘lovchilari**

O‘zbekistonda korxonalar faoliyatini soliqqa tortish yo‘lidagi muhim qadamlardan biri korxonalarning mol-mulkiga solina-

digan soliqning joriy qilinishi bo‘ldi. Mol-mulk solig‘i dastlab, O‘zbekiston Respublikasining 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan «Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida»gi Qonuniga asosan joriy etildi va shu bilan birga korxonalarning ishlab chiqarish fondlariga to‘lov hamda transport vositalariga solinadigan soliq bekor qilindi.

Hozirgi vaqtida ushbu soliqning huquqiy asosi bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari hamda boshqa soliq qonunchiligi bilan bog‘liq bo‘lgan me’yoriy hujjatlar hisoblanadi.

O‘zbekiston soliq tizimida yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i to‘g‘ri soliqlar tarkibiga kiradi va mohiyatiga ko‘ra, bu soliq asosiy fondlar shaklidagi resurslarga nisbatan belgilangan soliq hisoblanadi. Mazkur soliq bo‘yicha tushumlar summasi to‘liq mahalliy budgetlarga tushadi va u budgetning barqaror daromad manbalaridan biri hisoblanadi.

Mamlakat soliq tizimida mol-mulk solig‘ini joriy qilishdan ko‘zlangan maqsad *birinchidan*, korxonalar o‘zlarining xo‘jalik faoliyatini yuritishda ortiqcha va foydalanilmayotgan mol-mulkini sotishga qiziqishini uyg‘otish bo‘lsa, *ikkinchidan*, korxonalar balansidagi mol-mulkdan samarali foydalanishni rag‘batlantirishdan iborat. Chunki, korxonalarning ma’naviy va jismoniy tomonidan eskirgan asosiy vositalarini yangi, ilg‘or texnologiya-uskunalar bilan yangilashi ishlab chiqarilayotgan tovarlarning bahosini arzonlashtiradi va raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishga imkon beradi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning balansidagi barcha mulklardan soliq to‘lashga majbur qilish uni ortiqcha bino, inshootlar, mashina va uskunalardan qutulishiga undaydi. Bu esa, o‘z navbatida, ishlab chiqarish vositalari bozorini shakllantirishga, mahsulot tannarxini pasaytirishga hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, mol-mulk

soliq‘i daromad va mulk taqsimotidagi nomutanosiblikni bartaraf etishning muhim vositasi hisoblanadi.

Soliq kodeksining 265-moddasiga mufoviq **yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to‘lovchilari** quyidagilardir:

- O‘zbekiston Respublikasi hududida soliq solinadigan mol-mulkka ega bo‘lgan yuridik shaxslar – O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari;
- agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘z mulkida ko‘chmas mulkka ega bo‘lgan yuridik shaxslar – O‘zbekiston Respublikasining nerezidentlaridir. Agar ko‘chmas mulk mulkdorining joylashgan yerini aniqlash imkonи bo‘lmasa, bu mol-mulk qaysi shaxsning egaligida va (yoki) foydalanishida bo‘lsa, shu shaxs soliq to‘lovchidir. O‘zbekiston Respublikasi nerezidentining faoliyati Soliq kodeksining 20-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasa orqali amalga oshiriladigan faoliyat deb e’tirof etiladi.

Quyidagilar yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to‘lovchilar bo‘lmaydi:

- notijorat tashkilotlari;
- agar Soliq kodeksining XX bo‘limida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, Soliq kodeksiga muvofiq soliq solishning soddallashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.

### **3.5.2. Yuridik shaxslarning mol-mulki solig‘i obyekti, bazasi va soliq solinadigan bazani belgilash tartibi**

Soliq kodeksining 266-moddasiga mufoviq quyidagilar mol-mulk soliq solish obyektidir:

- 1) asosiy vositalar, shu jumladan moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalar;

2) tugallanmagan qurilish obyektlari. Tugallanmagan qurilish obyektlari jumlasiga qurilishi shu obyekt qurilishiga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda nihoyasiga yetkazilmagan obyektlar kiradi;

3) belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar. Belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar jumlasiga montaj qilinishi talab etiladigan hamda rekonstruksiya va (yoki) modernizatsiya qilinayotgan obyektlarda loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan muddatlarga muvofiq kapital qo'yilmalar hisobiga ishga tushiriladigan asbob-uskunalar kiradi. Loyerha-smeta hujjatlarida asbob-uskunalarni ishga tushirish muddatlari bo'lmagan taqdirda, buyurtmachi sifatida ish ko'rayotgan yuridik shaxsning rahbari tomonidan tasdiqlangan muddatlar soliq solish obyektini belgilash uchun qabul qilinadi, lekin bu muddatlar asbob-uskunalar montaj qilishga topshirilgan paytdan e'tiboran bir yildan ko'p bo'lmasi kerak.

**O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari uchun quyidagilar soliq solish obyektidir:**

– O'zbekiston Respublikasining norezidentlari buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq doimiy muassasa faoliyati bilan bog'liq qaysi asosiy vositalar bo'yicha hisob yuritayotgan bo'lsa, o'sha asosiy vositalar;

– Soliq doimiy muassasa faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan, mazkur norezidentlarga mulk huquqi asosida tegishli bo'lган ko'chmas mulk.

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirmaydigan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari uchun O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan, ularga mulk huquqi asosida tegishli bo'lган ko'chmas mulk soliq solish obyektidir. Ko'chmas mulkka bo'lган huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ O'zbekiston Respublikasining norezidenti tomonidan mulk qilib olingan (realizatsiya qilingan) ko'chmas mulk

obyekti to‘g‘risidagi ma’lumotlarni obyektlar joylashgan yerdagи davlat soliq xizmati organiga ro‘yxatdan o‘tkazilganidan keyin o‘n kun ichida ma’lum qilishi shart.

Qonun hujjalariга muvofiq mulk qilib olingan yer uchastkaliри soliq solish obyekti sifatida qaralmaydi.

Soliq kodeksining 267-moddasiga mufovqiq **soliq solinadigan baza** quyidagilardir: asosiy vositalar bo‘yicha – asosiy vositalarning o‘rtacha yillik qoldiq qiymati. Asosiy vositalarning qoldiq qiymati mol-mulkning boshlang‘ich (tiklanish) qiymati bilan soliq to‘lovchining hisob siyosatida belgilangan usullardan foydalanilgan holda hisoblab chiqilgan amortizatsiya hajmi o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi; normativ (belgilangan) muddatda tugallanmagan qurilish obyektlari va ishga tushirilmagan asbob-uskunalar bo‘yicha – tugallanmagan qurilishning va o‘rnatilmagan asbob-uskunalarning o‘rtacha yillik qiymati.

O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining Soliq kodeksining 266-moddasi ikkinchi qismining uchinchi xatboshisida va uchinchi qismida ko‘rsatilgan ko‘chmas mulk obyektlariga nisbatan mol-mulkning o‘rtacha yillik qiymati **soliq solinadigan bazadir**.

Soliq kodeksining 268-moddasiga mufovqiq **soliq solinadigan bazani belgilash tartibi**. Soliq solish obyektlarining o‘rtacha yillik qoldiq qiymati (o‘rtacha yillik qiymat) soliq davridagi har bir oyning oxirgi kuni dagi holatga ko‘ra soliq solish obyektlarining qoldiq qiymatlarini (o‘rtacha yillik qiymatlarini) qo‘sishdan olingan summaning o‘n ikkidan bir qismi sifatida ortib boruvchi yakun bilan aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining Soliq kodeksining 266-moddasidagi ikkinchi qismining uchinchi xatboshisida va uchinchi qismida ko‘rsatilgan ko‘chmas mulk obyektlari bo‘yicha soliq solinadigan baza mazkur obyektlarga bo‘lgan mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlarda ko‘rsatilgan qiymat asosida aniqlanadi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to‘lovchi tomonidan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq-

ni to‘lash nazarda tutilmagan faoliyat turlari amalga oshirilgan taqdirda, soliq solinadigan baza soliq solinadigan va soliq solinmaydigan mol-mulk hisobini alohida-alohida yuritish asosida aniqlanadi. Alohida-alohida hisob yuritish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, soliq solinadigan baza faoliyatdan olinadigan sof tu-shumning umumiylajiga hajmida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to‘lash nazarda tutilgan sof tushumning solishtirma salmog‘idan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

### **3.5.3. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha imtiyozlar**

Soliq kodeksining 269-moddasiga mufoviq yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisoblab chiqarilayotganda soliq solinadigan baza quyidagilarning qiymatiga kamaytiriladi:

- 1) kommunal xo‘jaligi obyektlarining. Kommunal xo‘jaligi obyektlariga quyidagilar kiradi: vodoprovod tarmoqlari (suv chiqarish inshootlari bilan), kanalizatsiya tarmoqlari (tozalash inshootlari bilan), gaz va issiqlikni taqsimlash tarmoqlari (ulardagi inshootlar bilan), kommunal-maishiy ehtiyojlar uchun qozonxonalar (shu jumladan asbob-uskunalar);
- 2) madaniyat va san’at, ta’lim, sog‘liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy ta’minot sohasiga kiradigan ijtimoiy-madaniy soha obyektlarining;
- 3) sug‘orish va kollektor-drenaj tarmoqlari obyektlarining;
- 4) tabiatni muhofaza qilish va sanitariya-tozalash maqsadlari, yong‘in xavfsizligi uchun foydalaniladigan obyektlarning. Obyektlarni tabiatni muhofaza qilish, sanitariya-tozalash maqsadlari va yong‘in xavfsizligi uchun foydalaniladigan obyektlarga kiritish tegishli tabiatni muhofaza qilish yoki davlat yong‘in nazorati organining ma’lumotnomasi asosida amalga oshiriladi;
- 5) umumiylajiga temir yo‘llar va avtomobil yo‘llari, magistral truboprovodlar, aloqa va elektr uzatish liniyalarining,

shuningdek obyektlarning ajralmas texnologik qismi bo‘lgan inshootlarning;

6) konservatsiya qilinishi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilingan asosiy ishlab chiqarish fondlarining;

7) soliq to‘lovchining balansida bo‘lgan hamda tadbirkorlik faoliyatida foydalanilmayotgan, fuqaro muhofazasi va safarbarlik ahamiyatiga molik obyektlarning;

8) shahar va shahar atrofidagi yo‘nalishlarda yo‘lovchilar tashiydigan shahar yo‘lovchilar transporti tashkilotlari transport vositalarining (avtobuslar, tramvaylar, trolleybuslar, metropoliten poezdlari);

9) tuzilgan shartnomalarga muvofiq yuridik shaxsning buyurtmasi bo‘yicha ishlar bajarish uchun kasanachilarga bepul foydalanishga berilgan asbob-uskunalarning (foydalanish davriga);

10) telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimi texnik vositalarining;

11) ko‘pi bilan o‘n yil davomida ishlatib kelinayotgan mashina va asbob-uskunalarning.

Soliq kodeksining 269-moddasiga muvofiq yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqdan quyidagilar ozod qilinadi:

1) sog‘lijni saqlash, jismoniy tarbiya hamda ijtimoiy ta’midot, xalq ta’limi, madaniyat va san’at tashkilotlari;

2) uy-joy-kommunal xo‘jaligi va boshqa umumfuqaroviy ahamiyatga molik shahar xo‘jaligi korxonalari. Uy-joy-kommunal va boshqa umumfuqaroviy ahamiyatga molik shahar xo‘jaliklari jumlasiga uy-joy fondini bevosita boshqarish, saqlash hamda undan foydalanishni amalga oshiruvchi tashkilotlar, sanitariya tozalash va yig‘ishtirish, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish, shaharlar hamda shaharchalarni tashqi yoritish, vodoprovod suv olish inshootlaridan, taqsimlanadigan tarmoqlardan (tozalovchi inshootlari bilan) foydalanish va suvni taqsimlash, kanalizatsiya tarmoqlaridan foydalanish (tozalash inshootlari bilan), gaz taqsimlanadigan

tarmoqlardan foydalanish hamda gazni taqsimlash, qozonxona, issiqlik taqsimlanadigan tarmoqlardan foydalanish va kommunalmaishiy ehtiyojlarga hamda aholiga issiqlikn ni taqsimlashni bevosita amalga oshiruvchi tashkilotlar, xizmat binolarining xo‘jalik boshqarmalari, o‘t o‘chirish komandalari, uy-joy-kommunal xo‘jaligining xo‘jalik boshqarmalari, uy-joy-kommunal xo‘jaligi va shahar xo‘jaligining umumfuqaroviy ahamiyatga molik boshqa korxonalari kiradi;

3) yangi tashkil etilgan korxonalar – davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan e’tiboran ikki yil mobaynida. Mazkur imtiyoz qayta tashkil etilgan yuridik shaxslar negizida tashkil etilgan korxonalarga, shuhihgdek boshqa korxonalar hududida shu korxonalardan ijaraga olingan asbob-uskunalardan foydalangan holda o‘z faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik shaxslarga nisbatan qo‘llanilmaydi;

4) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyektlarini – yuridik shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to‘g‘risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e’tiboran. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan mudatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to‘xtatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda, imtiyoz qo‘llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo‘llanilgan butun davr uchun to‘liq miqdorda undiriladi.

### **3.5.4. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi**

2014-yil uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi soliq solinadigan bazaga nisbatan 4 foiz belgilangan.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 25-dekabrdagi PQ-2099-soni qarorining 17-ilovasi.

O‘zi ishlab chiqargan tovarlar, ishlar, xizmatlar eksportining (ishlarni bajarish, xizmatlarni ko‘rsatish joyidan qat’iy nazar) erkin almashtiriladigan valutadagi ulushi quyidagi miqdorlarni tashkil etadigan eksportchi korxonalar uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi quyidagicha belgilangan (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 10-oktabrdagi PF-1871-son Farmoni bilan tasdiqlangan ro‘yxatda keltirilgan xomashyo mahsulotlari bundan mustasno):

- o‘zi ishlab chiqargan tovarlar, ishlar, xizmatlar eksportining hajmi sotishning umumiy hajmida 15 foizdan 30 foizgacha tashkil etsa – belgilangan stavka 30%ga pasaytiriladi;
- o‘zi ishlab chiqargan tovarlar, ishlar, xizmatlar eksportining hajmi sotishning umumiy hajmida 30 foiz va undan yuqorini tashkil etsa – belgilangan stavka 50%ga pasaytiriladi.

Belgilangan (me’yoriy) muddatlarda ishga tushirilmagan uskunalar va tugallanmagan qurilish qiymatiga pasaytirilgan stavkalar qo‘llanilmaydi, hamda me’yoriy muddatlarda o‘rnatilmagan uskunalar uchun mol-mulk solig‘i 2 baravar stavkada to‘lanadi.

Soliq stavkasi mol-mulkning qayta baholash natijasidagi qoldiq narxiga qo‘llaniladi. Tashkilotlarning asosiy fondlarini qayta baholashdan asosiy maqsad ularni hozirgi kundagi qiymatlarga moslashtirishdir.

Hisobot yilining birinchi sana holati bo‘yicha asosiy fondlarni qayta baholash natijalari moliyaviy hisobotda asosiy vositalarni qayta baholash amalga oshirilgan joriy davr uchun aks ettiriladi. Bunda yil boshidagi ma’lumot avvalgi yil oxiridagi ma’lumotga to‘g‘ri kelmasligi asosiy vositalarning qayta baholanishi natijasi sifatida ko‘riladi, va bu holat moliyaviy davr uchun berilgan hisobot vaqtida tushuntirish xati orqali ko‘rsatiladi.

«1-yanvar holati bo‘yicha asosiy fondlarni har yili qayta baholashni o‘tkazish tartibi to‘g‘risida»gi Nizomga (2002-yil 4-dekabrda 1192-son bilan AV ro‘yxatidan o‘tgan) binoan qayta baholash maqsadida tashkilotlarning asosiy fondlari deganda quyidagilar tushuniladi:

- a) o‘zining asosiy vositalari;
- b) o‘rnatiladigan uskunalar;
- d) tugallanmagan qurilish obyektlari;
- e) uzoq muddatga ijaraga olinadigan, shu jumladan uzoq muddatli lizing bo‘yicha olingan asosiy vositalar.

Asosiy fondlar qiymatini qayta baholash har yili (joriy yilning 1-fevraligacha) 1-yanvar holati bo‘yicha qayta baholashni o‘tkazish davrida narxlar darajasidan kelib chiqib o‘tkaziladi.

Qayta baholash chog‘ida asosiy fonddarning to‘liq tiklanish qiymati, ya’ni ular xuddi shunday yangi obyektlarga to‘liq almashтирilган taqdirda tashkilot amalga oshirishi kerak bo‘lgan xarajatlarning to‘liq qiymati qayta baholash sanasida mavjud bo‘lgan bozor narxlari (tariflari) bo‘yicha aniqlanadi, bunga obyektlarni xarid qilish (qurilish), tashish, o‘rnatish (montaj qilish) xarajatlari, import qilinadigan obyektlar uchun esa – shuningdek bojxona to‘lovlari va hokazolar kiritiladi. Mahsulot eksportini amalga oshiradigan eksport qiluvchi korxonalar mol-mulk solig‘i hisob-kitobini taqdim etayotganlarida eksport qilinadigan mahsulot (ishlar, xizmatlar)ga doir ma’lumotnomani taqdim etadilar.

«O‘zR tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida»gi Qonunning 11-moddasiga muvofiq tovarlar eksporti deganda tovari O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan ularni qaytadan olib kirmaslik sharti bilan olib chiqib ketishga aytildi, agarda qonun hujjatlarida boshqa holat ko‘zda tutilmagan bo‘lsa, bajarilgan ishni, ko‘rsatilgan xizmatni chet davlat yuridik yoki jismoniy shaxsiga O‘zbekiston Respublikasi yuridik yoki jismoniy shaxsi tomonidan joyidan qati nazar bajarilsa (ko‘rsatilsa), u holda ishlar (xizmatlar) ning eksporti deyiladi.

Me’yordagi muddatlarda o‘rnatilmagan va ishlatilmagan uskuna uchun mol-mulk solig‘i korxona tomonidan **ikki baravar** ko‘paytirilgan stavka bo‘yicha to‘lanadi.

### **3.5.5. Yuridik shaxslarning mol-mulk solig‘ini hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi**

Soliq kodeksining 271-moddasiga asosan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish Soliq kodeksining 267-moddasidagi birinchi qismiga muvofiq hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda soliq to‘lovchi – O‘zbekiston Respublikasining rezidenti tomonidan amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning hisobkitobi soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga yilda bir marta, yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Soliq davri mobaynida soliq to‘lovchilar yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha joriy to‘lovlarni to‘laysilar.

Joriy to‘lovlar miqdorini hisoblab chiqarish uchun soliq to‘lovchilar joriy soliq davrining 10-yanvarigacha, yangi tashkil qilinganlari esa davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan sanadan e’tiboran 30 kundan kechiktirmay, soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga mo‘ljallanayotgan soliq solinadigan bazadan (tegishli yil uchun mol-mulkning o‘rtacha yillik qoldiq qiymatidan (o‘rtacha yillik qiymatidan)) va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblangan joriy soliq davri uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi to‘g‘risidagi ma’lumotnomani taqdim etadilar.

Soliq kodeksidagi 271-moddaning 4-qismiga muvofiq hisoblab chiqarilgan joriy to‘lovlar quyidagicha to‘lanadi:

– mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan – yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq yillik summasining to‘rtadan bir qismi miqdorida yilning har choragi 3-oyining 25-kunidan kechiktirmay;

– mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to‘lovchilar tomonidan – yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq yillik summasining o‘n ikkidan bir qismi miqdorida har oyning 10-kunidan kechiktirmay.

Soliq davri mobaynida mo‘ljallanayotgan soliq solinadigan baza o‘zgargan taqdirda soliq to‘lovchi yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi to‘g‘risida aniqlashtirilgan ma’lumotnomaga taqdim etishga haqli. Bunda soliq davrining qolgan qismi uchun joriy to‘lov larga yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning o‘zgarish summasiga teng ulushlarda tuzatish kiritiladi.

Soliq davrida to‘lanishi lozim bo‘lgan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi joriy to‘lovlardan hisobga olingan holda, hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay budgetga o‘tkaziladi.

Soliq davrida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq boyicha joriy to‘lovlardan hisob-kitobga ko‘ra budgetga to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasiga nisbatan 10 foizdan ortiq kamaytirilgan taqdirda, davlat soliq xizmati organi joriy to‘lovlarini yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning haqiqiy summasidan kelib chiqib, penya hisoblagan holda qaytadan hisoblab chiqiladi.

O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari bo‘yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda davlat soliq xizmati organlari tomonidan quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasining norezidenti doimiy muassasaning soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga soliq solinadigan mavjud mol-mulk to‘g‘risidagi ma’lumotnomani hisobot yilidan keyingi yilning 25-yanvaridan kechiktirmay taqdim etishi shart. Taqdim etilgan ma’lumotnomaga

asosida davlat soliq xizmati organi yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi hisob-kitobini 10 kun ichida amalga oshiradi va to‘lov xabarnomasini yozib beradi;

O‘zbekiston Respublikasining ko‘chmas mulkka ega bo‘lgan norezidentlariga ko‘chmas mulk joylashgan yerdagi O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari soliq to‘lovchining yoki ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organning ma’lumotlari asosida to‘lov xabarnomasini yozib beradi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan yilda bir marta, soliq hisoboti davridan keyingi yilning 15-fevralidan kechiktirmay to‘lanishi kerak.

### **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Mol-mulk solig‘i qachon joriy etilgan va uni joriy etishdan ko‘zlangan maqsad nima?
2. Mol-mulk solig‘ini davlat budjeti daromadlari tarkibidagi ahamiyati qanday?
3. Yuridik shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig‘i to‘lovchilari kimlar?
4. Soliqqa tortishning alohida tartibi o‘rnatilgan korxonalar asosiy faoliyatidan tashqari boshqa faoliyat bilan shug‘ullanganlarida mol-mulk solig‘ini to‘lashadimi?
5. Yuridik shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig‘ining obyekti va bazasi qanday aniqlanadi?
6. Korxona mol-mulkining o‘rtacha yillik qoldiq qiymati qanday tartibda topiladi?
7. Yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig‘i stavkalari kimning qarori bilan belgilanadi va qanday belgilangan?
8. Yuridik shaxslarning mol-mulk solig‘idan kimlar imtiyozga ega?
9. Soliq idoralariga qaysi muddatlarda mol-mulk solig‘i bo‘yicha hisob-kitob topshiriladi?

## **Mustaqil o‘zlashtirish uchun chizmali materiallar**

Mol-mulk solig‘i dastlab, O‘zbekiston Respublikasining 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan «Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida»gi Qonuniga asosan joriy etildi

### **SOLIQ TO‘LOVCHILAR**

(Soliq kodeksining 265-moddasiga mufoviq)

- 1) O‘zbekiston Respublikasi hududida soliq solinadigan mol-mulkka ega bo‘lgan yuridik shaxslar – O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari;
- 2) Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘z mulkida ko‘chmas mulkka ega bo‘lgan yuridik shaxslar – O‘zbekiston Respublikasining norezidentlaridir;
- 3) Agar ko‘chmas mulk mulkdorining joylashgan yerini aniqlash imkonи bo‘lmasa, bu mol-mulk qaysi shaxsning egaligida va (yoki) foydalanishida bo‘lsa, shu shaxs soliq to‘lovchidir.

### **SOLIQ OBYEKTI**

(Soliq kodeksining 266-moddasiga mufoviq)

- 1) asosiy vositalar, shu jumladan moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalar;
- 2) tugallanmagan qurilish obyektlari;
- 3) belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar.

### **SOLIQ SOLINADIGAN BAZA**

– asosiy vositalar bo‘yicha – asosiy vositalarning o‘rtacha yillik qoldiq qiymati. Asosiy vositalarning qoldiq qiymati mol-mulkning boshlang‘ich (tiklanish) qiymati bilan soliq to‘lovchining hisob siyosatida belgilangan usullardan foydalanylган holda hisoblab chiqilgan amortizatsiya hajmi o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi;

- normativ (belgilangan) muddatda tugallanmagan qurilish obyektlari va ishga tushirilmagan asbob-uskunalar bo‘yicha – tugallanmagan qurilishning va o‘rnatilmagan asbob-uskunalarning o‘rtacha yillik qiymati.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 25-dekabrdagi PQ-2099-sonli qaroriga asosan **2014-yil uchun** yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi soliq solinadigan bazaga nisbatan **4 foiz belgilangan**

### **Eksportchi korxonalar uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi**

o‘zi ishlab chiqargan tovarlar, ishlar, xizmatlar eksportining hajmi sotishning umumiyligi hajmida 15 foizdan 30 foizgacha tashkil etsa – belgilangan stavka 30%ga pasaytiriladi

o‘zi ishlab chiqargan tovarlar, ishlar, xizmatlar eksportining hajmi sotishning umumiyligi hajmida 30 foiz va undan yuqorini tashkil etsa – belgilangan stavka 50%ga pasaytiriladi

Belgilangan (me’yoriy) muddatlarda ishga tushirilmagan uskunalar va tugallanmagan qurilish qiymatiga pasaytirilgan stavkalar qo‘llanilmaydi hamda me’yoriy muddatlarda o‘rnatilmagan uskunalar uchun mol-mulk solig‘i 2 baravar stavkada to‘lanadi

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning hisobkitobi soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga yilda bir marta, yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi

Soliq davri mobaynida soliq to‘lovchilar yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha joriy to‘lovlarni to‘laydilar

Soliq kodeksidagi 271-moddaning 4-qismiga mufoviq hisoblab chiqarilgan joriy to‘lovlar quyidagicha to‘lanadi:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan – yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq yillik summasining to‘rtadan bir qismi miqdorida yilning har choragi 3-oyining 25-kunidan kechiktirmay;
- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to‘lovchilar tomonidan – yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq yillik summasining o‘n ikkidan bir qismi miqdorida har oyning 10-kunidan kechiktirmay.

### **3.6. YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN YER SOLIG‘I**

#### **3.6.1. Yer maydonlarining soliqqa tortilishining asosiy sabablari. Yer solig‘ining iqtisodiy mohiyati**

O‘zbekiston Respublikasida yer fondi yerlardan foydalanishning belgilangan asosiy maqsadiga ko‘ra quyidagi toifalarga bo‘linadi:

1) **qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar** – qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yoki ana shu maqsadga mo‘ljallangan yerlar. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar sug‘oriladigan va sug‘orilmaydigan (lalmi) yerlar, haydaladigan yerlar, pichanzorlar, yaylovlar, ko‘p yillik mevali dov-daraxtlar va tokzorlar egallagan yerlarga bo‘linadi;

2) **aholi punktlarining (shaharlar, posyolkalar va qishloq aholi punktlarining) yerlari** – shaharlar va posyolkalar, shuningdek qishloq aholi punktlari chegarasi doirasidagi yerlar;

3) **sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar** – ko‘rsatilgan maqsadlarda foydalanish uchun yuridik shaxslarga berilgan yerlar;

4) tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar – alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar egallagan, tabiiy davolash omillariga ega bo‘lgan yerlar, shuningdek ommaviy dam olish va turizm uchun foydalaniladigan yerlar;

5) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar – tarixiy-madaniy yodgorliklar joylashgan yerlar;

6) o‘rmon fondi yerlari – o‘rmon bilan qoplangan, shuningdek o‘rmon bilan qoplanmagan bo‘lsa ham, o‘rmon xo‘jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yerlar;

7) suv fondi yerlari – suv obyektlari, suv xo‘jaligi inshootlari egallagan yerlar va suv obyektlarining qirg‘oqlari bo‘ylab ajratilgan mintaqadagi yerlar;

**8) zaxira yerlar.**

Yerlar asosiy foydalanish maqsadiga qarab yer fondi toifalari-  
ga bo‘linadi.

Yerlarni yer fondining bir toifasidan boshqasiga o‘tkazish yer-  
lardan asosiy foydalanish maqsadi o‘zgargan taqdirda amalga  
oshiriladi.

**Yerlardan asosiy foydalanish maqsadi** – yerlardan yer-ka-  
dastr hujjatlarida aks ettiriladigan aniq maqsadlarni ko‘zlab  
foydalanishning qonun hujjatlarida belgilangan tartibi va  
shartlaridir.

Yerlarni yer fondi toifalariga bo‘lish va bir toifadan  
boshqasiga o‘tkazish yerni egalik qilishga va foydalanishga be-  
rish huquqiga ega bo‘lgan organlar tomonidan amalga oshiriladi  
(Vazirlar Mahkamasi, viloyat, shahar, tuman davlat boshqaruv  
organlari).

Yer fondining toifasi yerni egalik qilishga va foydalanishga  
berish huquqiga ega bo‘lgan organlar tomonidan qabul qilinadi-  
gan yer uchastkalarini berish to‘g‘risidagi qarorlarda, yerga egalik  
qilish va yerdan foydalanish huquqini tasdiqlovchi guvohnomalar,  
shartnomalar, boshqa hujjatlar, davlat yer kadastro hujjatlarida va

yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatiga olish hujjalarda ko‘rsatiladi.

Yerlarni bir toifadan boshqasiga o‘tkazishning belgilangan tartibini buzish bunday o‘tkazish faktlarini g‘ayriqonuniy deb va ular asosida tuzilgan yer uchastkalariga doir bitimlarni haqiqiy emas deb topishga, shuningdek yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatiga olishni rad etishga asos bo‘ladi.

Yer uchastkasi – yer fondining qayd etilgan chegaraga, maydoniga, joylashish manziliga, huquqiy rejimga hamda yer uchastkasiga bo‘lgan huquqlarning davlat yer kadastrida va davlat ro‘yxatiga olish hujjalarda aks ettiriladigan boshqa xususiyatlariga ega bo‘lgan qismidir.

Yuridik shaxslar doimiy egalik qilish, doimiy foydalanish, muddatli (vaqtincha) foydalanish, ijaraga olish va mulk huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo‘lishlari mumkin.

Jismoniy shaxslar meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish, doimiy foydalanish, muddatli (vaqtincha) foydalanish, ijaraga olish va mulk huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo‘lishlari mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksiga asosan, yer davlat mulki – umummilliy boylikdir, undan oqilona foydalanish zarur, u davlat tomonidan muhofaza etiladi hamda oldi-sotdi qilinmaydi, ayirboshlanmaydi, hadya etilmaydi, garovga qo‘yilmaydi, O‘zbekiston Respublikasining qonunlarida belgilangan hollar bundan mustasno.

Yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo‘lgan mulk huquqining vujudga kelishi quyidagi holatlarda amalga oshirilishi mumkin:

- yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo‘lgan mulk huquqi savdo va xizmat ko‘rsatish sohasi obyektlari ular joylashgan yer uchastkalari bilan birga xususiylashtirilganda qonun hujjalarda belgilangan tartibda vujudga keladi;

- diplomatiya vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan, O‘zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan xalqaro

tashkilotlarning yer uchastkalariga mulk huquqi ularga o‘zлari vakolatxona binosi sifatida foydalanayotgan imorat yoki imoratning qismlari, shu jumladan vakolatxona boshlig‘ining qarorgohi ular joylashgan yer uchastkalari bilan birga, shuningdek mazkur vakolatxonalarining imoratlarini qurish uchun yer uchastkalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda realizatsiya qilinganda vujudga keladi;

– chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarning – diplomatiya korpusi xodimlarining, O‘zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan matbuot vakillarining, firmalar, kompaniyalar va xalqaro tashkilotlar doimiy vakolatxonalarini xodimlarining, chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalarda doimiy asosda ishlovchi shaxslarning, shuningdek respublikada doimiy istiqomat qiluvchi va yashash uchun guvohnomasi bo‘lgan shaxslarning yer uchastkalariga bo‘lgan mulk huquqi ularga uy-joy binolari shu binolar joylashgan yer uchastkalari bilan birga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda realizatsiya qilinganda vujudga keladi.

Yer uchastkalariga doimiy va muddatli (vaqtincha) egalik qilish hamda ulardan doimiy va muddatli (vaqtincha) foydalanish huquqi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga qishloq va o‘rmon xo‘jaligi yuritish uchun, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa, boshqa maqsadlar uchun ham doimiy egalik qilishga beriladi.

Doimiy yoki muddatli (vaqtincha) foydalanish uchun yer uchastkalari taqdim etiladi:

- O‘zbekiston Respublikasining fuqarolariga;
- sanoat, transport hamda boshqa noqishloq xo‘jalik korxonalar, muassasalari va tashkilotlariga;
- chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarga, xalqaro birlashmalar va tashkilotlarga;
- chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarga beriladi.

Yer uchastkasidan doimiy foydalanish huquqi yer uchastkasidan doimiy foydalanish huquqini beruvchi davlat hujjati bilan tasdiqlanadi.

Yer uchastkalariga egalik qilish, foydalanish, ijaraga olish va ularga mulk huquqini berish (sotish) yer uchastkalarini ajratish tartibida amalga oshiriladi.

Yer uchastkalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar, shaharlar hokimlari tomonidan qonunda belgilangan tartibda ajratiladi.

Egalik huquqidagi, foydalanishdagi, ijaradagi va ularda mulk huquqidagi bo‘lgan yer uchastkalarini ajratishdan (sotishdan) avval yer uchastkalarini belgilangan tartibda olib qo‘yilgandan (qayta sotib olingandan) keyingina amalga oshirish mumkin.

Sanoat korxonalari, temir yo‘llar va avtomobil yo‘llari, aloqa va elektr uzatish liniyalari qurish, magistral o‘tkazuvchi quvurlar yotqizish uchun, shuningdek qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq bo‘lмаган boshqa ehtiyojlar uchun qishloq xo‘jaligaga mo‘ljallanmagan yerlar yoki qishloq xo‘jaligi uchun yaroqsiz bo‘lgan yerlar yoxud qishloq xo‘jalinining sifati yomon yerlari beriladi (realizatsiya qilinadi). O‘rmon fondiga qarashli yerlardan mazkur maqsadlar uchun yer uchastkalari berish (realizatsiya qilish) asosan o‘rmon bilan qoplanmagan maydonlar yoki buta va arzonbaho dov-daraxtlar bilan qoplangan maydonlar hisobidan amalga oshiriladi.

Yer tuzish xizmati organlari tomonidan berilgan (realizatsiya qilingan) yer uchastkasining chegaralarini naturada (joining o‘zida) belgilagunlariga va yerga egalik qilish yoki undan foydalanish huquqini tasdiqlaydigan hujjatlar berilguniga qadar ana shu uchastkaga egalik qilish va undan foydalanish taqiqlanadi.

Yer uchastkalariga egalik qilish va foydalanish uchun berish (realizatsiya qilish) tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Yer uchastkalaridan muddatli foydalanish quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- qisqa muddatli –uch yilgacha;

- uzoq muddatli – uch yildan o‘n yilgacha.

Yaylov chorvachiligi uchun yer uchastkalari qishloq xo‘jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga yigirma besh yilgacha muddatga berilishi mumkin.

Korxona, bino, inshoot yoki boshqa ko‘chmas mol-mulkka nisbatan mulk huquqi, xo‘jalik yuritish huquqi yoki ularni operativ boshqarish huquqi boshqa shaxsga o‘tgan taqdirda, ana shu obyektlar bilan birgalikda mazkur obyektlar joylashgan hamda ularda foydalanish uchun zarur bo‘lgan yer uchastkasiga egalik qilish va undan doimiy foydalanish huquqi ham o‘tadi.

Yuridik va jismoniy shaxslarga yer uchastkasiga nisbatan huquq vakolat berilgan organlar qarorlari asosida yer maydonining chegarasi, yerning plani, yer uchastkasi tuzilishi va davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi hujjatlari rasmiylashtirilgandan so‘ng beriladi.

Yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni Davlat ro‘yxatidan o‘tkazish vakolat berilgan organlar tomonidan arizani (yer uchastkasiga egalik huquqini beruvchi tegishli hujjatlarni ilova qilgan holda) taqdim etilgandan so‘ng 10 kun muddat ichida amalga oshiriladi (O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 35-moddasi).

Yer uchastkasining ijarasi yer uchastkasiga ijara shartnomasi shartlari asosida muddatli, haq evaziga egalik qilish va foydalanishdan iboratdir.

Yer uchastkasini shartnoma asosida quyidagilar ijaraga beradilar:

- O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga va yuridik shaxslari – tuman va shahar hokimlari;
- chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarga, xalqaro birlashmalar va tashkilotlarga, chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarga – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi,

Ijaraga berilgan yer uchastkasi yoki uning bir qismini ikkilamchi ijaraga berish taqiqlanadi, qonunda ruxsat etilgan holatlar bundan istisno.

Ijaraga berilgan yer uchastkalari oldi-sotdi, garov, ayirboshlash obyekti bo‘lishi mumkin emas.

Yer uchastkasini ijaraga olish huquqi kreditlarni olish uchun garovga qo‘yishi mumkin. Ijarachi faqat qonunda yoki ijara shartnomasida nazarda tutilgan hollardagina yer uchastkasiga bo‘lgan o‘zining ijara huquqlarini ijaraga beruvchining rozilgisiz garovga qo‘yishga haqlidir.

Yer uchastkalari ijarasining shartlari va muddatlari taraflarning kelishuviga binoan belgilanadi va shartnomada mustahkamlab qo‘yiladi.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar ijaraga 50-yilgacha bo‘lgan, biroq 30 yildan kam bo‘lmagan muddatga berilishi mumkin.

Ijara haqi to‘lash majburiyati fuqarolik huquqiy xarakterga ega bo‘lgan shartnomalardan va uning budgetga to‘lanishi esa yerning davlat mulki bo‘lganligidan kelib chiqadi. Ijara haqini budgetga (savdo-sotiqlik korxonalaridan tashqari) yer uchastkalarini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va mahalliy davlat organlarining qarorlariga asosan ijaraga olgan shaxslar to‘laydi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 242-sonli Qaroriga muvofiq savdo-sotiqlik korxonalari yer uchun ijara haqidagi ozod etilganlar.

Yuridik va jismoniy shaxslarning xususiy mulki bo‘lgan yer uchastkalari ijaraga berilganda to‘lanadigan ijara haqi budgetga emas, balki yer uchastkalari egalariga to‘lanadi.

Ijara munosabatlari Toshkent shahrida juda ham rivojlangan. Yer uchastkalarini ijaraga olgan yuridik shaxslar Toshkent shahri hokimiyati yer munosabatlarini tartibga solib turuvchi va ko‘chmas mulk kadastro bosh boshqarmasi bilan ularni ijara olish bo‘yicha

shartnama tuzadilar. Bunday holatlarda yer uchun ijara haqlarini to‘lash Soliq kodeksi bilan emas, balki O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga asosan tartibga solinadi. Yuridik shaxslar qanday soliqqa tortish tizimi qabul qilinganligidan qat’iy nazar yer uchastkasi bo‘yicha shartnama tuzib, o‘zlariga uning asosida ijaraga olingan yer uchastkalari uchun haq to‘lash majburiyatini oladilar.

1990-yilda O‘zbekistonda «Yer to‘g‘risida» qonun qabul qilindi va qonunga ko‘ra yerga egalik qilish va yerdan foydalanishning pullik bo‘lishi belgilandi hamda yer uchun haq yillik yer solig‘i sifatida undiriladigan bo‘ldi.

1991-yilda «Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida», 1993-yilda «Yer solig‘i to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinib, unda yer solig‘ini undirishda soliqqa tortish obyekti, subyektlari, soliq bo‘yicha imtiyozlar, soliqni hisoblash va budgetga to‘lash tartiblari ko‘rsatib berildi.

1997-yilda «Soliq kodeksi»ning qabul qilinishi hamda 1998-yildan uning kuchga kiritilishi bilan yer solig‘ining to‘laqonli huquqiy asoslari yaratildi. Yer solig‘i O‘zbekiston soliq tizimida mahalliy soliqlar va yig‘imlar tarkibiga kiradi hamda mahalliy budgetlarning barqaror daromad manbai hisoblanadi. Yer solig‘i boshqa soliq turlaridan farqli o‘laroq, o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan, o‘zining iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra u renta to‘lovidir yoki boshqacha qilib aytganda, yer solig‘i yer egalari va yerdan foydalanuvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy faoliyatining natijalari bilan bog‘liq emas.

**Yer solig‘ini joriy etilishdan asosiy maqsad** – yerdan oqilonha foydalanishni rag‘batlantirish, tuproq unumdarligini oshirish, sifati turlicha bo‘lgan yerkarda xo‘jalik yuritishning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini tenglashtirish, aholi yashaydigan joylarda infrastruktura rivojlanishini ta‘minlash hamda yerni talon-taroj qilinishiga yo‘l qo‘ymaslik hisoblanadi.

Yer fonda hajmida qishloq ho‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari yer maydonlarining o‘sishi fermer xo‘jaliklari sonining yildan-yilga ko‘payib borayotganligi va o‘rmon xo‘jaliklari ixtiyoridagi yer maydonlarining bir qismining ular tasarrufiga o‘tkazilishi hamda zaxira yerlarning o‘zlashtirilishi bilan izohlanadi.

### **3.6.2. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lovchilar<sup>1</sup>**

Soliq kodeksining 279-moddasiga muvofiq **yer solig‘i to‘lovchilari** mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan yuridik shaxslar, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlaridir. Ko‘chmas mulk ijaraga berilgan taqdirda, ijaraga beruvchi yer solig‘ini to‘lovchisi bo‘ladi.

Yer uchastkasidan bir nechta yuridik shaxs bиргаликда foydalangan taqdirda, har bir yuridik shaxs yer uchastkasining foydalanilayotgan maydonidagi o‘z ulushi uchun yer solig‘ini to‘lovchisidir.

Quyidagilar yer solig‘ini to‘lovchilar bo‘lmaydi:

– notijorat tashkilotlari. Tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan taqdirda, notijorat tashkilotlar tadbirkorlik faoliyatida foydalanilgan yer uchastkalari bo‘yicha bo‘limda nazarda tutilgan tartibda yer solig‘i to‘lovchilar bo‘ladi.

Soliq kodeksiga muvofiq soliq solishning soddalash-tirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar, agar Soliq kodeksining XX bo‘limida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Rasmiy nashr – O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi. – T.: «Adolat», 2014. 279-modda, 304–305-betlar.

### **3.6.3. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i obyekti va soliq solinadigan baza<sup>1</sup>**

Mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yuridik shaxslarda bo‘lgan yer uchastkalari soliq solish obyektidir.

Quyidagilarga soliq solish obyekti sifatida qaralmaydi:

– aholi punktlarining umumiyligi foydalanishdagi yerlari. Aholi punktlarining umumiyligi foydalanishdagi yerlari jumlasiga quyidagilari kiradi:

- maydonlar, ko‘chalar, tor ko‘chalar, yo‘llar, sug‘orish tarmog‘i, sohil bo‘yi yerlari va boshqa shu kabi yerlar;
- aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va dam olishi uchun foydalaniladigan yerlar (daraxtzorlar, bog‘lar, sayilgohlar, xiyobonlar, shuningdek ariq tarmoqlari egallagan yerlar);
- kommunal-maishiy ahamiyatga molik yerlar (dafn etish joylari, maishiy chiqindilarni yig‘ish, qaytadan ortish va saralash joylari, shuningdek chiqindilarni zararsizlantirish hamda utilizatsiya qilish joylari va boshqa shu kabi joylar);
- zaxira yerlar.

**Soliq solinadigan baza.** Yer uchastkasining soliq solinmaydigan yer uchastkalari maydonlari chegirib tashlangan holdagi umumiyligi maydoni soliq solinadigan bazadir.

Qaysi yer uchastkalariga bo‘lgan mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi yil mobaynida soliq to‘lovchiga o‘tgan bo‘lsa, o‘sha yer uchastkalari uchun soliq solinadigan baza yer uchastkalariga tegishli huquq vujudga kelgandan keyingi oydan e’tiboran hisoblab chiqariladi. Yer uchastkasining maydoni kamaytirilgan taqdirda, soliq solinadigan baza yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan oydan e’tiboran kamaytiriladi.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Rasmiy nashr – O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi. – T.: «Adolat», 2014. 280-modda, 281-modda, 305–306-betlar.

Yuridik shaxslarda yer solig‘i bo‘yicha imtiyoz huquqlari vujudga kelgan taqdirda, soliq solinadigan baza huquq vujudga kelgan oydan e’tiboran kamaytiriladi. Yer solig‘i bo‘yicha imtiyoz huquqi bekor qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza huquq bekor qilinganidan keyingi oydan e’tiboran hisoblab chiqariladi (ko‘paytiriladi).

### **3.6.4. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha imtiyozlar<sup>1</sup>**

**Yer solig‘i to‘lashdan quyidagilar ozod qilinadi:**

- 1) madaniyat, ta’lim, sog‘lijni saqlash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish tashkilotlari – o‘z zimmalariga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda foydalanadigan yer uchastkalari uchun;
- 2) nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroniy» jamg‘armasi va «O‘zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo‘lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941–1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil qilgan yuridik shaxslar, bundan savdo, vositachilik, ta’minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar mustasno. Mazkur imtiyozni olish huquqi belgilanayotganda xodimlarning umumiy soniga shtatda bo‘lgan xodimlar kiritiladi;
- 3) yangi tashkil etilgan dehqon xo‘jaliklari – davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan oydan e’tiboran ikki yilga;
- 4) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyektlari – yuridik shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to‘g‘risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e’tiboran. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan mudatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to‘xtatilgan va faoliyat qaytadan boshlangan taqdirda, imtiyoz qo‘llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo‘llanilgan butun davr uchun to‘liq miqdorda undiriladi.

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Rasmiy nashr – O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi. –T.: Adolat, 2014. 282-modda, 306–310-betlar.

**Soliq solinmaydigan yer uchastkalari jumlasiga quyidagi yerlar kiradi:**

- 1) bog'dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlari ning umumiyl foydalanishdagi (kirish yo'llari, sug'orish ariqlari, kollektorlar va umumiyl foydalanishdagi boshqa yerlar), jamoa garajlarining yerlari;
- 2) muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning yerlari, bundan xo'jalik faoliyati yuritilayotgan yerlar mustasno. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning yerlari jumlasiga davlat qo'riqxonalarining, kompleks (landshaft) buyurtma qo'riqxonalarining, tabiat bog'larining, davlat tabiat yodgorliklarining, buyurtma qo'riqxonalarining (ovchilik xo'jaliklarida tashkil etiladigan buyurtma qo'riqxonalari bundan mustasno), tabiiy pitomniklarning yer uchastkali kiradi;
- 3) sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik yerlar (xo'jalik faoliyati yuritilayotgan yerlar bundan mustasno) – tegishli muassasalar va tashkilotlarga belgilangan tartibda doimiy foydalanishga berilgan, profilaktika va davolash ishlarini tashkil etish uchun qulay tabiiy shifobaxsh omillarga ega bo'lgan yer uchastkali;
- 4) rekreatsiya ahamiyatiga molik yerlar (xo'jalik faoliyati yuritilayotgan yerlar bundan mustasno) – aholining ommaviy dam olishi va turizmini tashkil etish uchun tegishli muassasalar hamda tashkilotlarga berilgan yerlar;
- 5) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar (xo'jalik faoliyati yuritilayotgan yerlar bundan mustasno) – tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan tarixiy-madaniy qo'riqxonalar, xotira bog'lari, sag'analar, arxeologiya yodgorliklari, tarix va madaniyat yodgorliklari egallagan yerlar;
- 6) suv fondi yerlari. Suv fondi yerlari jumlasiga suv havzalari (daryolar, ko'llar, suv omborlari va boshqa shu kabilar), gidrotexnika va boshqa suv xo'jaligi inshootlari egallagan yerlar, shuningdek suv xo'jaligi ehtiyojlari uchun yuridik

shaxslarga belgilangan tartibda berilgan suv havzalari hamda boshqa suv obyektlari sohillari bo‘ylab ajratilgan mintaqa yeri lari kiradi;

7) elektr uzatish liniyalari, ularning podstansiyalari va inshootlari egallagan yerlar;

8) umumdavlat aloqa liniyalari (havo va kabelli aloqa liniyalari, tirkakli liniyalari va radiofiksatsiyalar, yer osti kabelli liniyalari, ularni bildiruvchi signalli va harakatsiz belgilar, radiorele aloqa liniyalari, kabelli telefon kanalizatsiyalari, yer ustidagi va yer ostidagi xizmat ko‘rsatilmaydigan kuchaytirkich punktlari, taqsimlagich shkaflar, yerga ulash konturi qutilari hamda boshqa aloqa inshootlari) egallagan yerlar;

9) madaniyat, ta’lim va sog‘liqni saqlash obyektlari egallagan yerlar;

10) umumi foydalanishdagi avtomobil yo‘llari egallagan yerlar;

11) umumi foydalanishdagi temir yo‘llar, shu jumladan tuproq ko‘tarmasi, sun’iy inshootlar, liniya-yo‘l binolari, temir yo‘l aloqasi hamda elektr ta’minoti qurilmalari, inshootlar va yo‘l qurilmalaridan iborat temir yo‘llar stansiyalari hamda saralash joylari, shuningdek belgilangan tartibda temir yo‘l transporti korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga doimiy yoki vaqtinchalik foydalanishga berilgan ixota daraxtzorlari egallagan yerlar;

12) shahar elektr transporti yo‘llari va metropoliten liniyalari, shu jumladan jamoat transporti bekatlari va metropoliten stansiyalari hamda ularning inshootlari egallagan yerlar;

13) sport va jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish majmualari, onalar va bolalarning dam olish hamda sog‘lomlashtirish joylari, dam olish uylari hamda o‘quv-mashq bazalari egallagan yerlar;

14) aholi punktlarining suv ta’minoti va kanalizatsiya inshootlari: magistral suv quvurlari, vodoprovod tarmoqlari, kanalizatsiya

kollektorlari va ularning inshootlari, nasos stansiyalari, suv olish va tozalash inshootlari, vodoprovod va kanalizatsiya tarmoqlarida-gi kuzatish quduqlari, suv bosimi hosil qiladigan minoralar hamda shunga o‘xhash inshootlar egallagan yerlar;

15) magistral neft va gaz quvurlari, shu jumladan kompressor, nasos stansiyalari, yong‘inga qarshi va avariyyaga qarshi stansiyalar, truboprovodlarni katodli himoyalash stansiyalar, ularni tar-moqqa ulash uzellari bilan, truboprovodlarni tozalash qurilmalari hamda shunga o‘xhash inshootlar egallagan yerlar;

16) magistral issiqlik trassalari, shu jumladan nasos (ko‘-paytiruvchi, kamaytiruvchi, aralashtiruvchi, drenaj) stansiyalari, issiq suv ta’minotining issiqliknini hisobga olish va nazorat qiliш asboblari, isitkichlari, sirkulyatsiya nasoslari hamda shunga o‘xhash inshootlar egallagan yerlar;

17) samolyotlarning uchish-qo‘nish maydonlari, yerda bosh-qarish yo‘lkalari va to‘xtash joylari, fuqaro aviatsiyasi aeroport-larining radionavigatsiya va elektr-yoritish uskunalari egallagan yerlar;

18) O‘zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturiga kiri-tilgan obyektlar qurilishi uchun ajratilgan yerlar, normativ qurilish muddati davrida;

19) konservatsiyaga qo‘yilishi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilingan obyektlar egallagan yerlar, ularning konservatsiyasi davrida;

20) gidrometeorologiya va gidrogeologiya stansiyalari hamda postlari egallagan yerlar;

21) yuridik shaxs balansida bo‘lgan va xo‘jalik faoliyatida foydalanimaydigan fuqaro muhofazasi hamda safarbarlik ahami-yatiga molik alohida joylashgan obyektlar egallagan yerlar;

22) ixota o‘rmon daraxtzorlari egallagan yerlar. Ixota o‘rmon daraxtzorlari jumlasiga quyidagilar kiradi: o‘rmonlarning daryo-lar, ko‘llar, suv omborlarining va ovlanadigan qimmatbaho ba-liqlarning uvildiriq sochadigan joylarini muhofaza qiladigan

boshqa suv obyektlarining sohillaridagi, temir yo'llar va avtomobil yo'llari yoqasidagi taqiqlangan mintaqalar; eroziyaga qarshi o'rmonlar; cho'l va yarim cho'l mintaqalaridagi o'rmonlar; shahar daraxtzorlari va o'rmonzor bog'lari; aholi punktlari hamda sanoat markazlari atrofidagi yashil mintaqalar daraxtzorlari; suv ta'minoti manbalari sanitariya muhofazasi mintaqalarining o'rmonlari; kurortlarning sanitariya muhofazasi tegrasidagi o'rmonlar; alohida qimmatga ega bo'lgan o'rmon massivlari; ilmiy yoki tarixiy ahamiyatga molik o'rmonlar;

23) qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun yangi o'zlashtirilayotgan yerlar, ularni o'zlashtirish ishlari bajariladigan davrda va ular o'zlashtirilgan vaqtdan e'tiboran besh yil mobaynida;

24) melioratsiya ishlari amalga oshirilayotgan mavjud sug'o-riladigan yerlar, ishlar boshlanganidan e'tiboran besh yil muddatga;

25) yangi barpo etilayotgan bog'lar, tokzorlar va tutzorlar egallagan yerlar, daraxtlarning qator oralaridan qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish uchun foydalanimishidan qat'i nazar, uch yil muddatga. Kuzda o'tkazilgan yangi ko'chatlar uchun beriladigan imtiyoz muddatini hisoblab chiqarish keyingi yilning 1-yanvaridan e'tiboran boshlanadi, bahorda o'tkazilgan ko'chatlar uchun esa joriy soliq davrining 1-yanvaridan e'tiboran boshlanadi;

26) ilmiy tashkilotlarning qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik va o'rmon fondidagi yerlari, qishloq va o'rmon xo'jaligi sohasidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlari hamda o'quv yurtlariga qarashli tajriba, eksperimental va o'quv-tajriba xo'jaliklarining bevosita ilmiy hamda o'quv maqsadlari uchun foydalanimiladigan yerlari. Ushbu bandga muvofiq ilmiy tajribalar, eksperimental ishlar, yangi navlarning seleksiyasi o'tkazilishi uchun hamda mavzulari tasdiqlangan boshqa ilmiy va o'quv maqsadlari uchun foydalanimiladigan ekinlar hamda daraxtzorlar egallagan yer uchastkalari soliq to'lashdan ozod qilinadi.

Belgilangan maqsadda bevosita foydalanilmayotgan yer uchastkalariga ushbu moddada belgilangan imtiyozlar tatbiq etilmaydi.

### **3.6.5. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i stavkalari**

Yer uchastkasi mulkdorining, yer egasi, yerdan foydalanuvchi yoki ijarachining aybi bilan qishloq xo‘jaligi yerlarining sifati yomonlashgan (bonitet bali pasaygan) taqdirda, yer solig‘i yerning sifati yomonlashguniga qadar belgilangan stavkalar bo‘yicha yuridik shaxslar tomonidan to‘lanadi.

Shaharlar va shaharchalarning ma’muriy chegaralarida joylashgan qishloq xo‘jaligi ahamiyatiga molik yerlar uchun yer solig‘i qishloq xo‘jaligi yerlari uchun belgilangan stavkalarning ikki barvari miqdorida to‘lanadi.

Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi va soliq to‘lovchilarga Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasi hamda ularning quyi organlari tomonidan belgilangan tartibda yetkaziladi.

Yer solig‘i stavkalari jahon amaliyotida qabul qilinganidek, yer qiymatidan kelib chiqib belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasida yerning bozor qiymati shakllanmaganligi sababli, 1 hektar sug‘oriladigan yerdan olinadigan dehqonchilik yalpi mahsulotining o‘rtacha qiymatidan kelib chiqib, uni shartli baholash amalga oshiriladi. Jahon soliq amaliyotida yer solig‘i stavkalari turli mamlakatlarda turlicha belgilanadi, lekin o‘rtacha olganda yer qiymatining foizidan oshmaydi. Soliq stavkalarini belgilashda tuproq boniteti (sifati) hisobga olinadi. Bonitetni aniqlashda tuproqning genetik kelib chiqishi, mexanik tarkibi, sho‘rlanganlik darajasi, tuproq qatlamining suv o‘tkazaolishi, zichligi kabi boshqa tabiiy

xossalari hisobga olinadi. Tuproq boniteti 100 balli tizim bo'yicha aniqlanib, u quyidagi jadvalda keltirilgan:

*5-jadval*

**Yerlarning toifalari boyicha bonitet balli**

| <b>Yerlarning toifalari</b> | <b>Bonitet balli</b> |
|-----------------------------|----------------------|
| I                           | 0–10                 |
| II                          | 11–20                |
| III                         | 21–30                |
| IV                          | 31–40                |
| V                           | 41–50                |
| VI                          | 51–60                |
| VII                         | 61–70                |
| VIII                        | 71–80                |
| IX                          | 81–90                |
| X                           | 91–100               |

Yerlardan noqishloq xo'jalik maqsadlarida foydalanadigan yuridik shahslardan olinadigan yer solig'i stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 25-dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 2014-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budgeti parametrlari to'g'risida» gi PQ-2099-sonli qaroriga asosan quyidagicha guruhlanadi:

1. Sug‘oriladigan jamoat qishloq xo‘jaligi yerlari uchun undiriladigan yer solig‘i stavkalari.
2. Lalmi ekinzorlar, bo‘z yerlar va ko‘p yillik ko‘chatlar uchun undiriladigan yer solig‘i stavkalari.
3. Sug‘orilmaydigan pichanzorlar va yaylovlar uchun undiriladigan yer solig‘i stavkalari.
4. Qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar uchun undiriladigan yer solig‘i stavkalari.
5. Toshkent shahrida yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun yer solig‘i stavkalari.
6. Shahar va posyolkalardagi yer uchastkalaridan olinadigan yer solig‘i stavkalari.
7. Qishloq joylarda joylashgan yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun korxonalar, muassasalar va tashkilotlardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari.
8. Qishloq joylarda joylashgan yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun fuqarolardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari.

2014-yil 1-yanvardan boshlab, qarorning 19-ilovasiga muvofiq Toshkent shahri zonalari bo‘yicha belgilangan yer solig‘i stavkalari unifikatsiya qilinib, amaldagi 14 ta zona o‘rniga 5 ta zona belgilandi.

Dehqon xo‘jaliklaridan undiriladigan yer solig‘ini hisoblab chiqarish chog‘ida yer solig‘i stavkalariga yer sifatiga bog‘liq holda quyidagi koeffitsiyentlar qo‘llaniladi:

- tuproq boniteti 40 ballgacha bo‘lsa – 0,75;
- tuproq boniteti 41 dan 70 ballgacha bo‘lsa – 1,0;
- tuproq boniteti 70 balldan ortiq bo‘lsa – 1,25.

O‘rmon xo‘jaliklarida mollarni o‘tlatish uchun foydalanilmaydigan yaylov yerlar uchun yer solig‘i boshqa yerlar uchun stavkalar bo‘yicha to‘lanadi.

Shahar va qo‘rg‘onlarning ma’muriy chegaralarida joylashgan kon va karyerlar band etgan yerlar uchun soliqni korxonalar te-

gishli zonalar uchun belgilangan stavkalarga 0,1 koeffitsiyentni qo'llagan holda to'laydilar.

### **3.6.6. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini hisoblab chiqarish va soliq hisob-kitoblarini taqdim etish tartibi**

Yer solig'i har bir soliq davrining 1-yanvariga bo'lgan holatga ko'ra hisoblab chiqariladi va yer solig'ining hisob-kitobi yer uchastkasi joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga hisobot yilning 15-fevraliga qadar taqdim etiladi.

Yer solig'ini hisoblab chiqarish Soliq kodeksining 281-moddasiga muvofiq hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Soliq solinadigan bazada (hisoblangan soliq summasida) soliq davri mobaynida o'zgarish bo'lganda yuridik shaxslar bir oylik muddat ichida davlat soliq xizmati organiga yer solig'ining aniqlashtirilgan hisob-kitobini taqdim etishi shart. Soliq davri mobaynida qishloq xo'jaligi ekinlarining umumiy maydonida va tarkibida o'zgarishlar yuz bergan yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari yer solig'ining aniqlashtirilgan hisob-kitobini davlat soliq xizmati organiga joriy yilning 1-dekabriga qadar taqdim etadi.

**Soliq to'lash tartibi:** Yer solig'ini to'lash yuridik shaxslar tomonidan yilning har choragida, yil choragi ikkinchi oyining 15-kuniga qadar teng ulushlarda amalga oshiriladi. Soliq davri mobaynida yer solig'i to'lashning belgilangan muddatidan keyin yer solig'ini to'lash majburiyati yuzaga kelsa, u holda ushbu summani to'lash majburiyati yuzaga kelgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay amalga oshirilishi kerak.

Yagona yer solig'i to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan yer solig'ini to'lash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- hisobot yilining 1-iyuliga qadar – yillik soliq summasining 20 foizi;
- hisobot yilining 1-sentabriga qadar – yillik soliq summasining 30 foizi;
- hisobot yilining 1-dekabriga qadar – soliqning qolgan summasi.

## ***NAZORAT SAVOLLARI***

1. Yer solig‘ini yuridik shaxslardan undirishning iqtisodiy mohiyati nimadan iborat?
2. O‘zbekistonda yer fondi qanday tarkib topgan?
3. Yuridik shaxslarning yer solig‘ini to‘lovchilari bo‘lib kimlar hisoblanishadi?
4. Alovida soliq rejimiga o‘tgan yuridik shaxslar yer solig‘ining to‘lovchilari bo‘lib hisoblanishadimi?
5. Yuridik shaxslarning yer solig‘ini undirish obyekti va bazasi nima?
6. Yuridik shaxslarning soliq stavkalari qanday mezonlar asosida belgilanadi?
7. Qanday yerlar soliq solinmaydigan yer uchastkalari hisoblanadi?
8. Qanday yuridik shaxslar yer solig‘idan ozod qilinadi?
9. Yuridik shaxslarning yer solig‘ini hisoblab chiqarish va budjetga to‘lash muddatlari qanday belgilangan?

## ***Mustaqil o‘zlashtirish uchun chizmali materiallar***

**Yer solig‘ini joriy etilishdan asosiy maqsad** – yerdan oqilona foydalinishni rag‘batlantirish, tuproq unumдорligini oshirish, sifati turlicha bo‘lgan yerkarda xo‘jalik yuritishning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini tenglashtirish, aholi yashaydigan joylarda infrastruktura rivojlanishini ta‘minlash hamda yerni talon-taroj qilinishiga yo‘l qo‘ymaslik hisoblanadi.

Soliq kodeksining 279-moddasiga mufoviq mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchast-kalariga ega bo‘lgan yuri-dik shaxslar, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlaridir.

Ko‘chmas mulk ijaraga be-rilgan taqdirda, ijaraga be-ruvchi yer solig‘ini to‘lov-chisi bo‘ladi.

**Yer solig‘ini joriy etilishdan asosiy maqsad** – yerdan oqilona foydalanishni rag‘batlantirish, tuproq unumдорligini oshirish, sifati turlicha bo‘lgan yerlarda xo‘jalik yuritishning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini tenglashtirish, aholi yashaydigan joylarda infrastruktura rivojlanishini ta‘minlash hamda yerni talon-taroj qilinishiga yo‘l qo‘ymaslik hisoblanadi.

### **YER SOLIG‘I TO‘LOVCHILARI**

Soliq kodeksining 279-moddasiga mufoviq mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchast-kalariga ega bo‘lgan yuri-dik shaxslar, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlaridir.

Ko‘chmas mulk ijaraga be-rilgan taqdirda, ijaraga be-ruvchi yer solig‘ini to‘lov-chisi bo‘ladi.

Yer uchastkasidan bir nechta yuridik shaxs bиргаликда foydalangan taqdirda, har bir yuridik shaxs yer uchastkasining foydalanilayotgan maydonidagi o‘z ulushi uchun yer solig‘ini to‘lovchisidir.

| <b>SOLIQ SOLISH OBYEKTI</b>                                                                                                 | <b>SOLIQ SOLINADIGAN BAZA</b>                                                                                  |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yuridik shaxslarda bo‘lgan yer uchastkalari | Yer uchastkasining soliq solinmaydigan yer uchastkalari maydonlari chegirib tashlangan holdagi umumiyl maydoni |

### **3.7. YER QA’RIDAN FOYDALANUVCHILAR UCHUN SOLIQLAR VA MAXSUS TO‘LOVLAR HAMDA OBODONLASHTIRISH VA IJTIMOIY INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISH SOLIG‘I**

#### **3.7.1. Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq**

##### **3.7.1.1. Yer qa’ridan foydalananuvchilar to‘laydigan soliqlar va maxsus to‘lovlard**

O‘zbekiston Respublikasi hududida konlarni aniqlash va qidirish, foydali qazilmalarni kavlab olish, mineral xomashyodan va (yoki) texnogen mineral hosilalardan foydali komponentlarni ajratib olishni amalga oshirayotgan, shuningdek foydali qazilmalardan foydali komponentlarni ajratib olgan holda ularni qayta ishlashni amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar soliq solish maqsadida yer qa’ridan foydalananuvchilardir.

Yer qa'ridan foydalanuvchilar quyidagi soliqlar va maxsus to'lovlarni to'laydilar: yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq; qo'shimcha foyda solig'i; bonus (imzoli va tijoratbop topilma bonuslar).

### **3.7.1.2. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar**

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar quyidagilardir:

- yer qa'ridan foydali qazilmalarni kavlab olayotgan, mineral xomashyodan va (yoki) texnogen mineral hosilalardan foydali komponentlarni ajratib olayotgan yer qa'ridan foydalanuvchilar;
- foydali qazilmalardan foydali komponentlarni ajratib olgan holda ularni qayta ishlashni amalga oshirayotgan yer qa'ridan foydalanuvchilar.

### **3.7.1.3. Soliq solish obyekti va soliq solinadigan baza**

Kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulotning hajmi yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solish obyektidir. Tayyor mahsulotlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi.<sup>1</sup>

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi belgilangan va realizatsiya qilish yoki topshirish, shu jumladan bepul berish, shuningdek mahsulot ishlab chiqarish maqsadida o'z iste'moli va boshqa ehtiyojlari uchun mo'ljallangan foydali qazilma (foydali komponent) tayyor mahsulot deb e'tirof etiladi.<sup>2</sup>

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi. Rasmiy nashr. – T.: «Adolat», 2014. 244-modda, 274-bet.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi. Rasmiy nashr. – T.: «Adolat», 2014. 244-modda, 274-bet.

Soliq solish obyekti tayyor mahsulotning har bir turi bo‘yicha alohida aniqlanadi.

### **Uglevodorodlar uchun soliq solish obyekti quyidagilardir:**

- sanoat yo‘sinda dastlabki qayta ishlovdan o‘tkazilgan kavlab olingan uglevodorodlar, shu jumladan qo‘shilib chiqadigan foydali qazilmalar va foydali komponentlar;
- uglevodorodlarni qayta ishlash jarayonida ajratib olingan, lekin oldingi kavlab olinganda va qayta ishlanganda qayta ishlanadigan foydali qazilmalar tarkibida tayyor mahsulot sifatida soliq solinmagan foydali komponentlar.

Qatlamdagi bosimni saqlab turish va (yoki) uglevodorodlarni tugal texnologik jarayon doirasida ajratib olish uchun mahsuldor qatlama qayta haydab kiritiladigan tabiiy gaz hajmi soliq solish obyekti bo‘lmaydi.

Ajratib olingan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar, shu jumladan texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar uchun soliq solish obyekti.

### **Qattiq foydali qazilmalar bo‘yicha soliq solish obyekti quyidagilardir:**

- kavlab olingan va (shu jumladan qo‘shib chiqadigan) foydali qazilmalar;
- foydali qazilmalardan, mineral xomashyodan, texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan foydali komponentlar.

Soliq to‘lovchilarga berilgan yer uchastkalari doirasida kavlab olingan hamda o‘zining xo‘jalik va ro‘zg‘or ehtiyojlari uchun foydalilanigan keng tarqalgan foydali qazilmalar soliq solish obyekti bo‘lmaydi.

Keng tarqalgan foydali qazilmalar ro‘yxati qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasining keng tarqalgan foydali qazilmalari ro‘yxati:

- qum (qoliplash, shisha, chinni-fayans, olovga chidamli va sement sanoati uchun ishlatiladiganlaridan tashqari);
- shag‘al;
- mayda shag‘al-tosh;
- loy (o‘tga chidamli, qiyin eriydigan, qoliplash, chinni-fayans va sement sanoati uchun ishlatiladigan, oqartiruvchi, bo‘yovchi, bentonit, kislotaga chidamli va kaolindan tashqari);
- qumoq tuproq (sement sanoati uchun qumoq tuproqdan tashqari);
- xarsang toshlar;
- qumtosh (bituminoz, pardozlash, dinas qumtoshlari va shisha sanoati uchun ishlatiladiganlaridan tashqari);
- kvarsit (dinas, flyus, pardozlash, kremniy karbidi ishlab chiqarish uchun temirli, kristalli kremniy va ferroqotishmalardan tashqari);
- dolomit (arralanadigan, pardozlanadigan, metallurgiya, kimyo va shisha sanoati uchun ishlatiladiganlaridan tashqari);
- mergel (bituminoz va sement sanoati uchun ishlatiladiganlaridan tashqari);
- ohaktosh (bituminoz, pardozlash, arralanadigan, sement, metallurgiya, kimyo, shisha, sellyuloza-qog‘oz va qand-shakar sanoati, shuningdek glinozyom ishlab chiqarish uchun ishlatiladiganlaridan tashqari);
- chig‘anoqtosh;
- slanes (issiq va tomga yopiladiganlaridan tashqari),
- argillit va alevrolitlar (sement sanoatida ishlatish uchun yaroqlilaridan tashqari);
- magmatik, vulqon hosil qiluvchi va metamorfik jinslar (pardozlash, dekorativ, olovga chidamli va kislotaga chidamli materiallar ishlab chiqarish, tosh quyma va mineral paxtalar ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan, shuningdek sement sanoatida ishlatish uchun yaroqlilaridan tashqari).

**Soliq solinadigan baza.** Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish uchun kavlab olingan (ajratib olingan)

tayyor mahsulot hajmining hisobot davri uchun o‘rtacha olingan realizatsiya qilish bahosida hisoblab chiqilgan qiymati soliq solinadigan bazadir.

Hisobot davri uchun o‘rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi har bir kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulot bo‘yicha alohida, pulda ifodalangan realizatsiya qilish hajmlarini (qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘ini chegirgan holda) naturada ifodalangan realizatsiya qilish hajmiga bo‘lish orqali aniqlanadi.

Hisobot davrida tayyor mahsulot realizatsiya qilinmagan bo‘lsa, soliq solinadigan baza realizatsiya qilish amalga oshirilgan oxirgi hisobot davrida tayyor mahsulotni realizatsiya qilishning o‘rtacha olingan bahosidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Tayyor mahsulot umuman realizatsiya qilinmagan taqdirda, soliq solinadigan baza hisobot davrida mazkur foydali qazilmalar ni kavlab olishning (ajratib olishning) ishlab chiqarish tannarxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Bunda soliq to‘lovchi realizatsiya qilish amalga oshirilgan o‘sha hisobot davrida hisoblangan yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq summasiga hisobot davrida tarkib topgan o‘rtacha olingan bahodan kelib chiqqan holda keyingi tuzatishni kiritishi shart.

Tayyor mahsulot tannarxidan past bahoda realizatsiya qilingan yoki topshirilgan taqdirda o‘rtacha olingan bahoni hisob-kitob qilish uchun tannarx qabul qilinadi, lekin u deklaratsiya qilinayotgan baholardan yuqori bo‘lmasligi kerak.

Tayyor mahsulot (tayyor mahsulotning bir qismi) boshqa tayyor mahsulotni ishlab chiqarish uchun xomashyo bo‘lgan yoki tayyor mahsulot (qayta ishlab hosil qilingan mahsulot) o‘zining ishlab chiqarish yoki xo‘jalik ehtiyojlari uchun foydalanilgan hollarda bunday mahsulot uchun soliq solinadigan baza kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulotning ishlab chiqarish tannarxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

### 3.7.1.4. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi va soliq to'lovchilarga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda Davlat soliq qo'mitasi va uning quyi organlari tomonidan belgilangan tartibda yetkaziladi.

Hozirgi vaqtida O'zbekistonda qazib olinadigan xomashyo turlari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning tabaqalashtirilgan stavkalari belgilangan. Foydali qazilmalarni qazib olishning tabiiy noqulay sharoitda ishlaydigan konlar davlat tomonidan qo'shimcha ravishda qo'llab-quvvatlanadi. Ularga nisbatan pasaytirilgan soliq stavkalarini joriy etish orqali bunday korxonalar ishlab chiqarishini rivojlantirish va zamonaviylashtirishga qo'shimcha mablag'lar yo'naltirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Hozirgi vaqtida jami 53 turdag'i foydali qazilmalarga nisbatan tabaqalashtirilgan tarzda soliq stavkalari o'rnatilgan.

2014-yil 1-yanvardan boshlab yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari quyidagicha belgilangan (6-jadval).

**6-jadval**

#### **Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari<sup>1</sup>**

| Soliqqa tortish obyektining nomi                                                | Soliq solinadigan bazaga nisbatan soliq stavkalari, foizda |
|---------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------|
| 1. Asosiy va qo'shimcha foydali qazilmalar olinishiga nisbatan soliq stavkalari |                                                            |
| <i>Energiya tashuvchilar:</i>                                                   |                                                            |

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 25-dekabrdagi PQ-2099-sonli qarorining 14-ilovasi.

|                                                                     |      |
|---------------------------------------------------------------------|------|
| Tabiiy gaz                                                          | 30,0 |
| Yer ostidan qazib olingan gaz                                       | 2,6  |
| Nobarqaror gaz kondensati                                           | 20,0 |
| Neft                                                                | 20,0 |
| Ko'mir                                                              | 4,0  |
| Rangli va noyob metallar:                                           |      |
| Tozalangan mis                                                      | 8,1  |
| Molibdenli sanoat mahsuloti                                         | 4,0  |
| Konsentratlangan qo'rg'oshin                                        | 4,0  |
| Metall rux                                                          | 4,0  |
| Volfram konsentrati                                                 | 10,4 |
| Uran                                                                | 10   |
| Asl metallar:                                                       |      |
| Oltin                                                               | 5,0  |
| Kumush                                                              | 8,0  |
| Qimmatbaho, yarim qimmatbaho va zeb-ziynat uchun toshlar xomashyosi | 24,0 |
| Qora metallar:                                                      |      |
| Temir                                                               | 4,0  |
| Kon-kimyo xomashyosi:                                               |      |
| Tosh (ovqatga ishlataladigan) tuz                                   | 3,5  |
| Kaliy tuzi                                                          | 3,5  |

|                                                     |      |
|-----------------------------------------------------|------|
| Natriy sulfat                                       | 3,5  |
| Fosforitlar (grafitlarda)                           | 5,0  |
| Karbonat xomashyosi (ohaktoshlar, dolomitlar)       | 3,5  |
| Glaukonit                                           | 3,5  |
| Mineral pigmentlar                                  | 4,8  |
| Kon-ruda xomashyosi:                                |      |
| Plavik shpatli konqentrat                           | 21,2 |
| Tabiiy grafit                                       | 8,0  |
| Ikkilamchi boyitilmagan kulrang kaolin              | 7,9  |
| Kvars – dala shpatli xomashyosi                     | 6,5  |
| Shisha xomashyosi                                   | 3,0  |
| Bentonitli loy                                      | 4,8  |
| Talk va talk toshi                                  | 4,0  |
| Talkomagnizit                                       | 4,0  |
| Mineral bo‘yoqlar                                   | 5,7  |
| Vollostanit                                         | 4,0  |
| Asbest                                              | 4,0  |
| Mineral tola ishlab chiqarish uchun bazalt          | 4,0  |
| Bariy konsentrati                                   | 4,0  |
| Metallurgiya uchun noruda xomashyosi:               |      |
| O‘tga chidamli, qiyin eruvchan, qoliplash gilmoyasi | 4,0  |

|                                                                                                                                              |                                                                 |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------|
| Ohaktoshlar, dolomitlar                                                                                                                      | 4,0                                                             |
| Kvars va kvarsitlar                                                                                                                          | 6,5                                                             |
| Qoliplash qumlari                                                                                                                            | 4,0                                                             |
| Noruda qurilish materialalari:                                                                                                               |                                                                 |
| Sement xomashyosi                                                                                                                            | 3,5                                                             |
| Tabiiy bezaktoshdan bloklar                                                                                                                  | 3,5                                                             |
| Marmar ushog'i                                                                                                                               | 3,8                                                             |
| Gips toshi, ganch                                                                                                                            | 5,3                                                             |
| Keramzit xomashyosi                                                                                                                          | 3,5                                                             |
| G'isht – cherepitsa (qumoqsimon, lyosimon jinslar, zichlovchi sifatida lyoslar, qumlar va boshqalar)                                         | 3,5                                                             |
| Gips va angidrit                                                                                                                             | 4,0                                                             |
| Arralanadigan, xarsangtosh va shag'al uchun toshlar                                                                                          | 4,0                                                             |
| Qurilish qumlari                                                                                                                             | 3,5                                                             |
| Tosh-shag'al aralashmasi, shag'al aralashmasi, mayda toshlar, shag'al                                                                        | 4,0                                                             |
| Qumtoshlar                                                                                                                                   | 3,5                                                             |
| Chig'anoq                                                                                                                                    | 3,5                                                             |
| Slaneslar                                                                                                                                    | 3,5                                                             |
| Agloporit                                                                                                                                    | 3,5                                                             |
| Boshqa keng tarqalgan foydali qazilmalar (margel-lar, argelitlar, amvritlar va boshqalar)                                                    | 3,5                                                             |
| 2. Foydali qazilmalarni qazib olish va mineral xomashyoni qayta ishlash jarayonida olingan texnogen hosilalardan foydalanganlik huquqi uchun | asosiy foydali qazilma boyligini qazib olganlik stavkasidan 30% |

### **3.7.1.5. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish, hisob-kitoblarni taqdim etish va to'lash tartibi**

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

- yuridik shaxslar tomonidan – ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;
- jismoniy shaxslar tomonidan – yilda bir marta, keyingi yilning 1-fevralidan kechiktirmay.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni quyidagicha amalga oshiriladi:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar, shuningdek jismoniy shaxslar tomonidan – hisob-kitob taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay;
- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan yuridik shaxslar tomonidan – har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay.

### **3.7.1.6. Qo'shimcha foyda solig'i**

**Soliq to'lovchilar. Qo'shimcha foyda solig'i to'lovchilar quyidagilardir:**

- ayrim foydali qazilmalarni (foydali komponentlarni) kavlab olishni (ajratib olishni) amalga oshiruvchi yer qa'ridan foydalanuvchilar;

– foydali qazilmalardan ishlab chiqariladigan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar.

Ayrim turdag'i mahsulotlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga binoan Soliq kodeksining 248-moddasi-dagi birinchi qismida ko'rsatilmagan boshqa shaxslar qo'shimcha foyda solig'i to'lovchisi etib belgilanishi mumkin.

Mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yer qa'ridan foydalanuvchilar qo'shimcha foyda solig'ini to'lovchilar bo'lmaydi.

### **Soliq solish obyekti, soliq solinadigan baza va stavkasi.**

Realizatsiya qilishdan olingan sof tushum bilan qonun hujjatlarida belgilangan hisob-kitob bahosi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadigan daromadning bir qismi (qo'shimcha foyda) **qo'shimcha foyda solig'ini solish obyekti**dir.

Qo'shimcha foyda summasi bilan qo'shimcha foyda qismiga to'g'ri keladigan sof tushumdan hisoblab chiqarilgan soliq va boshqa majburiy to'lovlar summasi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadigan foyda **qo'shimcha foyda soliq solinadigan bazadir.**

Ayrim turdag'i mahsulotlar bo'yicha qo'shimcha foyda solig'i stavkasi quyidagi jadvalda keltiilgan:

**7-jadval**

| <b>Mahsulot nomi</b> | <b>Soliq solinadigan bazaning miqdori<br/>(QQS va aksiz solig'isiz)</b>               | <b>Soliq stavkasi</b> |
|----------------------|---------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------|
| Katodli mis          | so'mdagi ekvivalentda «kesish narxi» gacha 1 tonna uchun 4 350 AQSH dollaridan yuqori |                       |
| Tabiiy gaz           | so'mdagi ekvivalentda «kesish narxi» gacha 1 kub m uchun 160 AQSH dollaridan yuqori   | 50 foiz               |

|                     |                                           |         |
|---------------------|-------------------------------------------|---------|
| Polietilen granula- | 1 tonna uchun<br>1 325 000 so‘mdan yuqori |         |
| Sement              | 1 tonna uchun<br>105 000 so‘mdan yuqori   | 50 foiz |
| Klinker             | 1 tonna uchun<br>80 000 so‘mdan yuqori    |         |

Katodli mis va tabiiy gaz mahsulotlari bo‘yicha qo‘shimcha foyda solig‘i to‘lovchilari soliq to‘langandan so‘ng qo‘shimcha foydaning ular ixtiyorida qoladigan qismini to‘liq hajmda maxsus ochiladigan investitsiya hisobvaraqlariga o‘tkazadilar. Ko‘rsatilgan investitsiya hisobvaraqlaridagi mablag‘lar faqat O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda belgilangan tartibda sotish uchun ma’qullangan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, investitsiya loyihalarini amalga oshirishga jalg etilgan kreditlarga xizmat ko‘rsatish, shuningdek asosiy ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va texnik qayta jihozlashga sarflanadi.

Sement mahsulotlari bo‘yicha ornatilgan soliq muqobil yoqilg‘i – ko‘mir asosida ishlab chiqarilgan oq sement va sementdan tashqari barcha sement turlari bo‘yicha belgilangan.

**Foydali qazilmalar va soliq solinadigan mahsulot ro‘yxati, soliqni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi.** Qo‘shimcha foyda solig‘i solinadigan foydali qazilmalar va mahsulot turlari ro‘yxati, shuningdek soliqni hisoblab chiqarish hamda to‘lash tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi. Jumladan, qo‘shimcha foyda solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi bilan kelishilgan holda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Tabiiy gaz bo‘yicha qo‘shimcha foyda solig‘i to‘lovchilari bo‘lib tabiiy gazni eksportga realizatsiya qiladigan, qonun hujjatlariga muvofiq soliq solish obyekti yuzaga keladigan yuridik

shaxslar (mahsulot taqsimoti tog‘risidagi bitim doirasida faoliyatni amalga oshiradigan operatorlar va investorlar bundan mustasno) hisoblanadi.

### 3.7.1.7. Bonuslar

**Umumiy qoidalar.** Bonus yer qa’ridan foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladigan bir martalik to‘lovdır. Yer qa’ridan foydalanuvchi quyidagi turdagи bonuslarni to‘laydi:

- imzolanadigan bonus;
- tijoratbop topilmasi bonusi.

Davlat boshqaruvi organlari bonuslar to‘lamaydi.

**Imzolanadigan bonus.** Imzolanadigan bonus yer qa’ridan foydalanuvchining tegishli litsenziya asosida foydali qazilmalarni aniqlash va qidirish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish huquqi uchun bir martalik qat’iy belgilangan to‘lovdır.

**Imzolanadigan bonus** stavkalari quyidagi jadvalda keltiilgan:

8-jadval

| Nº | Foydali qazilmalarni razvedka qilish va qidirish huquqi                                            | Bonusning eng kam stavkasi (eng kam ish haqiga nisbatan karrali miqdorlarda) |
|----|----------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------|
| 1. | Uglevodorodlar konlarini qidirish va razvedka qilish huquqi                                        | 10 000                                                                       |
| 2. | Oltin qidirish va razvedka qilish huquqi                                                           | 10 000                                                                       |
| 3. | Qimmatbaho (oltindan tashqari), noyob va asl metallar konlarini qidirish va razvedka qilish huquqi | 1 000                                                                        |

|    |                                                                                                                       |     |
|----|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 4. | Rudali foydali qazilmalar konlarini, 2 va 3-bandlarda ko'rsatilganlardan tashqari, qidirish va razvedka qilish huquqi | 500 |
| 5. | Noruda foydali qazilmalar konlarini qidirish va razvedka qilish huquqi                                                | 100 |

Imzolanadigan bonus litsenziya olingan kundan e'tiboran soliq to'lovchi tomonidan 30 kundan kechiktirmay budgetga to'lanadi va bu haqda soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yozma shaklda xabar qilinadi.

**Tijoratbop topilmasi bonusi.** Tijoratbop topilmasi bonusi tegishli litsenziyada ko'rsatilgan yer qa'ri uchastkasida foydali qazilma konlarining har bir tijoratbop topilmasi uchun, shu jumladan dastlabki belgilangan ajratib olinayotgan zaxiralarni ko'paytirishga olib keluvchi konlarni qo'shimcha qidirish o'tkazish chog'idagi foydali qazilmalar topilmasi uchun **to'lanadigan to'lovdir**. Tijoratbop topilmasi bonusi, agar avval mazkur kon bo'yicha tijoratbop topilma bonusi to'lanmagan bo'lsa, foydali qazilmalarni kavlab olish huquqini olgan yer qa'ridan foydalanuvchilar tomonidan ham to'lanadi.

Foydali qazilma konlarini keyinchalik ularni kavlab olishni nazarda tutmaydigan qidirish o'tkazishda tijoratbop topilmasi bonusi to'lanmaydi.

Vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlangan konda foydali qazilmalarning qazib olinadigan zaxiralari hajmi soliq solish obyektiidir.

Foydali qazilmalar zaxiralarining qazib olinadigan hajmining qiymati soliq solinadigan bazadir.

Tijoratbop topilmasi bonusi soliq solinadigan bazadan va bonusning belgilangan stavkasidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Tijoratbop topilmasi bonusining stavkasi quyidagi jadvalda keltirilgan:

|                                                                                                        |                                                        |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------|
| <b>Foydali qazilmalarni qazib olish huquqi</b>                                                         | <b>Stavkasi, soliq solinadigan bazaga nisbatan %da</b> |
| Uglevodorodlar, qimmatbaho va noyob metallar, rudali va noruda foydali qazilmalarni qazib olish huquqi | 0,1                                                    |

Tijoratbop topilmasi bonusining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga vakolatli davlat organi foydali qazilmalar zaxiralarini tasdiqlagan kundan e'tiboran 25 kundan kechiktirmay soliq to'lovchi tomonidan taqdim etiladi.

Tijoratbop topilmasi bonusini to'lash vakolatli davlat organi foydali qazilmalar zaxiralarining kondan qazib olinadigan hajmini tasdiqlagan kundan e'tiboran 90 kundan kechiktirmay amalga oshiriladi.

### **3.7.2. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun soliq**

#### **3.7.2.1. Soliq to'lovchilar, soliq obyekti, bazasi va stavkasi**

**Soliq to'lovchilar.** Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar – O'zbekiston Respublikasi rezidentlari obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lovchilardir.

Quyidagilar obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lovchilar bo'lmaydi: notijorat tashkilotlari, bundan ularning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olingan foydasi mustasno; Soliq kodeksining XX bo'limida boshqa cha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, ushbu kodeksga muvofiq soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.

**Soliq solish obyekti, bazasi va stavkasi.** Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i chegirilganidan keyin yuridik shaxs ixtiyorida qoladigan foyda soliq solish obyekti va soliq solinadigan bazadir. Bunda soliq solinadigan baza olinishi lozim bo‘lgan (olin-gan) dividendlar summasiga, qo‘srimcha foyda solig‘i to‘lovchilar uchun esa sof qo‘srimcha foyda summasiga, tekin olingan pul mablag‘lari summasiga va budjetdan ajratiladigan subsidiyalar summasiga kamaytiriladi.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ining chegaralangan stavkasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 25-dekabrdagi PQ-2099-son Qarori bilan quyidagicha belgilangan:

| Soliq turi                                                         | Chegaralangan stavkasi        |
|--------------------------------------------------------------------|-------------------------------|
| Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i | Sof foydaning 8% <sup>i</sup> |

### 3.7.2.2. Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi<sup>1</sup>

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i soliq solinadigan bazadan hamda belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Soliq to‘lovchilar, bundan Soliq kodeksining 300-moddasining 5-qismida ko‘rsatilganlar mustasno, hisobot davri mobaynida obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i bo‘yicha joriy to‘lovlari to‘laydi.

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi. Rasmiy nashr. – T.: «Adolat», 2014. 300-modda. 319–320-betlar.

Joriy to‘lovlar taxmin qilinayotgan sof foyda summasidan hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shakl bo‘yicha hisobot davrining bиринчи oyi 10-kuniga qadar soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladigan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ining joriy to‘lovlar to‘g‘risidagi ma’lumotnomada ko‘rsatilgan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ining belgilangan stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Joriy to‘lovlar Soliq kodeksining 300-moddasining 3-qismiga muvofiq hisoblab chiqarilgan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ining yil choragidagi summasining uchdan bir qismi miqdorida har oyning 15-kunidan kechiktirmay to‘lanadi.

Quyidagilar joriy to‘lovlni to‘lamaydi:

- hisobot davrida soliq solinadigan bazasi eng kam ish haqning 200 baravarigacha miqdorda bo‘lgan soliq to‘lovchilar;
- yagona soliq to‘lovini to‘lashga o‘tmagan mikrofirmalar va kichik korxonalar.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ining hisob-kitobi soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga soliq to‘lovchilar tomonidan ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ini to‘lash mazkur soliq bo‘yicha hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ini to‘lash mazkur soliq bo‘yicha hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i mahalliy budjetga to‘lanadi.

## **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Yer qa'ridan foydalanganda soliqqa tortishning zarurligi nimada?
2. Bonuslar nima?
3. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar kimlar?
4. Yer qa'ridan foydalanganda soliqqa tortish obyekti va bazasi qanday aniqlanadi?
5. Qaysi mezonlar asosida soliq stavkalari tabaqalashtiriladi?
6. Soliq kodeksida yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqdan imtiyozlar ko'zda tutilganmi?
7. Keng tarqalgan foydali qazilmalarni qazib olish bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar qanday tartibda soliq maburiyatlarini amalga oshiradilar?
8. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish, hisob-kitoblarni taqdim etish va to'lash tartibi qanday?
9. Qo'shimcha foyda solig'i deganda nimani tushunasiz?
10. Savdo huquqi olish yig'imi, tovarlarning ayrim turlarini solish huquqi uchun litsenzion yig'implarni budgetga olinishini tushuntirib bering.
11. Juridik shaxslarni, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxslarni ro'yxatdan o'tkazganlik uchun yig'imni budgetga olinishini tushuntirib bering.
12. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun soliq to'lovchilar, soliq solish obyekti, soliq solinadigan bazani va soliq imtiyozlarini tushuntirib bering.

### **Mustaqil o'zlashtirish uchun chizmali materiallar**

**O'zbekiston Respublikasi yer qa'ridan foydalanuvchilar – respublika hududida konlarni aniqlash va qidirish, foydali qazilmalar ni kavlab olish, shu jumladan texnogen mineral hosilalardan foydali qazilmalarni ajratib olishni amalga oshirayotgan va (yoki) foydali qazilmalardan foydali komponentlarni ajratib olgan holda ularni qayta ishlashni amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.**

## **Yer qa‘ridan foydalanuvchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar va maxsus to‘lovlar**

**Yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq**

**Qo‘sishimcha foyda solig‘i**

**Bonus (imzoli va tijoratbop topilma bonuslar)**

### **Yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovchilar**

Yer qa‘ridan foydali qazilma-larni kavlab olayotgan, shu jumladan texnogen mineral hosilalardan foydali qazilmalarni ajratib olayotgan yer qa‘ridan foydalanuvchilar.

Foydali qazilmalardan foydali komponentlarni ajratib olgan holda ularni qayta ishlashni amalga oshirayotgan yer qa‘ridan foydalanuvchilar

**Yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq solish obyekti – qazib olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulotning hajmidir.**

**Yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan bazasi –**  
Soliq Kodeksida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, qazib olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulot hajmining hisobot davri uchun o‘rtacha olingan realizatsiya qilish bahosida hisoblab chiqilgan qiymatidir.

**Qo‘sishimcha foyda solig‘i to‘lovchilar quyidagilardir:**

1. Ayrim foydali qazilmalarni (foydali komponentlarni) kavlab olishni (ajratib olishni) amalga oshiruvchi yer qa‘ridan foydalanuvchilar.
2. Foydali qazilmalardan ishlab chiqariladigan ayrim turdagι mahsulotlarni ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar.

**Qo'shimcha foyda solig'ini solish obyekti –**  
**soliq to'lovchining hisobot davridagi daromadining bir qismidir.**

**Bonus –**

yer qa'ridan foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladigan bir  
mortalik to'lovdır.

**Imzolanadigan bonus –**

yer qa'ridan foydalanuvchining tegishli litsenziya asosida foydali  
qazilmalarni aniqlash, qidirish va kavlab olish bo'yicha faoliyatni  
amalga oshirish huquqi uchun bir mortalik qat'iy belgilangan  
to'lovdır.

**Tijoratbop topilmali bonus** – tegishli litsenziyada ko'rsatilgan yer  
qa'ri uchastkasida foydali qazilma konlarining har bir tijoratbop  
topilmasi uchun, shu jumladan dastlabki belgilangan ajratib olinayotgan  
zaxiralarni ko'paytirishga olib keluvchi konlarni qo'shimcha qidirish  
o'tkazish chog'idagi foydali qazilmalar topilmasi uchun to'lanadigan  
to'lovdır.

### **3.8. SUV RESURSLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ<sup>1</sup>**

#### **3.8.1. Soliq to'lovchilar**

Suv har qanday davlat uchun asosiy boylik hisoblanadi. O'zbekiston sharoitida ham suv qadrli hisoblanadi. Chunki respublikamizda qishloq xo'jaligi asosan sug'oriladigan yerlardan iborat.

1998-yilga qadar suvdan foydalanayotgan korxonalar tomonidan «suv uchun to'lov»i to'langan. Iste'molchilarning

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi. – T.: «Adolat», 2014. 257-264-moddalar, 283–289-betlar.

suvdan samarali, tejab foydalanish maqsadida respublikamiz soliq qonunchiligiga hamda O‘zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida»gi qonuniga ko‘ra 1998-yil 1-yanvardan boshlab suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq joriy etildi. Ushbu soliq umumdavlat soliqlari tarkibiga kirib, respublika budgetining asosiy daromad manbalaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 12-dekabrdagi 744-sonli qaroriga asosan ushbu soliq tushumi mahalliy budgetlarning Davlat budgetidagi ulushini ko‘paytirish maqsadida to‘liq miqdorda mahalliy budgetlar daromadiga o‘tkazildi.

**Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovchilar quyidagilardir:** O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 257-moddasiga ko‘ra suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovchilar O‘zbekiston Respublikasi hududida suvdan foydalanishi yoki suv iste’molini amalga oshiruvchi quyidagi shaxslar hisoblanadi:

- yuridik shaxslar – O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari;
- faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari;
- tadbirkorlik faoliyati uchun suvdan foydalanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar;
- yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklari.

Aholi punktlarining suv ta’minoti uchun suv yetkazib berishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar faqat o‘z ehtiyojlariga ishlatalidigan suv uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovchidir.

Quyidagilar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovchilar bo‘lmaydi:

- notijorat tashkilotlar. Notijorat tashkilotlar tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirgan taqdirda, Soliq kodeksida nazarda tutilgan tartibda tadbirkorlik faoliyatida foydalilanidigan suv hajmlari

bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to‘lovchi bo‘ladi;

– agar Soliq kodeksining XX bo‘limida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, Soliq kodeksiga muvofiq soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.

### **3.8.2. Soliq solish obyekti, soliq solinadigan baza va uni belgilash tartibi**

Yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalaniladigan suv resurslari soliq solish obyektidir.

Suv resurslarining yer usti manbalariga quyidagilar kiradi: daryolar, ko‘llar, suv omborlari, turli xil kanallar va hovuzlar, yer ustidagi boshqa suv havzalari hamda suv manbalari.

Suv resurslarining yer osti manbalariga artezian quduqlari va skvajinalar, vertikal va gorizontal drenaj tarmoqlari hamda boshqa inshootlar yordamida chiqazib olinadigan suvlar kiradi.

**Foydalanilgan suvning hajmi soliq solinadigan bazadir.**

**Soliq solinadigan bazani belgilash tartibi.** Suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan olingan suv hajmi suvdan foydalanishning buxgalteriya (birlamchi) hisobiga olish hujjatlarida aks ettirilgan suv o‘lchagich asboblarining ko‘rsatkichlari asosida aniqlanadi.

Suvdan o‘lchagich asboblarsiz foydalanilgan taqdirda, uning hajmi suv obyektlaridan suv olish limitlaridan, suv iste’molining texnologik va sanitariya normalaridan, ekinlar hamda dovdaraxtlarni sug‘orish normalaridan yoki ma’lumotlarning to‘g‘riligini ta’minlovchi boshqa usullardan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq to‘lovchilar yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalanilgan suv resurslari hajmlarining alohida-alohida hisobini yuritadilar. Suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan suv keldigan vodoprovod tarmoqlaridagi suvdan foydalanilgan taqdirda,

soliq solinadigan baza manbaning har bir turi bo‘yicha alohida-alohida aniqlanadi. Suv yetkazib beruvchi yuridik shaxslar vodoprovod tarmog‘iga suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan keldigan suv hajmlarining nisbati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni davlat soliq xizmati organlariga hisobot yilining 1-fevraliga qadar taqdim etishlari kerak. Davlat soliq xizmati organlari bu ma’lumotlarni soliq to‘lovchilar e’tiboriga yetkazishi lozim.

Soliq to‘lovchi issiq suv hamda bug‘ hosil qilinishi bo‘yicha soliq solinadigan bazani ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun o‘zi foydalangan suv resurslari hajmidan kelib chiqqan holda aniqlaydi.

Binolarning bir qismi, alohida joylar ijaraga topshirilganda soliq solinadigan baza suv yetkazib beruvchi yuridik shaxs bilan shartnoma tuzgan ijaraga beruvchi tomonidan aniqlanadi.

Binolarning bir qismini, alohida joylarni ijaraga olgan va suv yetkazib beruvchi yuridik shaxs bilan shartnoma tuzgan yuridik shaxslar soliq solinadigan bazani mustaqil ravishda aniqlaydi.

Soliq to‘lovchilar yuridik shaxslar bilan suv yetkazib berilishi yuzasidan solishtirib ko‘rish jarayonida olingan suvning hajmini aniqlashtirishda suv hajmi farqini solishtiruv amalga oshirilgan davrdagi hisob-kitoblarda aks ettiradi.

Yuridik shaxslarning hududida ta’mirlash-qurilish va boshqa ishlarni bajaruvchi soliq to‘lovchilar bu ishlarni bajarish jarayonida foydalilaniladigan suv uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lamaydi. Ta’mirlash-qurilish va boshqa ishlarni bajarayotganda foydalilaniladigan suv hajmi uchun bu ishlar qaysi yuridik shaxslar uchun bajarilayotgan bo‘lsa, o‘sha yuridik shaxslar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘laydi. Qurilish ishlari yangi qurilish maydonida bajarilgan taqdirda, qurilishda foydalilaniladigan suv hajmi uchun qurilish tashkiloti suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘laydi.

Yagona yer solig‘i to‘lovchilari bo‘lmagan qishloq xo‘jaligi korxonalari soliq solinadigan bazani soliq davrida bir hektar sug‘oriladigan yerlarni sug‘orish uchun sarflanadigan suvning

butun xo‘jalik bo‘yicha o‘rtacha hajmidan kelib chiqqan holda aniqlaydi. Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklari uchun soliq solinadigan baza davlat soliq xizmati organlari tomonidan aniqlanadi.

### **3.8.3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari**

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini qarori tomonidan belgilanadi. (9-jadval)

**9-jadval**

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 25-dekabrdagi  
PQ-2099-sonli qaroriga asosan 2014-yil 1-yanvardan suv resurslaridan  
foydalanganlik uchun soliq stavkalari**

| <b>To‘lovchilar</b>                                                                                                                                                                                                                     | <b>1 kub metr uchun stavka<br/>(so‘m)</b>        |                                                  |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------|--------------------------------------------------|
|                                                                                                                                                                                                                                         | <b>yer usti suv<br/>resurslari<br/>manbalari</b> | <b>yer osti suv<br/>resurslari<br/>manbalari</b> |
| 1. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlari korxonalari<br>(2–4-bandlarda ko‘rsatilganlaridan tashqari)                                                                                                                                        | 51,6                                             | 65,5                                             |
| 2. Elektr stansiyalari                                                                                                                                                                                                                  | 14,9                                             | 22,2                                             |
| 3. Kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari                                                                                                                                                                                               | 28,3                                             | 36,6                                             |
| 4. Yagona yer solig‘ni to‘lashga o‘tmagan qishloq xo‘jaligi korxonalari, dehqon xo‘jaliklari (yuridik va jismoniy shaxslar) hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida suv resirlaridan foydalanadigan jismoniy shaxslar | 2,8                                              | 3,1                                              |

Suvdan qishloq xo‘jalik ekinlari va ko‘chatlarini sug‘orish uchun foydalanadigan yordamchi xo‘jaliklarga ega yuridik shaxslar, shuningdek ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va o‘quv yurtlari ning o‘quv-tajriba xo‘jaliklari soliqni qishloq xo‘jalik korxonalari uchun belgilangan stavkalar bo‘yicha to‘laydilar.

### **3.8.4. Imtiyozlar**

**Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan quyidagi lar ozod qilinadi:**

- 1) suv uchun budgetga soliq o‘tkazgan yuridik shaxslardan suv olgan iste’molchilar;
- 2) birlamchi foydalanilgan suv uchun to‘lov amalga oshirilgan suvdan ikkilamchi foydalanuvchi suv iste’molchilar;
- 3) ixtiyoriy tugatilayotgan yuridik shaxslar – tadbirkorlik subyektlari – yuridik shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to‘g‘risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e’tiboran. Ixtiyoriy ravishda tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to‘xtatilgan va faoliyat qaytadan boshlangan taqdirda soliq imtiyozi qo‘llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo‘llanilgan butun davr uchun to‘liq miqdorda undiriladi.

**Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarishda soliq solinadigan baza quyidagi hajmlarga kamaytiriladi:**

- 1) sog‘liqni saqlash muassasalarida davolash maqsadida foydalilanadigan yer osti mineral suvlari hajmiga, bundan savdo tarmog‘ida realizatsiya qilish uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno;
- 2) atrof-muhitga zararli ta’sir ko‘rsatishining oldini olish maqsadida chiqazib olinadigan yer osti suvlari hajmiga, ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalanilgan suv hajmi bundan mustasno;

3) shaxtadan suvlarni qochirish uchun, foydali qazilmalar ni qazib olish vaqtida chiqazib olingan va qatlamdagи bosimni saqlab turish uchun yer qa’riga qaytarib quyiladigan yer osti suvlari hajmiga, bundan ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno;

4) gidroelektr stansiyalari gidravlik turbinalarining harakati uchun foydalaniladigan suv hajmiga;

5) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan sho‘rlangan yerlarni yuvish uchun foydalaniladigan suv hajmiga.

### **3.8.5. Soliqni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi**

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklari uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitobi suvdan foydalanish yoki suv iste’moli joyidagi davlat soliq xizmati organlariga quyidagilar tomonidan yiliga 1 marta taqdim etiladi:

1) yuridik shaxslar tomonidan (qishloq xo‘jaligi korxonalari bundan mustasno) – yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;

2) yagona yer solig‘ini to‘lashga o‘tmagan qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan – joriy soliq davrining 15-dekabrigacha;

3) O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasining nore-

zidentlari, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan – soliq davridan keyingi yilning 25-yanvarigacha.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lash to‘g‘risidagi to‘lov xabarnomasi yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklariga davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq davridan keyingi yilning 1-fevralidan kechiktirmay topshiriladi.

**Soliq to‘lash tartibi.** Soliq davri mobaynida soliq to‘lovchilar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha joriy to‘lovlarni to‘laydilar, bundan yagona yer solig‘ini to‘lashga o‘tmagan qishloq xo‘jaligi korxonalari, O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklari mustasno.


## **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etishdan ko‘zda tutilgan maqsad nima?
2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovchilarini kimlar?
3. Jismoniy shaxslar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovchilar bo‘la olishadimi?
4. Soliqqa tortish obyekti qanday tartibda aniqlanadi?
5. Soliq stavkalari qaysi davlat organi tomonidan belgilanadi va qaysi mezonlar asosida o‘rnatilgan?
6. Qanday yuridik shaxslar suv resurslaridan foydalilanliganlik uchun soliqdan ozod etiladi?
7. Dehqon xo‘jaliklari suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni budjetga to‘lash tartibi qanday amalga oshiriladi?
8. Soliq qaysi muddatda davlat budjetiga o‘tkaziladi?

## Mustaqil o'zlashtirish uchun chizmali materiallar

Iste'molchilarining suvdan samarali, tejab foydalanishlarini yo'lga qo'yish maqsadida respublikamiz soliq qonunchiligiga hamda O'zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonuniga ko'ra 1998-yil 1-yanvardan boshlab suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq joriy etildi.

### Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar



**Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan baza – foydalaniłgan suvning hajmidir.**

Suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan olingan suv hajmi suvdan foydalanishning buxgalteriya (birlamchi) hisobiga olish hujjatlarida aks ettirilgan suv o'lcagich asboblarining ko'rsatkichlari asosida aniqlanadi.

### **3.9. SOLIQ SOLISHNING SODDALASHTIRILGAN TARTIBI<sup>1</sup>**

#### **3.9.1. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibini qo'llash va ushbu tartib qo'llanilganda ayrim umumbelgilangan soliqlarni to'lashga doir majburiyatlar**

*Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi* soliq to'lovchilarning ayrim toifalari uchun qo'llaniladi va yagona soliq to'lovini, yagona yer solig'ini hamda tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliqni hisoblab chiqarish hamda to'lashning maxsus qoidalari qo'llanilishini, shuningdek mazkur soliqlar bo'yicha soliq hisoboti taqdim etilishini nazarda tutadi. Yushbu yagona soliq to'lovi, yagona yer solig'i hamda tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq Soliq kodeksida nazarda tutilgan jami umumbelgilangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning o'miga to'lanadi.

Qat'iy belgilangan soliqni to'lash belgilangan faoliyat turlarini amalga oshiruvchi yagona soliq to'lovi to'lovchilar va yagona yer solig'ini to'lovchilar ushbu faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishlari hamda ushbu Soliq kodeksining 58-bobida nazarda tutilgan tartibdagi qat'iy belgilangan soliq to'lashlari shart.

Soliq davri mobaynida soliq solish tartibi o'zgargan taqdirda, soliq to'lovchi bu haqda soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organini O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda yozma ravishda xabardor etishi lozim. Bunda o'tgan davr uchun soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni o'sha davrda amal qilgan soliq solish tartibidan kelib chiqqan holda to'lash bo'yicha majburiyatlar soliq to'lovchilarda saqlanib qoladi.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi. – T.: «Adolat», 2014. XX bo'lim, 375–403-betlar.

Iqtisodiy islohotlarni yanada erkinlashtirish va chuqurlashtirish jarayonida kichik biznesni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida xususiy tadbirkorlik, kichik biznesni rivojlantirish, mulkdorlar sinfini shakllantirish, bozorlarni tovarlar bilan to‘ldirish, raqobat muhitini yaratish, ishsizlikka barham berish mamlakat oldida turgan asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Soliqqa tortish tizimida olib borilayotgan islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, kichik biznes subyektlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish hisoblanadi.

Kichik korxonalar uchun yagona soliqning o‘rnatalishi soliq hisob-kitobi tuzishni osonlashtiradi hamda ular bir nechta soliq turi o‘rniga faqatgina bitta yagona soliq bo‘yicha soliq idoralariga soliq hisob-kitobini topshirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Natijada korxona hisobchilarining ishi birmuncha osonlashdi.

Mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga xodimlarining soni bo‘yicha qonun hujjatlarida belgilangan mezonga mos keladigan yuridik shaxslar kiradi. Bunda:

- xodimlarning soni hisobot yili uchun xodimlarning o‘rtacha yillik sonidan kelib chiqqan holda aniqlanadi;
- xodimlarning o‘rtacha yillik sonini aniqlashda o‘rindoshlik, pudrat shartnomalari va boshqa fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnomalar bo‘yicha ishga qabul qilingan xodimlarning, shuningdek unitar (sho‘ba) korxonalarda, vakolatxonalar va filiallarda ishlayotganlarning soni ham hisobga olinadi;
- yuridik shaxslarni mikrofirmalar va kichik korxonalar toifasiga kiritishda yuridik shaxsning asosiy faoliyat (ixtisosligi) turiga to‘g‘ri keladigan xodimlar sonining mezoni qabul qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 30-avgustdagи «1998-yil 9-apreldagi ««Xususiy tadbirkorlik, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishni yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoniga o‘zgartirish va qo‘srimchalar to‘g‘risida»gi PF-3305-sonli Farmoniga muvofiq:

2004-yilning 1-yanvaridan kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari toifasiga quyidagilar kiradi:

- yakka tartibdagi tadbirkorlar;
- xodimlarining o‘rtacha yillik soni band bo‘lgan *mikrofirmalar*;
- ishlab chiqarish tarmoqlarida – 20 kishidan;
- xizmat ko‘rsatish sohasi va boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo‘lmagan tarmoqlarda – 10 kishidan;
- ulgurji, chakana savdo va umumiyl ovqatlanish sohasida – 5 kishidan oshmagan mikrofirmalar;
- quyidagi tarmoqdarning o‘rtacha yillik xodimlari soni;
- yengil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog‘ochni qayta ishlash, mebel sanoati va qurilish materiallari sanoati – 100 kishidan;
- mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg‘i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish va qayta ishlash, qurilish hamda boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalari – 50 kishidan;
- fan, ilmiy xizmat ko‘rsatish, transport, aloqa, xizmat ko‘rsatish sohasi (sug‘urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiyl ovqatlanish hamda boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo‘lmagan sohalar – 25 kishidan oshmagan kichik korxonalar.

### **3.9.2. Soliq to‘lovchilar**

Soliq kodeksining 350-moddasiga ko‘ra quyidagilar yagona soliq to‘lovini to‘lovchilari hisoblanadi:

- 1) mikrofirmalar va kichik korxonalar;
- 2) xodimlarning sonidan qat‘i nazar:
  - savdo va umumiyl ovqatlanish korxonalari;
  - lotereyalar tashkil qilish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish doirasidagi yuridik shaxslar.
- 3) oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) – yakka tartibdagi tadbirkor.

Soliq kodeksining 350-moddasiga ikkinchi qismiga ko‘ra yagona soliq to‘lovi quyidagi mikrofirmalar va kichik korxonalarga tatlbiq etilmaydi:

- aksiz solig‘i to‘lanadigan mahsulot ishlab chiqarishni va yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni qazib olishni amalga oshiruvchi mikrofirmalar va kichik korxonalarga, bundan maxsus pechlardan foydalangan holda energiya tejaydigan zamonaviy texnologiyalar asosida pishiq g‘isht ishlab chiqaruvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar mustasno;
- yagona yer solig‘i va qat’iy belgilangan soliq to‘lash nazarda tutilgan faoliyat doirasidagi mikrofirmalar va kichik korxonalarga;
- mahsulot taqsimotiga oid bitimlar ishtirokchisi bo‘lgan mikrofirmalar va kichik korxonalarga.

### **3.9.3. Mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan yagona soliq to‘lovini qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari**

Mikrofirmalar va kichik korxonalar, bundan Soliq kodeksning 350-moddasi birinchi qismining 2-bandida ko‘rsatilganlar mustasno, yagona soliq to‘lovini to‘lashni nazarda tutadigan soliq solishning soddalashtirilgan tartibini yoki umumbelgilangan soliqlar to‘lashni tanlashga haqli.

Faoliyat ko‘rsatayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalar yagona soliq to‘lovini to‘lashga o‘tish uchun keyingi hisobot davri boshlanishiga kamida bir oy qolganda, yangi tashkil etilgan mikrofirmalar va kichik korxonalar esa, davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan e’tiboran o‘n besh kundan kechiktirmasdan soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organining yagona soliq to‘lovini to‘lashga o‘tishi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan shaklda yozma ravishda xabardor etadi.

Mikrofirmalar va kichik korxonalar yagona soliq to‘lovini to‘lashdan ixtiyoriy ravishda voz kechgan taqdirda hisobot davri tugaganidan so‘ng o‘n kun ichida davlat soliq xizmati organlariga taqdim qilinadigan yozma bildirish asosida keyingi hisobot davridan boshlab umumbelgilangan soliqlar to‘lashga o‘tadi.

Hisobot yili tugashi bilan Soliq kodeksining 350-moddasi uchinchi qismiga muvofiq belgilangan xodimlar soni mezoniga mos kelmaydigan yagona soliq to‘lovini to‘lovchilar davlat soliq xizmati organlariga yillik moliyaviy hisobot taqdim etish muddatidan kechiktirmay taqdim etiladigan yozma bildirish asosida keyingi hisobot yildan boshlab umumbelgilangan soliqlar to‘lashga o‘tadi.

Soliq kodeksining 350-moddaning to‘rtinchi qismida ko‘rsatilgan yagona soliq to‘lovini to‘lovchilar yagona soliq to‘lovini to‘lash huquqidan mahrum bo‘lgan o‘tgan hisobot yili uchun umumbelgilangan soliqlar bo‘yicha hisob-kitoblar asosida yagona soliq to‘lovi yuzasidan qayta hisob-kitobni amalga oshiradi.

Yagona soliq to‘lovi bo‘yicha qayta hisob-kitob o‘tkazish uchun yagona soliq to‘lovini to‘lovchilar yil yakunlari bo‘yicha yagona soliq to‘lovi hisob-kitobini taqdim etish muddatidan kechiktirmay soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga quyidagilarni taqdim etadilar:

Soliq kodeksida nazarda tutilgan shaklda va tartibda umumbelgilangan soliqlarning har bir turi bo‘yicha hisob-kitoblarni;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan shaklda hisoblab chiqarilgan umumbelgilangan soliqlar summasi to‘g‘risidagi ma’lumotnomani.

Umumbelgilangan soliqlar summasi hisoblangan yagona soliq to‘lovi summasidan oshib ketgan taqdirda oshgan summa budgetga to‘lanishi lozim.

Hisoblangan yagona soliq to‘lovi summasi umumbelgilangan soliqlar summasidan oshib ketgan taqdirda, budget bilan qayta hisob-kitoblar amalga oshirilmaydi.

Yagona soliq to‘lovi bo‘yicha qayta hisob-kitob o‘tkazish tovarlar(ishlar, xizmatlar)ni sotib oluvchilar bilan tegishli qayta hisob-kitoblarsiz amalga oshiriladi.

Soliq kodeksining 351-moddasiga asosan yagona soliq to‘lovini to‘lovchilari O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan shaklda hisoblab chiqarilgan umumbelgilangan soliqlar summasi to‘g‘risidagi ma’lumotnomani va umumbelgilangan soliqlar summasi hisoblangan yagona soliq to‘lovi summasidan oshib ketgan taqdirda oshgan summani budgetga to‘lovini yil yakunlari bo‘yicha yagona soliq to‘lovi hisob-kitobini taqdim etish muddatidan kechiktirmay taqdim etilsa, moliyaviy sanksiyalar qo‘llanilmaydi. Agar bu holat yil yakunlari bo‘yicha yagona soliq to‘lovi hisob-kitobini taqdim etish muddatidan kechiktirilgan holda amalga oshirilsa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda moliyaviy sanksiyalar qo‘llaniladi.

### **3.9.4. Soliq solish obyekti va soliq solinadigan baza**

Soliq kodeksining 355-moddasiga ko‘ra yagona soliq to‘loving soliq solish obyekti yalpi tushum bo‘lib, soliq solish obyekti sifatida yalpi tushum tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

1) tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni qo‘shilgan qiymat solig‘ini chegirgan holda (qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lashga o‘tgan soliq to‘lovchilar uchun) realizatsiya qilishdan tushgan tushum.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan tushgan tushum deganda quyidagilar tushuniladi:

– qurilish, qurilish-montaj, ta’mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy tadqiqot tashkilotlari uchun – o‘z kuchlari bilan bajarilgan, tegishinchal qurilish, qurilish-montaj, ta’mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy tadqiqot ishlarni realizatsiya qilishdan tushgan tushum. Bunda, agar yuqorida qayd etilgan ishlarni materiallar bilan ta’minalash majburiyati shartnomaga binoan buyurtmachining zimmasida

bo‘lsa, ushbu materiallarga bo‘lgan mulk huquqi buyurtmachining o‘zida saqlanib qolgan taqdirda, o‘z kuchlari bilan bajarilgan ishlarni realizatsiya qilishdan olinadigan tushum bajarilgan hamda tasdiqlangan ishlarning buyurtmachi materiallarining qiymati kiritilmagan holdagi qiymati sifatida belgilanadi;

– savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun – tovar oboroti;

– mol-mulkni moliyaviy ijaraga (lizingga) beruvchi yuridik shaxslar uchun – moliyaviy ijara (lizing) bo‘yicha foizli daromad summasi;

– vositachilik va topshiriq shartnomalari hamda vositachilik xizmatlari ko‘rsatishga oid boshqa shartnomalar bo‘yicha vositachilik xizmatlari ko‘rsatadigan yuridik shaxslar uchun – ko‘rsatilgan xizmatlar uchun haq summasi;

– tayyorlov, ta’midot-sotish tashkilotlari uchun – realizatsiya qilingan tovarlarning xarid qiymati bilan sotish qiymati o‘rtasidagi farq sifatida hisoblab chiqarilgan yalpi daromad;

– lotereya o‘yinlarini tashkil etish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish doirasida yuridik shaxslar uchun – o‘yin chiptalarini ularda ko‘rsatilgan narx bo‘yicha tarqatishdan tushgan tushum;

– tovarlarni tannarxidan yoki olish bahosidan past baholarda realizatsiya qiluvchi, shuningdek tovarlarni tekinga beruvchi yuridik shaxslar uchun – tovarlar tannarxi yoki ularni olish bahosi. Bunda baholari (tariflari) davlat tomonidan tartibga solinishi nazarda tutilgan tovarlar uchun realizatsiya qilishdan olinadigan tushum belgilangan baholardan (tariflardan) kelib chiqqan holda aniqlanadi. Ushbu norma ekologiya, sog‘lomashtirish hamda xayriya jamg‘armalariga, madaniyat, sog‘liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport, ta’lim muassasalariga tekinga beriladigan tovarlarga tatbiq etilmaydi;

2) agar Soliq kodeksining ushbu moddasining to‘trinch va beshinchi qismlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa,

ushbu kodeksning 132-moddasida nazarda tutilgan boshqa daromadlar.

Uzoq muddatli kontraktlarni bajarishda tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan tushadigan tushum Soliq kodeksining 130-moddasidagi yettinchi – o‘ninchi qismlarida nazarda tutilgan tartibda hisobot davri mobaynida uzoq muddatli kontraktlarni haqiqatda bosqichma-bosqich ijro etishga oid qismida hisobga olinadi.

Soliq kodeksining 355-moddasiga ko‘ra quyidagilar soliq solish obyekti sifatida qaralmaydi:

1) ustav fondiga (ustav kapitaliga) olingan hissalar, shu jumladan aksiyalarni (ulushlarni) joylashtirish bahosining ularning nominal qiymatidan (dastlabki miqdoridan) ortiq summasi, oddiy shirkat shartnomasi bo‘yicha birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish uchun birlashtiriladigan mablag‘lar;

2) muassislар (ishtirokchilar) tarkibidan chiqilayotganda (chiqarilayotganda), shuningdek tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki uning muassislari (ishtirokchilari) o‘rtasida taqsimlanayotganda ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissalar doirasida olingan mablag‘lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

3) shartnomada muassislari (ishtirokchilari) umumiyligi mulkidagi hissasi qaytarib berilgan yoki bunday mol-mulk bo‘lingan taqdirda, oddiy shirkat shartnomasi sherigi (ishtirokchisi) tomonidan hissasi miqdorida olingan mablag‘lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

4) realizatsiya qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun oldindan haq to‘lash (bo‘nak) tariqasida boshqa shaxslardan olingan mablag‘lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

5) mulk huquqi ularga o‘tgan paytga qadar majburiyatlarni qonun hujjaligiga muvofiq ta’minlash sifatida garov yoki zaklad tarzida olingan mablag‘lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

6) budgetdan berilgan subsidiyalar;

7) agar mablag‘lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar)ni o‘tkazish, ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish O‘zbekiston Respub-

likasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamining qarori asosida amalga oshirilsa, tekin olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar), ishlar va xizmatlar;

8) olingan grantlar va insonparvarlik yordami;

10) sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta toponi (sug'urta summasi) tariqasida olingan mablag'lar;

11) vositachiga yoki boshqa ishonchli vakilga vositachilik, topshiriq shartnomasi yoki vositachilik xizmatlarini ko'rsatishga oid boshqa shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish munosabati bilan, shuningdek komitent yoxud boshqa topshiriq beruvchi uchun vositachi yoki boshqa ishonchli vakil tomonidan qilingan xarajatlarni qoplash hisobiga kelib tushgan mol-mulk (haq to'lovi bundan mustasno);

12) obyekt qiymatining ijaraga beruvchi (lizing beruvchi) tomonidan olingan ijara (lizing) to'lovining bir qismi tarzida qoplanishi;

13) telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining tekin olingan texnik vositalari, shuningdek mazkur vositalardan foydalanishga va ularga xizmat ko'rsatishga doir xizmatlar;

14) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyektining muassislardan (ishtirokchilaridan) uning majburiyatlarini bajarish uchun olingan mablag'lar. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartibtaomili tugatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda ushbu mablag'lar soliq solish obyektiga kiritiladi va ularga soliq solinishi lozim;

15) investor bilan davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq investitsiya majburiyatları sifatida kiritilayotgan mol-mulk.

Balansning valuta hisobida qayta baholash chog'ida kursdag'i ijobiy va salbiy farqlar o'rtasidagi saldo soliq solish obyekti hisoblanadi. Salbiy kurs farqi summasi ijobiy kurs farqi sum-

masidan ortiq bo‘lgan taqdirda oshib ketgan summa yagona soliq to‘lovini hisoblab chiqarishda soliq solinadigan bazani kamaytirmaydi.

**Soliq solinadigan baza.** Quyidagilar chegirib tashlangan holda hisoblab chiqarilgan yalpi tushum soliq solinadigan bazadir:

- 1) davlat qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha daromadlar;
- 2) to‘lov manbaida soliq solinadigan dividendlar va foizlar tariqasida olingan daromadlar;
- 3) dividendlar tariqasida olingan va qaysi yuridik shaxsdan olingan bo‘lsa, o‘sha yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yo‘naltirilgan daromadlar. Muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqilayotganda (chiqib ketganda) yoxud tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki imtiyoz qo‘llanilganidan so‘ng bir yil ichida uning ishtirokchilari o‘rtasida taqsimlanganda ilgari soliq solinadigan bazadan chegirilgan daromadlarga to‘lov manbaida umumiylasoslarda soliq solinadi;
- 4) hisobot yilida aniqlangan o‘tgan yillardagi daromadlar. Mazkur daromadlarga ular qaysi davrda paydo bo‘lgan bo‘lsa, o‘sha davrdagi qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlardan bo‘yicha o‘tkazilgan hisob-kitoblar inobatga olingan holda soliq solinishi kerak;
- 5) ko‘p oborotli qaytariladigan taraning qiymati, agar uning qiymati tovarlar (ishlar va xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan olingan tushumning tarkibiga ilgari kiritilgan bo‘lsa;
- 6) mahsulot yetkazib beruvchilarning siylovi (skidka) tariqasida va asosiy vositalarni tugatishda ularning ilgari qayta baholashlardagi qiymatining kamayishi summasidan ortgan qismi hisobiga olingan boshqa daromadlar.

Soliq solinadigan baza quyidagilar uchun kamaytiriladi:

- 1) transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq to‘lovchilar – yuridik shaxslar – transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq summasiga;

2) lotereya o‘yinlarini tashkil etish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish doirasida yuridik shaxslar uchun – yutuq (mukofot) fondining summasiga, biroq tarqatilgan chiptalarga chiqqan yutuqlarning (mukofotlarning) umumiyligi summasidan ortiq bo‘lmagan miqdoriga;

3) brokerlik tashkilotlari uchun – bitim summasidan birjaga o‘tkaziladigan vositachilik yig‘imi summasiga;

4) vositachilik, topshiriq shartnomasi bo‘yicha vositachilik xizmatlari ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar uchun – realizatsiya qilingan tovar ulushida tovarlarni import qilishda to‘langan bojxona to‘lovlar summasiga.

Soliq solinadigan baza quyidagilarga yo‘naltirilgan mablag‘lar summasiga kamaytiriladi:

– yangi texnologik asbob-uskunalar olishga, lekin soliq solinadigan bazaning ko‘pi bilan 25 foiziga. Soliq solinadigan bazani kamaytirish texnologik asbob-uskunalarni foydalanishga joriy etilgan soliq davridan boshlab besh yil mobaynida amalga oshiriladi;

– yosh oilalar jumlasidan bo‘lgan xodimlarga ipoteka kreditlari bo‘yicha badallar to‘lashga va (yoki) mulk qilib uy-joy olishga tekin yo‘naltirilgan mablag‘lar summasiga, lekin soliq solinadigan bazaning ko‘pi bilan 10 foiziga.

### 3.9.5. Soliq imtiyozlari

Yagona soliq to‘lovini to‘lashdan nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroniy» jamg‘armasi va «O‘zbekiston chernobilchiları» assotsiatsiyasi mulkida bo‘lgan, ishlovchilar umumiyligi sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941–1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etadigan yuridik shaxslar ozod qilinadi, bundan savdo, vositachilik, ta’minot-sotish va tayyorlov faoliyati hamda lotereyalar tashkil etish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar mustasno. Imtiyozni olish huquqi belgilanayotganda xodimlarning umumiyligi soniga shtatda bo‘lgan xodimlar kiritiladi.

### **3.9.6. Mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to‘lovi stavkalari**

Quyidagi jadvalda mikrofirma va kichik korxonalar uchun 2014-yil 1-yanvardan yagona soliq to‘lovi stavkalari keltirilgan. (10-jadval)

**10-jadval**

#### **Mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to‘lovi stavkalari<sup>1</sup>**

| <b>№</b> | <b>To‘lovchilar</b>                                                                                                                                                                                                                         | <b>Soliq stavkalari<br/>soliq solinadigan<br/>bazaga nisbatan<br/>%da</b> |
|----------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------|
| 1.       | Iqtisodiyotning barcha tarmoqlari korxonalari, 2–10-bandlarda ko‘rsatib o‘tilganlaridan tashqari                                                                                                                                            | 6*                                                                        |
| 2.       | Sanoat sohasidagi korxonalar                                                                                                                                                                                                                | 5                                                                         |
| 3.       | Ommaviy axborot vositalari tahriryatlari, nashriyotlar, matbaa tashkilotlari, teleradioeshtirish kompaniyalari                                                                                                                              | 5                                                                         |
| 4.       | Kompyuter dasturiy mahsulotlarini ishlab chiqish va joriy etish tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasi umumiylaj hajmining kamida 80 foizini tashkil etadigan korxonalar                                                               | 5                                                                         |
| 5.       | Bojxona rasmiylashtiruvi bo‘yicha xizmatlarni ko‘rsatadigan yuridik shaxslar (bojxona brokerlari)                                                                                                                                           | 6                                                                         |
| 6.       | Lombardlar                                                                                                                                                                                                                                  | 30                                                                        |
| 7.       | Gastrol-konsert faoliyati bilan shug‘ullanish uchun litsenziyaga ega bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarni (shu jumladan norezidentlarni) jalb etish yo‘li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oladigan korxonalar | 30                                                                        |

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 25-dekabrdagi PQ-2099-sonli qarorining 9.1-ilovasi.

|     |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 |                                         |
|-----|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------|
| 8.  | Tayyorlov tashkilotlari, brokerlik idoralari (9-bandda ko'rsatilganlaridan tashqari), shuningdek vositachilik, topshiriq va boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan korxonalar                                                                                                                                                                                                                                                       | 33**                                    |
| 9.  | Qimmatli qog'ozlar bozorida brokerlik faoliyatini amalga oshiradigan korxonalar                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 | 13**                                    |
| 10. | Oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlarini realizatsiya qilish uchun turg'un savdo shoxobchalarini ijaraga berishga ixtisoslashgan korxonalar (ijaraga berishdan olingan daromadlar 60%dan ko'pni tashkil etadi)                                                                                                                                                                                                                                                 | 30                                      |
| 11. | O'zi ishlab chiqargan tovarlar, ishlar, xizmatlar eksportining (ishlarni bajarish, xizmatlarni ko'rsatish joyidan qat'iy nazar) erkin almashtiriladigan valutadagi ulushi quyidagi miqdorlarni tashkil etadigan korxonalar uchun (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 10-oktabrdagi PF-1871-son Farmoni bilan tasdiqlangan ro'yxatda keltirilgan xomashyo tovarlari bundan mustasno):<br><br>sotishning umumiyligi hajmida 15 foizdan 30 foizgacha | belgilangan stavka 30% ga pasaytiriladi |
|     | Sotishning umumiyligi hajmida 30 foiz va undan ko'p                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             | belgilangan stavka 50% ga pasaytiriladi |
| 8   | Xizmatlar ko'rsatish sohasi korxonalari uchun plastik kartalar qo'llanib haq to'langan holda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bo'yicha                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              | belgilangan stavka 5% ga pasaytiriladi  |

\*) mol-mulkini moliyaviy ijara (lizing)ga beradigan korxonalar uchun moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad summasi.

\*\*) Yalpi daromadga nisbatan foizlarda.

### **3.9.7. Yagona soliq to‘lovi hisoblab chiqarish, uning hisob-kitoblarini taqdim etish va uni to‘lash tartibi**

Yagona soliq to‘lovi soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilar uchun yagona soliq to‘lovi summasi budgetga to‘lanishi lozim bo‘lgan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasiga, lekin yagona soliq to‘lovi summasining 50 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorga kamaytiriladi. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini ixtiyoriy ravishda to‘lashga kalendar yil boshidan e’tiboran o‘tmagan to‘lovchilar yagona soliq to‘lovi summasini qo‘shilgan qiymat solig‘i hisoblab chiqarilgan hisobot davriga to‘g‘ri keladigan summaga kamaytiradi.

Yagona soliq to‘lovining hisob-kitobi soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Yagona soliq to‘lovi budgetga quyidagicha to‘lanadi:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan – hisobkitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay;
- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to‘lovchilar tomonidan – har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay.

## **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Soliq solishning soddallashtirilgan tartibini tatbiq etishning ahamiyati nimada?
2. Kichik biznes subyektlari tarkibi qaysi mezonlar asosida belgilanadi va qaysi me’yoriy hujjat asosida belgilangan?
3. Yagona soliq to‘lovi qachon joriy etildi va yagona soliq bilan yagona soliq to‘lovining farqi nimada?

4. Yagona soliq to‘lovini to‘lovchilar kimlar?
5. Soliq solish obyekti va soliq solinadigan baza tarkibi nimalar-dan iborat?
6. Yagona soliq to‘loviga soliq stavkalari qaysi mezon asosida belgilanadi?
7. Qanday yuridik shaxslar yagona soliq to‘lovidan imtiyozga ega?
8. Yagona soliq to‘lovi bo‘yicha hisobot qaysi muddatda topshiriladi?
9. Yagona soliq to‘lovi budgetga qaysi muddatlarda to‘lanadi?
10. Yagona soliq to‘loviga o‘tishning tartibi qanday?

### **Mustaqil o‘zlashtirish uchun chizmali materiallar**

**Soliq kodeksining 350-moddasiga ko‘ra quyidagilar yagona soliq to‘lovini to‘lovchilar hisoblanadi:**

|                                         |                                                                                                                                                    |                                                                                                                                |
|-----------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1. Mikro-firma-lar va kichik korxonalar | 2.1. Savdo va umumiyl ovqatlanish korxonalari;<br>2.2. Lotereyalar tashkil qilish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish doirasidagi yuridik shaxslar | 3. Oddiy shirkat ish-larini yuritish zimmasiga yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) – yakka tartibdagi tadbirkor |
|-----------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

### **Yagona soliq to‘lovi budgetga quyidagicha to‘lanadi:**

|                                                                                                   |                                                                                                                                                                                                                                        |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan – hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay | mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to‘lovchilar tomonidan – har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

## **IV BOB. JISMONIY SHAXSLARNING SOLIQQA TORTISH TARTIBI**

### **4.1. JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG‘I<sup>1</sup>**

#### **4.1.1. Soliq to‘lovchilar**

Aholini soliqqa tortish tizimida markaziy bo‘lib jismoniy shaxslarni daromadlarini soliqqa tortish hisoblanadi. Yurtimiz va chet davlatlarining iqtisodini tarixiy rivojlanishida soliq ko‘pdan buyon an’anaviy soliq bo‘lib kelmoqda. Daromad solig‘i stavkasining pasayishi (maksimal soliq stavkasi 45%dan to 22%gacha tushirildi) doimiy ravishda soliqqa tortish bazasining kengayishi bilan olib borilmoqda, va bu qatorda soliq to‘lash manbasiga to‘liq asosli ravishda faqat ishchi va xizmatchilardan undiriladigan daromad solig‘igina emas, balki u bilan birga mulkiy daromadlar va tadbirkorlik faoliyati daromadlari ham kirmoqda. O‘zbekistonda jismoniy shaxslarni soliqqa tortish O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, boshqa me’yoriy hujjatlar asosida olib boriladi.

Soliq kodeksiga mufoviq soliq solinadigan daromadga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘lovchilardir.

Barcha jismoniy shaxslar soliqqa tortish maqsadida ikki toifaga bo‘linadi: O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari.

O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki moliya yilda boshlanadigan yoxud tugaydigan o‘n ikki oygacha bo‘lgan

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. Rasmiy nashr – O‘zR Adliya Vazirligi. – T.: «Adolat», 2014. VI bo‘lim. 179–223-betlar.

istalgan davr mobaynida **183** kun yoki undan ko‘proq muddatda O‘zbekistonda turgan jismoniy shaxs O‘zbekiston Respublikasining rezidenti deb qaraladi.

O‘zbekiston Respublikasining rezidenti bo‘lgan jismoniy shaxslarga *ularning O‘zbekiston Respublikasidagi, shuningdek undan tashqaridagi faoliyati* manbalaridan olingan daromadlari bo‘yicha soliq solinadi.

Jismoniy shaxslarning – O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlariga Soliq kodeksining 182-moddasida nazarda tutilgan o‘ziga xos xususiyatlar hisobga olingan holda va stavkalar bo‘yicha soliq solinadi.

Agar O‘zbekiston Respublikasi ishtirokchisi hisoblangan xalqaro shartnomalar bilan jismoniy shaxslar daromadiga soliq solishning yo‘riqnomadagidan farqlanadigan boshqacha qoidalari belgilangan bo‘lsa, u holda xalqaro shartnomalar qoidalari qo‘llaniladi.

#### **4.1.2. Soliq solish obyekti va soliq solinadigan baza**

Jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlari soliq solish obyektidir:

O‘zbekiston Respublikasi rezidentlarining O‘zbekiston Respublikasidagi va undan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlari; O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlari. Yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatidan olingan qat’iy belgilangan soliq solinadigan daromadlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining soliq solish obyekti bo‘lmaydi.

**Soliq solinadigan baza:** Soliq solinadigan baza jami daromaddan kelib chiqib, soliq solishdan ozod qilingan daromadlar chegirilgan holda aniqlanadi.

Agar soliq to‘lovchining daromadidan uning ixtiyoriga ko‘ra, sud yoki boshqa organlarning qaroriga binoan biron bir ushlab

qolishlar amalga oshirilsa, bunday ushlab qolishlar soliq solinadigan bazani kamaytirmaydi. Jismoniy shaxsning chet el valutasida ifodalangan daromadlari daromadlar amalda olingan sanada O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo‘yicha milliy valutada qayta hisoblab chiqiladi.

#### **4.1.3. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi tarkibi**

Jismoniy shaxslarning jami daromadiga quyidagilar kiradi:

- 1) mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar;
- 2) mulkiy daromadlar;
- 3) moddiy naf tarzidagi daromadlar;
- 4) boshqa daromadlar.

Yuridik shaxslar amalga oshiradigan quyidagi xarajatlar jismoniy shaxslarning daromadi sifatida qaralmaydi:

1) mehnat sharoitlari noqulay bo‘lgan ishlarda band bo‘lgan xodimlarni mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sut, davolash-profilaktika oziq-ovqati, gazlangan sho‘r suv, shaxsiy himoya va gigiyena vositalari bilan ta‘minlash xarajatlari;

2) kasaba uyushmasi qo‘mitasi tomonidan amalga oshiriladigan to‘lovlar, shu jumladan a’zolik badallari hisobidan kasaba uyushmasi a’zolariga beriladigan moddiy yordam, bundan kasaba uyushmasi qo‘mitasining xodimlariga mehnat vazifalarini bajaranlik uchun beriladigan pul mukofotlari va boshqa to‘lovlar mustasno;

3) xodimlarni ish joyiga olib kelish va qaytarib olib ketish xarajatlari;

4) diniy rasm-rusumlar va marosimlarni, bayram tantanalari ni o‘tkazish, vakillik xarajatlari, shahar yo‘lovchilar transportida xodimlarning xizmat qatnovlari uchun foydalaniladigan yo‘l kartochkalarini olish, shuningdek yuridik shaxsning xodimlar mehnat va dam olish sharoitlarini ta‘minlash bilan bog‘liq hamda muayyan

jismoniy shaxslarning daromadi hisoblanmaydigan boshqa xarajatlar;

5) xodimga xizmat vazifalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan maxsus kiyim-bosh, maxsus poyabzal, formalı kiyim-bosh berish xarajatlari yoki ularni pasaytirilgan baholarda sotish munosabati bilan qilingan xarajatlar, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ayrim toifadagi xodimlarni o‘z xizmat vazifalarini bajarishi chog‘ida oziq-ovqat bilan ta’minlash xarajatlari;

6) xodim boshqa joyga ishga o‘tkazilganda yoxud ko‘chib borganda ko‘chish, mol-mulkini ko‘chirib borish, joy ijarasi (yo‘l xarajatlari uchun beriladigan pul) bilan bog‘liq xarajatlarni to‘lash yoki bu xarajatlarning o‘rnini qoplash xarajatlari;

7) xizmat safarlaridagi quyidagi kompensatsiya to‘lovleri:

– tasdiqlovchi hujjatlar asosida xizmat safari joyiga borish va u yerdan qaytib kelish uchun, shu jumladan joy band qilish uchun haq to‘lashni qo‘sghan holda haqiqatda amalga oshirilgan to‘lovlar. Yo‘l hujjatlari bo‘lmagan taqdirda, temir yo‘l transportidagi (agar temir yo‘l qatnovi bo‘lmasa, shaharlарaro avtobusdagi) yo‘l haqi qiymati miqdorida, biroq aviachipta qiymatining 30 foizidan oshmaydigan miqdorda;

– uy-joyni ijaraga olish bo‘yicha haqiqatda amalga oshirilgan to‘lovlar. Yashaganligini tasdiqlovchi hujjatlar bo‘lmagan taqdirda – qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida;

– tasdiqlovchi hujjatlar asosida uy-joyni band qilish uchun to‘lovlar;

– qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida xizmat safarida bo‘lingan vaqt uchun to‘lanadigan kundalik xarajatlar uchun haq (sutkalik pullar);

– qonun hujjatlarida belgilangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan boshqa to‘lovlar;

8) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan normalar doirasida xodimga to‘lanadigan kompensatsiya to‘lovleri (kompensatsiyalar):

- doimiy ishi yo‘lda kechadigan yoki harakatlanish va (yoki) qatnov tusiga ega bo‘lgan, shuningdek vaxta usulida ishlarni bajarishda xodimga kompensatsiya to‘lovleri (kompensatsiyalar);
- xizmat ishlari uchun shaxsiy avtomobildan foydalanganlik uchun kompensatsiya to‘lovleri (kompensatsiyalar), bundan xizmat safarlari mustasno;
- dala ta’minoti;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va normalar bo‘yicha boshqa kompensatsiya to‘lovleri (kompensatsiyalar), bundan Soliq kodeksining 174 va 178-moddalarida ko‘rsatilganlari mustasno;

9) mehnatda mayib bo‘lganlik yoki sog‘liqqa boshqacha shikast yetganlik bilan bog‘liq zararning o‘rnini qoplash bo‘yicha quyidagi miqdordagi to‘lovlar:

– jabrlanuvchi mehnatda mayib bo‘lguniga qadar olgan o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan foiz hisobidagi, uning kasbga oid mehnat qobiliyatini yo‘qotganlik darajasiga muvofiq belgilangan har oylik to‘lovlar (voyaga yetmagan shaxs mehnatda mayib bo‘lib qolgan taqdirda, zararning o‘rni uning ish haqi (daromadi) miqdoridan kelib chiqqan holda, lekin qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining besh baravaridan kam bo‘lmagan miqdorda qoplanadi);

– maxsus tibbiy parvarishga muhtoj jabrlanuvchilarga qo‘sishimcha xarajatlar uchun oyiga eng kam ish haqining ikki barvari miqdoridagi to‘lovlar;

– jabrlanuvchining maishiy parvarishi uchun qo‘sishimcha xarajatlar tariqasida har oyda eng kam ish haqining ellik foizi miqdoridagi to‘lovlar;

– xodimning sog‘lig‘iga shikast yetkazilganligi munosabati bilan ish beruvchi tomonidan bir yo‘la to‘lanadigan nafaqa tariqasida jabrlanuvchining yillik o‘rtacha ish haqi miqdoridagi to‘lovlar;

10) boquvchisi vafot etganligi munosabati bilan quyidagi miqdordagi to‘lovlar:

– marhumning o‘rtacha ish haqining vafot etgan boquvchining qaramog‘ida bo‘lgan va uning vafoti munosabati bilan zararni undirishga haqli bo‘lgan mehnatga qobiliyatsiz shaxslarga to‘g‘ri keladigan ulushi miqdoridagi to‘lovlard;

– boquvchisi vafot etganligi munosabati bilan zararni undirishga haqli bo‘lgan shaxslarga bir yo‘la to‘lanadigan nafaqa tariqasida marhumning o‘rtacha yillik ish haqining olti baravari miqdoridagi to‘lovlard;

11) talabalarning ta’lim olishi uchun O‘zbekiston Respublikasining oliy o‘quv yurti bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha pulli-kontrakt asosida o‘tkaziladigan to‘lovlard;

13) mol-mulkni sug‘urta qilish va (yoki) hayotni uzoq muddatli sug‘urta qilish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo‘lgan yuridik shaxslarga to‘lanadigan sug‘urta mukofotlari. Mol-mulkni sug‘urtalash va (yoki) hayotni uzoq muddatli sug‘urtalash shartnomasi muddatidan ilgari bekor qilinganda va sug‘urtalovchi sug‘urta qilinuvchiga sug‘urta mukofotining bir qismini yoki to‘liq qaytarsa, qaytarilgan sug‘urta mukofoti miqdori jismoniy shaxsning soliq solinadigan jami daromadi tarkibiga kiritiladi;

14) yuridik shaxsdan – ish beruvchidan:

– yosh oilalar a’zolari tomonidan uy-joy olish uchun olingan mablag‘lar;

– qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo‘yicha yakka tartibda uy-joy qurish uchun kreditlar berish qonun hujjatlariga muvofiq zimmasiga yuklatilgan banklar tomonidan ushbu maqsadlar uchun beriladigan ipoteka krediti bo‘yicha boshlang‘ich badal sifatida quruvchi shaxs tomonidan olingan mablag‘lar;

– uy-joy olingan (mulk huquqi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan) sanadan e’tiboran besh yil ichida sotilsa, ushbu bandda ko‘rsatilgan daromadlarga belgilangan tartibda soliq solinadi;

15) xodimlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash xarajatlari.

## **Soliq kodeksining 172-moddasiga ko‘ra mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar quyidagilar hisoblanadi:**

Ish beruvchi bilan mehnatga oid munosabatlarda bo‘lgan va tuzilgan mehnat shartnomasiga (kontraktiga) muvofiq ishlarni bajarayotgan jismoniy shaxslarga hisoblanadigan va to‘lanadigan barcha to‘lovlar mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar deb e’tirof etiladi:

- mehnatga haq to‘lashning qabul qilingan shakllari va tizimlariga muvofiq ishbay narxlar, tarif stavkalari va mansab maoshlaridan kelib chiqqan holda haqiqatda bajarilgan ish uchun hisoblangan ish haqi;
- ilmiy daraja va faxriy unvon uchun qo‘sishimcha to‘lovlar;
- ushbu kodeksning 173-moddasiga muvofiq rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar;
- ushbu kodeksning 174-moddasiga muvofiq kompensatsiya to‘lovleri (kompensatsiya);
- ushbu kodeksning 175-moddasiga muvofiq ishlanmagan vaqt uchun haq to‘lash.

Mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlarga quyidagilar ham kiradi:

- predmeti ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish bo‘lgan fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalarga muvofiq jismoniy shaxslarga (ushbu kodeks 169-moddasining ikkinchi qismida ko‘rsatilgan daromadlar bundan mustasno) to‘lovlar;
- yuridik shaxsning boshqaruv organi (kuzatuv kengashi yoki boshqa shunga o‘xshash organi) a’zolariga yuridik shaxsning o‘zi tomonidan amalga oshiriladigan to‘lovlar.

## **Soliq kodeksining 173-moddasiga ko‘ra rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar jumlasiga quyidagilar kiradi:**

- 1) yillik ish yakunlari bo‘yicha mukofot;
- 2) yuridik shaxsni mukofotlash to‘g‘risidagi qoidasida nazarada tutilgan rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar;
- 3) kasb mahorati, murabbiylik uchun tarif stavkalariga va maoshlarga ustamalar;

- 4) ta'tilga qo'shimcha haqlar;
- 5) ko'p yil ishlaganlik uchun pul mukofoti va to'lovlar;
- 6) ratsionalizatorlik taklifi uchun to'lov;
- 7) mehnat natijalari bilan bog'liq bo'lmasan bir yo'la beriladigan mukofotlar.

**Soliq kodeksining 174-moddasiga ko'ra kompensatsiya to'lovlar (kompensatsiya) jumlasiga quyidagilar kiradi:**

1) tabiiy-iqlim sharoitlari noqulay bo'lgan joylardagi ishlar bilan bog'liq qo'shimcha to'lovlar (ish staji uchun ustamalar, baland tog'li, cho'l va suvsiz hududlarda ishlaganlik uchun belgilangan koeffitsiyentlar bo'yicha to'lovlar);

2) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan kasblar va ishlar ro'yxati bo'yicha og'ir, zararli, o'ta zararli mehnat sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, shu jumladan shunday sharoitlardagi uzluksiz ish staji uchun ish haqiga ustamalar;

3) texnologik jarayon jadvalida nazarda tutilgan tungi vaqtida, ish vaqtidan tashqari, dam olish kunlarida va bayram (ishlanmaydigan) kunlarida ishlaganlik uchun tarif stavkalariga hamda mao-shlarga ustamalar va qo'shimcha to'lovlar;

4) ko'p smenali rejimda ishlaganlik, shuningdek bir necha kasbda, lavozimda ishlaganlik, xizmat ko'rsatish doirasini kengaytirganligi, bajariladigan ishlar hajmi ortganligi, o'zining asosiy ishi bilan bir qatorda ishda vaqtincha bo'lmasan xodimlarning vazifalarini bajarganlik uchun ustamalar;

5) doimiy ishi yo'lda kechadigan, harakatlanish va (yoki) qatnov xususiyatiga ega bo'lgan xodimlarning, shuningdek doimiy ishi ishlarni vaxta usulida bajarilishini nazarda tutadigan xodimlarning ish haqiga qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha to'lanadigan ustamalar;

6) yuridik shaxs joylashgan yerdan (yig'ilish punktidan) ishlash joyigacha va orqaga qaytish uchun vaxtada ishlash jadvalida nazarda tutilgan ishlar vaxta usulida bajarilgan taqdirda yo'nga

ketadigan kunlar, shuningdek xodimlar meteorologik sharoitlar sababli va transport tashkilotlarining aybi bilan yo'lda ushlanib qolgan kunlar uchun tarif stavkasi, maosh miqdorida to'lanadigan summalar;

7) yer osti ishlarida doimiy band bo'lgan xodimlarga ularning stvoldan ishlash joyiga borish va u yerdan qaytish uchun shaxtada (konda) harakatlanishning me'yoriy vaqtini uchun to'lanadigan qo'shimcha haqlar;

8) qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha dala ta'minoti;

9) xizmat safarlari vaqtidagi qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha kundalik xarajatlar uchun haq (sutkalik pullar);

10) ishlar vaxta usulida tashkil qilinganda, ish vaqtini umum-lashtirilgan holda hisobga olinayotganda va qonun hujjatlarida belgilangan boshqa hollarda xodimlarga ish vaqtining belgilangan davomiyligidan ortiq ishlaganliklari munosabati bilan beriladigan dam olish kunlari (otgullar) uchun to'lovlar;

11) xizmat ishlari uchun xodimning shaxsiy avtomobilidan yoki xizmat maqsadlari uchun uning boshqa mol-mulkidan qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha foydalanganlik uchun to'lovlar;

12) mehnatda mayib bo'lganlik yoki sog'liqqa boshqacha shikast yetganlik bilan bog'liq zararning o'rmini qoplash uchun Soliq kodeksining 171-moddasasi ikkinchi qismining 9-bandida ko'rsatilgan miqdorlardan ortiqcha olingan summalar;

13) oziq-ovqat va yo'l chiptalarining qiymati yoki oziq-ovqat va yo'l chiptalarining qiymatini qoplash.

Soliq kodeksining 175-moddasiga ko'ra ishlanmagan vaqt uchun haq to'lashga quyidagilar kiradi:

1) qonun hujjatlariga muvofiq:

a) yillik asosiy (uzaytirilgan asosiy) ta'tilga haq to'lash, shuningdek ushbu ta'tildan foydalanilmaganda, shu jumladan xodim

bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda pullik kompensatsiya to‘lash;

б) noqulay va o‘ziga xos mehnat sharoitlarida, shuningdek og‘ir va noqulay tabiiy-iqlim sharoitlarida ishlaganligi uchun ayrim tarmoqlarning xodimlariga beriladigan qo‘shimcha ta’tilga haq to‘lash;

д) o‘qish bilan bog‘liq ta’tilga va ijodiy ta’tillarga haq to‘lash;

е) o‘n ikki yoshga to‘lмаган икки ва undan ortiq bolasi yoki o‘n olti yoshga to‘lмаган nogiron bolasi bor ayollarga berilgan qo‘shimcha ta’tilga haq to‘lash;

2) asosiy ish haqi qisman saqlanib qolgan holda majburiy ta’tilda bo‘lgan xodimlarga beriladigan to‘lovlari;

3) donor xodimlarga ko‘rikdan o‘tish, qon topshirish va qon topshirilgan har bir kundan keyin beriladigan dam olish kunlari uchun haq to‘lash;

4) O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga muvofiq davlat yoki jamoat vazifalarini bajarganlik uchun mehnatga haq to‘lash;

5) qishloq xo‘jaligi va boshqa ishlarga jalb qilinadigan xodimlarning asosiy ish joyi bo‘yicha saqlab qolinadigan ish haqi;

6) boshqa yuridik shaxslardan avvalgi ish joyida lavozim bo‘yicha maoshi miqdorlari ma’lum bir muddat davomida saqlab qolningan holda ishga olingan, shuningdek vaqtinchalik vazifani bajarib turganda xodimlarga maoshdagi farqni to‘lash;

7) yuridik shaxslarning xodimlariga kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida ishdan ajralgan holda o‘qishlari vaqtida asosiy ish joyi bo‘yicha ularga to‘lanadigan ish haqi;

8) xodimning aybisiz bekor turib qolningan vaqt uchun haq to‘lash;

9) mehnat layoqatini vaqtincha yo‘qotgan xodimlarga qo‘shimcha haq to‘lash;

10) qonun hujjatlariga muvofiq yoki yuridik shaxsning qarori bilan majburiy progul vaqtি yoki kam haq to‘lanadigan ishni bajanganlik uchun haq to‘lash;

11) o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxslarning imtiyozli soatlariga, onalarga bolani ovqatlantirishi uchun ishda beriladigan tanaffuslarga, shuningdek tibbiy ko‘rikdan o‘tish bilan bog‘liq vaqt uchun haq to‘lash;

12) yuridik shaxslarning asosiy ishidan ozod qilingan va ozod qilinmagan holda xodimlar tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun hamda o‘quvchilar va talabalarining ishlab chiqarish amaliyotiga rahbarlik qilish uchun jalg qilinadigan yuqori malakali xodimlari mehnatiga haq to‘lash;

15) yuridik shaxsning mablag‘lari hisobidan to‘lanadigan pensiyalar va nafaqalarga qo‘sishimchalar, stipendiyalar;

16) oliy o‘quv yurtini tamomlaganidan keyin yosh mutaxassislarga ta’til vaqtি uchun yuridik shaxs hisobidan to‘lanadigan nafaqalar;

**Soliq kodeksining 176-moddasiga ko‘ra jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlari tarkibiga quyidagilar kiradi:**

1) foizlar;

2) dividendlar;

3) mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar;

4) jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar. Mol-mulkni olish narxi va realizatsiya qilish narxi, olish narxi bo‘lmagan taqdirda esa, inventarizatsiya qiymati va realizatsiya qilish narxi o‘rtasidagi farq daromad deb e’tirof etiladi;

5) sanoat mulki obyektlariga, seleksiya yutug‘iga berilgan patent (litsenziya) egasi bo‘lgan jismoniy shaxsning patentdan boshqa shaxs foydasiga voz kechganda yoki litsenziya shartnomasi tuzganda olgan daromadi;

6) roylati;

8) soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘laganidan keyin xususiy korxona mulkdori hamda fermer xo‘jaligi boshlig‘i, xususiy amaliyat bilan shug‘ullanuvchi notarius ixtiyorida qoldigan foyda summasi.

Soliq kodeksining 177-moddasiga ko‘ra soliq to‘lovchi tomonidan yuridik shaxsdan moddiy naf tarzida olingan daromadlar, agar ushbu kodeks 171-moddasining ikkinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, quyidagilardir:

1) yuridik shaxs tomonidan jismoniy shaxs manfaatlarini ko‘zlab, tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini, mulkiy huquqlarni to‘lash, shu jumladan:

- jismoniy shaxslarning bolalarini maktabgacha ta’lim muassasalarida o‘qitish, tarbiyalash;

- kommunal xizmatlar, xodimlarga berilgan uy-joy haqini, uy-joydan foydalanish xarajatlari haqini, yotoqxonadagi joylar haqini yoki ularning o‘rnini qoplash qiymatini to‘lash;

- oziq-ovqat, yo‘l chiptalari qiymatini to‘lash yoki oziq-ovqat, yo‘l chiptalari qiymatini qoplash;

- sanatoriy-kurortlarda davolanish yo‘llanmalari qiymatini, dam olish, statsionar va ambulatoriyaga qatnab davolanish haqini yoki ularning o‘rnini qoplash qiymatini to‘lash;

- yuridik shaxsning jismoniy shaxs daromadi bo‘lgan boshqa xarajatlari;

2) soliq to‘lovchining manfaatlarini ko‘zlab tekinga, shu jumladan hadya shartnomasi asosida berilgan mol-mulk, bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlar qiymati;

3) tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning xodimlarga realizatsiya qilinadigan narxi va shu tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning hisoblab chiqarilgan qiymati o‘rtasidagi salbiy tafovut;

4) qonun hujjatlariga muvofiq xodimlarga temir yo‘l, aviatsiya, daryo, avtomobil transporti va shahar elektr transportida yurish bo‘yicha beriladigan imtiyozlar summasi;

5) jismoniy shaxsning yuridik shaxs oldidagi qarzining yuridik shaxs qarori bilan hisobdan chiqarilgan summalar;

6) ish beruvchi tomonidan to‘lovlar hisobiga to‘lanib, xodimdan ushlab qolinishi lozim bo‘lgan, lekin ushlab qolinmagan summalar.

Soliq to‘lovchi yuridik shaxsdan tovarlar (ishlar, xizmatlar) olgan taqdirda, Soliq tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning qiymati ularni olish narxidan yoki tannarxidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Jismoniy shaxs yuridik shaxsdan aksiz to‘lanadigan tovarlar yoki qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) olsa, bunday tovarlar (ishlar, xizmatlar) qiymatida aksiz solig‘ining va qo‘shilgan qiymat solig‘ining tegishli summasi hisobga olinadi.

**Soliq kodeksining 178-moddasiga ko‘ra jismoniy shaxslarning boshqa daromadlari jumlasiga quyidagilar kiradi:**

1) pensiyalar va qonun hujjatlarida belgilangan nafaqalar;

2) stipendiyalar;

3) fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, xayriya va ekologiya jamg‘armalari tomonidan jismoniy shaxslarga beriladigan nafaqalar hamda boshqa turlardagi yordam;

4) donorlik uchun pul mukofotlari;

5) alimentlar;

6) hayvonlar (qoramol, parranda, mo‘ynali va boshqa hayvonlar, baliq va boshqalar)ni tirik holda hamda ularni so‘yib, mahsulotlarini xom yoki qayta ishlangan holda, ipak qurti, chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini tabiiy va qayta ishlangan holda sotishdan olingan daromadlar;

7) jismoniy shaxslardan tekin (shu jumladan hadya shartnomalari bo‘yicha) olingan mol-mulk yoki mulkiy huquqlar qiymati;

8) musobaqalarda, ko‘riklarda, tanlovlarda sovrinli o‘rinlar uchun beriladigan sovrinlar, pul mukofotlari;

9) yutuqlar;

10) grant beruvchidan olingan grantlar, shu jumladan chet davlatlar grantlari bo'yicha olingan summalar;

11) jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari, ular bo'yicha olingan foiz tarzidagi va boshqa daromadlar, jamg'arib boriladigan pensiya to'lovleri;

12) yaratilgan fan, adabiyot va san'at asarlari (predmetlari) uchun jismoniy shaxslar tomonidan olingan daromadlar;

13) O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotlari va davlat pul mukofotlariga sazovor bo'lган jismoniy shaxslar olgan bir yo'la beriladigan davlat pul mukofoti yoki shunga teng bahodagi esdalik sovg'alarining qiymati, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida bir yo'la beriladigan pul mukofoti;

14) xalqaro sport musobaqalarida sovrinli o'rirlarni egallaganligi uchun sportchilar olgan bir yo'la beriladigan pul mukofoti;

15) xodim bilan mehnat shartnomasi alohida asos bo'yicha tugatilgan taqdirda, mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq moddiy yordam sifatida beriladigan ishdan bo'shatish nafaqasi va boshqa to'lovlar.

16) moddiy yordam tariqasida:

– vafot etgan xodimning oila a'zolariga yoki oila a'zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan to'lovlar;

– xodimga mehnatda mayib bo'lganligi, kasb kasalligi yoxud sog'lig'iga boshqacha shikast yetganligi bilan bog'liq to'lovlar;

– favqulodda holatlar munosabati bilan beriladigan to'lovlar;

– maqsadli xususiyatga ega bo'lган hamda xodimlar bilan yuz bergen shaxsiy tusdagi voqealar, hodisalar va tadbirlar bilan bog'liq bo'lган hamda bajariladigan ish natijalariga bog'liq bo'lman to'lovlar;

– qishloq xo'jalik mahsulotlarini berish yoki ularni sotib olish uchun mablag'lar berish tarzidagi to'lovlar.

17) qonun hujjatlariga muvofiq uy-joy-kommunal xizmatlari haqini to'lash bo'yicha har oylik kompensatsiya pul to'lovleri;

18) ishlamaydigan pensionerlarga yuridik shaxs tomonidan to‘lanadigan to‘lovlar;

19) sug‘urta tovoni summalar;

20) ma’naviy zararni kompensatsiya qilish bo‘yicha pul to‘lovlari.

#### **4.1.4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i stavkalari**

2014-yil 1-yanvardan boshlab jismoniy shaxslarning ish haqlari, mukofot pullari va boshqa daromadlari summalaridan soliq (agar boshqa holatlar nazarda tutilmagan bo‘lsa) quyidagi miqdorda undiriladi:<sup>1</sup>

| Soliq solinadigan daromad miqdori                                       | Soliq stavkasi                                                                                        |
|-------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Eng kam ish haqining 5 baravarigacha miqdorda                           | daromad summasining 7,5 foizi                                                                         |
| Eng kam ish haqining 5 baravaridan (+1 so‘m) 10 baravarigacha miqdorda  | 5 baravar miqdordan soliq + eng kam ish haqi miqdorining 5 baravaridan oshadigan summaning 16 foizi   |
| Eng kam ish haqining 10 baravaridan (+1 so‘m) va undan yuqori miqdorida | 10 baravar miqdordan soliq + eng kam ish haqi miqdorining 10 baravaridan oshadigan summaning 22 foizi |

Soliq solish maqsadlari uchun eng kam ish haqining miqdori (01.01.2014-y. eng kam ish haqining miqdori – 96105 so‘m) yil boshidan e’tiboran ortib boruvchi yakun tarzida hisoblanadi (yil boshidan tegishli davr uchun eng kam ish haqining oylik miqdorlari summasi).

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 21-dekabr «O‘zbekiston Respublikasi «Fuqarolarni pensiya

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 25-dekabrdagi PQ-2099-sonli qarorining 8-ilovasi.

jamg‘armalari bilan ta’minlash haqida»gi Qonunining bajarilishi bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 595-sonli Qaroriga muvofiq hozirgi kundagi soliq stavkalarida hisoblangan budgetga undirilishi lozim bo‘lgan soliq har oyda fuqarolarning individual yig‘ib boriladigan jamg‘armalariga yo‘naltiriladigan ajratmalarga (ishchi-xizmatchining hisoblangan ish haqidani (daromadidan 1% miqdorida) kamaytiriladi.

#### **4.1.5. Soliqdan beriladigan imtiyozlar**

**Soliq kodeksining 179-moddasiga ko‘ra jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlariga soliq solinmaydi:**

1) moddiy yordam summaları:

- favqulodda holatlar munosabati bilan beriladigan moddiy yordam summaları – to‘laligicha;
- vafot etgan xodimning oila a’zolariga yoki oila a’zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan moddiy yordam summaları – eng kam ish haqining yigirma baravarigacha miqdorda;
- boshqa hollarda – soliq davri uchun eng kam ish haqining o‘n ikki baravarigacha miqdorda;

2) yo‘llanmalar qiymatini yuridik shaxslar tomonidan to‘liq yoki qisman qoplash summaları, turistik yo‘llanmalar bundan mustasno:

- O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan sanatoriylar va sog‘lomlashtirish muassasalariga yo‘llanmalar qiymatini nogironlarga, shu jumladan mazkur korxonada ishlamaydigan nogironlarga to‘liq yoki qisman qoplash summaları;
- O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan bolalar oromgohlari va boshqa sog‘lomlashtirish oromgohlari, shuningdek ota-onalarning bolalari bilan dam olishiga maxsus mo‘ljallangan sanatoriylar va sog‘lomlashtirish muassasalariga o‘z xodimlarining o‘n olti yoshga to‘limgan (o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan

o‘quvchilar) bolalari uchun yo‘llanmalar qiymatini to‘liq yoki qisman qoplash summalar;

3) o‘z xodimlariga va ularning bolalariga ambulatoriya va (yoki) statsionar tibbiy xizmat ko‘rsatilganligi uchun ish beruvchi tomonidan to‘langan summalar, shuningdek yuridik shaxsning davolash va tibbiy xizmat ko‘rsatganlik, nogironlik profilaktikasi va nogironlarning salomatligini tiklashga doir texnik vositalarni olish uchun qilingan xarajatlari. Xodimlarni davolaganlik, ularga tibbiy xizmat ko‘rsatganlik uchun yuridik shaxslar tomonidan sog‘liqni saqlash muassasalariga naqd pulsiz haq to‘langan taqdirda, shuningdek sog‘liqni saqlash tashkilotlari tomonidan yozib berilgan hujjatlar asosida ushbu maqsadlar uchun mo‘ljallangan naqd pul mablag‘lari bevosita xodimga, xodim yo‘qligida, uning oila a’zolariga, ota-onalariga berilgan yoki mazkur maqsadlar uchun mo‘ljallangan mablag‘lar xodimning bankdagi hisobvarag‘iga kiritilgan taqdirda, ushbu daromadlar soliq solishdan ozod qilinadi;

4) O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga ishlash uchun yuborilishi munosabati bilan budget tashkilotlaridan chet el valutasida olingan ish haqi summalarini va boshqa summalar, qonun hujjatlarida belgilangan summalar doirasida;

5) vaqtinchalik bir martalik ishlarni bajarishdan olingan daromadlar, agar bunday ishlarga yollash vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta’minlash markazlari ko‘magida amalga oshirilayotgan bo‘lsa;

6) soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘laganidan keyin xususiy korxona mulkdori, fermer xo‘jaligi boshlig‘i ixtiyorida qoladigan foyda summasi;

7) O‘zbekiston Respublikasining davlat mukofotlari va davlat pul mukofotlariga sazovor bo‘lgan jismoniy shaxslar olgan bir yo‘la beriladigan davlat pul mukofoti yoki shunga teng bahodagi esdalik sovg‘alarining qiymati, shuningdek O‘zbekiston Respub-

likasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida bir yo‘la beriladigan pul mukofoti;

8) xalqaro sport musobaqalarida sovrinli o‘rinlarni egallaganligi uchun sportchilar olgan bir yo‘la beriladigan pul mukofoti;

10) donorlik uchun pul mukofotlari, shuningdek qon yiqqanlik uchun tibbiyot muassasalari xodimlari oladigan summalar;

11) jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan mol-mulkni sotishdan olinadigan daromadlar, bundan qimmatli qog‘ozlarni, yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarini (paylarini) realizatsiya qilishdan olingan daromadlar, shuningdek amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyat doirasida olingan mol-mulkni sotishdan tushadigan daromadlar mustasno;

12) uy xo‘jaligida, shu jumladan dehqon xo‘jaligida yetishtirilgan hayvonlar (qoramol, parranda, mo‘ynali va boshqa hayvonlar, baliq va boshqalar)ni tirik holda hamda ularni so‘yib, mahsulotlarini xom yoki qayta ishlangan holda, sanoatda qayta ishlashdan tashqari, tabiiy va qayta ishlangan chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini sotishdan olinadigan daromadlar, bundan manzarali bog‘dorchilik (gulchilik) mahsulotlari mustasno. Mazkur daromadlar soliq to‘lovchi tegishli mahalliy davlat hokimiyati organi, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi, bog‘dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining boshqaruvlari tomonidan berilgan, realizatsiya qilingan mahsulot soliq to‘lovchi tomonidan unga yoki uning oila a’zolariga ajratilgan yer uchastkasida yetishtirilganligini tasdiqlovchi belgilangan shakldagi hujjatni taqdim etgan taqdirda, soliq solishdan ozod qilinadi;

13) xalqaro hamda respublika tanlovlari va musobaqalarida olingan buyum tarzidagi sovrinlarning qiymati;

14) yuridik shaxsdan soliq davri mobaynida eng kam ish haqining olti baravari miqdorigacha bo‘lgan qiymatdagi:

– xodimlar natura shaklida olgan sovg‘alar;

– ilgari mazkur yuridik shaxsning xodimlari bo‘lgan ishla-mayotgan pensionerlar va mehnat qobiliyatini yo‘qotgan shaxslar, vafot etgan xodimning oila a’zolari tomonidan olingan sovg‘alar va boshqa turlardagi yordam;

15) jismoniy shaxslardan meros yoki hadya tartibida, shuningdek tekin olingan pul va natura shaklidagi daromadlar, bundan fan, adabiyot va san’at asarlarining, adabiyot va san’at asarlari ijrochilarining, shuningdek kashfiyotlar, ixtiolar va sanoat namunalari mualliflarining merosxo‘rlariga (huquqiy vorislariga) to‘lanadigan pul mukofotlari mustasno;

16) davlat zayomining obligatsiyalari bo‘yicha yutuqlar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha foizlar, lotereya bo‘yicha yutuqlar;

17) depozit sertifikatlari, davlat qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha daromadlar, shuningdek banklar va kredit uyushmalaridagi omonatlar bo‘yicha foizlar hamda yutuqlar;

18) xalqaro hamda chet el tashkilotlari va fondlaridan, shuningdek ilmiy-texnika hamkorligi sohasidagi O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari doirasida bevosita jismoniy shaxs grant beruvchidan yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakil qilingan fan va texnologiyalarni rivojlan-tirishni muvofiqlashtirish bo‘yicha organning xulosasi bo‘lgan taqdirda, yuridik shaxsdan – grant oluvchidan olgan grant summasi;

19) fuqarolarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlarining davlat korxonalari mol-mulkini sotib olish, xususiy lashtirilayotgan korxonalar aksiyalarini olish uchun yo‘naltiriladigan summalarini, shuningdek dividendlar tarzida olin-gan va dividend to‘lagan yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yo‘naltirilgan daromadlar. Ushbu bandda nazarda tutilgan imtiyoz qo‘llanilganidan so‘ng bir yil ichida muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqilganda (chiqib ketilganda), mazkur mol-mulk sotilganda yoxud tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-

mulki uning muassislari (ishtirokchilari) o‘rtasida taqsimlanganda ilgari soliq solishdan ozod qilingan daromadlarga umumiy asoslarda soliq solinishi kerak;

20) mehnat shartnomasi bekor qilinganida eng kam ish haqining o‘n ikki baravari miqdori doirasida to‘lanadigan ishdan bo‘shatish nafaqasi, qonun hujjatlarida belgilangan boshqa nafaqalar, bundan vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalari (shu jumladan oilaning bemor a’zosini parvarishlash nafaqasi) mustasno, shuningdek fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, xayriya va ekologiya jamg‘armalaridan jismoniy shaxslarga beriladigan yordam tusidagi to‘lovlar;

21) olingan alimentlar;

22) O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining sug‘urta bo‘yicha oladigan summalar;

23) qonun hujjatlarida davlat stipendiyalari uchun belgilangan miqdorlarda ta‘lim va ilmiy tadqiqot muassasalari tomonidan to‘lanadigan stipendiyalar;

24) uy-joy-kommunal xizmatlariga haq to‘lash bo‘yicha qonun hujjatlariga muvofiq har oylik kompensatsiya pul to‘lovleri;

25) davlat pensiyalari;

27) jamg‘arib boriladigan majburiy pensiya badallari, ular bo‘yicha foiz daromadlari, shuningdek jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovleri;

28) fuqarolarning soliq solinadigan va O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo‘lgan yuridik shaxslarga mol-mulkni sug‘urta qilish hamda hayotni uzoq muddatli sug‘urta qilish bo‘yicha sug‘urta mukofotlari to‘lovi uchun yo‘naltiriladigan ish haqi va boshqa daromadlarining summalar;

29) yuridik shaxslar muassislarining (ishtirokchilarining) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyektiga – yuridik shaxsga uning majburiyatlarini bajarish uchun yo‘naltiriladigan daromadlari summali. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan

muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to‘xtatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda, Soliq imtiyoz qo‘llanilmaydi va soliq summasi imtiyoz qo‘llanilgan butun davr uchun to‘liq miqdorda undiriladi;

30) quyidagi jismoniy shaxslarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlari summalari:

– yosh oila a’zolari tomonidan yakka tartibda uy-joyni qurish, rekonstruksiya qilish va sotib olish uchun yoki ko‘p kvartirali uydagi kvartirani rekonstruksiya qilish va sotib olish uchun olingan ipoteka kreditlarini hamda ular bo‘yicha hisoblangan foizlarni qoplash uchun yo‘naltirilganda;

– qishloq joylarida namunaviy loyihalar bo‘yicha yakka tartibda uy-joy qurishni ushbu maqsadlar uchun kreditlar berish qonun hujjatlariga muvofiq zimmasiga yuklatilgan banklarning kreditlari hisobidan amalga oshirayotgan quruvchi shaxslar tomonidan olingan ipoteka kreditlarini hamda ular bo‘yicha hisoblangan foizlarni qoplash uchun yo‘naltirilganda.

Ushbu bandda ko‘rsatilgan mol-mulk olingan (mol-mulkka bo‘lgan huquq davlat ro‘yxatidan o’tkazilgan) sanadan e’tiboran besh yil ichida sotilsa, mazkur bandda nazarda tutilgan daromadlarga belgilangan tartibda soliq solinadi.

31) fuqarolarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlarining:

– O‘zbekiston Respublikasi oliy o‘quv yurtlarida ta’lim olish uchun (o‘zining o‘qishi yoki yigirma olti yoshga to‘limgan farzandlarining o‘qishi uchun) yo‘naltiriladigan summalari;

– O‘zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda yo‘naltiriladigan summalari.

32) jismoniy shaxslardan tekin (shu jumladan hadya shartnomasi bo‘yicha) olingan ulushlar, paylar va aksiyalar tarzidagi daromadlar, agar mazkur ulushlar, paylar va aksiyalarni berish yaqin qarindoshlar o‘rtasida amalga oshirilsa.

33) paxta yig‘im-terimi bo‘yicha qishloq xo‘jaligi ishlariga jalb qilinadigan jismoniy shaxslarning bu ishlarni bajarganlik uchun olgan daromadlari.

**Soliq kodeksining 180-moddasiga ko‘ra soliq solishdan quyidagi jismoniy shaxslar to‘liq ozod qilinadi:**

1) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalarining boshliqlari va xodimlari, konsullik muassasalarining mansabdor shaxslari, ularning o‘zlari bilan birga yashaydigan oila a’zolari, agar ular O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lmasa, – O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatlik va konsullik xizmati bilan bog‘liq bo‘lmagan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo‘yicha;

2) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalarining ma’muriy-texnik xodimlari hamda ularning o‘zlari bilan birga yashaydigan oila a’zolari, agar ular O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lmasa yoki O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, – O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatlik va konsullik xizmati bilan bog‘liq bo‘lmagan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo‘yicha;

3) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalariga, konsullik muassasalariga xizmat ko‘rsatadigan xodimlar tarkibiga kirgan shaxslar, agar ular O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lmasa yoki O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, – o‘z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo‘yicha;

4) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlarining uylarida ishlovchilar, agar ular O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lmasa yoki O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, – o‘z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo‘yicha;

5) xalqaro nohukumat tashkilotlarning mansabdor shaxslari – agar ular O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lmasa, ularning ushbu tashkilotlarda olgan daromadlari bo‘yicha;

6) O‘zbekiston Respublikasi mudofaa, ichki ishlari, favquloda vaziyatlar vazirliklarining, Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilari, ichki ishlari organlari hamda bojxona organlarining oddiy xizmatchilari va boshliqlari tarkibiga kiruvchi shaxslar, shuningdek o‘quv yoki sinov yig‘inlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar – xizmatni o‘tash (xizmat vazifalarini bajarish) munosabati bilan olgan pul ta’minati, pul mukofotlari va boshqa to‘lovlar summalari bo‘yicha;

7) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining, umumiy yurisdiksiya sudlarining va xo‘jalik sudlarining sudyalari, shuningdek prokuratura organlarining mansab darajalariga ega bo‘lgan xodimlari – ularning xizmat vazifalarini bajarish munosabati bilan olgan daromadlari bo‘yicha;

8) gastrol-konsert faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziysi bo‘lgan shaxslar – ushbu faoliyatdan olingan daromadlari bo‘yicha.

Quyidagi jismoniy shaxslar daromad olingan har bir oy uchun eng kam ish haqining to‘rt baravari miqdoridagi daromadlari bo‘yicha soliq to‘lashdan ozod etiladi:

1) «O‘zbekiston Qahramoni», Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo‘lgan shaxslar, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan shaxslar. Mazkur imtiyoz tegishinchcha «O‘zbekiston Qahramoni» unvoni berilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma, Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limning ma’lumotnomasi asosida beriladi;

2) urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanuvchi ularga tenglashtirilgan shaxslar. Mazkur imtiyoz urush nogironining (qatnashchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limning yoxud boshqa vakolatli organning ma’lumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga (qatnashchilarga) nogironning (qatnashchining) imtiyozlarga bo‘lgan huquqiy to‘g‘risidagi guvohnoma asosida beriladi;

5) bolalikdan nogiron bo‘lib qolganlar, shuningdek I va II gruh nogironlari. Imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

7) sobiq SSSRni, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog‘ida yaralanganligi, kontuziya bo‘lganligi yoki shikastlanganligi oqibatida yoxud frontda bo‘lish bilan bog‘liq kasallik tufayli halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarining hamda ichki ishlar organlari xodimlarining ota-onalari va beva xotinlari (beva erlari). Imtiyoz «Halok bo‘lgan askarning beva xotini (beva eri, onasi, otasi)» yoki «Ichki ishlar organlari halok bo‘lgan xodimining beva xotini (beva eri, onasi, otasi)» shtampi qo‘yilgan yoxud pensiya guvohnomasini bergen muassasa rahbarining imzosi va ushbu muassasa muhri bilan tasdiqlangan tegishli yozuvli pensiya guvohnomasi asosida beriladi. Agar mazkur shaxslar pensioner bo‘lmasa, imtiyoz ularga sobiq SSSR Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik qo‘mitasi yoki Ichki ishlar vazirligining, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Mudo-faa vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati yoxud Ichki ishlar vazirligining tegishli organlari tomonidan berilgan harbiy xizmatchining yoki ichki ishlar organi xodimining halok bo‘lganligi to‘g‘risidagi ma'lumotnomasi asosida beriladi. Sobiq SSSRni, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog‘ida yoki frontda bo‘lish bilan bog‘liq kasallik tufayli halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarining yoxud ichki ishlar organlari xodimlarining beva xotinlariga (beva erlariiga) imtiyoz faqat ular yangi nikohdan o‘tmagan taqdirda beriladi;

10) ikki va undan ortiq o‘n olti yoshga to‘lmagan bolalari bor yolg‘iz onalar;

11) ikki va undan ortiq o‘n olti yoshga to‘lmagan bolalari bor va boquvchisini yo‘qotganlik uchun pensiya olmaydigan beva ayol va beva erkaklar;

12) bolaligidan nogiron bo‘lgan, doimiy parvarishni talab qiladigan farzandi bilan birga yashab, uni tarbiyalayotgan ota-onadan biri.

Soliq imtiyozlari tegishli hujjatlar taqdim etilgan taqdirda qo‘llanilib, bu hujjatlar tegishli organlar tomonidan berilgan daf-tarcha, guvohnoma yoki ma’lumotnomma hisoblanadi.

Imtiyozlarga bo‘lgan huquqlar kalendar yili davomida vujudga kelgan taqdirda, imtiyozlarga bo‘lgan huquqlar vujudga kelgan paytdan e’tiboran qo‘llaniladi.

Agar jismoniy shaxs bir nechta asos bo‘yicha imtiyozlarga bo‘lgan huquqqa ega bo‘lsa, unga xohishiga qarab faqat bitta imtiyoz beriladi.

180-moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan imtiyozni qo‘llash jismoniy shaxsning asosiy ish (xizmat, o‘qish) joyi bo‘yicha, asosiy ish joyi bo‘lmagan taqdirda – yashash joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida soliqni hisoblab chiqarish chog‘ida amalga oshiriladi. Imtiyozga bo‘lgan huquq yo‘qotilgan taqdirda, jismoniy shaxs imtiyoz yo‘qotilgan paytdan e’tiboran 15 kun ichida bu haqda undan soliqni ushlab qoladigan yuridik shaxsga ma’lum qilishi kerak.

Soliq kodeksining 180-moddaning ikkinchi qismida sanab o‘tilgan imtiyozlar jismoniy shaxslarning foizlar va dividendlar tarzida olingan daromadlariga, shuningdek mol-mulkni ijaraga topshirishdan olingan daromadlariga ham tatbiq etiladi. Agar foizlar va dividendlar asosiy ish joyi bo‘yicha hisoblansa, imtiyozni qo‘llash asosiy ish joyi bo‘yicha amalga oshiriladi, agar foizlar va dividendlar asosiy bo‘lmagan ish joyi bo‘yicha hisoblansa, imtiyoz jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini hisoblab chiqarish chog‘ida jismoniy shaxsning yashash joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan qo‘llaniladi. Shunga o‘xshash tartib mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlarga nisbatan ham qo‘llaniladi.

#### **4.1.6. Soliqni hisoblab chiqarish va ushlab qolish tartibi**

Bunda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summasini, shuningdek eng kam ish haqi karrali miqdorlarida nazarda tutilgan imtiyozlarni hisoblab chiqarish uchun eng kam ish haqi miqdorining joriy yilning 1-yanvaridagi holati inobatga olinadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini hisoblab chiqarish va ushlab qolish Soliq kodeksining 170-moddasida belgilangan soliq solinadigan baza hamda stavkalardan kelib chiqqan holda daromad hisoblanishiga qarab, yil boshidan ortib boruvchi yakun bo‘yicha har oyda jismoniy shaxsning asosiy ish joyi bo‘yicha soliq agenti tomonidan amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining hisoblab chiqarilgan summasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jismoniy shaxslarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o‘tkaziladigan har oylik majburiy badallar summasiga kamaytiriladi.

Jismoniy shaxsning asosiy bo‘lmagan ish joyidan yoki boshqa yuridik shaxslardan sovg‘a, moddiy yordam va boshqa turlardagi yordam olgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summasini qayta hisob-kitob qilish jismoniy shaxs daromadlar to‘g‘risida deklaratsiya topshirganda, davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yil mobaynida asosiy ish (xizmat, o‘qish) joyi o‘zgargan taqdirda, jismoniy shaxs joriy yilda o‘ziga to‘langan daromadlar va ushlab qolning jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summalarini to‘g‘risidagi ma’lumotnomani yangi asosiy ish (xizmat, o‘qish) joyidagi buxgalteriyaga dastlabki ish haqi hisoblanguniga qadar taqdim etishi shart. Ilgarigi ish (xizmat, o‘qish) joyidan ma’lumotnomasi taqdim etilmagan yoki soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami taqdim etilmagan taqdirda, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i belgilangan eng yuqori stavka bo‘yicha ushlab qolinadi. Ma’lumotnomasi yoki identifikatsiya raqami keyin-

chalik taqdim etilgan taqdirda, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summasi ilgarigi asosiy ish (xizmat, o‘qish) joyida olingan daromadlar inobatga olingan holda qayta hisob-kitob qilinadi.

Yangi asosiy ish (xizmat, o‘qish) joyida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini hisoblab chiqarish kalendar yil boshidan buyon ilgarigi va yangi ish (xizmat, o‘qish) joylaridan olingan jami daromaddan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Mehnat shartnomasi bekor qilingandan so‘ng xodimga ilgarigi asosiy ish joyida to‘lov amalga oshirilgan taqdirda, mazkur to‘lovlarga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i Soliq kodeksining 179-moddasasi va 180-moddasida nazarda tutilgan imtiyozlar qo‘llanilmagan holda solinadi. Yuridik shaxs bu xodimga to‘lagan daromadning jami summasi va undan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining ushlab qoltingan umumiy summasi haqida bu yuridik shaxs hisobga qo‘yilgan joydagi davlat soliq xizmati organiga o‘ttiz kun ichida yozma ravishda ma’lum qilishi shart.

Asosiy bo‘lmagan ish joyidan yoki boshqa yuridik shaxslardan olingan daromadlarga to‘lov manbaida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini hisoblab chiqarish jami daromad summasidan Soliq kodeksining 179-moddadagi 1-bandida va 180-moddasida nazarda tutilgan imtiyozlar qo‘llanilmagan holda, belgilangan stavkalar bo‘yicha hisoblanishiga qarab, yil boshidan ortib boruvchi yakun bo‘yicha amalga oshiriladi.

Agar asosiy bo‘lmagan ish joyidan yoki boshqa yuridik shaxslardan daromadlar olayotgan jismoniy shaxs buxgalteriyaga o‘z daromadidan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining eng yuqori stavkasi bo‘yicha ushlab qolish to‘g‘risida ariza bersa, daromadlar to‘layotgan yuridik shaxslar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini Soliq kodeksining tegishli moddasida nazarda tutilgan imtiyozlarni qo‘llamagan holda eng yuqori stavka bo‘yicha ushlab qoladilar.

Soliq agentlari ish haqi to‘layotganda jismoniy shaxsning talabiga binoan unga daromadlarining summalari va turlari haqida, shuningdek jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining ushlab qoltingan summasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan shaklda ma’lumotnoma berishlari shart.

Jismoniy shaxslarning asosiy bo‘lmagan ish joyidan olgan daromadlaridan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining yakuniy summasi jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risida taqdim etilgan deklaratsiyaning ma’lumotlari bo‘yicha davlat soliq xizmati organi tomonidan hisoblab chiqariladi.

#### **4.1.7. Daromadlar to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida soliq solish**

Soliq kodeksining 189-moddasiga ko‘ra **deklaratsiya** asosida soliq solinadigan daromadlarga O‘zbekiston Respublikasi rezidentlarining quyidagi daromadlari kiradi:

- mulkiy daromadlar, agar bu daromadlarga to‘lov manbaida soliq solinmagan bo‘lsa;
- fan, adabiyot va san’at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi tariqasida olingan daromadlar;
- asosiy bo‘lmagan ish joyidan olingan moddiy naf tarzidagi daromadlar;
- ikki yoki undan ko‘p manbadan olingan soliq solinadigan daromadlar;
- O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi manbalar dan olingan daromadlar;
- soliq agentlari bo‘lmagan manbalardan olingan daromadlar.

Agar soliq to‘lovchining asosiy bo‘lmagan ish joyidan olgan daromadlaridan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i

uning arizasiga ko‘ra belgilangan eng yuqori stavka qo‘llanilgan holda ushlab qoltingan bo‘lsa, daromadlar to‘g‘risida deklaratsiya taqdim etilmaydi, ushbu modda birinchi qismining oltinchi va yettinchi yettinchi xatboshilarida ko‘rsatilgan daromadlar bundan mustasno.

O‘zbekiston Respublikasi rezidentiga aylangan chet ellik jismoniy shaxs, mazkur moddaning birinchi va ikkinchi qismlari qoidalaridan qat‘i nazar, Soliq kodeksining 192-moddasida nazarada tutilgan tartibda va muddatlarda daromadlari to‘g‘risida deklaratsiya taqdim etadi.

**Soliq kodeksining 191-moddasiga ko‘ra jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiya soliq to‘lovchining olingan yillik daromadi to‘g‘risidagi yozma arizasidan iborat bo‘ladi.**

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyasiga asosiy ish joyi bo‘yicha to‘langan daromadlar va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining ushlab qoltingan summalari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan shakldagi ma’lumotnomma ilova qilinadi.

Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiya shakli O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi hamda unda quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatilishi kerak:

- soliq to‘lovchining familiyasi, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan yili, jinsi, fuqaroligi, doimiy yashash joyi manzili;
- soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami;
- soliq solinishi lozim bo‘lgan daromadlar turlarga ajratib ko‘rsatilgan holda olingan jami yillik daromad (bir martalik operatsiyalardan hamda mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan daromadlarni deklaratsiya qilish uchun faqat ushbu operatsiyalarning o‘zidan olish mo‘ljallanayotgan daromad aks ettiriladi);
- daromadlarning manbalari;

- daromad olish bilan bog‘liq xarajatlar, majburiy to‘lovlar, chiqimlar va ajratmalarning summalari;
- jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq bo‘yicha imtiyozlar;
- hisoblab chiqarilgan soliq summasi;
- haqiqatda to‘langan soliq summasi.

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyada jismoniy shaxslarning jami yillik daromadini deklaratsiya qilish bilan bog‘liq boshqa ma’lumotlar ham ko‘rsatilishi mumkin.

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiya pochta orqali buyurtma xat shaklida, shuningdek elektron shakldagi axborot tarzida taqdim etilishi mumkin.

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiya blankalari soliq to‘lovchilarga davlat soliq xizmati organlari tomonidan bepul beriladi.

Jismoniy shaxs taqdim etgan jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyada to‘lanishi lozim bo‘lgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summasining kamayishiga olib keluvchi xatolar aniqlangan taqdirda, jismoniy shaxs deklaratsiyaga zarur o‘zgarishlar kiritishi shart.

Agar jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyani o‘zgartirish haqidagi ariza jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini to‘lash muddati tugaguniga qadar berilsa, soliq to‘lovchi Soliq kodeksida belgilangan javobgarlikdan ozod qilinadi.

Agar jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyani o‘zgartirish haqidagi ariza jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini to‘lash muddati tugaganidan keyin, biroq xatolar davlat soliq xizmati organi tomonidan aniqlanguniga qadar berilsa, soliq to‘lovchi soliqning yetishmayotgan summasini hamda unga tegishli penyani to‘lagan taqdirda, javobgarlikdan ozod etiladi.

Jismoniy shaxs davlat soliq xizmati organining taqdim etilgan jismoniy shaxsnинг jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiya da aniqlangan xatolik to‘g‘risidagi bildirishnomasini olgan kun davlat soliq xizmati organi tomonidan xatolik aniqlangan kun deb hisoblanadi.

**Soliq kodeksining 192-moddasiga ko‘ra daromadlar to‘g‘-risidagi deklaratsiyani taqdim etish tartibi.**

Soliq to‘lovchilar Soliq kodeksining 189-moddasida ko‘rsatilgan daromadlar bo‘yicha jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyani doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga hisobot yildan keyingi yilning 1-apreliдан kechiktirmay taqdim etadi.

Deklaratsiya qilinishi shart bo‘lmagan daromadlarni olgan soliq to‘lovchilar doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga jami yillik daromadlari to‘g‘risidagi deklaratsiyani ixtiyoriy ravishda taqdim etishi mumkin;

O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan chet ellik jismoniy shaxs o‘tgan soliq davri uchun daromadlar to‘g‘risida joriy yilning 1-apreliгacha deklaratsiya taqdim etadi.

Chet ellik jismoniy shaxs – O‘zbekiston Respublikasining rezidenti Soliq kodeksida belgilangan tartibga muvofiq soliq solinishi lozim bo‘lgan daromad keltirayotgan faoliyatini kalendar yili ichida tugatgan va O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqib ketayotgan bo‘lsa, uning O‘zbekiston Respublikasi hududida turgan vaqtida joriy soliq davrida haqiqatda olgan daromadlari to‘g‘risidagi deklaratsiya mazkur jismoniy shaxs O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqib ketishidan bir oy avval taqdim etilishi lozim. Agar chet ellik jismoniy shaxs – O‘zbekiston Respublikasining rezidenti joriy yilning 1-fevraliga qadar doimiy yashash uchun xorijga chiqib ketayotgan bo‘lsa, joriy yil uchun daromadlar bo‘yicha deklaratsiya taqdim etilmaydi.

Taqdim etish tartibi Soliq kodeksining 186-moddaning to‘trinch qismida belgilangan daromadlar to‘g‘risidagi deklaratsiya bo‘yicha hisoblab chiqarilgan jismoniy shaxslarning daromadlaridan olina-

digan soliqni to‘lash deklaratsiya topshirilgan paytdan e’tiboran 15 kun ichida amalga oshiriladi.

Grant olgan jismoniy shaxs daromadlar to‘g‘risidagi deklaratsiyani topshirayotganda grant bo‘yicha olingan daromad summasini, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i miqdorini, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakolat berilgan fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish bo‘yicha organning tegishli xulosasini ko‘rsatadi.

Mol-mulkni ijaraga berishdan daromad olayotgan jismoniy shaxs, agar ushbu daromadlarga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining to‘lov manbaida soliq solinmasa, belgilangan muddatlarda jami yillik daromad to‘g‘risida deklaratsiya taqdim etish bilan bir qatorda ijaradan daromadlar paydo bo‘lgan kundan e’tiboran birinchi oy tugaganidan keyin besh kunlik muddatda dastlabki tarzdagi deklaratsiya ham taqdim etadi.

Mol-mulkni ijaraga berishdan daromadlar olish tugagan taqdirda jismoniy shaxs doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organini bu haqda yozma shaklda xabardor etadi.

Agar soliq to‘lovchi daromadlar to‘g‘risidagi deklaratsiyani taqdim etmagan bo‘lsa, davlat soliq xizmati organi o‘zidagi mavjud ma’lumotlar asosida soliq summasini eng yuqori stavka bo‘yicha hisoblashga va soliq to‘lovchiga to‘lanishi lozim bo‘lgan hisoblangan soliq summasi to‘g‘risida bildirishnomha topshirishga haqli. Soliq to‘lovchi tomonidan jami yillik daromadi to‘g‘risida deklaratsiya taqdim etilgan taqdirda, soliqning yakuniy summasi ushbu deklaratsiya hisobga olingan holda aniqlanadi.

**Deklaratsiya bo‘yicha soliq to‘lash tartibi.** Jismoniy shaxslar – O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari daromadlar to‘g‘risidagi deklaratsiyaning ma’lumotlari asosida hisoblab chiqarilgan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini o‘tgan soliq davridan keyingi yilning 1-iyunidan kechiktirmay to‘laydilar.

Jismoniy shaxslar – O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari hisoblab chiqarilgan daromad solig‘ini xorijiy davlatda joylashgan bank hisobvarag‘idan chet el valutasida to‘lashi mumkin. Bunda jismoniy shaxslardan olinadigan, milliy valutada ifodalangan soliq jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘langan sanada O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo‘yicha chet el valutasida qayta hisoblab chiqiladi.

Mol-mulkni ijaraga berishdan daromadlar oladigan jismoniy shaxslar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini taqdim etilgan dastlabki deklaratsiya asosida har oyda daromad olingan oydan keyingi oyning beshinchi kunigacha to‘laydilar. Yil tugagach, jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqning yillik summasi haqiqatda olingan daromad bo‘yicha hisoblab chiqariladi. Bu summa bilan yil mobaynida to‘langan summalar o‘rtasidagi farq kelgusi yilning 1-iyunidan kechiktirmay to‘lovchidan undirilishi yoki unga qaytarilishi kerak.

Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq to‘langan sana quyidagilardir:

- yuridik shaxslar yoki jismoniy shaxslar tomonidan bankdagi hisobvarag‘idan to‘langani taqdirda – ularning bankdagi hisobvarag‘idan mablag‘lar hisobdan chiqarilgan kun;
- jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul mablag‘lari kiritilgan taqdirda – bank kassasiga mablag‘lar to‘langan sana.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisoblab chiqariladigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini to‘lash to‘lov xabarnomasida ko‘rsatilgan muddatlarda amalga oshirilishi kerak.

## **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining mohiyatini tushuntirib bering.
2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining to‘lovchilari kimlar?

3. Jismoniy shaxslar soliq solish obyekti va soliq solinadigan bazaiga nimalar kiradi?
4. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlariga qaysi daromad turlari kiradi?
5. Jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan soliq stavklari, soliq stavkasining qaysi turiga kiradi?
6. Jismoniy shaxslarning qanday daromadlariga soliq solinmaydi?
7. Qaysi jismoniy shaxslarning daromadlariga soliq solinmaydi?
8. Qaysi jismoniy shaxslar daromadlari jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqni qisman to'lashdan ozod etiladi?
9. Jismoniy shaxslar daromad solig'ini hisoblash va to'lash tartibi qaysi usulda olib boriladi?
10. Daromadlar to'g'risidagi deklaratsiya taqdim etish va to'lash tartibi qanday?

### **Mustaqil o'zlashtirish uchun chizmali materiallar**

Soliq hujjatlarga asosan moliya yilida soliq solinadigan daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqni to'lovchilari hisoblanadi.

Barcha jismoniy shaxslar soliqqa tortish maqsadida ikki toifaga bo'linadi

#### **Jismoniy shaxslarning daromadlari soliq solish obyekti quyidagilardir:**

- ✓ O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining O'zbekiston Respublikasidagi va undan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlari;
- ✓ O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlari.

**Soliq solinadigan baza –**  
jami daromaddan kelib chiqib, soliq solishdan ozod qilingan daromadlar chegirilgan holda aniqlanadi.

## O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari –

O‘R hududida doimiy yashab turgan yoki moliya yilida boshlanadigan yoxud tugaydigan 12 oygacha bo‘lgan istalgan davr mobaynida **183 kun yoki undan ko‘proq** muddatda O‘zbekistonda turgan jismoniy shaxslardir.

O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari – O‘zbekiston Respublikasining rezidenti bo‘lmagan jismoniy shaxslardir.

O‘zbekiston Respublikasining rezidenti bo‘lgan jismoniy shaxslarga *ularning O‘zbekiston Respublikasidagi, shuningdek undan tashqaridagi faoliyati* manbalaridan olingan daromadlari bo‘yicha soliq solinadi.

O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari *O‘zbekiston Respublikasi hududidagi manbalardan olingan daromadlar* bo‘yicha soliq solinadi.

## 4.2. YURIDIK SHAXS TASHKIL ETMAGAN HOLDA TADBIRKORLIK BILAN SHUG‘ULLANUVCHI JISMONIY SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH

### 4.2.1. Yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan jismoniy shaxslar

Yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shugullanayotgan jismoniy shaxslarning daromadidan qat’iy belgilangan hajmlarda olinadigan soliqni hisoblab chiqarish va

to‘lash tartibi to‘g‘risida Nizomga muvofiq qat’iy belgilangan soliq to‘lovchisi yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Soliq tartibi quyidagi sohalarda tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bilan shug‘ullanayotgan jismoniy shaxslarga **tatbiq etilmaydi**:

- bilyardxonalar;
- bolalarning o‘yin avtomatlari;
- o‘yin avtomatlari, shu jumladan tavakkalchilikka asoslangan, pul (buyum) yutuqli o‘yin avtomatlari zallarini tashkil etishga doir faoliyat.

Yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan qatiy belgilangan soliq summasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlanadi. Yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar uchun qat’iy belgilangan soliq stavkalarining aniq miqdorlarini Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimiyatlari tadbirkorlik faoliyatining turi va faoliyat joyiga (viloyatlardagi shaharlar, tumanlar, shu jumladan qishloq joylarga) bog‘liq ravishda belgilaydi.

Bunda faoliyatning turli xillari uchun tabaqalashtirilgan yondashuvni ta‘minlash maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimiyatlari tomonidan mahalliy sharoitlar va boshqa mezonlarni hisobga olgan holda qat’iy belgilangan miqdorlarda daromad solig‘i stavkalari belgilanishi mumkin.

Tadbirkorlik faoliyatini davlat ro‘yxatidan o‘tmagan joyida amalga oshirayotgan jismoniy shaxslar soliq stavkalari orasidagi musbat farqni hisobga olgan holda to‘laydilar. Bunda musbat farq jismoniy shaxsning ro‘yxatdan o‘tgan joyida undiriladi.

Yakka tartibdagi tadbirkor o‘zi mustaqil ravishda faoliyat yuritib, u o‘ziga ishchini yollash huquqiga ega emas, chunki «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonuning 6-moddasiga muvofiq «Yakka tartibdagi tadbirkorlik yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan xodimlarni yollash huquqisiz, mulk huquqi asosida o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulk negizida, shuningdek mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo‘l qo‘yadigan o‘zga ashyoviy huquq negizida mustaqil ravishda amalga oshiriladi».

#### **4.2.2. Soliq to‘lovchilar**

Qat’iy belgilangan soliqni to‘lovchilar quyidagilardir:

- faoliyatning ayrim turlarini tavsiflovchi fizik ko‘rsatkichlardan kelib chiqqan holda soliq solinadigan ayrim faoliyat turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar;
- yakka tartibdagi tadbirkorlar;
- yuridik shaxs tashkil etmagan xolda oilaviy tadbirkorlik shaklida faoliyatni amalga oshirishda oilaviy tadbirkorlik subyekti nomidan ish ko‘radigan yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tgan oila a’zosigina qat’iy belgilangan soliq to‘lovchi bo‘ladi.

#### **4.2.3. Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qat’iy belgilangan soliqni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari**

Qat’iy belgilangan soliq solinadigan faoliyat turlarining ro‘yxati, shuningdek faoliyatning mazkur turlarini tavsiflovchi fizik ko‘rsatkichlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Faoliyatning ayrim turlarini tavsiflovchi fizik ko‘rsatkichlardan kelib chiqqan holda soliq solinadigan ayrim faoliyat turlarini amalga oshiruvchi soliq to‘lovchilar faoliyatning qat’iy belgilangan soliq to‘lash tatbiq etiladigan qismiga doir soliq solishning boshqa tartibini tanlash huquqiga ega emas.

Qat’iy belgilangan soliq to‘lash tatbiq etiladigan faoliyat bilan bir qatorda faoliyatning boshqa turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar faoliyatning mazkur turlari bo‘yicha alohida-alohida hisob yuritishlari va umumbelgilangan yoki ushbu bo‘limda belgilangan soliqlarni to‘lashlari shart.

Mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlarga umumbelgilangan soliqlar yoki yagona soliq to‘lovi joriy etiladi.

Soliq kodeksining 373-moddasiga ko‘ra yakka tartibdagi tadbirkorlar yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish doirasida qat’iy belgilangan soliq to‘lash bilan bir qatorda quydagilarni to‘laydilar:

- 1) bojxona to‘lovlar;
- 2) yer qa’ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to‘lovlar;
- 3) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq – suv resurslaridan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanilganda;
- 4) aksiz solig‘i – aksiz to‘lanadigan mahsulot ishlab chiqarilganda;
- 5) budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badalari;
- 6) davlat boji;
- 7) avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘im.

Agar yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq solinadigan mol-mulkka va (yoki) yer uchastkasiga ega bo‘lsalar, Soliq kodeksining 48, 50-boblarida nazarda tutilgan tartibda jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni va (yoki) jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lash majburiyati ularning zimmasida saqlanib qoladi.

Agar yakka tartibdagi tadbirkor o‘z faoliyatini muayyan muddatga to‘xtatsa, u o‘z faoliyatini to‘xtatguniga qadar tadbirkorlik subyektini ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organga faoliyatni vaqtinchalik

to‘xtatish to‘g‘risida ariza berish bilan bir vaqtida davlat ro‘yxatidan o‘tganlik to‘g‘risidagi guvohnomani topshiradi.

Yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtincha to‘xtatilganligi yoki qayta tiklanganligi to‘g‘risidagi arizani olgan tadbirkorlik subyektini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organ kelgusi ish kuni tugaguniga qadar soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtincha to‘xtatilganligi yoki qayta tiklanganligi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shaklda axborot taqdim etadi.

Tadbirkorlik subyektini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organning yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtinchalik to‘xtatilganligi to‘g‘risida taqdim qilingan va davlat soliq xizmati organlari tomonidan olingan axborot yakka tartibdagi tadbirkor o‘z faoliyatini amalga oshirmaydigan davr uchun qat’iy belgilangan soliqni hisoblashni to‘xtatib turish uchun asos bo‘ladi.

#### **4.2.4. Savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qat’iy belgilangan soliqni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari**

Savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlarida daromadlarning hamda amalga oshirilgan tovar operatsiyalarining hisobini yuritishlari shart.

Daromadlarini va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlari quyidagilardir:

- chakana savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorning daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish daftari.

Tovar cheklari daftari.

Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlarining shakli O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlari yakka tartibdagi tadbirkorni soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorning arizasi asosida ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlari oxirgi yozuv kiritilgan paytdan e’tiboran besh yil mobaynida yakka tartibdagi tadbirkorda saqlanadi va ular raqamlangan, ip o‘tkazib bog‘langan hamda tegishli davlat soliq xizmati organining muhri bilan tasdiqlangan bo‘lishi kerak.

Yakka tartibdagi tadbirkor faoliyati to‘g‘risidagi hisobotlar soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga:

- savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan, bundan tijorat faoliyati uchun mo‘ljallangan tovarlar olib kiradigan yakka tartibdagi tadbirkorlar mustasno,
- yilning har bir choragi yakunlari bo‘yicha hisobot choragidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay;
- tijorat faoliyati uchun mo‘ljallangan tovarlarni olib kiradigan yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan – har oyning yakunlari bo‘yicha hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

#### **4.2.5. Soliq stavkasi**

Tadbirkorlik faoliyati bilan endi shug‘ullana boshlagan jismoniy shaxslar qat’iy belgilangan stavkalar bo‘yicha daromad solig‘ini belgilangan tartibda, ro‘yxatga olish paytida mustaqil to‘laydilar. Qat’iy belgilangan soliq faoliyat boshlangan kundan qat‘i-nazar bir oy uchun to‘lanadi. Misol uchun, oyning boshi da emas, balki ikkinchi yarmida boshlasa ham to‘liq oy uchun

to‘lanadi. Yuridik shaxs maqomini olmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar to‘laydigan qat’iy belgilangan soliq stavkalari 2014-yil 1-yanvardan quyidagicha belgilangan (11-jadval).

### *11-jadval*

**Yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanadigan jismoniy shaxslar (yakka tartibdagi tadbirkorlar)dan olinadigan qat’iy belgilangan soliq stavkalari<sup>1</sup>**

| №  | Faoliyat turi                                           | Qat’iy belgilangan soliqning bir oydagи stavkasi (eng kam ish haqiga karrali miqdorlarda) |                                               |                        |
|----|---------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------|------------------------|
|    |                                                         | Toshkent shahri                                                                           | Nukus sh. va viloyat bo‘ysunuvidagi shaharlar | boshqa aholi punktlari |
| 1. | <b>Chakana savdo:</b>                                   |                                                                                           |                                               |                        |
|    | oziq-ovqat tovarlari bilan                              | 9,0                                                                                       | 6,0                                           | 3,0                    |
|    | dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan | 5,0                                                                                       | 4,0                                           | 2,0                    |
|    | nooziq-ovqat tovarlari bilan                            | 10,0                                                                                      | 6,5                                           | 3,0                    |

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 25-dekabrdagi PQ-2099-soni qarorining 11-ilovasi.

|   |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           |      |     |     |
|---|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|-----|-----|
|   | gazetalar, jurnallar va kitob mahsulotlari bilan                                                                                                                                                                                                                                                                                                          | 5,0  | 3,0 | 2,0 |
|   | oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari bilan (turg'un shoxobchalardagi aralash savdo)                                                                                                                                                                                                                                                                       | 10,0 | 6,5 | 3,0 |
| 2 | Maishiy xizmatlar, 3-bandda ko'rsatilganlaridan tashqari                                                                                                                                                                                                                                                                                                  | 3,5  | 1,5 | 0,5 |
| 3 | Sartaroshlik xizmatlari, manikyur, pedikyur, kosmetolog xizmatlari va boshqa shunga o'xshash xizmatlar                                                                                                                                                                                                                                                    | 4,0  | 2,0 | 1,0 |
| 4 | O'z mahsulotini ishlab chiqarish va sotish, shu jumladan milliy shirinliklar va non-bulka mahsulotlari tayyorlash va sotish, shuningdek uy sharoitlarida yoki joylardagi davlat hokimiyati organlarining qarori bilan maxsus ajratilgan joylarda o'tirish joylari tashkil qilmasdan donalab sotiladigan ovqatlarning ayrim turlarini tayyorlash va sotish | 2,0  | 1,5 | 1,0 |
| 5 | Boshqa faoliyat turlari                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   | 2,0  | 1,5 | 1,0 |
| 6 | Avtomobil transportida yuk tashishga oid xizmatlar:                                                                                                                                                                                                                                                                                                       |      |     |     |
|   | 3 tonnagacha yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun                                                                                                                                                                                                                                                                                          |      | 2,0 |     |
|   | 8 tonnagacha yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun                                                                                                                                                                                                                                                                                          |      | 3,0 |     |
|   | 8 tonnadan ortiq yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun                                                                                                                                                                                                                                                                                      |      | 4,0 |     |

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 25-dekabrda-  
gi PQ-2099-sonli qaroriga asosan ushbu soliq stavkalari bo‘yicha  
quyidagilar belgilangan:

1. Uy xo‘jaligida, shu jumladan, dehqon xo‘jaligida parvarish-  
langan tirik hayvonlarni (chorva mollari, parrandalar, mo‘ynali va  
boshqa hayvonlar, baliqlar va boshqalar) hamda ularni so‘yib, xom  
yoki qayta ishlangan ko‘rinishdagi mahsulotlarni, sanoatda qayta  
ishlashdan tashqari, chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik  
mahsulotlarini tabiiy va qayta ishlangan ko‘rinishda (manzarali  
bog‘dorchilik (gulchilik) mahsulotlaridan tashqari) sotish dehqon  
bozorlarida qishloq xo‘jaliq mahsulotlari bilan chakana savdo  
faoliyat turi bo‘yicha belgilangan soliq to‘lovlarini to‘lashdan  
mustasno. Ushbu soliq solishdan ozod etish soliq to‘lovchi to-  
monidan davlat hokimiyatining joylardagi tegishli organi,  
fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi, bog‘dorchilik, uzum-  
chilik yoki polizchilik shirkati boshqaruvi tomonidan berilgan,  
sotilgan mahsulot soliq to‘lovchi tomonidan unga yoxud uning  
oila a’zolariga ajratilgan yer uchastkasida yetishtirilganligini tas-  
diqlovchi belgilangan shakldagi hujjatni taqdim etishi sharti bilan  
amalga oshiriladi.

2. Qat’iy beglilangan soliq stavkalari yil boshiga – 2014-yil  
1-yanvariga belgilangan eng kam ish haqidagi (96 105 so‘m) kelib  
chiqib aniqlanadi va eng kam ish haqi miqdori yil davomida  
o‘zgarganda qayta ko‘rib chiqilmaydi.

3. Jismoniy shaxs bir nechta faoliyat turi bilan shug‘ullansa,  
har bir faoliyat turi uchun alohida-alohida soliq to‘laydi.

4. Jismoniy shaxs tadbirkorlik faoliyatini ijaraga olingan usku-  
nalar va binoda amalga oshirsa, yashash joyidagi davlat soliq  
xizmati organiga ijaraga beruvchi to‘g‘risida ma’lumotnoma (ax-  
borot) taqdim etishi kerak.

5. Jismoniy shaxs davlat ro‘yxatidan o‘tkazilmagan joy-  
da tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirsa, soliqni ro‘yxatdan  
o‘tkazilgan joyda va faoliyatni haqiqatda amalga oshirayotgan

joyda belgilangan stavkalar orasida eng yuqori stavka bo'yicha to'laydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 25-dekabrda-  
gi PQ-2099-sonli qaroriga asosan yuridik va jismoniy shaxslardan  
tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha olinadigan qat'iy  
belgilangan soliq stavkalari quyidagicha o'matilgan.

### **12-jadval**

#### **Yuridik va jismoniy shaxslardan tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha olinadigan qat'iy belgilangan soliq stavkalari**

| № | <b>Faoliyat turi</b>                         | <b>to'lovchilar</b>          | <b>Mazkur faoliyat turini xarakterlochi fizik ko'rsatkichlar</b> | <b>Fizik ko'rsatkich birligiga har oyda qat'iy belgilangan soliq stavkasi (eng kam ish haqiga birlik uchun karrali miqdorlarda)</b> |                                                       |                               |
|---|----------------------------------------------|------------------------------|------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------|-------------------------------|
|   |                                              |                              |                                                                  | <b>Toshkent sh.</b>                                                                                                                 | <b>Nukus sh. va viloyat bo'y sunuvidagi shaharlar</b> | <b>boshqa aholi puhktlari</b> |
| 1 | Avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash | yuridik shaxslar             | Egallagan maydon (1 kv.metr)                                     | 0,1                                                                                                                                 | 0,06                                                  | 0,04                          |
| 2 | Bolalar o'yin avtomatlari                    | yuridik va jismoniy shaxslar | Jihozlangan o'rinalar soni (birlikda)                            | 3,0                                                                                                                                 | 2,0                                                   | 1,0                           |

Taqdim etilgan qat’iy belgilangan soliq hisob-kitobida hisobga olinmagan fizik ko‘rsatkichlar aniqlangan holatda bu hol soliqqa tortish obyektini yashirish sifatida qaraladi.

#### **4.2.6. Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qat’iy belgilangan soliqni hisoblab chiqarish hamda to‘lash tartibi**

Qat’iy belgilangan soliq belgilangan faoliyat turini tavsiflovchi fizik ko‘rsatkich soliq solinadigan obyektdir.

**Soliq solinadigan baza fizik ko‘rsatkichlarning sonidan kelib chiqqan holda belgilanadi.**

Soliq solish obyekti va ish haqining eng kam miqdori o‘zgargan taqdirda, soliq to‘lovchilar aniqlik kiritilgan hisob-kitobni navbatdagi to‘lovni to‘lash muddatidan kechiktirmay taqdim etishlari shart.

**Soliq kodeksining 375-moddasiga ko‘ra qat’iy belgilangan soliqni yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi quyidagichadir:**

Soliq to‘lovchining kalendar oyida ishlagan kunlari sonidan qat’i nazar, qat’iy belgilangan soliq tadbirkorlik faoliyatining turi va soliq to‘lovchining faoliyatni amalga oshirish joyiga qarab belgilangan stavkalar bo‘yicha to‘lanadi.

Faoliyatning bir necha turi bilan shug‘ullanuvchi soliq to‘lovchilar qat’iy belgilangan soliqni faoliyatning har bir turi uchun mazkur turdagи faoliyatga nisbatan belgilangan stavkalar bo‘yicha alohida-alohida to‘laydilar.

Qat’iy belgilangan soliqni hisoblab chiqarish soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Qat’iy belgilangan soliq tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning 25-kunidan kechiktirmay har oyda, soliq to‘lovchi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan joy uchun belgilangan stavkalar bo‘yicha to‘lanadi. Agar faoliyat amalga oshirilgan joy uchun qat’iy belgi-

langan soliq stavkalari davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joy uchun belgilangan stavkalardan farq qilsa, qat'iy belgilangan soliq eng yuqori stavka bo'yicha to'lanadi.

## ***NAZORAT SAVOLLARI***

1. Yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan jismoniy shaxslar tarkibiga kimlar kiradi?
2. Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qat'iy belgilangan soliqni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qat'iy belgilangan soliqni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qat'iy belgilangan soliq stavkasini tushuntirib bering.
5. Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qat'iy belgilangan soliqni hisoblab chiqarish hamda to'lash tartibini tushuntirib bering.
6. Qat'iy belgilangan soliqni yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan hisoblab chiqarish va to'lash tartibini tushuntirib bering.

## ***Mustaqil o'zlashtirish uchun chizmali materiallar***

### ***Qat'iy belgilangan soliqni to'lovchilar***

1. Faoliyatning ayrim turlarini tavsiylovchi fizik ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda soliq solinadigan ayrim faoliyat turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar.
2. Yakka tartibdagi tadbirkorlar.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish doirasida qat’iy belgilangan soliq to‘lash bilan bir qatorda quyidagilarni to‘laydilar:



- 1) bojxona to‘lovleri;
- 2) yer qa‘ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to‘lovlar;
- 3) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq – suv resurslaridan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanilganda;
- 4) aksiz solig‘i – aksiz to‘lanadigan mahsulot ishlab chiqarilganda;
- 5) budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari;
- 6) davlat boji;
- 7) avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kiranlik uchun Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘im

### **Qat’iy belgilangan soliqni to‘lash**

Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan – Soliq Qat’iy belgilangan soliq tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning 25-kuniga qadar har oyda, soliq to‘lovchi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan joy uchun belgilangan stavkalar bo‘yicha to‘lanadi. Agar faoliyat amalga oshirilgan joy uchun qat’iy belgilangan soliq stavkalari davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan joy uchun belgilangan stavkalardan farq qilsa, qat’iy belgilangan soliq eng yuqori stavka bo‘yicha to‘lanadi.

## **4.3. JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULKIGA SOLINADIGAN SOLIQ<sup>1</sup>**

### **4.3.1. Soliq to‘lovchilar**

Mulkida soliq solinadigan mol-mulki bo‘lgan jismoniy shaxslar, shu jumladan chet el fuqarolari, agar O‘zbekiston Respublikasi ning xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklari jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to‘lovchilaridir.

Agar ko‘chmas mulk mulkdorining joylashgan yerini aniqlash imkonи bo‘lmassa, bu mol-mulk qaysi shaxsning egaligida va (yoki) foydalanishida bo‘lsa, o‘sha shaxs soliq to‘lovchidir.

### **4.3.2. Soliq solish obyekti va soliq solinadigan baza**

O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan uy-joylar, kvartiralar, dala hovli imoratlari, garajlar va boshqa imoratlar, joylar, inshootlar soliq solish obyektidir.

Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ tomonidan belgilanadigan soliq solish obyektlarining inventarizatsiya qiymati to‘lovchilar uchun soliq solinadigan bazadir.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkini baholash bo‘yicha vakolatli organ tomonidan aniqlangan soliq solish obyektining bahosi mavjud bo‘lmasa taqdirda, mol-mulkning qonun hujjatlari bilan belgilanadigan shartli qiymati soliq solinadigan bazadir.

Bitta jismoniy shaxs bir nechta soliq solish obyekti bo‘yicha to‘lovchi bo‘lgan taqdirda, soliq solinadigan baza har bir obyekt bo‘yicha alohida-alohida hisoblab chiqiladi.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Rasmiy nashr – O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi. – T.: «Adolat», 2014. 48-bob, 299–303-betlar.

### **4.3.3. Imtiyozlar**

Soliq kodeksining 275-moddasiga asosan quyidagilarning mol-mulkka ega bo‘lgan jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha soliq solinmaydi:

1) «O‘zbekiston Qahramoni», Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo‘lgan shaxslar, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan shaxslar. Mazkur imtiyoz tegishinchcha «O‘zbekiston Qaxramoni» unvoni berilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limning ma’lumotnomasi asosida beriladi;

2) urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanuvchi ularga tenglashtirilgan shaxslar. Mazkur imtiyoz urush nogironining (qatnashchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limning yoxud boshqa vakolatli organning ma’lumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga (qatnashchilarga) nogironning (qatnashchining) imtiyozlarga bo‘lgan huquqi to‘g‘risidagi guvohnoma asosida beriladi;

3) 10 nafar va undan ortiq bolalari bor ayollarning mol-mulkiga. Mazkur imtiyozni berish uchun fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organining bolalari borligini tasdiqlovchi ma’lumotnomasi asos bo‘ladi;

5) pensionerlarning mol-mulkiga. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi asosida beriladi;

6) I va II guruh nogironlarining mol-mulkiga. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma’lumotnomasi asosida beriladi;

7) sobiq SSSRni, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish

chog‘ida yaralanganligi, kontuziya bo‘lganligi yoki shikastlanganligi oqibatida yoxud frontda bo‘lish bilan bog‘liq kasallik tufayli halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarining hamda ichki ishlar organlari xodimlarining ota-onalari va beva xotinlari (beva erlari). Imtiyoz «Halok bo‘lgan askarning beva xotini (beva eri, onasi, otasi)» yoki «Ichki ishlar organlari halok bo‘lgan xodimining beva xotini (beva eri, onasi, otasi)» shtampi qo‘yilgan yoxud pensiya guvohnomasini bergan muassasa rahbarining imzosi va ushbu muassasa muhri bilan tasdiqlangan tegishli yozuvli pensiya guvohnomasi asosida beriladi. Agar mazkur shaxslar pensioner bo‘lmasa, imtiyoz ularga sobiq SSSR Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik qo‘mitasi yoki Ichki ishlar vazirligining, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati yoxud Ichki ishlar vazirligining tegishli organlari tomonidan berilgan harbiy xizmatchining yoki ichki ishlar organi xodimining halok bo‘lganligi to‘g‘risidagi ma’lumotnomasi asosida beriladi. Sobiq SSSRni, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog‘ida yoki frontda bo‘lish bilan bog‘liq kasallik tufayli halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarining yoxud ichki ishlar organlari xodimlarining beva xotinlariiga (beva erlariga) imtiyoz faqat ular yangi nikohdan o‘tmagan taqdirda beriladi;

Ushbu modda birinchi qismining 3, 5 va 6-bandlarida ko‘rsatilgan imtiyozlar qonun hujjatlarida belgilangan soliq solinmaydigan maydon o‘lchami doirasida beriladi. Ushbu moddada belgilangan imtiyozlar mulkdorning tanlashiga binoan faqat bir mulk obyektiga taalluqli bo‘ladi.

Ushbu moddada nazarda tutilgan imtiyozlar jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalilaniladigan yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berilgan soliq solish obyektlariga nisbatan qo‘llanilmaydi.

#### **4.3.4. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi**

Soliq kodeksining 276-moddasida mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari haqida quyidagilar e'tirof etilgan: Soliq solish obyektlari jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanilgan yoxud ular yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijara-ga berilgan taqdirda, shuningdek jismoniy shaxslarning mulkida bo'lган yashash uchun mo'ljallanmagan joylar bo'yicha jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq yuridik shaxslar uchun belgilangan stavka bo'yicha to'lanadi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori tomonidan belgilangan stavkalarda soliqqa tortiladi. Soliq stavkalar har yili O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining moliya yilining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budgeti parametrlari to'g'risida»gi Qarori bilan indeksatsiyalanib turadi.

«O'zbekiston Respublikasining 2014-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budgeti parametrlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 25-dekabrdagi PQ-2099-son Qarori bilan 2014-yil uchun jismoniy shaxslarning mol-mulkiga soliq stavkalarini quyidagicha belgilangan:

**13-jadval**

| <b>Nº</b> | <b>Soliq solinadigan obyektlarning nomi</b>                                                                                                                                                     | <b>Soliq stavkasi,<br/>mol-mulkning<br/>inventarizatsiya<br/>qiymatiga<br/>nisbatan % da</b> |
|-----------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1.        | Turar joylar, kvartiralar (shaharlarda joylashgan, umumiyl maydoni 200 kv.m.dan oshiq bo'lganlari bundan mustasno), dala hovli qirulmalari, garajlar va boshqa imoratlar, xonalar va inshootlar | 1,2                                                                                          |

|    |                                                                                           |     |
|----|-------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 2. | Shaharlarda joylashgan umumiylar maydoni quyidagicha bo‘lgan turar joylar va kvartiralar: |     |
|    | 200 kv.m.dan oshiq va 500 kv.m.gacha bo‘lgan                                              | 1,4 |
|    | 500 kv.m.dan oshiq bo‘lgan                                                                | 1,8 |

Ushbu qarorda jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha hisob-kitoblar amalga oshirilganda quyidagilar ham inobatga olinishi belgilangan:

1. Jismoniy shaxslar mol-mulkini baholash bo‘yicha organlar belgilagan inventarizatsiya qiymati bo‘lmasa, soliq undirish uchun Toshkent shahri va viloyat markazlarida 18 480.0 ming so‘m, boshqa shaharlar va qishloq joylarda 8 030.0 ming so‘m miqdorida mol-mulkning shartli qiymati qabul qilinadi.

2. Agarda yangi qurilgan turar joylar bo‘yicha mol-mulkka bo‘lgan huquqni vakolatli organda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilmagan bo‘lsa, bunday mol-mulk bo‘yicha jismoniy shaxs dan mulkning shartli qiymatining ikki baravari miqdoridan kelib chiqqan holda soliq undiriladi.

3. Soliq solinadigan mol-mulkka egalik qiladigan pensionerlar uchun mol-mulkning 60 kv.m hajmidagi maydoniga mol-mulk solig‘i hosoblanmaydi.

4. Jismoniy shaxslar tomonidan soliq solinadigan obyektlardan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanilganda yoxud ularni yuridik shaxslarga yoki yakka tartibdagi tadbirkorlarga ijaraga berilganda shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan turar joy fondi obyektlar noturar joy fond toifasiga o‘tkazilganda yoki ular tomonidan noturar joy fondi obyektlari (binolar, binodagi xonalar) mulk si fatida xarid qilinganda jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq yuridik shaxslar uchun belgilangan stavka bo‘yicha to‘lanadi.

#### **4.3.5. Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi**

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish soliq to‘lovchining yashash joyidan qat‘i nazar, soliq solish obyekti joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organning ma’lumotlari asosida amalga oshiriladi. Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ soliq solish obyekti joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga har yili 1-fevralgacha obyektning 1-yanvarga bo‘lgan holatiga ko‘ra inventarizatsiya qiymatini va uning mulkdorini ko‘rsatgan holda ma’lumot taqdim etadi.

Soliq kodeksining 275-moddasida ko‘rsatilgan imtiyozlarni olish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar imtiyozlarni olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni mustaqil ravishda taqdim etadilar.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi mol-mulkning 1-yanvarga bo‘lgan holatiga ko‘ra inventarizatsiya qiymatidan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Bir nechta mulkdorning umumiyligi ulushli mulkida bo‘lgan imoratlar, binolar va inshootlar uchun jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq mulkdorlarning har biri tomonidan ularning imoratlar, binolar va inshootlardagi ulushiga mutanosib ravishda to‘lanadi.

Mol-mulkka bo‘lgan mulk huquqi kalendar yil mobaynida bir mulkdordan boshqasiga o‘tgan taqdirda, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq avvalgi mulkdor tomonidan shu yilning 1-yanvaridan e’tiboran u mol-mulkka bo‘lgan mulk huquqini yo‘qotgan oyning boshlanishiga qadar, yangi mulkdor tomonidan esa unda mulk huquqi vujudga kelgan oydan e’tiboran to‘lanadi.

Yangi imoratlar, binolar va inshootlar bo‘yicha jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq ular barpo etilgan yildan keyingi yil boshidan e’tiboran to‘lanadi.

Meros bo‘yicha o‘tgan mol-mulk uchun jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq merosxo‘rlarda mulk huquqi vujudga kelgan oydan e’tiboran to‘lanadi.

Soliq solish obyekti yo‘q qilingan, vayron bo‘lgan, buzib tashlangan taqdirda, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni undirish mol-mulk yo‘q qilingan, vayron bo‘lgan yoki buzib tashlangan oydan e’tiboran to‘xtatiladi.

Soliq summasini qayta hisob-kitob qilish mahalliy davlat hokimiyati organi yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi tomonidan berilgan yo‘q qilinganlik, vayron bo‘lganlik, buzib tashlanganlik faktini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo‘lgan taqdirda, amalga oshiriladi.

Kalendar yil mobaynida imtiyoz huquqi vujudga kelgan (amal qilishi tugagan) taqdirda, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni qayta hisob-kitob qilish ushbu huquq vujudga kelgan (amal qilishi tugagan) oydan e’tiboran amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to‘lash to‘g‘risidagi to‘lov xabarnomasi soliq to‘lovchilarga davlat soliq xizmati organi tomonidan har yili 1 maydan kechiktirmay topshiriladi.

2012-yildan boshlab jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisobot yilining 15-oktabriga qadar to‘lovnin amalga oshirishlari belgilangan.

## **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig‘ining to‘lovchilari kimlar?
2. Jismoniy shaxslarning qanday mol-mulklari soliq solish obyekti va bazasi hisoblanadi?

3. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i stavkalari kimning qarori bilan belgilanadi?
4. Jismoniy shaxslar mol-mulk solig‘idan kimlar imtiyozga ega?
5. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi qanday?
6. Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i summasi qaysi davlat organi tomonidan hisoblab chiqariladi?

## Mustaqil o‘zlashtirish uchun chizmali materiallar

*Mulkida soliq solinadigan mol-mulki bo‘lgan jismoniy shaxslar, shu jumladan chet el fuqarolari, agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklari jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to‘lovchilaridir.*

### SOLIQ SOLISH OBYEKTI

O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan uy joylar, kvartiralar, dala hovli imoratlari, garajlar va boshqa imoratlar, joylar, inshootlar soliq solish obyektiidir

### SOLIQ SOLINADIGAN BAZA

Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ tomonidan belgilanadigan soliq solish obyektlarining inventarizatsiya qiymati to‘lovchilar uchun soliq solinadigan bazadir

Jismoniy shaxslarning mol-mulkini baholash bo‘yicha vakolatli organ tomonidan aniqlangan soliq solish obyektining bahosi mavjud bo‘lmagan taqdirda, molmulkning qonun hujjatlari bilan belgilanadigan shartli qiymati soliq solinadigan bazadir

**Bitta jismoniy shaxs bir nechta soliq solish obyekti bo'yicha to'lovchi bo'lgan taqdirda, soliq solinadigan baza har bir obyekt bo'yicha alohida-alohida hisoblab chiqiladi**

**2012-yildan boshlab jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisobot yilining 15-oktabriga qadar to'lovni amalga oshirishlari belgilangan**

#### **4.4. JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN YER SOLIG'I<sup>1</sup>**

##### **4.4.1. Jismoniy shaxslarning yer solig'i to'lovchilari**

Mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari yer solig'ini to'lovchilardir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyyati organlari tomonidan ijaraga berilgan yer uchastkalari uchun to'lanadigan ijara haqi yer solig'iga tenglashtiriladi. Yer uchastkalari ijaraga olgan jismoniy shaxslarga yer solig'ini to'lovchilar uchun belgilangan imtiyozlar, soliqni hisoblab chiqarish va soliqni to'lash tartibi tatbiq etiladi.

Uy-joy, yashash uchun mo'ljallanmagan imorat va inshootlar meros bo'yicha o'tishi bilan birgalikda mulk huquqi, egalik qilish va foydalanish huquqi o'tgan yer uchastkalari uchun yer solig'i meros qoldiruvchining soliq majburiyatlari hisobga olingan holda merosxo'rlardan undiriladi.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi. – T.: «Adolat», 2014. 50-bob, 312–317-betlar.

#### **4.4.2. Jismoniy shaxslarning yer solig'i obyekti va bazasi**

Soliq kodeksining 289-moddasiga ko'ra quyidagi yer uchastkalari jismoniy shaxslarning yer solig'i obyektiidir:

- 1) dehqon xo'jaligi yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;
- 2) yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun meros qilib qoldiriladigan, umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;
- 3) jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun berilgan, shuningdek yakka tartibdagi garajlar egallagan yer uchastkalari;
- 4) xizmat yuzasidan berilgan chek yerlar;
- 5) meros bo'yicha, hadya qilinishi yoki olinishi natijasida uy-joy va imoratlar bilan birgalikda mulk huquqi, egalik qilish va foydalanish huquqi ham o'tgan yer uchastkalari;
- 6) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulk qilib olingan yer uchastkalari;
- 7) tadbirkorlik faoliyati yuritish uchun foydalanishga yoki ijara ga berilgan yer uchastkalari.

Ko'p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari soliq solish obyekti bo'lmaydi, Soliq kodeksining 289-moddasidagi birinchi qismining 7-bandida ko'rsatilganlari bundan mustasno.

Soliq kodeksining 289-moddasiga ko'ra jismoniy shaxslarning yer solig'iga solinadigan baza – ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning yer uchastkalarining maydoniga doir ma'lumotlaridir.

Jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun fuqarolarga berilgan, shuningdek yakka tartibdagi garajlar egallagan yer uchastkalarining maydonlari bo'yicha solinadigan baza yer uchastkalarini bergen tashkilotlar boshqaruv organlarining ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi.

Xizmat yuzasidan berilgan chek yerlarning maydonlari bo'yicha soliq solinadigan baza o'z xodimlariga yer uchastkalari bergen korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi.

#### **4.4.3. Jismoniy shaxslarning yer solig'i bo'yicha imtiyozlari**

##### **Yer solig'idan quyidagilar ozod qilinadilar:**

1) «O'zbekiston Qahramoni», Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolar. Mazkur imtiyoz «O'zbekiston Qahramoni» unvoni berilganligi to'g'risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni va Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo'limining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

2) urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasи qonun hujjatlari bilan belgilanuvchi ularga tenglashtirilgan shaxslar. Mazkur imtiyoz urush nogironining (qatnashchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo'yicha bo'limning yoxud boshqa vakolatli organning ma'lumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga (qatnashchilarga) nogironning (qatnashching) imtiyozlarga bo'lgan huquqi to'g'risidagi guvohnoma asosida beriladi;

3) I va II guruh nogironlari. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

4) yolg'iz pensionerlar. Yolg'iz yoki voyaga yetmagan bolalari bilan yoxud nogiron bolasi bilan alohida uyda birga yashovchi pensionerlar yolg'iz pensionerlar deb tushuniladi. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limining ma'lumotnomasi, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

5) boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalar. Ota-onasidan biri yoki ota-onasi vafot etgan hamda oilada o'n olti yoshga to'limgan beshta va undan ortiq bolalari bo'lgan oilalar soliq solish maqsadi-da boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalardir. Mazkur imtiyoz tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

6) Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda ishtirok etganlik uchun imtiyozlar oladigan fuqarolar (shu jumladan vaqtin-chi yuborilgan yoki xizmat safariga yuborilgan fuqarolar. Mazkur imtiyoz tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi, nogironning maxsus guvohnomasi, Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatish ishtirokchisining guvohnomasi, shuningdek vakolatli organlar tomonidan berilgan va imtiyozlar berish uchun asos bo'ladigan boshqa hujjatlar asosida beriladi;

7) ko'chirib keltirilgan fuqarolar kelib joylashgan yer uchastkalari bo'yicha – yer uchastkalari berilgan paytdan e'tiboran besh yilgacha;

8) shaxslar – ularga yakka tartibdagi uy-joy qurilishi va dehqon xo'jaligi yuritish uchun qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida berilgan yer uchastkalari bo'yicha – yer uchastkasi berilgan oydan keyingi oydan e'tiboran ikki yil muddatga.

Soliq kodeksining 290-moddasidagi birinchi qismida belgilangan imtiyozlar, bundan 6-bandda ko'rsatilgani mustasno, yakka tartibdagi uy-joy qurilishi, dehqon xo'jaligi yuritish uchun berilgan yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organda ro'yxatdan o'tgan jismoniy shaxslarga beriladi. Bunda mazkur imtiyozlar soliq to'lovchining tanlashi bo'yicha faqat bitta yer uchastkasiga berilishi mumkin.

Soliq kodeksining 282-moddasi ikkinchi qismining soliq solin-maydigan yer uchastkalariga taalluqli qismida nazarda tutilgan imtiyozlar yer solig'i to'lovchilar bo'lgan jismoniy shaxslarga ham tatbiq etiladi.

#### **4.4.4. Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari**

Soliq kodeksining 291-moddasida soliq stavkasini qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida quyidagilar izohlangan:

Tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan yoxud uylar, dala hovli imoratlari, yakka tartibdagi garajlar va boshqa imoratlar, inshootlar, joylar yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkor-ga ijaraga berilganda yer uchastkalari uchun yer solig‘i jismoniy shaxslardan yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lash uchun belgilangan stavkalar bo‘yicha undiriladi hamda ularga ushbu kodeksning 290-moddasida nazarda tutilgan imtiyozlar tatabiq etilmaydi.

Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi va soliq to‘lovchilarga Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi va uning quyi organlari tomonidan belgilangan tartibda xabar qilinadi.

2014-yilda jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 25-dekabrdbagi «O‘zbekiston Respublikasining 2014-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat budgeti parametrlari to‘g‘risida»gi PQ-2099-sonli qaroriga asosan belgilangan (14-jadval).

Berilgan yerdan ikki yil davomida foydalanmagan jismoniy shaxslardan yer solig‘i uch baravar miqdorida undiriladi.

Jismoniy shaxslar foydalanadigan (shu jumladan, yer solig‘ini to‘lashdan ozod etilgan), davlat hokimiyati organlari tomonidan ajratilgan maydonlardan ortiqcha yer uchastkalari uchun yer solig‘i jismoniy shaxslar uchun 1,5 koeffitsiyentini qo‘llagan holda to‘lanadi. Davlat hokimiyati organlari tomonidan ajratilgan maydonlardan ortiqcha foydalaniladigan yerlar uchun yuqorida ko‘rsatilgan koeffitsiyentni qo‘llagan holda yer solig‘i to‘lanmagan

taqdirda soliq to‘lovchilarga nisbatan qonun hujjatlariga muvofiq moliyaviy jazo choralari qo‘llanadi.

#### **14-jadval**

**Fuqarolardan yakka tartibda shaharlar va qo‘rg‘onlardagi  
yer uchastkalaridan uy-joy qurish uchun berilgan yerlar bo‘yicha  
undiriladigan yer solig‘i stavkalari<sup>1</sup>**

| <b>Shahar,<br/>viloyat</b> | <b>1 kv m uchun undiriladigan yer solig‘i stavkalari,<br/>so‘mda</b> |               |               |               |
|----------------------------|----------------------------------------------------------------------|---------------|---------------|---------------|
|                            | <b>1-zona</b>                                                        | <b>2-zona</b> | <b>3-zona</b> | <b>4-zona</b> |
| Oqtosh                     | 69,7                                                                 | 60,6          | 51,4          |               |
| Olmaliq                    | 99,5                                                                 | 89,5          | 79,7          | 69,7          |
| Angren                     | 99,5                                                                 | 89,5          | 79,7          | 69,7          |
| Andijon                    | 117,4                                                                | 110,4         | 103,6         | 96,6          |
| Asaka                      | 69,7                                                                 | 60,6          | 51,4          |               |
| Ohangaron                  | 69,7                                                                 | 60,6          | 51,4          |               |
| Bekobod                    | 69,7                                                                 | 60,6          | 51,4          |               |
| Beruniy                    | 75,6                                                                 | 65,2          | 54,5          |               |
| Buxoro                     | 96,6                                                                 | 86,3          | 76,1          | 65,6          |
| G‘ijduvon                  | 66,5                                                                 | 57,0          | 47,5          |               |
| Guliston                   | 75,6                                                                 | 63,5          | 51,4          |               |
| Denov                      | 75,6                                                                 | 65,2          | 54,5          |               |

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 25-dekabrdagi PQ-2099-soni qarorining 19-ilovasi.

|               |       |       |       |      |
|---------------|-------|-------|-------|------|
| Jizzax        | 96,6  | 86,3  | 76,1  | 65,6 |
| Pitnak        | 66,5  | 57,0  | 47,5  |      |
| Zarafshon     | 66,5  | 57,0  | 47,5  |      |
| Kogon         | 66,5  | 57,0  | 47,5  |      |
| Qorasuv       | 69,7  | 60,6  | 51,4  |      |
| Qarshi        | 96,6  | 86,3  | 76,1  | 65,6 |
| Kosonsoy      | 69,7  | 60,6  | 51,4  |      |
| Kattaqo'rg'on | 69,7  | 60,6  | 51,4  |      |
| Qo'qon        | 96,6  | 86,3  | 76,1  | 65,6 |
| Quva          | 66,5  | 57,0  | 47,5  |      |
| Quvasoy       | 66,5  | 57,0  | 47,5  |      |
| Qo'ng'iroq    | 69,7  | 58,7  | 47,5  |      |
| Marg'ilon     | 66,5  | 57,0  | 47,5  |      |
| Navoiy        | 96,6  | 86,3  | 76,1  | 65,6 |
| Namangan      | 117,4 | 110,4 | 103,6 | 96,6 |
| Nukus         | 96,6  | 86,3  | 76,1  | 65,6 |
| Samarqand     | 117,4 | 110,4 | 103,6 | 96,6 |
| Sirdaryo      | 66,5  | 55,4  | 44,4  |      |

|             |      |      |      |      |
|-------------|------|------|------|------|
| Taxiatosh   | 78,4 | 67,4 | 56,6 |      |
| Termiz      | 87,5 | 75,1 | 62,8 |      |
| To'rtko'l   | 65,6 | 55,1 | 44,4 |      |
| Urganch     | 96,6 | 86,3 | 76,1 | 65,6 |
| Urgut       | 69,7 | 60,6 | 51,4 |      |
| Uchquduq    | 66,5 | 57,0 | 47,5 |      |
| Uchqo'rg'on | 69,7 | 60,6 | 51,4 |      |
| Farg'ona    | 96,6 | 86,3 | 76,1 | 65,6 |
| Haqqulobod  | 69,7 | 60,6 | 51,4 |      |
| Xonobod     | 69,7 | 60,6 | 51,4 |      |
| Xiva        | 66,5 | 57,0 | 47,5 |      |
| Xo'jayli    | 75,6 | 65,2 | 54,5 |      |
| Chortoq     | 69,7 | 60,6 | 51,4 |      |
| Chimboy     | 69,7 | 58,7 | 47,5 |      |
| Chirchiq    | 99,5 | 89,5 | 79,7 | 69,7 |
| Chust       | 69,7 | 60,6 | 51,4 |      |
| Shahrisabz  | 69,6 | 57,0 | 47,5 |      |
| Shahrixon   | 69,7 | 60,6 | 51,4 |      |
| Shirin      | 66,5 | 55,4 | 44,4 |      |

|           |      |      |      |  |
|-----------|------|------|------|--|
| Yangiobod | 69,7 | 60,6 | 51,4 |  |
| Yangiyer  | 66,5 | 55,4 | 44,4 |  |
| Yangiyo'1 | 69,7 | 60,6 | 51,4 |  |

**Boshqa kichik shaharlar****Qoraqalpog'iston Respublikasi:**

|               |      |      |      |  |
|---------------|------|------|------|--|
| shimoliy zona | 54,5 | 45,0 | 35,6 |  |
| markaziy zona | 62,8 | 52,8 | 43,0 |  |
| janubiy zona  | 63,6 | 54,0 | 44,4 |  |
| Andijon       | 69,7 | 60,6 | 51,4 |  |
| Buxoro        | 66,5 | 57,0 | 47,5 |  |
| Jizzax        | 66,5 | 57,0 | 47,5 |  |
| Qashqadaryo   | 69,6 | 57,0 | 47,5 |  |
| Navoiy        | 66,5 | 57,0 | 47,5 |  |
| Namangan      | 69,7 | 60,6 | 51,4 |  |
| Samarqand     | 69,7 | 60,6 | 51,4 |  |
| Surxondaryo   | 75,6 | 65,2 | 54,5 |  |
| Sirdaryo      | 66,5 | 55,4 | 44,4 |  |
| Toshkent      | 69,7 | 60,6 | 51,4 |  |

|          |      |      |      |  |
|----------|------|------|------|--|
| Farg'ona | 66,5 | 57,0 | 47,5 |  |
| Xorazm   | 54,5 | 45,0 | 35,6 |  |

**Tuman markazlari hisoblangan qo'rg'onlar va qishloq aholi punktlari**

Qoraqalpog'iston Respublikasi:

|               |      |      |  |  |
|---------------|------|------|--|--|
| shimoliy zona | 45,0 | 35,6 |  |  |
| markaziy zona | 52,8 | 43,0 |  |  |
| janubiy zona  | 54,0 | 44,4 |  |  |
| Andijon       | 60,6 | 51,4 |  |  |
| Buxoro        | 57,0 | 47,5 |  |  |
| Jizzax        | 57,0 | 47,5 |  |  |
| Qashqadaryo   | 57,0 | 47,5 |  |  |
| Navoiy        | 57,0 | 47,5 |  |  |
| Namangan      | 60,6 | 51,4 |  |  |
| Samarqand     | 60,6 | 51,4 |  |  |
| Surxondaryo   | 65,2 | 54,5 |  |  |
| Sirdaryo      | 55,4 | 44,4 |  |  |
| Toshkent      | 60,6 | 51,4 |  |  |
| Farg'ona      | 57,0 | 47,5 |  |  |
| Xorazm        | 57,0 | 47,5 |  |  |

Davlat hokimiyati organlari tomonidan ajratilgan yer uchastkalari maydoni yer berish to‘g‘risida davlat hokimiyati organlarining qarori, yerga egalik qilish yoki undan foydalanish huquqi uchun davlat dalolatnomasi, yerni ijaraga olish shartnomasi, yer uchastkasiga bo‘lgan huquqlarni ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi guvohnoma va yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni tasdiqlaydigan boshqa hujjatlarga ko‘ra belgilanadi.

Yer uchastkasiga nisbatan mulk, egalik qilish yoki undan foydalanish huquqini tasdiqlaydigan hujjatlar mavjud bo‘lmasa, soliq butun maydon uchun yuqorida ko‘rsatilgan oshirish koeffitsiyentlarini qo‘llagan holda to‘lanadi.

Jismoniy shaxslarga tadbirkorlik faoliyati uchun berilgan yer uchastkalaridan soliq yuridik shaxslar uchun tasdiqlangan stavkalar bo‘yicha undiriladi. Bunda, jismoniy shaxslar uchun yer solig‘ini hisoblab chiqarish do‘konlar, oshxonalar, ustaxonalar va tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan boshqa obyektlar uchun foydalaniladigan yer uchastkalari uchun amalga oshiriladi.

Jamoaviy va shaxsiy garajlar band etgan yer uchastkalari uchun jismoniy shaxslardan soliq yakka tartibdagi uy-joy quriladigan yerlar uchun tasdiqlangan stavkalar bo‘yicha undiriladi.

#### **4.4.5. Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig‘ini hisoblab chiqarish va soliq to‘lash tartibi**

Yer solig‘ini hisoblab chiqarish davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat soliq xizmati organlari yer solig‘ini to‘lovchilar bo‘lgan jismoniy shaxslarning hisobini muntazam yuritadi.

Soliq kodeksining 290-moddasida ko‘rsatilgan imtiyozlarni olish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar yer uchastkasi joylash-

gan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga ushbu imtiyozlarga bo‘lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarni mustaqil ravishda taqdim etadi.

Yil mobaynida yer uchastkasi maydoni o‘zgarganda va imtiyozlarga bo‘lgan huquqlar vujudga kelganida (bekor qilinganda) davlat soliq xizmati organlari mazkur o‘zgarishlardan keyin bir oy ichida yer solig‘ini qayta hisob-kitob qilishlari hamda soliq to‘lovchiga yer solig‘i summasi va uni to‘lash muddatlari ko‘rsatilgan yangi yoki qo‘sishimcha to‘lov xabarnomasini taqdim etishlari kerak.

Soliq kodeksining 294-moddasiga ko‘ra soliq to‘lash tartibi quyidagicha belgilangan:

Yer solig‘i yer uchastkasining mulkdori, yerga egalik qiluvchi, yerdan foydalanuvchi yoki ijarachining yashash joyidan qat’iy nazar, yer uchastkasi joylashgan hududdagi tuman yoki shaharning mahalliy budgetiga to‘lanadi.

Yil mobaynida ajratilgan yer uchastkalari uchun yer solig‘i jismoniy shaxslar tomonidan yer uchastkasi ajratilganidan keyingi oydan e’tiboran to‘lanadi.

Yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan taqdirda, yer solig‘ini to‘lash yer uchastkasi kamaytirilgan oydan e’tiboran to‘xtatiladi (kamaytiriladi).

Yer solig‘i bo‘yicha imtiyozlar belgilangan taqdirda, bu soliq imtiyoz huquqi vujudga kelgan oydan e’tiboran to‘lanmaydi. Yer solig‘i bo‘yicha imtiyozlarga bo‘lgan huquqlar bekor qilingan taqdirda, bu soliq mazkur huquq bekor qilinganidan keyingi oydan e’tiboran to‘lana boshlaydi.

Belgilangan tartibda berilgan yer uchastkalari uchun yer solig‘i yer uchastkasidan foydalanish vaqtidan qat‘i nazar, jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadi. Soliq davri uchun yer solig‘i to‘lash jismoniy shaxslar tomonidan hisobot yilining 15-oktabriga qadar amalga oshiriladi.


## **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig‘ining to‘lovchilari kimlar?
2. Jismoniy shaxslarning qanday yerlari soliq solish obyekti bo‘la oladi?
3. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i stavkalari qanday belgilanadi?
4. Jismoniy shaxslar berilgan yerdan foydalanmagan holatda qanday tartibda ulardan soliq undiriladi?
5. Jismoniy shaxslarga tadbirkorlik faoliyati uchun berilgan yer uchastkalaridan qanday tartibda soliq undiriladi?
6. Qanday toifadagi fuqarolar yer solig‘idan ozod etiladi?
7. Jismoniy shaxslarning yer solig‘i qaysi davlat organi tomonidan hisoblab chiqariladi?
8. Yer solig‘i bo‘yicha to‘lov xabarnomalari soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarga qaysi muddatgacha yetkaziladi va yer solig‘i qaysi muddatda mahalliy budjetga to‘lanadi?

### **Mustaqil o‘zlashtirish uchun chizmali materiallar**

Mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklari yer solig‘ini to‘lovchilardir.

#### **Jismoniy shaxslarning yer solig‘i obyekti**

- 
- 1) dehqon xo‘jaligi yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;
  - 2) yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun meros qilib qoldiriladigan, umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;

- 3) jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun berilgan, shuningdek yakka tartibdagi garajlar egallagan yer uchastkalari;
- 4) xizmat yuzasidan berilgan chek yerlar;
- 5) meros bo'yicha, hadya qilinishi yoki olinishi natijasida uy-joy va imoratlar bilan birgalikda mulk huquqi, egalik qilish va foydalanish huquqi ham o'tgan yer uchastkalari;
- 6) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulk qilib olingan yer uchastkalari;
- 7) tadbirkorlik faoliyati yuritish uchun foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkalari.

**Ko'p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari soliq solish obyekti bo'lmaydi.**

**Soliq solinadigan baza.** Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning yer uchastkalarining maydoniga doir ma'lumotlari soliq solinadigan bazadir.

Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'i stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi va soliq to'lovchilarga Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va uning quyi organlari tomonidan belgilangan tartibda xabar qilinadi.

Berilgan yerdan ikki yil davomida foydalanmagan jismoniy shaxslardan yer solig'i uch baravar miqdorida undiriladi.

Belgilangan tartibda berilgan yer uchastkalari uchun yer solig'i yer uchastkasidan foydalanish vaqtidan qat'i nazar, jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadi.

Soliq davri uchun yer solig'i to'lash jismoniy shaxslar tomonidan **hisobot yilining 15-oktabriga** qadar amalga oshiriladi.

## **4.5. TRANSPORT VOSITALARIGA BENZIN, DIZEL YOQILG'ISI VA GAZ ISHLATGANLIK UCHUN OLINADIGAN SOLIQ<sup>1</sup>**

### **4.5.1. Soliq to'lovchilar, soliq solish obyekti, soliq solinadigan bazasi va stavkalar**

Soliq kodeksining 301-moddasiga ko'ra transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni to'lovchilar oxirgi iste'molchilarga:

- benzin va dizel yoqilg'isini realizatsiya qilishni, shu jumladan avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar;
- gazni avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar.

Soliq kodeksining 301-moddasiga ko'ra avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari deganda avtomobillarga kompressor vositasida gaz to'ldirish, avtomobillarga yoqilg'i quyish va avtomobillarga gaz quyish shoxobchalari tushuniladi;

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi. – T.: «Adolat», 2014. XIV bo'lim, 321–323-betlar.

Soliq kodeksining 301-moddasiga ko‘ra oxirgi iste’molchilar deganda o‘z ehtiyojlari uchun benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar tushuniladi.

Soliq kodeksining 302-moddasiga ko‘ra transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchilarga realizatsiya qilish yoki ulardan o‘z ehtiyojlari uchun foydalanish soliq solish obyektidir.

Soliq kodeksining 302-moddasiga ko‘ra transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg‘isi va gazning natura holidagi realizatsiya qilingan va o‘z ehtiyojlari uchun foydalanilgan hajmi soliq solinadigan bazadir.

Soliq stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi, uning miqdorlari O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yagona hisoblanadi (15-jadval).

#### **15-jadval**

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 25-dekabrdagi  
PQ-2099-soni qaroriga asosan 2014-yilga jismoniy shaxslardan transport  
vositalari uchun benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik  
uchun olinadigan solig‘i stavkasi**

| <b>Soliqlarning turlari</b>                  | <b>Chegaralangan stavkalar</b>                      |
|----------------------------------------------|-----------------------------------------------------|
| Transport vositalari uchun benzin yoqilg‘isi | 1 litr uchun 265 so‘m/<br>352 ming so‘m 1 tonnasiga |
| Transport vositalari uchun dizel yoqilg‘isi  | 1 litr uchun 265 so‘m/<br>322 ming so‘m 1 tonnasiga |
| Transport vositalari uchun suyultirilgan gaz | 1 litr uchun 180 so‘m                               |
| Transport vositalari uchun siqilgan gaz      | 1 kub metr uchun 220 so‘m                           |

Yuridik va jismoniy shaxslarga avtomobilarga yonilg‘i quyish shoxobchalari orqali benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz sotishda transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz narxi avtotransport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni hisobga olgan holda belgilanadi.

#### **4.5.2. Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliq to‘lash tartibi**

Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq summasi transport vositalari uchun yoqilg‘I quyish shoxobchalari orqali realizatsiya qilinadigan benzin, dizel yoqilg‘isi va gazning narxida hisobga olinadi.

Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazdan o‘z ehtiyojlari uchun foydalanilganda transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqning hisoblangan summasi soliq to‘lovchining xarajatlariga kiritiladi.

Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqning hisob-kitobi joriy o‘n kunlik to‘lovlari hisobga olingan holda yoqilg‘i quyish shoxobchalari joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga har chorakda, soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Hisob-kitob benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxs joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladi, bundan avtomobilarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari orqali benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni realizatsiya qilish xollari mustasno.

Avtomobilarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari orqali benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilinganda hisob-kitob avtomobilarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladi.

Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni to‘lash transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilingan oyning o‘n kunligi tugaganidan keyingi uchinchi kunidan kechiktirmay, yoqilg‘i quyish shoxobchalari joylashgan yerda har o‘n kunda amalga oshiriladi.

Soliq summasi quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$N = V \times St,$$

bu yerda:  $M$  – hisoblab yozilgan soliq;  $V$  – jismoniy shaxslarga sotilayotgan benzin, dizel yoqilg‘isi yoki gazning natural ifodadagi hajmi;  $St$  – soliq stavkasi.

### **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz iste’moliga undiriladigan soliqni to‘lovchilar kimlar hisoblanadi?
2. Jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz iste’moliga undiriladigan soliqni solish obyekti va soliq solinadigan bazasi nimalarni tashkil etadi?
3. Jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz iste’moliga undiriladigan soliq stavkasi qancha miqdorda o‘matilgan?
4. Jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz iste’moliga undiriladigan soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliq to‘lash tartibi qanday amalga oshiriladi?

## **Mustaqil o‘zlashtirish uchun chizmali materiallar**

### **SOLIQ TO‘LOVCHILAR**

Soliq kodeksining 301-moddasiga ko‘ra yuridik va jismoniy shaxslarga transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni avtomobilarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari orqali realizatsiya qilingni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar

### **SOLIQ SOLISH OBYEKTI**

Soliq kodeksining 302-moddasiga ko‘ra transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni realizatsiyasi

### **SOLIQ SOLINADIGAN BAZA**

Soliq kodeksining 302-moddasiga ko‘ra transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg‘isi va gazning natura holidagi realizatsiya qilingan hajmi

### **SOLIQNI TO‘LASH TARTIBI**

Transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilingan oyning 10 kunligi tugaganidan keyingi uchinchi kundan kechiktirmay, yoqilg‘i quyish shoxobchalari joylashgan yerda har 10 kunda amalga oshiriladi

### **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Soliqlar tizimi tarkibini tushuntirib bering.
2. Soliqqa tortish subyekti va obyektini tushuntirib bering.
3. Soliqqa tortish obyektiga qarab soliqlar qanday guruhlanadi?

4. Oborot, daromad, mol-mulk va yer maydonlaridan olinadigan soliqlarga qaysi soliqlarni kiritish mumkin?
5. Soliq stavkalari qanday turlarga bo'linadi?
6. Soliq imtiyozlarining qanday turlari mavjud?
7. To'g'ri va egri soliqlar tarkibiga qanday soliqlar kiradi va ular nima uchun to'g'ri va egri soliq deb ataladi, ularning ijobiy va salbiy tomonlarini ko'rsating?
8. Soliqlarning qanday funksiyalari mavjud?
9. Foyda solig'inining O'zbekistonda joriy etilish tarixi qanday?
10. Soliqlar tizimi tarkibini tushuntirib bering.
11. Soliq subyekti va obyektini tushuntirib bering.
12. Soliq davri deganda nima tushuniladi?
13. Soliq siyosati haqida tushuncha bering.
14. Soliq siyosatidagi respublikamizning qonuniy hujjatlarini sanab o'ting.
15. Soliq siyosatining taktikasi haqida gapirib bering.
16. Soliq siyosatining konsepsiysi to'grisida ma'lumot bering.
17. Soliq siyosati strategiyasi nima?
18. Soliq siyosati xususiyatlari va yo'nalishlarini tushuntirib bering.
19. O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
20. Yuridik shaxslar foyda solig'ini to'lovchilari kimlar?
21. O'zbekiston Respublikasining rezident va norezidentlari kimlar va ular qanday tartibda soliqqa tortiladi?
22. Soliq obyekti va soliqqa tortish bazasi qanday aniqlanadi?
23. Jami daromad tarkibi nimalardan iborat?
24. Jami daromaddan chegirmalar tarkibi nimalardan iborat?
25. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkalari qaysi mezonlar asosida tabaqlashtirilgan?
26. Mahsulotini eksport qiluvchi korxonalar uchun qanday stavklar belgilangan?
27. Qanday yuridik shaxslar foyda solig'idan to'liq ozod etiladi?
28. Yuridik shaxslarning qanday foydasi yuridik shaxslar foyda solig'ini to'lashdan ozod etiladi?

29. Yuridik shaxslarning qanday xarajatlari soliqqa tortiladigan daromaddan kamaytiriladi?
30. Foyda solig‘ini hisoblash, hisobot topshirish va to‘lash mud-datlari qanday belgilangan?
31. 2007-yil 1-yanvarga qadar savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari qanday soliq rejimida ishlagan?
32. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining yagona soliq to‘lovini to‘lovchilar tarkibiga o‘tishning ahamiyati va zarurligi nimada?
33. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to‘lovidan tashqari yana qanday to‘lovlari, yig‘imlar saqlab qoltingan?
34. Savdo faoliyati deganda nimani tushunasiz?
35. Umumiy ovqatlanish faoliyati deganda nimani tushunasiz?
36. Yagona soliq to‘lovini to‘lovchi savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining soliqqa tortish obyekti va bazasi qanday aniqlanadi?
37. Yagona soliq to‘lovini hisoblashda yalpi tushum tarkibi qanday aniqlanadi?
38. Yalpi tushum tarkibidan nimalar chegiriladi?
39. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to‘lovi stavkalari 2013-yil uchun qanday belgilangan va soliq stavkalari qaysi mezonlar asosida tabaqlashtirilgan?
40. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining yagona soliq to‘lovi bo‘yicha hisobot topshirish tartibi qanday va qaysi muddatlarda to‘lanadi?
41. Soliq solishning soddallashtirilgan tartibini tatbiq etishning ahamiyati nimada?
42. Soliq amaliyotida ilk bor qachon soddallashtirilgan soliq rejimi joriy qilingan va qaysi me’yoriy hujjat asosida?
43. Kichik biznes subyektlari tarkibi qaysi mezonlar asosida belgilanadi va qaysi me’yoriy hujjat asosida belgilangan?
44. Yagona soliq to‘lovi qachon joriy etildi va yagona soliq bilan yagona soliq to‘lovining farqi nimada?
45. Yagona soliq to‘lovi to‘lovchilari kimlar?

46. Soliq solish obyekti va soliq solinadigan baza tarkibi nimalar-dan iborat?
47. Yagona soliq to‘loviga soliq stavkalari qaysi mezon asosida belgilanadi?
48. Qanday yuridik shaxslar yagona soliq to‘lovidan imtiyozga ega?
49. Yagona soliq to‘lovi bo‘yicha hisobot qaysi muddatda topshiriladi?
50. Yagona soliq to‘lovi budgetga qaysi muddatlarda to‘lanadi?
51. Yagona soliq to‘loviga o‘tishning tartibi qanday?
52. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining mohi-yatini tushuntirib bering va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i budget daromadlari tarkibida qanday ahami-yatga ega?
53. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining to‘lov-chilari kimlar?
54. Jismoniy shaxslar soliq solish obyekti va soliq solinadigan ba-zasiga nimalar kiradi?
55. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlariga qaysi daro-mad turlari kiradi?
56. Jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan soliq stavka-lari soliq stavkasining qaysi turiga kiradi?
57. Jismoniy shaxslarning qanday daromadlariga soliq solinmay-di?
58. Qaysi jismoniy shaxslarning daromadlariga soliq solinmaydi?
59. Qaysi jismoniy shaxslar daromadlari jismoniy shaxslar daro-madiga solinadigan soliqni har bir to‘liq oy uchun eng kam ish haqining to‘rt baravari miqdorida to‘lashdan ozod etiladi?
60. Jismoniy shaxslar daromad solig‘ini hisoblash va to‘lash tar-tibi qaysi usulda olib boriladi?
61. Daromadlar to‘g‘risidagi deklaratsiya taqdim etish va to‘lash tartibi qanday?

## **TEST SAVOLLARI**

### **1. Soliq obyekti bo‘lib nimalar hisoblanadi?**

- A) Soliq undiruvchilar tushuniladi.
- B) Soliq to‘lovchilar tushuniladi.
- C) Yuridik shaxslar, ya’ni korxona, firma, kompaniya va tashkilotlarning daromadi (foydasi), mol-mulk qiymati, tasarrufidagi yer maydoni, olingan sof tushumi hisoblanadi.
- D) Aholi, ya’ni ayrim jismoniy shaxslar tushuniladi.

### **2. Yagona soliq to‘lovi to‘lovchilari qo‘shilgan qiymat solig‘ini ... .**

- A) Ixtiyoriy ravishda to‘laydilar.
- B) Umum belgilangan tartibda to‘lashga majbur.
- C) Nollik stavkada to‘laydilar.
- D) Pasaytirilgan stavkada to‘laydilar.

### **3. Yuridik shaxslarning daromad (foyda) solig‘i solish obyektini aniqlashda jami daromaddan moliyaviy jarima va penya summalari chegirib tashlanadimi?**

- A) Chegirib tashlanadi.
- B) Chegirib tashlanmaydi.
- C) Faqat moliyaviy jarima summasi chegirib tashalandi.
- D) Faqat penya summasi chegirib tashlanadi.

**4. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning alohida tartibi qaysi davlat idorasi tomonidan belgilanishi mumkin?**

- A) O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi.
- B) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.
- C) O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.
- D) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.

**5. Savdo va umumiyligini ovqatlanish korxonalarini soliqqa tortish obyektini ko‘rsating.**

- A) Foyda.
- B) Daromad.
- C) Yalpi tushum.
- D) Yalpi daromad.

**6. O‘zbekiston Respublikasida yagona ijtimoiy to‘lov qachon joriy qilingan?**

- A) 1998-yil 1-yanvar.
- B) 1995-yil 1-yanvar.
- C) 1992-yil 1-yanvar.
- D) 2004-yil 1-yanvar.

**7. Davlat soliq siyosati nimani bildiradi?**

A) Ishlab chiqarish korxonalarida yaratilgan yoki eksport va import qilingan ba’zi tovarlar qiymatining bir qismini majburiy budgetga to‘lovidir.

B) Korxona, tashkilot va birlashmalarda yangi yaratilgan (qo‘shilgan) qiymatning bir qismini budgetga majburan olishdir.

C) Bir xil mohiyatga ega va o‘zaro munosabatda bog‘liq bo‘lib, markazlashgan pul fondini tashkil etadigan soliq va yig‘imlar turlarining yig‘indisidir.

D) Davlatning soliq borasidagi farmon, qonun va qarorlari ijrosini ta'minlash hamda uni tashkil qilish uchun ishlab chiqilgan chora-tadbirlar, faoliyatlar yig'indisidir.

### **8. Soliq imtiyozlari tushunchasi nimani ifodalaydi?**

A) Soliq to'lovchilarga soliq va yig'implarni to'lashdan taxminiy, yakuniy va dastlabki ozod etish tushuniladi.

B) Soliq to'lovchilarga soliq va yig'implarni to'lashdan qisman, vaqtinchalik va to'liq ozod etish tushuniladi.

C) Soliq to'lovchilarga soliq va yig'implarni to'lashdan vaqtinchalik va to'liq ozod etish tushuniladi.

D) Soliq to'lovchilarga soliq va yig'implarni to'lashdan qisman, davriy va to'liq ozod etish tushuniladi.

### **9. Qo'shilgan qiymat solig'i nimani ifoda etadi?**

A) Korxona, tashkilot va birlashmalarda yangi yaratilgan (qo'shilgan) qiymatning bir qismini budjetga majburan olishdir.

B) Ishlab chiqarish korxonalarida yaratilgan yoki eksport va import qilingan ba'zi tovarlar qiymati bir qismining majburiy budjetga to'lovidir.

C) Soliq tizimining amaliyotga tatbiq etilishini ifodalaydi.

D) Qonun chiqaruvchi idoralar tomonidan belgilangan va ijrochi idoralar tomonidan undiriladigan soliqlarni tashkil etish usullari, elementlari va tamoyillari majmuini ifodalaydi.

### **10. Qaysi javobda korxonaning maqsadli jamg'armalariga o'tkazadigan to'lovlar berilgan?**

A) Qo'shilgan qiymat solig'i.

B) Yagona ijtimoiy to'lov.

C) Davlat bojlari.

D) Yer solig'i.

**11. Quyidagi jismoniy shaxslardan qaysi biri yer solig‘idan ozod etilmagan?**

- A) Uchala darajali Shuhrat ordeni bilan taqdirlanganlar.
- B) I va II guruh nogironlari.
- C) Yaylov chorvachiligining cho‘ponlari.
- D) Yolg‘iz bo‘lmagan, boquvchisi bor pensionerlar.

**12. I va II guruh nogironlari uchun daromad solig‘i bo‘yicha qanday imtiyoz ko‘zda tutilgan?**

- A) Soliqqa tortiladigan daromad 30 foizga kamaytiriladi.
- B) Soliqqa tortiladigan daromad 50 foizga kamaytiriladi.
- C) Agar 16 yoshgacha ikkita bolasi bor bo‘lsa soliqqa tortiladigan daromad 30 foizga kamaytiriladi.
- D) Har bir to‘liq oy uchun eng kam ish haqining 4 baravari miqdorida kamaytiriladi.

**13. O‘zbekiston Respublikasida yuridik shaxslarning dividend va foizli daromadlari qanday stavkada soliqqa tortildi?**

- A) 12%.
- B) 3%.
- C) 5%.
- D) 10%.

**14. Aksiz solig‘i O‘zbekiston Respublikasida qachon joriy etilgan?**

- A) 1991-yil 1-yanvardan.
- B) 1992-yil 1-yanvardan.
- C) 1995-yil 1-yanvardan.
- D) 1999-yil 1-martdan.

**15. 2014-yilda quyidagi qaysi soliqlarning stavkalari indeksatsiyalanib, oshirildi?**

- A) Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i.
- B) Qo‘shilgan qiymat solig‘i.
- C) Yagona soliq to‘lovi.
- D) Yer solig‘i.

**16. Jismoniy shaxslar soliqlarni qanday shaklda to‘laydilar?**

- A) Naqd pul shaklida.
- B) Naqd pulsiz shaklida.
- C) Natura shaklida.
- D) Naqd pul va naqd pulsiz shaklida .

**17. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etishdan maqsad nima?**

- A) Davlat budgetini moliyaviy resurs bilan ta’minlash.
- B) Davlat budgetini moliyaviy mablag‘lar bilan ta’minlash va suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanishni rag‘batlantirish.
- C) Suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanishni rag‘batlantirish.
- D) Mahalliy budget daromadlarini moliyaviy resurs bilan ta’minlash.

**18. Soliq stavkalari quyidagi qaysi hujjat bilan tasdiqlanadi?**

- A) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori.
- B) O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining buyrug‘i.

C) O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining farmoyishi.

D) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va Moliya vazirligi bilan hamkorlikdagi qarori.

**19. Quyidagilarning qaysi biri soliq obyekti bo‘la oladi?**

A) Korxona va tashkilotlarning smeta rejasi.

B) Korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijasi.

C) Kreditorlik qarzlari.

D) Budjet subsidiyalari.

**20. Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadiga qanday daromadlar kiradi?**

A) Foiz, dividend, mol-mulkni ijaraga berishdan kelgan daromadlar.

B) Mehnatga haq to‘lash shaklida olingan daromad.

C) Tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromad.

D) Omonatdan olingan foizlar.

**21. Agar amalga oshirilgan xarajat xarajatlarning bir necha toifasiga kiritilgan bo‘lsa?**

A) U faqat bir marta daromaddan chegiriladi.

B) Har bir toifasi bo‘yicha alohida chegiriladi.

C) Chegirma qilinmaydi.

D) Xarajatlar belgilangan me’yor darajasida chegiriladi.

**22. Qo‘shilgan qiymat solig‘ining soliqqa tortish obyekti nima?**

A) Tovar (ish, xizmatlar) sotilishiga doir oborotlar, tovar (ish, xizmatlar) importi.

- B) Muomala xarajatlari.
- C) Ishlab chiqarish tannarxi.
- D) Soliq to‘langunga qadar moliyaviy natija.

**23. Yuridik shaxs o‘z faoliyatida ro‘yxatdan o‘tgan tumandan boshqa tumandagi suv resurslaridan foydalanganida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni qaysi soliq organiga to‘laydi?**

- A) Ro‘yxatga olingan joydagi davlat soliq xizmati organiga.
- B) Davlat soliq qo‘mitasiga.
- C) Davlat soliq xizmati organlarida ro‘yxatga olinish joyidan qat’i nazar suvdan foydalanish joyidagi soliq xizmati organiga.
- D) Ro‘yxatdan o‘tgan davlat soliq xizmati organi bilan suvdan foydalanish joyidagi soliq xizmati organiga kelishuviga muvofiq.

**24. Pochta markalari, markali otkritkalar va konvertlar sotish qo‘shilgan qiymat solig‘iga tortiladimi?**

- A) Qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod etiladi.
- B) 20 foizli stavkada soliqqa tortiladi.
- C) Nollik stavka bo‘yicha tortiladi.
- D) Kamaytirilgan stavkalar qo‘llaniladi.

**25. 2014-yilda quyidagi qaysi soliqning stavkalari indeksatsiyalanib, oshirildi?**

- A) Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i.
- B) Qo‘shilgan qiymat solig‘i.
- C) Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.
- D) Yagona soliq to‘lovi.

**26. Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovchilarni aniqlang.**

- A) Yuridik shaxslar.
- B) Jismoniy shaxslar.
- C) Yuridik va jismoniy shaxslar.
- D) Foydali qazilmalar qazib oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar.

**27. Qaysi javobda mol-mulk solig‘ining soliqqa tortish obyekti berilgan?**

- A) Asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, uzoq muddatli ijaraga olingan asosiy vositalar.
- B) Nomoddiy aktivlar.
- C) Kapital qo‘yilmalar.
- D) Pul mablag‘lari.

**28. Aksiz markalarining nominal qiymati aksiz solig‘i to‘lovi hisobiga kiritiladimi?**

- A) Kiritiladi.
- B) Faqat alkogolli mahsulotlar uchun kiritiladi.
- C) Kiritilmaydi.
- D) Faqat tamaki mahsulotlari uchun kiritiladi.

**29. Aksiz markalarining joriy etilish yilini ko‘rsating.**

- A) 1992-yil 1-yanvar.
- B) 1993-yil 6-may.
- C) 1995-yil 1-yanvar.
- D) 1996-yil 1-oktabr.

**30. Soddalashtirilgan soliq tizimiga o‘tgan kichik korxonalar va mikrofirmalar mol-mulk solig‘ini to‘lovchilar hisoblanadimi?**

- A) Mol-mulk solig‘ini belgilangan tartibda to‘laydilar.
- B) Mol-mulk solig‘ini pasaytirilgan stavkalar asosida to‘laydilar.
- C) Ijaraga berilgan mol-mulklari qiymatidan soliq to‘laydilar.
- D) Faqat asosiy vositalari bo‘yicha to‘laydilar.

**31. Quyidagi yuridik shaxslardan qaysi biri obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ini to‘laydi.**

- A) Savdo korxonalari.
- B) Umumbelgilangan soliqlarni to‘lovchi korxonalar.
- C) Ixchamlashtirilgan soliq tizimiga o‘tgan kichik korxonalar.
- D) Ixchamlashtirilgan soliq tizimiga o‘tmagan kichik korxonalar.

**32. O‘zbekiston rezidentlari bo‘lgan jismoniy shaxslar deklaratsiya bo‘yicha hisoblangan daromad solig‘ini qaysi sanagacha to‘lashlari lozim?**

- A) 1-aprel.
- B) 1-may.
- C) 1-iyun.
- D) 1-sentabr.

**33. Quyida qayd etilgan soliqlarning qaysi biri umumdalat solig‘i hisoblanadi?**

- A) Yer solig‘i.
- B) Qo‘shilgan qiymat solig‘i.
- C) Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish uchun soliq.
- D) Mol-mulk solig‘i.

**34. Obodonlashtirish ishlari va infratuzilmani rivojlantirish solig‘ining stavkasini aniqlang.**

- A) 8%.
- B) 10%.
- C) 16%.
- D) 12%.

**35. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining asosiy stavkasi 2014-yil uchun qancha qilib belgilangan?**

- A) 8%.
- B) 12%.
- C) 7%.
- D) 10%.

**36. 2014-yilda jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq stavkalari necha foiz qilib belgilangan?**

- A) 8%, 16%, 22%.
- B) 7,5%, 16%, 22%.
- C) 10%, 18%, 25%.
- D) 9%, 16%, 22%.

**37. Da’vo qilishning umumiyl muddati qancha?**

- A) 1 yil.
- B) 2 yil.
- C) 3 yil.
- D) 5 yil.

**38. Yo‘l fondiga qilinadigan ajratmalar qachondan boshlab soliq xizmati idoralari nazoratiga berilgan?**

- A) 2003-yil 1-oktabrdan.
- B) 2002-yildan 1-iyuldan.

- C) 2004-yil 1-yanvar.
- D) 2001-yil 1-yanvar.

**39. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavklarini kim belgilaydi?**

- A) O'zbekiston Respublikasi Prezident.
- B) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.
- C) O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.
- D) O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi.

**40. Yer solig'ini joriy etishdan maqsad nima?**

- A) Davlat budgetini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash.
- B) Davlat budgetini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash va yer resurslaridan samarali va oqilona foydalanishni rag'batlantirish.
- C) Yer resurslaridan samarali va oqilona foydalanishni rag'batlantirish.
- D) Mahalliy budget daromadlarini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash.

**41. Qaysi toifadagi fuqarolar jami yillik daromad to'g'risida deklaratsiya topshiradi?**

- A) Hamma toifadagi fuqarolar.
- B) Ikki va undan ortiq daromad manbaiga ega bo'lgan hamma toifadagi fuqarolar.
- C) Yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar.
- D) Faqat o'rindoshlik bo'yicha ishlovchilar.

**42. O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslarning dividend va foiz ko'rinishidagi oladigan daromadlari qanday stavkada soliqqa tortiladi?**

- A) 12%.
- B) 13%.
- C) 14%.
- D) 10%.

**43. Yuridik shaxslarning mahsulot (ish, xizmat)lari eksporti hajmi umumiyl ishlab chiqarish hajmida 30% va undan yuqorini tashkil etsa, mol-mulk solig'ini qanday stavkada to'laydilar?**

- A) Belgilangan stavkadan 20% ga kamaytiriladi.
- B) Belgilangan stavkadan 25% ga kamaytiriladi.
- C) Belgilangan stavkadan 35% ga kamaytiriladi.
- D) Belgilangan stavka 2 baravarga kamaytiriladi.

**44. Berilgan yer uchastkalaridan ikki yil davomida foydalanganmagan jismoniy shaxslarga qanday chora belgilangan?**

- A) Yer solig'i uch baravar miqdorida to'lanadi.
- B) Yer solig'i ikki baravar miqdorida to'lanadi.
- C) Moliyaviy jazo choralar qo'llaniladi.
- D) Ma'muriy jazo choralar qo'llaniladi.

**45. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni kimlar to'laydi?**

- A) O'z faoliyatida suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar.
- B) O'z faoliyatida suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar.
- C) O'z faoliyatida suvdan foydalanuvchi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar.
- D) Barcha yuridik va jismoniy shaxslar.

**46. Qo'shilgan qiymat solig'i O'zbekiston Respublikasida qachon joriy etilgan?**

- A) 1991-yil 15-fevraldan.
- B) 1992-yil 1-yanvardan.
- C) 1993-yil 6-maydan.
- D) 1997-yil 24-apreldan.

**47. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi qachon qabul qilingan va joriy etilgan?**

- A) 1996-yil 15-fevral – 1996-yil 1-mart.
- B) 1997-yil 24-aprel- 1998-yil 1-yanvar.
- C) 1997-yil 15-dekabr – 1998-yil 1-yanvar.
- D) 1998-yil 24-aprel – 1999-yil 1-yanvar.

**48. Yer solig'i jismoniy shaxslar tomonidan qachon to'lanadi?**

- A) Joriy yilning 15-iyun va 15-dekabriga qadar.
- B) Joriy yilning 15-iyuniga qadar.
- C) Joriy yilning 1-may va 1-noyabriga qadar.
- D) Joriy yilning 1-oktabriga qadar.

**49. Yuridik shaxslar soliqlarni qanday shaklda to'laydilar?**

- A) Naqd pul shaklida.
- B) Naqdsiz pul shaklida.
- C) Har ikkisidan ham foydalanish mumkin.
- D) Ham natura, ham naqd pul shaklida.

**50. Jazoni ijro etuvchi muassasalar foyda solig'iga tortiladimi?**

- A) 18 foizli stavkada soliqqa tortiladi.
- B) Foyda solig‘idan ozod etiladi.
- C) 35 foizli stavkada soliqqa tortiladi.
- D) 3 yil muddatda soliqdan ozod etiladi.

**51. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblashda nollik stavka qachon qo‘llaniladi?**

- A) Tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksportida.
- B) Stenografiya xizmatlariga.
- C) Geologiya va topografiya ishlariga.
- D) Ma’lumotlarni ishslash va axborot ta’limotiga doir xizmatlariga.

**52. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq obyekti aniqlang.**

- A) Yer usti manbalaridan foydalaniqan suv resurslarining hajmi.
- B) Yer osti manbalaridan foydalaniqan suv resurslarining hajmi.
- C) Yer usti va yer osti manbalaridan foydalaniqan suv resurslarining hajmi.
- D) Chuchuk suv manbalaridan foydalaniqan suv resurslarining hajmi.

**53. Qo‘shilgan qiymat solig‘ining qanday stavkalari qo‘llaniladi?**

- A) 20 va 10.
- B) 20 va 15.
- C) 20 va nollik.
- D) 10 va nollik.

**54. Jismoniy shaxslarning mol-mulkleri qanday stavkada soliqqa tortiladi?**

- A) 0,75; 0,9 va 1,13.
- B) 1,2, 1,4 va 1,8.
- C) 1,04; 1,25 va 1,55.
- D) 0,5.

**55. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavklari kim tomonidan belgilanadi?**

- A) O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan.
- B) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan.
- C) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis tomonidan.
- D) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan.

**56. Savdo va umumiyligini ovqatlanish korxonalarini to‘laydigan soliqlarni ko‘rsating.**

- A) Qo‘shilgan qiymat solig‘i.
- B) Yalpi daromaddan soliq va mol-mulk solig‘i.
- C) Yalpi tushumdan yagona soliq.
- D) Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i.

**57. Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari kim tomonidan belgilanadi?**

- A) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan.
- B) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis tomonidan.
- C) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan.
- D) O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan.

## **58. Soliq subyekti deganda:**

- A) Soliq undiruvchilar va soliq to‘lovchilar tushuniladi.
- B) Soliq solinadigan daromad tushuniladi.
- C) Soliq solinadigan ish haqi tushuniladi.
- D) Soliq solinadigan mol-mulk tushuniladi.

## **59. Soliq strategiyasi nima?**

- A) Bu davlatning uzoq yillarga mo‘ljallangan soliq sohasidagi tadbirlar yig‘indisi.
- B) Bu soliqlarni tashkil qilishning uslublari, elementlari va tamoyillari yig‘indisi.
- C) Bu davlatning qisqa muddatlarga mo‘ljallangan soliq sohasidagi tadbirlar yig‘indisi.
- D) Bu soliq sohasidagi davlatning aniq mo‘ljallangan va amalga oshirib borayotgan chora-tadbirlar yig‘indisidir.

## **60. Aksiz solig‘ini to‘lash muddatlarini ko‘rsating.**

- A) Har chorakda.
- B) Har 15 kunlikda.
- C) Har 10 kunlikda.
- D) 1 yilda 1 marta.

## **61. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini budgetga to‘lash muddatlarini aniqlang.**

- A) Har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 15-sanasiga qadar.
- B) Har oyning 10-sanasi va 25-sanasiga qadar.
- C) Yillik hisobotlarni topshirish muddatiga qadar.
- D) Har oyning 15-sanasiga qadar.

**62. Korxonani soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibiga o'tkazish haqidagi qaror yoki dalillangan raddiya davlat soliq xizmati organi tomonidan necha kun davomida chiqariladi?**

- A) Ariza bergan kundan boshlab 5 kun mobaynida.
- B) Ariza bergan kundan boshlab 10 kun mobaynida.
- C) Ariza bergan kundan boshlab 1 oy mobaynida.
- D) Ariza bergan kundan boshlab 25 kun mobaynida.

**63. Yagona soliq to'lovining obyekti nima?**

- A) Korxona ixtiyorida qoladigan sof foyda.
- B) Sotib olish va sotish qiymati o'rtaсидаги farq.
- C) Davr xarajatlari.
- D) Sotishdan tushgan yalpi tushum.

**64. Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig'inining soliqqa tortish obyekti nima?**

- A) Mahsulot sotishdan tushgan tushum.
- B) Sof foyda (daromad).
- C) Muomala xarajatlari.
- D) Asosiy faoliyatning foydasi.

**65. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi tarkibi nimadan iborat?**

- A) Mehnat haqi, mulkiy daromadlar.
- B) Tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar, mehnat haqi.
- C) Mehnat haqi.
- D) Mehnat haqi, mulkiy daromadlar, tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar.

**66. Mol-mulk solig‘ini to‘lash haqidagi to‘lov xabar-nomalari soliq to‘lovchilarga qaysi muddatdan kechiktirilmay topshirilishi shart?**

- A) Joriy yilning 15-oktabrigacha.
- B) Joriy yilning 25-aprelijacha.
- C) Joriy yilning 15-iyunigacha.
- D) Joriy yilning 1-mayigacha.

**67. Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq to‘lovchilar kimlar?**

- A) O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari.
- B) Moliya yilida soliq solinadigan daromadga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar.
- C) Norezident jismoniy shaxslar.
- D) O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari.

**68. Jismoniy shaxsning quyida keltirilgan qaysi daromad-lari daromad solig‘idan ozod qilingan?**

- A) Olingan alimentlar.
- B) Ish haqi to‘lovlari.
- C) Ijara to‘lovlari.
- D) Tadbirkorlik faoliyati natijasida olingan daromad.

**69. Quyida qayd etilgan soliqlarning qaysi biri egri soliqlar guruhiga kiradi?**

- A) QQS.
- B) Jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliq.
- C) Yer solig‘i.
- D) Mol-mulk solig‘i.

**70. Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq obyektini aniqlashda chegirilishi lozim bo‘lgan xarajatlarni aniqlash tartibi kim tomonidan belgilanadi?**

- A) O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi.
- B) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi.
- C) O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq inspeksiyalari.
- D) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.

**71. Yer solig‘i stavkalari kim tomonidan belgilanadi?**

- A) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis tomonidan.
- B) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan.
- C) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan.
- D) O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan.

**72. Yuridik shaxslar uchun foyda solig‘i qachon joriy etilgan?**

- A) 1991-yil 1-yanvardan.
- B) 1992-yil 14-yanvardan.
- C) 1993-yil 6-maydan.
- D) 1995-yil 1-yanvardan.

**73. Aksiz solig‘i stavkalari va aksiz to‘lanadigan tovarlar ro‘yxati qaysi vakolatli organ tomonidan belgilanadi?**

- A) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.
- B) O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.
- C) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.
- D) O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi.

**74. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi qonuni qachon tasdiqlangan?**

- A) 1996-yilning 1-yanvarida.
- B) 1997-yilning 10-sentabrida.
- C) 1998-yilning 15-mayida.
- D) 1997-yilning 29-avgustida.

**75. O‘zbekiston Respublikasining rezidenti bo‘lgan yuridik shaxslar qanday manbalaridan soliq to‘laydilar?**

- A) O‘zbekiston Respublikasi va undan tashqaridagi faoliyatlaridan.
- B. O‘zbekiston Respublikasidagi manbalaridan.
- C) O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi faoliyatlaridan.
- D) O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi bilan muvofiqlashtiriladi.

**76. Yer solig‘ini to‘lovchilar bo‘lib kimlar hisoblanadi?**

- A) Egaligida yer uchastkalari bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar.
- B) Foydalanishida yer uchastkalari bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar.
- C) O‘z mulkida, egaligida va foydalanishida yer uchastkalari bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar.
- D) O‘z mulkida, egaligida va foydalanishida yer uchastkalari bo‘lgan yuridik shaxslar.

**77. Jismoniy shaxslar mol-mulk solig‘ini qaysi muddatlarda to‘laydilar?**

- A) 15-iyulga qadar.
- B) 15-noyabrga qadar.
- C) 15-dekabrga qadar.
- D) 15-oktabrga qadar.

**78. Davlat obligatsiyalari va davlatning boshqa qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha dividendlar va foizlar soliqqa tortiladi-mi?**

- A) Soliqqa tortiladi.
- B) Ozod etiladi.
- C) Qisman soliqqa tortiladi.
- D) Imtiyozli stavkalarda tortiladi.

**79. Iste’mol tovarlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar iste’mol tovarlarini ishlab chiqarishdan olgan daromadlari-dan qanday stavkada daromad (foyda) solig‘ini to‘laydilar? (O‘z.R. Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 13-noyabridagi 390-sonli qaroriga asosan)?**

- A) Belgilangan stavka 20%ga kamaytiriladi.
- B) 18%.
- C) 16%.
- D) 20%.

**80. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yoki mahalliy hokimiyat organlari qaroriga asosan yer uchastkalarini ijaraga olgan yuridik shaxslar yer solig‘ini to‘laydilarmi?**

- A) Yer solig‘i o‘rniga ijara haqi to‘laydi.
- B) Yer solig‘ini belgilangan tartibda to‘laydi.
- C) Yer solig‘i bonitet darajasiga qarab to‘lanadi.
- D) Ijara haqi to‘lanishi bilan birgalikda belgilangan tartibda yer solig‘i ham to‘laydi.

**81. Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimini qo‘llay-digan mikrofirma va kichik korxonlar quyidagi qaysi soliqlar-ni to‘laydilar?**

- A) Import qilinadigan tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i.
- B) Suv resurlaridan foydalanganlik uchun soliq.
- C) Yer solig'i.
- D) Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig'i.

**82. Soliq obyekti deganda –**

- A) Soliq undiruvchilar tushuniladi.
- B) Soliq to'lovchilar tushuniladi.
- C) Daromad (foyda), mol-mulk qiymati, yer maydoni.
- D) Soliq bazasiga nisbatan belgilangan me'yor.

**83. Soliqlarni joriy qilish qaysi davlat organi vakolatiga kiradi?**

- A) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.
- B) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi.
- C) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.
- D) O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va Moliya vazirligi kelishgan holda.

**84. Soliqlar va yig'imlarning to'lov muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun penyalar miqdorini ko'rsating.**

- A) 0,01%.
- B) 0,02%.
- C) 0,033%.
- D) 0,07%.

**85. Muddati o'tgan kreditor va deponent qarzdorlikni hisobdan chiqarishdan olinadigan daromadlar soliqqa tortiladimi?**

- A) Soliqqa tortilmaydi.
- B) 1-yildan so‘ng soliqqa tortiladi.
- C) Soliqqa tortiladi.
- D) Faqat kreditor qarzdorlik soliqqa tortiladi.

**86. Qo‘silgan qiymat solig‘i stavkalarini kim belgilaydi?**

- A) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.
- B) O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi.
- C) O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi.
- D) O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi.

**87. Aksiz solig‘ini kimlar to‘laydi?**

- A) Aksiz solig‘iga tortiladigan tovarlar ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar.
- B) Aksiz solig‘iga tortiladigan tovarlar ishlab chiqaruvchi jismoniy shaxslar.
- C) Aksiz solig‘iga tortiladigan tovarlar ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar va import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar.
- D) Aksiz solig‘iga tortiladigan tovarlarni eksport qiluvchi yuridik shaxslar.

**88. Qanday jismoniy shaxslar mol-mulk solig‘ini to‘lashdan ozod etilgan?**

- A) I va II guruh nogironlari.
- B) Madaniyat va xalq ta’limi xodimlari.
- C) Tibbiyot xodimlari.
- D) Og‘ir mehnat sharoitida ishlovchilar.

**89. Shahar yo‘lovchi transporti xizmatlari (taksi va yo‘nalishli taksidan tashqari) qo‘silgan qiymat solig‘iga tortiladimi?**

- A) Nollik stavkada soliqqa tortiladi.
- B) 20 foizli stavkada soliqqa tortiladi.
- C) Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etiladi.
- D) 10 foizli stavkada soliqqa tortiladi.

**90. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni kimlar to'laydi?**

- A) O'z faoliyatida suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar.
- B) O'z faoliyatida suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar.
- C) O'z faoliyatida suvdan foydalanuvchi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar.
- D) Barcha yuridik va jismoniy shaxslar.

**91. Aksiz solig'i quyidagilarning qaysilariga solinmaydi?**

- A) Aksiz to'lanadigan tovarlarning eksportiga.
- B) Aksiz to'lanadigan tovarlarning importiga.
- C) Berilgan xomashyodan tayyorlangan mahsulotga.
- D) Vino va vinomateriallariga.

**92. I guruh nogironi bo'lgan jismoniy shaxsning mulkida kvartira, garaj va dala hovlisi bor. U mol-mulk solig'i to'lovchisi hisoblanadimi?**

- A) O'z egasining xohishi bo'yicha faqat bir obyekt bo'yicha hisoblanmaydi.
- B) Faqat dala hovlisi qiymati bo'yicha hisoblanadi.
- C) I guruh nogironi soliqdan ozod etiladi.
- D) Barcha mol-mulkidan soliq to'laydi.

**93. Soliqlarning o'ziga xos belgilari nimalardan iborat?**

- A) Majburiy, davlat budgetiga tushadi, qat‘iy belgilangan, doimiy harakatda va ekvivalent siz pul to‘lovi.
- B) Fiskal, nazorat, boshqaruv, taqsimlash, majburiy.
- C) Doimiy, nazorat, obyektiv, subyektiv, majburiy.
- D) Qat‘iy belgilangan, doimiy, proporsional, regressiv,

**94. Soliqlarning funksiyalari mavjud bo‘lib, ular quyidagi lardan iborat.**

- A) Fiskal (xazina), iqtisodiyotni boshqaruv, rag‘batlantirish, nazorat, taqsimlash.
- B) Fiskal (xazina), iqtisodiyotni boshqaruv, rag‘batlantirish, nazorat, xarajatlar to‘grisida axborot.
- C) Imtiyoz, iqtisodiy, moliyaviy, funksional, strategiya, takтика.
- D) Fiskal, rag‘batlantirish, davriy, joriy, uslubiy.

**95. Soliq elementlariga nimalar kiradi?**

- A) Soliq subyekti, obyekti, stavkasi, imtiyozlari, manbai, yuki (og‘irligi).
- B) Rag‘batlantirish, nazorat, moliya, soliq, daromad.
- C) Oborot, funksiya, axborotlash, mol-mulk, soliq stavkasi.
- D) Soliq tizimi, soliqqa tortish tizimi, yagona yer solig‘i, progressiv soliq stavkasi.

**96. Soliq tushunchasi nima?**

- A) Soliqlar majburiy bo‘lmagan to‘lovni ifoda etuvchi pul munosabatlarini bildiradi.
- B) Soliqlar majburiy to‘lovni ifoda etuvchi pul munosabatlarini bildiradi.
- C) Soliqlar majburiy to‘lovni ifoda etuvchi davlat budgeti daromadlarini shakllantirmaydigan pul munosabatlarini bildiradi.
- D) Soliqlar majburiy nazoratni ifoda etuvchi sug‘urta munosabatlarini bildiradi.

## **97. Soliqqa tortish tizimi tushunchasi nimani ifodalaydi?**

- A) Mohiyati jihatidan bir xil bo‘lgan va markazlashgan pul fondiga tushadigan soliq turlarining yig‘indisini ifodalaydi.
- B) Bu subyektiv tushuncha bo‘lib, o‘z ichiga kredit turlari, elementlari, tashkil qilish usullari, soliq qonunchiligi, soliqlarni hisoblash va to‘lash ustidan davlat nazoratini o‘tkazishni ifodalaydi.
- C) Moliya tizimi, soliqlarning tuzilish tizimi, soliq idoralari xizmati tizimi va bank sohasidagi hamma hujjatlarni ifodalaydi.
- D) Qonun chiqaruvchi idoralar tomonidan belgilangan va ijro-chi idoralar tomonidan undiriladigan soliqlarni tashkil etish usullari, elementlari va tamoyillari majmuini ifodalaydi.

## **98. Soliq tizimi tushunchasi nimani ifoda etadi?**

- A) Bir xil mohiyatga ega va o‘zaro munosabatda bog‘liq bo‘lib, markazlashgan pul fondini tashkil etadigan soliq va yig‘imlar turlarining yig‘indisini ifoda etadi.
- B) Qonun chiqaruvchi idoralar tomonidan belgilangan va ijro-chi idoralar tomonidan undiriladigan soliqlarni tashkil etish usullari, elementlari va tamoyillari majmuini ifodalaydi.
- C) Soliqlar tizimi, soliqlarni tuzilish tizimi, soliq idoralari xizmati tizimi va soliq sohasidagi hamma hujjatlarni ifoda etadi.
- D) Bu subyektiv tushuncha bo‘lib, o‘z ichiga soliq turlari, elementlari, tashkil qilish usullari, soliq qonunchiligi, soliqlarni hisoblash va to‘lash ustidan davlat nazoratini o‘tkazishni ifoda etadi.

## **99. Infratuzilmani rivojlantirish solig‘i stavkasi.**

- A) Korxona ixtiyorida qoladigan sof foydaning 3%.
- B) Korxona ixtiyorida qoladigan sof foydaning 8%.

- C) Korxona ixtiyorida qoladigan sof foydaning 2%.
- D) Korxona ixtiyorida qoladigan sof foydaning 6%.

**100. Soliq mexanizmi nimani anglatadi va uning tarkibiga nimalar kiradi?**

- A) Soliqlar tizimi, soliqlarning tuzilish tizimi, soliq idoralari xizmati tizimi va soliq sohasidagi hamma hujjatlarni o‘z ichiga oladi.
- B) Soliqqa tortish bilan bog‘liq bo‘lgan soliqlarni tashkil qilishning barcha elementlari yig‘indisi tushuniladi va soliq elementlari, soliq huquqi, hujjatlari kiradi.
- C) Soliq tizimining amaliyotga tatbiq etilishini ifodalaydi.
- D) Bu subyektiv tushuncha bo‘lib, o‘z ichiga soliq turlari, elementlari, tashkil qilish usullari, soliq qonunchiligi, soliqlarni hisoblash va to‘lash ustidan davlat nazoratini o‘tkazishni oladi.

**101. Quyida qayd etilgan soliqlarning qaysi biri mahalliy soliq hisoblanadi?**

- A) Aksiz solig‘i.
- B) Yer solig‘i.
- C) Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.
- D) Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i.

**102. O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar qanday manbalaridan soliq to‘laydilar?**

- A) O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi faoliyatlar manbalaridan.
- B) O‘zbekiston Respublikasida olgan manbalaridan.
- C) O‘zbekiston Respublikasidagi va undan tashqaridagi faoliyatlar manbalaridan.
- D) Soliq to‘lovchining xohishiga ko‘ra to‘lanadi.

**103. Yuridik shaxslarning soliq solinadigan foydasi xayriya tariqasidagi mablag'lar summasiga qanday hajmda kamaytiriladi?**

- A) Kamaytirilmaydi.
- B) Soliq solinadigan foydaning 1%idan ko‘p bo‘lmagan miqdorda.
- C) Soliq solinadigan foydaning 2%idan ko‘p bo‘lmagan miqdorda.
- D) Soliq solinadigan foydaning 3%idan ko‘p bo‘lmagan miqdorda.

**104. Yagona yer solig‘ini to‘lovchi yuridik shaxslarga kimlar kiradi?**

- A) O‘zining mulkida, egaligida va foydalanishida yer uchastkalari bo‘lgan yuridik shaxslar yer solig‘i to‘lovchilari bo‘lib hisoblanadi.
- B) Bunday soliq to‘lovchilarga korxonalarda ishlovchilar soni cheklangan me’yordan oshmagan yuridik shaxslar kiradi.
- C) Qishloq xo‘jaligi kooperativlari (shirkatlar), fermer xo‘jaliklari, agrofirmalar, boshka qishloq xo‘jalik mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar hisoblanadi.
- D) O‘zining mulkida, egaligida va foydalanishida yer uchastkalari bo‘lgan jismoniy shaxslar yer solig‘i to‘lovchilari bo‘lib hisoblanadi.

**105. Soliq tortish obyekti deganda nimani tushunasiz?**

- A) Soliq undiruvchilar tushuniladi.
- B) Soliq to‘lovchilar tushuniladi.
- C) Yuridik shaxslar, ya’ni korxona, firma, kompaniya va tashkilotlar olgan daromadlari, tushumlari, mol-mulk qiymati, sof foydasi, tasarrufidagi yer maydoni tushuniladi.
- D) Aholi, ya’ni ayrim jismoniy shaxslar tushuniladi.

**106. Soliq subyekti deganda:**

- A) Soliq undiruvchilar va soliq to‘lovchilar tushuniladi.
- B) Soliq solinadigan daromad tushuniladi.
- C) Soliq solinadigan ish haqi tushuniladi.
- D) Soliq solinadigan mol-mulk tushuniladi.

**107. Quyidagilardan qaysi biri bevosita soliq hisoblanadi?**

- A) Daromad (foyda) solig‘i.
- B) Bojxona boji.
- C) Davlat boji.
- D) Qo‘silgan qiymat solig‘i.

**108. Quyidagilardan qaysi biri bilvosita soliqlarga kirdi?**

- A) Daromad (foyda) solig‘i.
- B) Yer solig‘i.
- C) Qo‘silgan qiymat solig‘i.
- D) Aksiz solig‘i.

**109. Umumdavlat soliqlariga quyidagi qaysi bir soliq turi kiradi?**

- A) Yer solig‘i.
- B) Qo‘silgan qiymat solig‘i.
- C) Mol-mulk solig‘i.
- D) Infratuzilmani rivojlantirish solig‘i.

**110. Quyidagilardan qaysi biri mahalliy soliqlar va yig‘imlarga kiradi?**

- A) Qo‘silgan qiymat solig‘i
- B) Aksiz solig‘i.

- C) Jismoniy shaxslar daromad solig‘i.
- D) Mol-mulk solig‘i.

**111. Qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasini kim belgilaydi?**

- A) Oliy majlis.
- B) Vazirlar Mahkamasi.
- C) Moliya Vazirligi.
- D) Davlat Soliq Qo‘mitasi.

**112. Qo‘shilgan qiymat solig‘i qaysi budjetga tushadi?**

- A) Mahalliy budjetlarga.
- B) Respublika budjetiga.
- C) Maxsus fondlarga.
- D) Respublika va mahalliy budjetlarga.

**113. Yer solig‘ini kim to‘laydi?**

- A) Jismoniy va yuridik shaxslar,
- B) Qishloq xo‘jalik korxonalari.
- C) Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari.
- D) Imtiyozga ega bo‘lgan shaxslar.

**114. Soliq taktikasi nima?**

- A) Bu davlatning uzoq yillarga mo‘ljallangan soliq sohasidagi tadbirlar yig‘indisi.
- B) Bu soliqlarni tashkil qilishning uslublari elementlari va tamoyillari yig‘indisi.
- C) Bu davlatning qisqa muddatlarga mo‘ljallangan soliq sohasidagi tadbirlar yig‘indisi.
- D) Bu soliq sohasidagi davlatning aniq mo‘ljallangan va amalga oshirib borayotgan chora – tadbirlar yig‘indisidir.

### **115. Soliqlar tizimi qanday huquqiy hujjatga asoslanadi?**

- A) Soliqlarning tuzilishi va undirishning aniq uslublariga asoslanadi.
- B) Moliya resurslarini qayta taqsimlashga asoslanadi.
- C) Respublika Konstitutsiyasiga asoslanadi.
- D) Konstitutsiyaga, Soliq Kodeksi va «Davlat soliq xizmati to‘grisida»gi qonunga asoslanadi.

### **116. Soliq yuki deganda nimani tushunasiz?**

- A) Yuridik jihatdan soliq to‘lovchi shaxs.
- B) Daromaddan soliq to‘lovchi shaxs.
- C) Barcha soliqlar va yig‘imlarning YaIMga nisbati.
- D) Soliqni manbaida ushlab qo‘luvchi shaxs.

### **117. Soliq siyosati nima?**

- A) Bu soliqlarni hisoblash va undirish.
- B) Bu soliq bo‘yicha boqimandalarni undirish va moliyaviy chora-tadbirlar qo‘llash.
- C) Bu davlatning soliq sohasini tartibga solishga oid hamma chora-tadbirlari yig‘indisidir.
- D) Bu moliyaviy resurslarni topish va taqsimlashdir.

### **118. Soliqlar davlat budgetining qaysi qismiga tushadi?**

- A) Soliqlar davlat budgetiga kirmaydi, budgetdan tashqari fondlarga tushadi.
- B) Budgetning daromad qismiga tushadi.
- C) Budgetning xarajat qismiga tushadi.
- D) Budgetning muvofiqlashtirish qismiga tushadi.

### **119. Soliqlarga qanday funksiyalar xos?**

- A) Fiskal (xazina), iqtisodiyotni boshqaruv, rag‘batlantirish, nazorat, taqsimlash.

- B) Fiskal (xazina), iqtisodiyotni boshqaruv, nazorat, xarajatlar to‘g‘risida axborot.
- C) Imtiyoz, iqtisodiy, moliyaviy, funksional, strategiya, tak-tika.
- D) Fiskal, rag‘batlantirish, davriy, joriy, uslubiy.

### **120. Soliq elementlariga nimalar kiradi?**

- A) Soliq subyekti, obyekti, stavkasi, imtiyozlari, manbai, yuki (og‘irligi).
- B) Rag‘batlantirish, nazorat, moliya, soliq, daromad.
- C) Oborot, funksiya, axborotlash, mol-mulk, soliq stavkasi.
- D) Soliq tizimi, soliqqa tortish tizimi, yagona yer solig‘i, progressiv soliq stavkasi.

### **121. Davlat soliq xizmati idoralari quyidagi qaysi zvonden dan tashkil topgan?**

- A) Shaharlar va tumanlar Davlat soliq inspeksiyalari, Davlat soliq boshqarmalari.
- B) Davlat soliq xizmati idoralari.
- C) Davlat Soliq Qo‘mitasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Davlat soliq boshqarmalari, shaharlar va tumanlar Davlat soliq inspeksiyalari.
- D) Moliya Vazirligi, Davlat Soliq Inspeksiyasi, hokimiyat idoralari

### **122. Soliq tushunchasi nima?**

- A) Soliqlar majburiy bo‘lmagan to‘loymi ifoda etuvchi pul munosabatlarini bildiradi.
- B) Soliqlar majburiy to‘loymi ifoda etuvchi pul munosabatlarini bildiradi.

- C) Soliqlar majburiy to‘lovnii ifoda etuvchi davlat budgeti daromadlarini shakllantiradigan pul munosabatlarini bildiradi.
- D) Soliqlar majburiy nazoratni ifoda etuvchi sug‘urta munosabatlarini bildiradi.

### **123. Soliq tizimi tushunchasi nimani ifoda etadi?**

- A) Bir xil mohiyatga ega va o‘zaro munosabatda bir-biriga bog‘liq bo‘lib, markazlashgan pul fondini tashkil etadigan soliq va yig‘imlar turlarining yig‘indisini ifoda etadi.
- B) Qonun chiqaruvchi idoralar tomonidan belgilangan va ijro-chi idoralar tomonidan undiriladigan soliqlarni tashkil etish usullari, elementlari va tamoyillari majmuini ifodalaydi.
- C) Soliqlar tizimi, soliqlarning tuzilish tizimi, soliq idoralarli xizmati tizimi va soliq sohasidagi hamma hujjatlarni ifoda etadi.
- D) Bu subyektiv tushuncha bo‘lib, o‘z ichiga soliq turlari, elementlari, tashkil qilish usullari, soliq qonunchiligi, soliqlarni hisoblash va to‘lash ustidan davlat nazoratini o‘tkazishni ifoda etadi.

### **124. Davlat soliq siyosati nimani bildiradi?**

- A) Ishlab chiqarish korxonalarida yaratilgan yoki eksport va import qilingan ba’zi tovarlar qiymatining bir qismini majburiy budgetga to‘lovdir
- B) Korxona, tashkilot va birlashmalarda yangi yaratilgan (qo‘shilgan) qiymatning bir qismini budgetga majburan olishdir.
- C) Bir xil mohiyatga ega va o‘zaro munosabatga bog‘liq bo‘lib, markazlashgan pul fondini tashkil etadigan soliq va yig‘imlar turlarining yig‘indisidir.
- D) Davlatning soliq borasidagi farmon, qonun va qarorlari ijrosini ta’minlash hamda uni tashkil qilish uchun ishlab chiqilgan chora-tadbirlar, faoliyatlar yig‘indisidir.

**125. Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) nimani ifoda etadi?**

- A) Korxona, tashkilot va birlashmalarda yangi yaratilgan (qo'shilgan) qiymatning bir qismini budgetga majburan olishdir.
- B) Ishlab chiqarish korxonalarida yaratilgan yoki eksport va import qilingan ba'zi tovarlar qiymatining bir qismini majburiy budgetga to'lovidir.
- C) Soliq tizimining amaliyatga tatbiq etilishini ifodalaydi.
- D) Qonun chiqaruvchi idoralar tomonidan belgilangan va ijro-chi idoralar tomonidan undiriladigan soliqlarni tashkil etish usullari, elementlari va tamoyillari majmuini ifodalaydi.

**126. Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlariga qanday daromad turlari kiradi?**

- A) Mol-mulkni ijaraga berishdan keladigan daromad.
- B) Dividend bo'yicha olinadigan daromad.
- C) Natura shaklida olingan ish haqi to'lovlar.
- D) Tovarlar realizatsiyasidan keladigan barcha tushumlar ushbu daromadni topish bilan bog'liq xarajatlar, majburiy to'lovlar, chiqimlar va ajratmalar chegirib tashlangan holda kiradi.

**127. Xo'jalik yurituvchi subyektlarni qisqa muddatli tekshirishga ruxsat beruvchi vakolatli organni ko'rsating.**

- A) Nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish hududiy Kengashi.
- B) O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasi.
- C) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.
- D) O'zbekiston Respublikasi Xo'jalik sudi.

## **GLOSSARY**

**1. Soliqlar** – bu tashqi ko‘rinishi jihatidan hukumatning ba-jargan xizmatlari uchun haqdir. Ammo mohiyati jihatidan soliq to‘lovchilar bilan davlat o‘rtasidagi majburiy xarakterga ega bo‘lgan pul munosabatlarini bildiruvchi va davlat pul fondini shakllantiruvchi pul fondidir.

**2. Soliqlarning belgilari:** majburiylik, qat‘iylik, doimiylik, to‘lovchining shaxsan o‘ziga qaytib kelmasligidir. Ammo mamlakat miqyosida hamma to‘langan soliqlar ijtimoiy xizmatlar tariqasida hamma soliq to‘lovchilarga qaytib keladi.

**3. Davlat budgeti** – davlatning eng markazlashgan pul fon-dini tashkil etish va undan foydalanishni ifoda etuvchi pul mu-nosobatlarini anglatadi. U iqtisodiy kategoriyadir. Davlat budgeti daromadlar va xarajatlar balansi shaklida tuziladi. Daromadlar asosan soliqlar va yig‘imlardan tashkil topadi. Xarajatlar esa ijti-moiy sohalarga (maorif, madaniyat, sog‘liqni saqlash, fan, kadrlar tayyorlash, ijtimoiy ta’minot), mehnatkashlarni ijtimoiy himoya qilish, markazlashgan investitsiyalar, davlat xavfsizligini saqlash, mamlakat ichida tartibni saqlash, davlat boshqaruvini tashkil etish, mudofaa va boshqa maqsadlarga yo‘naltiriladi.

**4. Budgetdan tashqari fondlar** – bu davlatning budgetidan tashqarida majburiy tashkil etiladigan fondlaridir. Bunday fond-larga: ijtimoiy sug‘urta badallari hisobidan tashkil etiladigan pen-siya fondi, bandlik fondi, kasaba uyushmalari fondi, davlat mulki qo‘mitasi fondlari kiradi.

**5. Davlat budjeti va budjetdan tashqari fondlar** – makhroiqtisodiy fondlar bo‘lib davlatning jamlangan budgetini tashkil etadi.

**6. Iqtisodiy kategoriyalar funksiyasi** – bu doimiy qaytarilib, uzluksiz harakatda bo‘lgan voqelikni ifodalaydi. Voqelik muhim bo‘lganidan kategorianing mohiyatini ochib beradi. Funksiyasiz kategoriya, kategoriyasiz funksiya bo‘lmaydi. Voqeliklarni faqatgina anglash mumkin, ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydi. Shuning uchun funksiyalar to‘g‘risida bahs bo‘lib turadi.

**7. Soliqlarning funksiyalari** – bular to‘g‘risida yagona fikr yo‘q. Chunki funksiya abstrakt voqelik bo‘lganligi uchun har bir iqtisodchi o‘zini dunyo qarashiga qarab funksiya to‘g‘risida fikr yuritadi. Funksiya to‘g‘risida bahslashuv hozirgacha davom etmoqda. Biz o‘z huquqimizdan foydalanib soliqlarning quyidagi funksiyalari mavjudligini tan olamiz: xazina(fiskal), qayta taqsimlash, rag‘batlantirish, nazorat va xarajatlar to‘g‘risida axborot funksiyalaridir.

**8. Yalpi ichki mahsulot (YaIM)** – bu ma’lum bir davrda (yil) mamlakat ichida yaratilgan barcha tovarlar va xizmatlarning bozor bahosidagi qiymatidir.

**9. Soliq tuzilish tizimi** – bu soliqlarni tashkil qilish uslublari, elementlari va tamoyillari yig‘indisidan iboratdir.

**10. Soliqlarni tashkil qilish uslublari** – bular o‘z navbatida ikkiga bo‘linadi: ixchamlashtirilgan va umumiy tartibda tashkil qilishdir.

**11. Ixchamlashtirilgan soliqlarni tashkil qilish uslubi** – O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosatida 1998-yildan boshlangan uslubdir. Bunday uslubda tashkil qilingan soliqlarga: kichik korxonalarning yagona solig‘i, qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining yagona yer solig‘i va savdo hamda umumiy ovqatlanish tashkilotlarining ixchamlashtirilgan soliqlari kiradi.

**12. Soliq elementlari** – bu soliqlarning biron-bir tomonini ko‘rsatuvchi qismidir. Soliq elementlariga soliq subyekti, obyek-

ti, stavkasi, imtiyozlari, manbai, yuki (og‘irligi) va boshqalar kiradi.

**13. Soliq subyekti** – bu soliq munosabatlarida qatnashuvchi tomonlardir. Bizning soliq qonunchiligidan soliq subyekti soliq to‘lovchi yuridik va jismoniy shaxslardir. Lekin soliq munosabatlarida albatta bir tomonda davlat (uning nomidan soliq xizmati xodimlari) qatnashadi va u soliqlarni yig‘ib o‘zining pul fondiga tushishini nazorat qiladi.

**14. Soliq obyekti** – bu soliq to‘lovchilarning ixtiyorida bo‘lgan daromadlar, mol-mulklar, tovarlar (ishlar, xizmatlar) oborotidir. Soliq kodeksida har bir soliqning o‘z obyekti alohida ko‘rsatib berilgan.

**15. Soliq stavkasi** – soliqni hisoblashda qo‘llaniladigan me’yordir. U soliq to‘lovchining daromadi, mulki, oborotidagi davlatning hissasidir. Soliq stavkasi respublikamiz soliq qonunchiligidagi proporsional, progressiv, nolli va qisman regressiv stavka turlariga bo‘linadi.

**16. Soliq imtiyozlari** – bu soliqlardan qisman, to‘liq, vaqtinchalik yengilliklar berish va soliq bazasini kamaytirish yo‘li bilan imtiyozlar berishni ifoda etadi.

**17. Soliq manbai** – bu soliq nimadan to‘lansa, o‘sha narsa hisoblanadi. To‘g‘ri soliqlarda soliq manbai daromadlardir. Egri soliqlarda esa soliq manbai tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotish oboroti tushumi bo‘ladi.

**18. Proporsional soliq stavkasi** – bunda stavka o‘zgarmasdan daromad, oborot, xarajat oshgan taqdirda ham stavka proporsiyasi o‘zgarmaydi.

**19. Progressiv soliq stavkasi** – bu stavkada daromad yoki boshqa obyekt qiymati oshib borishi bilan birga soliq stavkasi ham oshib boradi. Masalan, bizning soliq qonunchiligidan jismoniy shaxslarning daromadiga soliq bo‘yicha shunday stavka qo‘llaniladi.

**20. Regressiv stavka** – bu soliq stavkasida daromad oshishi bilan yoki soliq obyekti o‘zgarishi bilan soliq stavkasi kamayib boradi.

**21. Soliq deklaratsiyasi** – bu soliq to‘lovchilarning soliq idoralariga o‘zlarining jami olgan daromadi, qilgan xarajatlarit va qonun bo‘yicha soliqdan imtiyozlarini ko‘rsatuvchi yozma ravishda berilgan hujjat – bayonnomadir. Bu hujjat soliqni hisoblash uchun soliq to‘lovchilar tomonidan davlat soliq xizmati idoralariga har yili 1-apreldan kechiktirmay topshiriladi.

**22. Soliq siyosati** – bu iqtisodiy siyosatning ajralmas bir bo‘lagi bo‘lib, davlatning muayyan davrda aniq maqsadlarga qaratilgan soliq sohasidagi faoliyatidir.

**23. Davlatning soliq siyosati** – bu soliq sohasidagi davlatning aniq mo‘ljallangan huquqiy me’yorlar va amalga oshirib borayotgan chora-tadbirlari yig‘indisidir. Davlat soliq siyosatidagi islohotlarni ham bosqichma-bosqich olib bormoqda.

**24. Soliq strategiyasi** – bu davlatning uzoq yillarga mo‘ljallangan soliq sohasidagi yo‘nalishlar yig‘indisidir. Bu strategiya odatda 5, 10, 15 yillarga mo‘ljallab tuzilgan konsepsiylar yig‘indisi shaklida tashkil topadi.

**25. Soliq taktikasi** – bu davlatning soliq strategiyasini ma’lum qisqa muddatlarda(chorak, yil) hayotga tatbiq qilish chora-tadbirlaridir.

**26. Soliq konsepsiysi** – bu soliqlarning yo‘nalishlarini aniq ilmiy asoslangan holda amalga oshirish g‘oyalarining yaxlitligidir.

**27. Soliq siyosati taktikasi** – belgilangan soliq siyosati strategiyasi ijrosini ta’minlovchi, tez-tez o‘zgarib turuvchi harakatlarni bildiradi, ya’ni qisqa muddatli va kichik masshtabli moliyaviy chora-tadbirlarni hal qilishga qaratilgan yo‘nalishlar majmuasi – soliq siyosati taktikasi sifatida qaraladi.

**28. Yuridik shaxslar** – bu o‘z mulkiga ega bo‘lgan va o‘z majburiyatlarini shu mulklar bilan bajaradigan, soliq idoralarida

ro‘yxatdan o‘tgan, bankda hisob raqamiga, mustaqil buxgalteriya balansiga ega bo‘lgan korxona, tashkilot, birlashma va ularning mustaqil shaxobchalariga aytildi.

**29. Soliq to‘lovchilarning identifikatsion raqami (STIR)** – soliq to‘lovchining soliq idoralaridan ro‘yxatdan o‘tganligini ko‘rsatuvchi dalildir.

**30. Rezidentlar** – O‘zbekiston hududida tashkil etilgan va ro‘yxatdan o‘tgan yuridik shaxslar yoki bosh korxonasi O‘zbekistonda joylashgan bo‘lib, O‘zbekistondan tashqarida ro‘yxatdan o‘tgan yuridik shaxslardir. Rezidentlar ham O‘zbekiston hududida ham chet elda olgan daromadlaridan soliq to‘laydilar.

**31. Norezidentlar** – bosh korxonasi O‘zbekiston hududida tashkil etilmagan va korxona filiallari O‘zbekistonda joylashgan yuridik shaxslardir. Norezidentlar faqat O‘zbekiston hududida olgan darormadlaridan soliq to‘laydilar.

**32. Soliq qonunchiligi buzilganda qo‘llaniladigan jazolar (sanksiyalar)** – bu intizomsiz soliq to‘lovchilarga nisbatan soliq qonunchiligi buzilganda beriladigan jazolardir. Ular 3 xil bo‘ladi: ma’muriy, moliyaviy va jinoiy.

**33. Soliq hisobi** – bu har chorakda bir marta o‘sib boruvchi yakun bilan haqiqiy topilgan daromaddan kelib chiqib tuziladigan va buxgalteriya hisoboti topshirgan kunda soliq idorasiga topshiriladigan, korxonaning haqiqiy budgetga to‘lanishi lozim bo‘lgan daromadga solinadigan soliq summasini bildirgan hujjatdir. Yil tugashi bilan yillik soliq hisobi tuziladi va bu hujjat korxona bilan budget ortasidagi munosabatlarni oxiriga yetkazadi, ya’ni hisobot davri oxirida kim kimga qarzdorligi aniqlanadi.

**34. Daromadlilik darajasi** – savdo va umumiyl ovqatlanish korxonasining sof daromadini tovar oborotiga nisbati bilan aniqlanadi.

## **ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: «O'zbekiston», 2009.
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. O'zR Adliya Vazirligi. Rasmiy nashr. – T.: «Adolat», 2014.
3. Soliq va budjet siyosatining 2013-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi, shuningdek, soliq hisobotini taqdim etish davriyiliqi qisqartirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida. // O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to'plami, 2012-yil, 52-son, 584-modda.
4. O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'-risida»gi Qonuni. // Xalq so'zi gazetasi, 29-avgust, 1997-yil.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-3619-sonli Farmoni (2005-yil 14-iyun).
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining 2009-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-1024-sonli Qarori (2008-yil 24-dekabr).
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining 2010-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari

prognozi va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida»gi PQ-1245-sonli Qarori (2009-yil 22-dekabr).

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasining 2011-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida»gi PQ-1449-sonli Qarori (2010-yil 24-dekabr).

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasining 2012-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida»gi PQ-1675-sonli Qarori (2011-yil 30-dekabr).

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasining 2013-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida»gi PQ-1887-sonli Qarori (2012-yil-25 dekabr).

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasining 2014-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida»gi PQ-2099-sonli Qarori (2013-yil 25-dekabr).

12. «Barkamol avlod yili» davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida: O‘zR Prezidentining Farmoyishi. // Xalq so‘zi gazetasi, №238, 9-dekabr, 2009-yil.

13. *Karimov I.A.* 2014-yil yuqori o‘sish sur’atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘ladi. // O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi (manba: <http://www.lex.uz/news/144>).

14. *Karimov I.A.* Bosh maqsadimiz – keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iat bilan davom ettirish.

O‘zbekiston ovozi. Ijtimoiy-siyosiy gazeta. 2013-yil, 19-yanvar. №8 (31.958).

15. *Karimov I.A.* Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik. – T.: «O‘zbekiston», 2005.
16. *Vahobov A., Sirojiddinova Z.* O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti. – T.: TMI, 2002.
17. *Vahobov A., Kosimova G., Jamolov X.* Budget-soliq siyosati yaxlitligi. O‘quv qo‘llanma, – T.: «Iqtisod va moliya». 2005.
18. *Vahobov A.V., Jo‘rayev A.* Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. – T.: «Sharq», 2009.
19. *Jo‘rayev A.S.* Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo‘llari. Monografiya. – T.: «Fan», 2004.
20. *Jo‘rayev A., Meyliyev O., Safarov F.* Soliq nazariyasi. – T.: TMI, 2004.
21. *Jo‘rayev A., Amanov A.* «Soliqlar va soliqqa tortish» fani dan o‘quv-uslubiy kompleks. – T.: TMI, 2007.
22. *Zavalishina I.A.* Soliqlar: nazariya va amaliyot. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi nashriyot uyi, 2005.
23. *Malikov T.S., Haydarov H.H.* Davlat budjeti. O‘quv qo‘llanma. – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2007.
24. *Malikov T.S., Haydarov H.H.* Budget daromadlari va xarajatlari. O‘quv qo‘llanma. – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2007.
25. *Malikov T.S.* Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. – T.: Akademiya, 2002.
26. *Mamanazarov A.* Soliq siyosati. – T.: Moliya, 2003.
27. *Toshmurodova B.* Soliqlar vositasida iqtisodiyotni boshqarish mexanizmi. Monografiya. – T.: «Yangi asr avlodii», 2002.
28. *Toshmurodova B.* Soliq munosabatlarini optimallashtirish. – T.: TMI, 2005.
29. *To‘xliyev B.K., Yusupov O.A., Agzamov A.T., To‘xsanov Q.H.* Soliqlar va soliqqa tortish. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2007.

30. *Haydarov H.H.* Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O'quv qo'llanma. – T.: Akademiya, 2007.
31. *Haydarov H.* Moliya. – T.: Akademiya, 2001.
32. *Xodiyev B.Yu.* va boshq. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralarini» nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2009.
33. *Yahyoyev Q.A.* Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. Darslik. – T.: «Fan va texnologiya», 2003.
34. *Юткина Г.Ф.* Налоги и налогообложения. Учебник. – 5-е изд., перераб. и доп. – М.: ИНФРА-М, 2006.
35. «Soliq va bojxona xabarnomasi» gazetasi. 2007–2014-yil sonlari.
36. «Soliq to'lovchi» jurnali. 2007–2014-yil sonlari.
37. Журнал «Экономическое обозрение». 2007–2012 г.г.
38. «O'zbekiston iqtisodiyoti Axborotnomasi» jurnali. 2007–2012-yil sonlari.
39. «Bozor, pul va kredit» jurnali. 2007–2012-yil nashrlari.
40. «Norma» axborot huquqiy tizimi. 2009–2014-yil nashrlari.
41. *Bakinev A.R., Xusainov R.R.* Bozor iqtisodiyotida soliqlarni o'rni va uni takomillashtirish yo'llari. Uslubiy ko'rsatma. – T.: ToshDTU, 2001.
42. *Toshmuxamedov T.* Soliq: izohli lug'at. – T.: 2003.
43. *Xusainov R.R.* O'zbekistonda soliq va soliqqa tortishdagi o'zgarishlar. // Professor-o'qituvchilarini respublika ilmiy-amaliy anjumani tezislari to'plami. – T.: TDTU, 2003.
44. *Хусаинов Р.Р.* Влияние налоговой политики на использования ОФ предприятия. Восемнадцатые международные Плехановские чтения. Тезисы докладов профессорско-преподавательского состава и специалистов-практиков. – Москва, 2005.

45. Internet saytlari: <http://www.soliq.uz>; <http://www.mf.uz>; <http://www.stat.uz>; <http://www.nalog.ru>; <http://www.press-service.uz>; <http://www.lex.uz>; <http://www.uzland.uz>; <http://www.df.ru/finance>.

|                                                       |    |
|-------------------------------------------------------|----|
| 3.1.1. Jana dars uchun chegaralar                     | 41 |
| 3.1.2. Foyda olib chiqish                             | 41 |
| 3.1.3. Yordam soʻlgan shartnoma                       | 41 |
| 3.1.4. Yordam soʻlgan shartnoma foyda olib qilish     | 41 |
| 3.1.5. Yordam soʻlgan shartnoma foyda olib qilish     | 41 |
| 3.1.6. Yordam soʻlgan shartnoma foyda olib qilish     | 41 |
| 3.1.7. Yordam soʻlgan shartnoma foyda olib qilish     | 41 |
| 3.2. Murojalalar                                      | 45 |
| 3.2.1. Murojalalardan foyda olib chiqish materiallar  | 45 |
| 3.2.2. Murojalalardan foyda olib chiqish materiallar  | 45 |
| 3.2.3. Murojalalardan foyda olib chiqish materiallar  | 45 |
| 3.2.4. Murojalalardan foyda olib chiqish materiallar  | 45 |
| 3.2.5. Murojalalardan foyda olib chiqish materiallar  | 45 |
| 3.2.6. Murojalalardan foyda olib chiqish materiallar  | 45 |
| 3.2.7. Murojalalardan foyda olib chiqish materiallar  | 45 |
| 3.2.8. Murojalalardan foyda olib chiqish materiallar  | 45 |
| 3.2.9. Murojalalardan foyda olib chiqish materiallar  | 45 |
| 3.2.10. Murojalalardan foyda olib chiqish materiallar | 45 |
| 3.2.11. Murojalalardan foyda olib chiqish materiallar | 45 |
| 3.2.12. Murojalalardan foyda olib chiqish materiallar | 45 |
| 3.2.13. Murojalalardan foyda olib chiqish materiallar | 45 |
| 3.2.14. Murojalalardan foyda olib chiqish materiallar | 45 |
| 3.2.15. Murojalalardan foyda olib chiqish materiallar | 45 |
| 3.2.16. Murojalalardan foyda olib chiqish materiallar | 45 |
| 3.2.17. Murojalalardan foyda olib chiqish materiallar | 45 |
| 3.2.18. Murojalalardan foyda olib chiqish materiallar | 45 |
| 3.2.19. Murojalalardan foyda olib chiqish materiallar | 45 |
| 3.2.20. Murojalalardan foyda olib chiqish materiallar | 45 |
| 3.2.21. Murojalalardan foyda olib chiqish materiallar | 45 |
| 3.2.22. Murojalalardan foyda olib chiqish materiallar | 45 |
| 3.2.23. Murojalalardan foyda olib chiqish materiallar | 45 |
| 3.2.24. Murojalalardan foyda olib chiqish materiallar | 45 |
| 3.2.25. Murojalalardan foyda olib chiqish materiallar | 45 |
| 3.3.2. Soʻliq uchun shartnoma                         | 45 |
| 3.3.3. Soʻliq uchun shartnoma                         | 45 |
| 3.3.4. Soʻliq uchun shartnoma                         | 45 |
| 3.3.5. Soʻliq uchun shartnoma                         | 45 |

## MUNDARIJA

|                                                                              |           |
|------------------------------------------------------------------------------|-----------|
| <b>KIRISH .....</b>                                                          | <b>3</b>  |
| <b>I BOB. SOLIQLARNING IQTISODIY MOHIYATI<br/>VA AHAMIYATI .....</b>         | <b>5</b>  |
| 1.1. Soliq tushunchasi. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati .....                | 5         |
| 1.2. Soliqlarning funksiyalari .....                                         | 8         |
| 1.3. Soliq elementlari .....                                                 | 11        |
| 1.4. Soliq imtiyozlarining turlari .....                                     | 13        |
| 1.5. Soliq stavkalarining turlari .....                                      | 16        |
| 1.6. Soliq yuki .....                                                        | 17        |
| 1.7. Soliq mexanizmi .....                                                   | 17        |
| Nazorat savollari .....                                                      | 18        |
| Mustaqil o'zlashtirish uchun chizmali materiallar .....                      | 19        |
| <b>II BOB. SOLIQ TIZIMI VA SOLIQ SIYOSATI .....</b>                          | <b>20</b> |
| 2.1. Soliq tizimi .....                                                      | 20        |
| 2.2. Soliq siyosati .....                                                    | 22        |
| Nazorat savollari .....                                                      | 25        |
| Mustaqil o'zlashtirish uchun chizmali materiallar .....                      | 26        |
| <b>III BOB. YURIDIK SHAXSLAR TO'LAYDIGAN<br/>SOLIQLAR VA YIG'IMLAR .....</b> | <b>28</b> |
| 3.1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i .....                      | 28        |

|                                                                                                                              |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 3.1.1) Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining iqtisodiy mohiyati va soliqqa tortish obyekti.....                   | 28  |
| 3.1.2) Foyda solig‘i to‘lovchilari.....                                                                                      | 30  |
| 3.1.3) Soliq solish obyekti, soliq solinadigan baza, jami daromad tarkibi .....                                              | 30  |
| 3.1.4.) Jami daromaddan chegirmalar.....                                                                                     | 41  |
| 3.1.5. Foyda solig‘i stavkalari .....                                                                                        | 59  |
| 3.1.6. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i bo‘yicha imtiyozlar .....                                                | 61  |
| 3.1.7. Foyda solig‘ini hisoblash, hisobot topshirish va to‘lash muddatlari .....                                             | 63  |
| <b>Nazorat savollari.....</b>                                                                                                | 65  |
| <b>Mustaqil o‘zlashtirish uchun chizmali materiallar .....</b>                                                               | 66  |
| 3.2. Savdo va umumiylar ovqatlanish korxonalarini soliqqa tortish....                                                        | 69  |
| 3.2.1. Savdo va umumiylar ovqatlanish korxonalari uchun umumiy tartib.....                                                   | 69  |
| 3.2.2. Soliq to‘lovchilar .....                                                                                              | 76  |
| 3.2.3. Soliq solish obyekti va soliq solinadigan baza.....                                                                   | 76  |
| 3.2.4. Soliq stavkasi .....                                                                                                  | 80  |
| 3.2.5. Savdo va umumiylar ovqatlanish korxonalari tomonidan yagona soliq to‘lovini qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari.... | 81  |
| 3.2.6. Yagona soliq to‘lovini hisoblab chiqarish, uning hisob-kitoblarini taqdim etish va uni to‘lash tartibi .....          | 83  |
| <b>Nazorat savollari.....</b>                                                                                                | 83  |
| <b>Mustaqil o‘zlashtirish uchun chizmali materiallar .....</b>                                                               | 84  |
| 3.3. Qo‘silgan qiymat solig‘i.....                                                                                           | 86  |
| 3.3.1. Qo‘silgan qiymat solig‘ining iqtisodiy mohiyati, soliq tizimida va davlat budgeti daromadlarida tutgan o‘rni .....    | 86  |
| 3.3.2. Soliq to‘lovchila.....                                                                                                | 88  |
| 3.3.3. Soliq solish obyekti va soliq solinadigan baza.....                                                                   | 89  |
| 3.3.4. Soliq imtiyozları .....                                                                                               | 96  |
| 3.3.5. QQS soliq stavkasi va soliqni hisoblash mexanizmi .....                                                               | 105 |

|                                                                                                                                               |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 3.3.6. Hisob-faktura .....                                                                                                                    | 108 |
| 3.3.7. Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini<br>taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi .....                                   | 112 |
| <b>Nazorat savollari.....</b>                                                                                                                 | 113 |
| <b>Mustaqil o‘zlashtirish uchun chizmali materiallar .....</b>                                                                                | 114 |
| 3.4. Aksiz solig‘i.....                                                                                                                       | 115 |
| 3.4.1. Aksiz solig‘ining soliq tizimida va davlat budgeti<br>daromadlaridagi o‘rni .....                                                      | 115 |
| 3.4.2. Soliq to‘lovchilar tarkibi .....                                                                                                       | 117 |
| 3.4.3. Soliq solish obyekti va soliq solinadigan baza.....                                                                                    | 118 |
| 3.4.4. Aksiz soliq stavkalari .....                                                                                                           | 121 |
| 3.4.5. Aksiz solig‘ini hisoblash .....                                                                                                        | 124 |
| 3.4.6. Hisob-kitobni taqdim etish va soliq to‘lash tartibi.....                                                                               | 126 |
| <b>Nazorat savollari.....</b>                                                                                                                 | 127 |
| <b>Mustaqil o‘zlashtirish uchun chizmali materiallar .....</b>                                                                                | 127 |
| 3.5. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq .....                                                                                 | 128 |
| 3.5.1. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan<br>soliqni to‘lovchilari.....                                                             | 128 |
| 3.5.2. Yuridik shaxslarning mol-mulki solig‘i obyekti, bazasi<br>va soliq solinadigan bazani belgilash tartibi.....                           | 130 |
| 3.5.3. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq<br>bo‘yicha imtiyozlar.....                                                         | 133 |
| 3.5.4. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan<br>soliq stavkasi.....                                                                    | 135 |
| 3.5.5. Yuridik shaxslarning mol-mulk solig‘ini hisoblab chiqarish,<br>soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni<br>to‘lash tartibi..... | 138 |
| <b>Nazorat savollari.....</b>                                                                                                                 | 140 |
| <b>Mustaqil o‘zlashtirish uchun chizmali materiallar .....</b>                                                                                | 141 |
| 3.6. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i .....                                                                                         | 143 |
| 3.6.1. Yer maydonlarining soliqqa tortilishining asosiy sabablari.<br>Yer solig‘ining iqtisodiy mohiyati .....                                | 143 |
| 3.6.2. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lovchilari.....                                                                        | 151 |

|                                                                                                                                                            |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 3.6.3. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i obyekti<br>va soliq solinadigan baza .....                                                               | 152 |
| 3.6.4. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i<br>bo‘yicha imtiyozlar.....                                                                              | 153 |
| 3.6.5. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i stavkalari .....                                                                                         | 158 |
| 3.6.6. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini hisoblab<br>chiqarish va soliq hisob-kitoblarini taqdim etish tartibi.....                             | 161 |
| <b>Nazorat savollari.....</b>                                                                                                                              | 162 |
| <b>Mustaqil o‘zlashtirish uchun chizmali materiallar .....</b>                                                                                             | 162 |
| 3.7. Yer qa’ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus<br>to‘lovlar hamda obodonlashtirish va ijtimoiy<br>infratuzilmani rivojlantirish solig‘i ..... | 164 |
| 3.7.1. Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq .....                                                                                                       | 164 |
| 3.7.1.1. Yer qa’ridan foydalanuvchilar to‘laydigan soliqlar<br>va maxsus to‘lovlar .....                                                                   | 164 |
| 3.7.1.2. Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovchilar.....                                                                                         | 165 |
| 3.7.1.3. Soliq solish obyekti va soliq solinadigan baza .....                                                                                              | 165 |
| 3.7.1.4. Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari.....                                                                                           | 169 |
| 3.7.1.5. Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab<br>chiqarish, hisob-kitoblarni taqdim etish va to‘lash tartibi ...                             | 173 |
| 3.7.1.6. Qo‘sishimcha foyda solig‘i.....                                                                                                                   | 173 |
| 3.7.1.7. Bonuslar.....                                                                                                                                     | 176 |
| 3.7.2. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani<br>rivojlantirish uchun soliq .....                                                                     | 178 |
| 3.7.2.1. Soliq to‘lovchilar, soliq obyekti, bazasi va stavkasi .....                                                                                       | 178 |
| 3.7.2.2. Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini<br>taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi.....                                               | 179 |
| <b>Nazorat savollari.....</b>                                                                                                                              | 181 |
| <b>Mustaqil o‘zlashtirish uchun chizmali materiallar .....</b>                                                                                             | 181 |
| 3.8. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.....                                                                                                     | 183 |
| 3.8.1. Soliq to‘lovchilar.....                                                                                                                             | 183 |
| 3.8.2. Soliq solish obyekti, soliq solinadigan baza va uni<br>belgilash tartibi .....                                                                      | 185 |

|                                                                                                                                                                      |            |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| 3.8.3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari.....                                                                                                  | 187        |
| 3.8.4. Imtiyozlar.....                                                                                                                                               | 188        |
| 3.8.5. Soliqni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi.....                                                                                                            | 189        |
| <b>Nazorat savollari.....</b>                                                                                                                                        | <b>190</b> |
| <b>Mustaqil o‘zlashtirish uchun chizmali materiallar .....</b>                                                                                                       | <b>191</b> |
| 3.9. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi.....                                                                                                                 | 192        |
| 3.9.1. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibini qo‘llash<br>va ushbu tartib qo‘llanilganda ayrim umumbelgilangan<br>soliqlarni to‘lashga doir majburiyatlar..... | 192        |
| 3.9.2. Soliq to‘lovchilar.....                                                                                                                                       | 194        |
| 3.9.3. Mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan<br>yagona soliq to‘lovini qo‘llashning o‘ziga xos<br>xususiyatlari .....                                         | 195        |
| 3.9.4. Soliq solish obyekti va soliq solinadigan baza .....                                                                                                          | 197        |
| 3.9.5. Soliq imtiyozlari .....                                                                                                                                       | 202        |
| 3.9.6. Mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona<br>soliq to‘lovi stavkaları .....                                                                                | 203        |
| 3.9.7. Yagona soliq to‘lovini hisoblab chiqarish, uning hisob-<br>kitoblarini taqdim etish va uni to‘lash tartibi.....                                               | 205        |
| <b>Nazorat savollari.....</b>                                                                                                                                        | <b>205</b> |
| <b>Mustaqil o‘zlashtirish uchun chizmali materiallar .....</b>                                                                                                       | <b>206</b> |

#### **IV BOB. JISMONIY SHAXSLARNING SOLIQQA TORTISH TARTIBI.....** 207

|                                                                            |     |
|----------------------------------------------------------------------------|-----|
| 4.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i.....                  | 207 |
| 4.1.1. Soliq to‘lovchilar.....                                             | 207 |
| 4.1.2. Soliq solish obyekti va soliq solinadigan baza .....                | 208 |
| 4.1.3. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi tarkibi .....            | 209 |
| 4.1.4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad<br>solig‘i stavkaları ..... | 221 |
| 4.1.5. Soliqdan beriladigan imtiyozlar .....                               | 222 |
| 4.1.6. Soliqni hisoblab chiqarish va ushlab qolish tartibi .....           | 232 |

|        |                                                                                                                                                    |     |
|--------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 4.1.7. | Daromadlar to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida soliq solish.....                                                                                    | 234 |
|        | <b>Nazorat savollari.....</b>                                                                                                                      | 239 |
|        | <b>Mustaqil o‘zlashtirish uchun chizmali materiallar .....</b>                                                                                     | 240 |
| 4.2.   | Yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarni soliqqa tortish .....                                   | 241 |
| 4.2.1. | Yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan jismoniy shaxslar .....                                         | 241 |
| 4.2.2. | Soliq to‘lovchilar.....                                                                                                                            | 243 |
| 4.2.3. | Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qat’iy belgilangan soliqni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari .....                                     | 243 |
| 4.2.4. | Savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qat’iy belgilangan soliqni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari ..... | 245 |
| 4.2.5. | Soliq stavkasi.....                                                                                                                                | 246 |
| 4.2.6. | Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qat’iy belgilangan soliqni hisoblab chiqarish hamda to‘lash tartibi .....                                  | 251 |
|        | <b>Nazorat savollari .....</b>                                                                                                                     | 252 |
|        | <b>Mustaqil o‘zlashtirish uchun chizmali materiallar .....</b>                                                                                     | 252 |
| 4.3.   | Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq .....                                                                                          | 254 |
| 4.3.1. | Soliq to‘lovchilar.....                                                                                                                            | 254 |
| 4.3.2. | Soliq solish obyekti va soliq solinadigan baza .....                                                                                               | 254 |
| 4.3.3. | Imtiyozlar .....                                                                                                                                   | 255 |
| 4.3.4. | Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi .....                                                                                 | 257 |
| 4.3.5. | Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi .....                                                               | 259 |
|        | <b>Nazorat savollari .....</b>                                                                                                                     | 260 |
|        | <b>Mustaqil o‘zlashtirish uchun chizmali materiallar .....</b>                                                                                     | 261 |
| 4.4.   | Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i .....                                                                                                  | 262 |
| 4.4.1. | Jismoniy shaxslarning yer solig‘i to‘lovchilari.....                                                                                               | 262 |
| 4.4.2. | Jismoniy shaxslarning yer solig‘i obyekti va bazasi .....                                                                                          | 263 |
| 4.4.3. | Jismoniy shaxslarning yer solig‘i bo‘yicha imtiyozlari.....                                                                                        | 264 |

|        |                                                                                                    |     |
|--------|----------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 4.4.4. | Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari .....                                    | 266 |
| 4.4.5. | Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig‘ini hisoblab chiqarish va soliq to‘lash tartibi ..... | 272 |
|        | <b>Nazorat savollari .....</b>                                                                     | 274 |
|        | <b>Mustaqil o‘zlashtirish uchun chizmali materiallar .....</b>                                     | 274 |
| 4.5.   | Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq.....    | 276 |
| 4.5.1. | Soliq to‘lovchilar, soliq solish obyekti, bazasi va stavkalari .....                               | 276 |
| 4.5.2. | Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliq to‘lash tartibi.....     | 278 |
|        | <b>Nazorat savollari .....</b>                                                                     | 279 |
|        | <b>Mustaqil o‘zlashtirish uchun chizmali materiallar .....</b>                                     | 280 |
|        | <b>Nazorat savollari .....</b>                                                                     | 280 |
|        | <b>Test savollari .....</b>                                                                        | 284 |
|        | <b>Glossariy .....</b>                                                                             | 318 |
|        | <b>Adabiyotlar .....</b>                                                                           | 323 |

XUSAINOV RAVSHAN RAXIMOVICH  
ISXAQOV ABDULAXAT QAYUMOVICH  
URMANOVA DILBARXAN TESHABAYEVNA  
DJURAYEV XAMZAXON ZUNUNOVICH

## MOLIYA VA SOLIQLAR II QISM (SOLIQLAR)

*O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan  
oliy o'quv yurtlarining 5230100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha),  
5230200-Menejment (sohalar bo'yicha), 5230400-Marketing  
(tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishlari uchun  
o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

«Voris-nashriyot»

TOSHKENT

2014

|                          |                        |
|--------------------------|------------------------|
| Muharrir                 | <i>M. Akramova</i>     |
| Badiiy muharrir          | <i>Sh. Xodjayev</i>    |
| Musahhih                 | <i>S. Abdunabiyeva</i> |
| Kompyuterda sahifalovchi | <i>S. Akramov</i>      |

«Voris-nashriyot», Toshkent sh., Navoiy ko'chasi, 30.  
Nashriyot litsenziyasi AI № 195. 28.08.2011.

Original-maketedan bosishga ruxsat etildi 03.10.2014.  
Bichimi 60×84<sup>1/16</sup>. Shartli bosma tabog'i 19,53. Bosma tabog'i 21,0.  
Nashr hisob tabog'i 19,30. Adadi 500 nusxa. Buyurtma № 524.

«NISO POLIGRAF» MChJ bosmaxonasida bosildi.  
Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumani, «Oq-Ota» QFY, Markaz-1 ko'chasi.

**Xusainov, Ravshan Raximovich**

X56

Moliya va soliqlar. II qism (Soliqlar): o'quv qo'llanma. / Xusainov R.R., Isxaqov A.K., Urmanova D.T., Djurayev X.Z. – T.: Tosh-DTU, «Voris-nashriyot», 2014 – 336-b.

ISBN 978-9943-4214-5-5

**UO'K 336(075)**  
**KBK 65.261ya7**

|                                              |     |
|----------------------------------------------|-----|
| 4.4.4. ...                                   | 263 |
| 4.4.5. ...                                   | 272 |
| XUSAINOV, RAVSHAN RAXIMOVICH                 |     |
| 4.5. ...                                     | 276 |
| 4.5.1. ...                                   | 276 |
| 4.5.2. ...                                   | 276 |
| MOLIYA VA SOLIQLAR                           |     |
| 4.6.1. ...                                   | 276 |
| 4.6.2. ...                                   | 276 |
| II QISM                                      |     |
| 4.7.1. ...                                   | 276 |
| 4.7.2. ...                                   | 276 |
| Soliqlar hisob (Soliqlar) MOLIYA VA SOLIQLAR |     |
| 4.8.1. ...                                   | 276 |
| 4.8.2. ...                                   | 276 |
| 4.8.3. ...                                   | 276 |
| 4.8.4. ...                                   | 276 |
| 4.8.5. ...                                   | 276 |
| 4.8.6. ...                                   | 276 |
| 4.8.7. ...                                   | 276 |
| 4.8.8. ...                                   | 276 |
| 4.8.9. ...                                   | 276 |
| 4.8.10. ...                                  | 276 |
| 4.8.11. ...                                  | 276 |
| 4.8.12. ...                                  | 276 |
| 4.8.13. ...                                  | 276 |
| 4.8.14. ...                                  | 276 |
| 4.8.15. ...                                  | 276 |
| 4.8.16. ...                                  | 276 |
| 4.8.17. ...                                  | 276 |
| 4.8.18. ...                                  | 276 |
| 4.8.19. ...                                  | 276 |
| 4.8.20. ...                                  | 276 |
| 4.8.21. ...                                  | 276 |
| 4.8.22. ...                                  | 276 |
| 4.8.23. ...                                  | 276 |
| 4.8.24. ...                                  | 276 |
| 4.8.25. ...                                  | 276 |
| 4.8.26. ...                                  | 276 |
| 4.8.27. ...                                  | 276 |
| 4.8.28. ...                                  | 276 |
| 4.8.29. ...                                  | 276 |
| 4.8.30. ...                                  | 276 |
| 4.8.31. ...                                  | 276 |
| 4.8.32. ...                                  | 276 |
| 4.8.33. ...                                  | 276 |
| 4.8.34. ...                                  | 276 |
| 4.8.35. ...                                  | 276 |
| 4.8.36. ...                                  | 276 |
| 4.8.37. ...                                  | 276 |
| 4.8.38. ...                                  | 276 |
| 4.8.39. ...                                  | 276 |
| 4.8.40. ...                                  | 276 |
| 4.8.41. ...                                  | 276 |
| 4.8.42. ...                                  | 276 |
| 4.8.43. ...                                  | 276 |
| 4.8.44. ...                                  | 276 |
| 4.8.45. ...                                  | 276 |
| 4.8.46. ...                                  | 276 |
| 4.8.47. ...                                  | 276 |
| 4.8.48. ...                                  | 276 |
| 4.8.49. ...                                  | 276 |
| 4.8.50. ...                                  | 276 |
| 4.8.51. ...                                  | 276 |
| 4.8.52. ...                                  | 276 |
| 4.8.53. ...                                  | 276 |
| 4.8.54. ...                                  | 276 |
| 4.8.55. ...                                  | 276 |
| 4.8.56. ...                                  | 276 |
| 4.8.57. ...                                  | 276 |
| 4.8.58. ...                                  | 276 |
| 4.8.59. ...                                  | 276 |
| 4.8.60. ...                                  | 276 |
| 4.8.61. ...                                  | 276 |
| 4.8.62. ...                                  | 276 |
| 4.8.63. ...                                  | 276 |
| 4.8.64. ...                                  | 276 |
| 4.8.65. ...                                  | 276 |
| 4.8.66. ...                                  | 276 |
| 4.8.67. ...                                  | 276 |
| 4.8.68. ...                                  | 276 |
| 4.8.69. ...                                  | 276 |
| 4.8.70. ...                                  | 276 |
| 4.8.71. ...                                  | 276 |
| 4.8.72. ...                                  | 276 |
| 4.8.73. ...                                  | 276 |
| 4.8.74. ...                                  | 276 |
| 4.8.75. ...                                  | 276 |
| 4.8.76. ...                                  | 276 |
| 4.8.77. ...                                  | 276 |
| 4.8.78. ...                                  | 276 |
| 4.8.79. ...                                  | 276 |
| 4.8.80. ...                                  | 276 |
| 4.8.81. ...                                  | 276 |
| 4.8.82. ...                                  | 276 |
| 4.8.83. ...                                  | 276 |
| 4.8.84. ...                                  | 276 |
| 4.8.85. ...                                  | 276 |
| 4.8.86. ...                                  | 276 |
| 4.8.87. ...                                  | 276 |
| 4.8.88. ...                                  | 276 |
| 4.8.89. ...                                  | 276 |
| 4.8.90. ...                                  | 276 |
| 4.8.91. ...                                  | 276 |
| 4.8.92. ...                                  | 276 |
| 4.8.93. ...                                  | 276 |
| 4.8.94. ...                                  | 276 |
| 4.8.95. ...                                  | 276 |
| 4.8.96. ...                                  | 276 |
| 4.8.97. ...                                  | 276 |
| 4.8.98. ...                                  | 276 |
| 4.8.99. ...                                  | 276 |
| 4.8.100. ...                                 | 276 |
| 4.8.101. ...                                 | 276 |
| 4.8.102. ...                                 | 276 |
| 4.8.103. ...                                 | 276 |
| 4.8.104. ...                                 | 276 |
| 4.8.105. ...                                 | 276 |

MOLIYA VA SOLIQLAR

TURKISTON-UDZHA

MOLIYA VA SOLIQLAR

TURKISTON-UDZHA